

A.JABBOROV, S.BEGMATOV,  
M.AZAMOVA

# O'ZBEK MUSIQASI TARIXI



TOSHKENT


85.319(50')  
J-13

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

A.JABBOROV, S.BEGMATOV, M.AZAMOVA

O'ZBEK MUSIQASI  
TARIXI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rtta maxsus ta'lif vazirligi  
tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan*



UO'K: 78(575.1)(09)(075.8)

KBK 85.31g(5O')

J 13

J 13              A.Jabborov, S.Begmatov, M.Azamova, O'zbek musiqasi tarixi. –T.:  
«Fan va texnologiya», 2018, 204+12 bet.

ISBN 978-9943-11-897-3

Darslik bakalavriat ta'lifi o'quv rejasining 3-umumkasbiy fanlar o'quv adabiyoti turkumiga kiradi hamda davlat ta'lim standartlari va namunaviy o'quv dasturi mazmuniga mos. Unda XX asr o'zbek musiqa madaniyatining shakllanish va rivojlanish bosqichlari, musiqiy hayot, bastakorlik va kompozitorlik ijodi, musiqa ta'lim maskanlari, teatr va ijodiy jamoalar faoliyati, san'at namoyandalari, hayoti va ijodi, davr musiqiy janrlarining shakllanishi, ijodiy hamkorlik va o'zbek kompozitorlik muktabi, simfoniya, opera, balet, vokal va kamer-cholg'u janrlaridagi o'zbek kompozitorlarining yaratgan asarlari va rivoji yoritib berilgan.

Darslik musiqa olivy ta'lim bakalavriat tizimining barcha ixtisoslik talabalari uchun mo'ljallangan.

\*\*\*

Данный учебник принадлежит 3-му общепрофессиональному блоку учебной программы, а также соответствует государственно-образовательному стандарту и учебной программе степени бакалавра. В нем раскрыты этапы формирования и развития узбекской музыкальной культуры, музыкальной жизни, творчества бастакоров (мелодистов) и композиторов, музыкально-учебных заведений, деятельности театров и творческих коллективов, жизни и творчества деятелей искусства, формирования музыкальных жанров, творческого сотрудничества и узбекской композиторской школы, произведений узбекских композиторов в жанре симфонии, оперы, балета, а также вокальных и камерно-инструментальных произведениях XX века.

Учебник предназначен для студентов бакалавриата высших специальных учебных заведений.

\*\*\*

This manual Bachelor degree education plan enters the category of the 3<sup>rd</sup> public vacation subjects and it has the same significance as state education standards and exemplary education program.

It contains and shows the next: shaping and developing stage of the 20<sup>th</sup> centuries uzbek music culture, musical life, compassion and composing, music educational places, theatreand art activity, artists and their life and creativity, shaping the period music genres, uzbek: compositing school, symphony, opera, the ballet, vocal and shows the uzbek composers work with khamer – instrument genres.

This manual intended to the all studentsof the Higher Educational Bachelor degree in all specialization.

UO'K: 78(575.1)(09)(075.8)

KBK 85.31g(5O')

Mas'ul muharrir: R.Abdullayev – San'atshunoslik fanlari doktori, professor.

Taqribchilar: I.Ganiyeva – san'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent;

Z.To'ychiyeva – Glier nomidagi RMAI, o'qituvchisi, dotsent.

ISBN 978-9943-11-897-3

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2018.

## KIRISH

Musiqaning sirli dunyosiga kirgan odam, uning mislsiz ummon ekanligini anglashi muqarrardir. Bu ummon - moziydan sadolanishi, tarix davomida zamon va makon qonuniyatları negizida shakllanishi, an'analar kamolotida qadr topishi va qadriyatlarga aylanishi, ijodiyot degan ilohiy ne'mat asosida, jonli ravishda rivojlanib borishi bilan xarakterlanadi. Har bir davr o'zining musiqiy an'analari bilan izohlanishining ham hikmati shundadir. Musiqaning samoviy yoki ilohiy ekanligi qadimiy manbalarda o'z aksini topgan. Insoniyat esa o'z ma'naviyati darajasida o'zining ma'naviy boyliklarini shakllantirib, davrlar osha rivojlantrir kelgan. Bu jarayonda har soha zamonlar evrilishida charxlanib, mukammallahib, yangidan-yangi ijodiy munosabatlar negizida boyib, o'z samarasini namoyon etib kelgan.

Musiqa sohasining azaliy qadriyatlardan zamonaviylik mezonlariga bo'lgan jarayonlarni faqtgina ohanglarda muhrlangan betakror asarlardangina anglash mumkin. Buning esa ko'lami juda keng, ularni tasavvur ham qilish mushkul. Chunki, har bir xalqning o'z ma'naviyati, ma'rifati, estetikasi bo'lib, hayot degan jarayonda milliy hamda mahoratli omillar bilan sug'orilib kelgingan. Buning negizida ikki ulkan tafakkur yo'naliishlari, ya'ni xalq ommaviy musiqasi va tafakkurning individual ijodiy munosabatlarining mahsuli o'rin olgan.

Musiqa san'atining azaliy an'analari Sharq xalqlari madaniyatida shakllanib rivoj topganligi hamda butun bashariyatga ijodiy ta'sir etganligi, fanda o'z ijobatini topgan. Hayot taraqqiyoti jarayonlarida, G'arb madaniyatining o'ziga xos kamol topganligini esa, hozirgi zamon musiqa san'ati ko'lamidan ilg'ab olish mushkul emas. Buning negizida musiqa san'ati va uning ichki unsurlarini professionallik darajada umumlashish bosqichlarini o'tashi, bu jarayonda mutanosib tovush pardalarini uyg'unlashtirish hamda barcha barobar qabul qilishlari kabi mezonlar, umumbashariyat musiqa san'atining go'zal uyg'unlashishiga olib kelganligini e'tirof

etish lozimdir. Natijada, musiqa san'ati ijodiyotida G'arb musiqa san'atiga intilish, o'xshatish, madaniyatiga ergashish kabi munosabatlar yuzaga keldi. Har bir xalq o'zining milliy musiqa san'ati bilan birgalikda, ular asoslangan g'arbona musiqa ijodiyotini shakllantirdilar. Buni, ilk bosqichlarini taqlidiy munosabat ekanligiga ham shubha yo'q. Lekin zamon va makon, mafkura va siyosat, qolaversa, zamonaviy ijodiy munosabatlar yangi yo'naliishlarni vujudga kelishini ta'minlab beradi.

O'zbek xalq musiqa san'ati o'zining milliy jarayonlarida o'ziga xos va mukammal darajada shakllangan betakror xalq va mumtoz musiqa merosiga ega. XX asrga kelib, bu ijtimoiy hayot so'qmoqlarida va musiqa madaniyatimizda yangi yo'naliish joriy etila boshlandi. Bu ana shu g'arb musiqa madaniyatining negizida musiqa ijodiyotini kamol toptirish edi. Qayd etish joizki, har qanday musiqa xalq madaniyatining rivojiga xizmat qilsa, albatta amaliyotda o'z ijobatini topadi. XX asrga kelib O'zbekistonda ham yevropacha tafakkur oqimining ta'siri sezila boshlandi va zamonaviy musiqaning kompozitorlik ijodiyoti ko'rinishida amaliyotda qaror topa boshlandi.

Ushbu darslik XX asr o'zbek musiqa madaniyatining shakllanish va rivojlanish bosqichlari, Oliy ta'lim tizimida o'qitish uchun mo'ljallangan. Darslikning asosiy mazmunini XX asrda O'zbekiston musiqa san'atining yuksalishi bastakorlik an'analari va kompozitorlik ijodining hamda musiqa ta'lim maskanlarining shakllanishi va faoliyatining rivoji, teatrlearning barpo etilishi, ulardagi ijodiy jamoalar faoliyatları, san'at namoyandalarining hayoti va ijodi bayon etilgan. Kompozitorlik ijodiyoti O'zbekistonda yangi oqim. Shu bois bu jarayonni davr musiqiy janrlarining shakllanishi kesimida, faoliyat davomidagi ijodiy hamkorlik va o'zbek kompozitorlik maktabining yuzaga kelishi hamda rivoji xususida alohida mavzular bo'yicha yoritib beriladi. Kompozitorlik ijodiyotining janrlar kesimi juda katta va ularni alohida idrokini ta'minlash lozim bo'ladi. Shuni nazarga olgan holda Davlat malaka talablarida belgilangan va fanning namunaviy dasturlarda ko'rsatilgan mavzular bo'yicha, O'zbekistonda simfoniya, opera, balet, estrada, vokal va kamer-cholg'u janrlaridagi o'zbek kompozi-

torlarining yaratgan asarlari va rivojini asosiy yo'llanmalar kesimida yoritib berildi.

Xususan, darslikda 14 ta mavzu o'rin olgan va ularning har biri zamonaviy modul tizimi talablariga xos uslubda tarkiblashtirishga harakat qilingan. Kirishdan keyingi ilk mavzu, o'zbek musiqa san'atiga bag'ishlangan. Unda O'zbekiston musiqa madaniyati va san'atining asosiy xususiyatlari xususida so'z yuritiladi. O'zbek musiqasi tarixi fanining asosiy maqsadi, musiqa san'atining tarixiy taraqqiyot jarayoni, musiqiy hayoti, bastakor va kompozitorlik ijodiyoti, musiqa san'ati amaliyotidagi janr va shakllari xususidagi fikr va ma'lumotlar bayon etiladi.

Darslikda "XX asr boshlarida o'zbek musiqasi" mavzuiga alohida e'tibor bilan yondashilgan. XX asrning ilk yillarda O'zbekistonda siyosiy-iijtimoiy va madaniy muhitning o'zi yangilanish sharoitlari bilan xarakterlanadi. Markaziy Osiyoda jadidchilik harakati, ulug' namoyandalari va ularning ijodiy faoliyati alohida ahamiyatlidir. Bunda, Yevropa uslubidagi milliy teatr larning bunyodga kelishi ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Mahmudxo'ja Behbudiy, Sadreddin Ayniy, Abdurauf Fitrat, Tavollo, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy va Abdulla Shakuriy kabi namoyandalarining ijodiy faoliyatлari alohida ahamiyatlidir.

O'zbek musiqa sahifalariga kirib kelgan kompozitorlik ijodiyoti boshlanish davrlarida, O'zbekistonda faoliyat olib borgan rus musiqa san'ati namoyandalari va kompozitorlarning ijodini alohida qayd etish joizdir. Asosan XX asrning 20-40-yillarda faoliyat olib borgan mutaxassislar musiqa ijodiyotining yangi yo'nalishini amaliyotga olib kirdilar. Musiqiy folklorni o'rgandilar va uning asosida kompozitorlik janrlarida asarlar yaratish dunyosiga olib kirdilar.

Mana shu jarayon yurtimizda badiiy havaskorlik jamoalarning tashkil topishi, maxsus musiqa o'quv maskanlarning ochilishi, professional teatr larning bunyodga kelishi va o'zbek drama, opera va baletlarining yaratilishi bilan bog'liqdir.

O'zbekiston radiosи va O'zbekiston kompozitorlar uyushmasining tashkil topib, o'z faoliyatlarini boshladilar. Ayniqsa, bastakorlarning yangi avlodи: Hamza, To'xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, Imomjon Ikromov, Komiljon Jabborov, Saidjon Kalonov,

Muxtorjon Murtazoyev, Muhammadjon Mirzayev, Fahriddin Sodiqov, Nabijon Hasanov kabi namoyandalari o‘zlarining yangi uslubbdagi yaratgan asarlari bilan bu soha rivojiga ulkan hissa qo‘shdilar.

1940 va undan keyingi davrlar musiqa ijodiyotining keskin rivojlanishi bilan bog‘liqdir. 40-yillarda o‘zbek kompozitorlarining shakllanishi va ularning kompozitorlik sohasida mustaqil asarlar yaratishning ilk davriga aylandi. 30-yillar ko‘proq milliy kompozitorlarning rus kompozitorlari bilan hamkorlikdagi ijodi bilan xarakterlansa, 40 - yillarda bu jarayonning mustaqil faoliyat boshlanganini ko‘ramiz. M.Ashrafiy, S.Yudakov, M.Burhonov, M.Leviyev, M.Nasimov, I.Hamrayev, Sh.Ramazonov, D.Zokirov, X.Izomov kabi milliy kompozitorlar yetishib chiqdilar.

40-yillar tarixda ikkinchi jahon urushi va qayta tiklanish davri sifatida bitilgan. Vaziyat taqozosi bilan ish yuritilgan. Musiqa ijodiyoti yurt tinchligi uchun xizmat qilgan va respublikamizning eng ilg‘or san’atkorlaridan tuzilgan bir qator konsert brigadalari faoliyat olib borishga muvaffaq bo‘lidilar.

Bu davrning o‘zbek musiqa ijodiyotidagi unutilmas voqealaridan bastakor va kompozitorlar ijodida yaratilgan musiqali drama va operalar, 1941-yili Toshkent xoreografiya o‘quv bilim yurti ochilishi, 1943-yili Muqimiyl nomidagi Respublika davlat musiqali teatr uchun hashamatli, chiroqli, yangi bino qurib bitkazilishini qayd etish lozimdir. Ayniqsa, zamonga moslashtirish va orkestrga taqlididan 1943-yil o‘zbek xalq cholg‘ularni takomillashtirish maqsadida maxsus laboratoriya ochilishi bu sohaning tubdan o‘zgartirilishiga asos bo‘ldi. Unda musiqashunos Ashot Ivanovich Petrosyansning xizmatlari alohida ahamiyat kasb etdi. 1944-yili esa Toshkent davlat teatr va rassomchilik instituti tashkil topdi.

O‘zbek musiqa ijodiyotining XX asr 50-80-yillar davrida, kompozitorlik ijodiyoti va ijrochilik amaliyoti keskin rivoj topadi. Yirik sahnaviy asarlar – opera, balet va musiqali drama va kome-diyalar, vokal-simfonik (romans, syuita, kantata va oratoriya) musiqa, simfonik musiqa (simfonik syuita, simfonik poema va simfonik uvertyuralar), kamer-cholg‘u musiqalari janrlarida skripka, violonchel, truba, fleyta, ovoz uchun konsertlar. Kamer-cholg‘u

musiqasi janrlarida yakka va ansambllar (torli kvartet) o'zbek kompozitorlik ijodida jahon andozalariga mos namunalari yaratildi.

Darslikda o'zbek kino musiqasi, uning so'zsiz kino namunalarining shakllanishidan hozirgi davrdagi turli janrlarni qamrab olgan o'zbek kino san'atining musiqa bilan bog'liq jarayonlarini misollar yordamida keltirib o'tildi.

O'zbek musiqa san'atining ommabop va zamonaviy janrlaridan biri estrada san'atidir. Estrada milliy ijrochilik san'atida o'tgan asrning 20-30-yillardan keng ommalashgan bo'lsada, 50-yillarga kelib yangi zamonaviy oqim shakllana boshlandi. 80-90-yillarga kelib, estradaning rosmana g'arbona janrlari iste'molga kirib keldi va yoshlar orasida keng ommalashdi. Zamonaviy ommaviy janrlarga bo'lgan ushbu san'at turi tez ommalashuvchi xususiyati bilan doimo o'zining muammolarini yaratib kelgan. Bu janrga professional darajada yondashish ushbu janr yutug'inining garovidir. Shu bois darslikka jahon estrada janrining namunalari, o'zbek kompozitorlari ijodida estrada musiqasining purma'no namunalarini shakllanib ijro amaliyotida tutgan ahamiyati borasida fikrlar keltirildi.

O'zbekistonda musiqashunoslik sohasi boshqa sohalar kabi keng qamrovli, ya'ni o'tmisht manbalarini o'rganish (manbashunoslik), etnomusiqashunoslik, organologiya, folklorshunoslik, musiqiy sharqshunoslik, ijrochilik kabi bir qator yo'nalishlarni qamrab olgan. O'tgan asrning 90-yillariga qadar zamonaviy kompozitorlik ijodiyoti musiqashunoslardan tadqiqotlarda keng va samarali ijod etilgan. O'zbek musiqashunoslik mакtabining vakillari musiqaning barcha tarixiy va nazariy tarmoqlarida samarali faoliyat olib borganlar. Bunga O'zbekiston davlat konservatoriysi professor-o'qituvchilari hamda San'atshunoslik ilmiy tadqiqot instituti ilmiy jamoasi o'zlarining hissalarini qo'shganlar.

Darslikda talabalarning har bir mavzu bo'yicha tayyorlanishlari uchun adabiyotlar ro'yxati, mavzuda ko'p ishlatilgan va yo'naltirilgan iboralar, ya'ni tayanch so'zlar, mustaqil tayyorlanishlari uchun savol va topshiriqlar keltirilgan. Talabalar darslikni o'zbek musiqa tarixini o'rganishda rahnamo qo'llanmasida foydalanishlari ko'zda tutilgan. Chunki, asosiy ma'lumotlarni olgandan so'ng, mustaqil o'qish davomida, turli o'quv qo'llanmalar

va maqola hamda nota to‘plamlar orqali yanada ko‘proq ijod mahsullaridan xabardor bo‘ladilar. Musiqani idroklashda kitob mutolaa qilish yaxshi, lekin undan ham ko‘proq ma’lumotni musiqaning o‘zidan olinadi. Shu bois musiqani ko‘proq tinglagan va idroktagan inson ma’nан boy, ruhan tetik va ijodiy barkamollikka intilib yashaydi.

## O'ZBEKISTON MUSIQA MADANIYATI VA SAN'ATINING ASOSIY XUSUSIYATLARI

### Mavzu rejasi:

1. O'zbek musiqasi tarixi fanining asosiy maqsadi.
2. Musiqa san'atining tarixiy taraqqiyot jarayoni, musiqiy hayoti.
3. Bastakor va kompozitorlik ijodi, musiqa san'atining turli janr va shakllari.

O'zbek musiqasi tarixi fanining asosiy maqsadi – musiqa sohasidagi oliy ta'lif muassasalari talabalariga ushbu fandan asosiy bilimlarni berish, o'zbek musiqasi haqida kerakli ma'lumotlarga ega bo'lish, xalq folklor va mumtoz musiqa haqida tushunchaga ega bo'lish, bastakorlik va professional kompozitorlik ijodi bilan tanishish, musiqaning barcha yo'naliishlaridagi janrlarining paydo bo'lishi, rivojlanish etaplari haqida atroficha ma'lumot berish, ularni o'rganish va o'zlashtirishdan iborat.

Dunyodagi har bir xalqning borligidan darak beruvchi omil – bu tilidir. Uning buyukligini ifodalovchi mezon – bu ma'naviyatidir. Demak, ma'naviyatning asosiy tarmoqlaridan biri musiqa ekanligi barchaga ayondir. Musiqa dunyosi juda keng va barcha sohalarga teng daxldor ekanligi bilan boshqa sohalardan farq qiladi. Musiqa dunyosi insoniyatning hayoti, yashash tarzi, faoliyati, mehnati, qadriyati, an'anasi inikos etuvchi vosita sifatida ahamiyatlidir. Shu bois musiqa o'zining badiiy va estetik imkoniyatlariga egaligi bilan xarakterlanadi.

Dunyodagi har bir xalq o'zining qadimiy tarixiga ega bo'lgan musiqiy an'analariga egadir. Shular qatorida o'zbek musiqasi ham juda qadimiy va o'ziga xos an'analariga egadir. O'zbek musiqasi azaldan ikki ulkan yo'naliishda shakllanib, asrlar osha rivojlanib kelgan. Birinchi yo'naliish, bu xalq hayotiy voqe'liliklari bilan bog'liq bo'lgan folklor musiqasidir. Insoniyatning kundalik hayoti, mehnati

va faoliyatini in'ikos etuvchi musiqadir. Folklor musiqasining asosiy mezonlari marosimlar va voqe'liklar bilan bog'liq bo'lib, to'rtta yo'nalishdan iboratdir. Bular:

1. Bolalar musiqasi.
2. Mehnat qo'shiqlari.
3. Marosim qo'shiqlari.
4. Diniy, afsuniy qo'shiqlar.

Amaliyotda har bir yo'nalishga xos va voqe'lik bilan bog'liq bo'lgan janrlar vujudga kelganki, ular asrlar davomida xalqlar milliy an'analarida yuzaga kelgan. Bular – alla, yalla, lapar, terma, qo'shiq, aytishuv kabi janrlardir. Xalq folklor musiqasining asosiy xususitlaridan biri: folklor musiqasini xalq yaratadi, xalq tomonidan ijro etiladi va tinglanadi. Lekin folklor musiqasining ham bilimdon ijrochilar bo'lib, xalq orasida ular laparchi, yallachi kabi nomlar bilan atalib kelinadi. Folklor musiqasining ijrosida va ijodida muayyan janrlar tarkibiga asoslangan erkinlik xususiyatlari mavjuddir. Musiqiy namunalarning shakl jihatidan soddaligi, barmoq vazniga xos she'riy matnlarga asoslanishi va unchalik katta bo'limgan diapazon doirasida ijro etilishi bilan xarakterlanadi.

Ikkinci yo'nalish mumtoz musiqadir. Mumtoz musiqa namunalari, har tomonlama mukammallik kasb etishi bilan folklor musiqasidan farq qiladi. Mumtoz musiqa alohida yaratuvchisi, ya'ni bilimdon bastakori tomonidan ijod etiladi. Bilimli va mohir sozanda yoki xonandalar tomonidan ijro etiladi. Asosan aruz vazniga xos bo'lgan so'z matnlariga asoslab va muayyan shaklda yaratiladi. O'zbek xalq mumtoz musiqasi o'zining mukammalligi va murakkabligi bilan boshqa xalqlar orasida alohida o'ringa egadir. Mumtoz musiqaning eng yirik shakli maqomlardir. Maqomlar O'zbekistonning uch vohasida mavjud bo'lib, Buxoroda "Shashmaqom", Xorazmda "Xorazm maqomlari", Farg'ona vodiysida "Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari" deb yuritiladi. Bundan tashqari, maqomlar yo'llarida yaratilgan, shaklan va ijroviy xususiyatlari doirasi maqomlarga xos bo'lgan "Suvora"lar, Katta ashula, Surnay maqom yo'llari, dutor maqomlari hamda cholg'u yo'llari mavjuddir. Mumtoz musiqaning shaklan muqimligi, qonun-qoidalarga egaligi, talqin uslublarining mavjudligi uning murakkabligidan dalolat beradi.

Maqomlarni ijro etish uchun maxsus tayyorgarlik, bilim va albatta keng diapazonli ovozga ega bo‘lish lozimdir. Maqomlar, odatda bir necha yillar davomida hamda ustoz-shogird qabilidagi ta‘lim asosida o‘zlashtiriladi. Maqomlarni – “sifatsiz ijro etish – deb yozadi maqomdon olim I.Rajabov – maqom yo‘llari haqida noto‘g‘ri tasavvur qoldirishi mumkin”<sup>1</sup>. Bu mumtoz musiqa merosimizning asrlar osha o‘z badiiy va estetik imkoniyatlari saqlab kelishining asosini bildiradi.

Shu bilan birga qayd etish lozimki, “Maqom yo‘llari ijrosi uchun hofizda keng diapozon, yoqimli ovoz va yuksak aytish texnikasi bo‘lishi shart.”<sup>2</sup>

O‘zbek musiqasining ijodiyoti yillar davomida turli janrlar bilan boyib kelgan. XX asrga kelib, bastakorlik an’analariiga xos va jahon musiqa ijodiyoti narmunalariga mos kompozitorlik ijodiyoti kirib keldi. Bu albatta o‘zining yangidan-yangi janrlari, ularni yaratish va ijro etish qonuniyatlari bilan bog‘liqidir.

Kompozitorlik ijodiyoti bilan birga o‘zbek musiqasiga yevropa musiqiy an’analarda mavjud bo‘lgan opera, balet, simfoniya, kamer musiqa, cholg‘u musiqa kabi bir qator janrlarda ijod etish an’anasi kirib keldi. O‘tgan asr davomida bu an’ana o‘zbek musiqiy hayotida o‘z o‘rnini topdi. O‘zbek kompozitorlik muktabi shakllandı, yetuk kompozitorlar tarbiyalanib samarali ijod etdilar. Olamshumul ahamiyatga ega bo‘lgan musiqiy asarlar yaratdilar.

Bu jarayon ham o‘ziga xos shakllanish va rivojlanish bosqichlarini o‘taganini qayd etish lozimdir. Chunki, bu an’ana avvalo rus musiqashunos va kompozitorlari tomonidan boshlab berildi, so‘ngra milliy an’analarni saqlash maqsadida, bastakorlar bilan kompozitorlarning hamkorlik davri ham o‘z mevasini berdi. 1930-yillarning oxiridan o‘zbek kompozitorlik ijodiyoti o‘zini ko‘rsata boshladi va tez orada kompozitorlarning yangi avlodи tarbiyalandi. Eng muhimi kompozitorlikning barcha janrlarida o‘zbekona ohanglarga ega bo‘lgan milliy ruhdagi asarlar yaratilib, jahon sahnalarida o‘zini namoyon etib kelmoqda.

Ushbu fan bo‘yicha talabalar mukammal ravishda musiqiy san’atning tarixiy taraqqiyot jarayoni, Vatanimizning musiqiy

<sup>1</sup> I.Rajabov. “Maqomlar masalasiga doir”. T.: 1963 y. 268 b.

<sup>2</sup> Shu manba. 269 b.

hayoti, bastakorlar va kompozitorlarni yillar davomida, musiqiy san'atning turli janr va shakllarida yaratgan asarlari, ijrochi namoyandalar ijodiy faoliyatları, bosqichma-bosqich rivojlanish jarayoni, ijodkorlarni noyob asarlariga tahlil qilish borasidagi bilim va ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Musiqa sohasida ta'lif olayotgan har bir sozanda, xonanda va ijodkorlar o'z musiqa an'analarini bilib olishlari va kelgusida avlodlarga xos an'anani munosib davom ettirishlarida "O'zbek musiqasi tarixi" fanida olgan saboqlari albatta dasturi amal bo'lib xizmat qiladi. Zero, xalq musiqasi, bu hayot manbai, ijod manbai, ruh ozug'i, millat ko'zgusidir.

**Tayanch so'zlar:** bastakor, kompozitor, folklor, mumtoz musiqa, an'ana, sozanda, xonanda, ijodkorlik, ijrochilik.

### **Mavzu bo'yicha savollar:**

1. O'zbek musiqasi tarixi fanining asosiy maqsadi nimadan iborat?
2. Musiqa dunyosining insoniyat hayotidagi o'rni, ta'siri, vazifasi, ahamiyati xususida misollar bilan so'zlab bering.
3. Qadimiy hisoblangan o'zbek musiqa merosining o'ziga xos an'analarini va uning tarkibidan o'rinni olgan ikki ulkan yo'nalish xususida ma'lumot bering.
4. O'zbek folklor musiqasida mavjud bo'lgan va asosiy mezon hisoblangan yo'nalish nechta va ularning xususiyatlari qanday?
5. XX asrga kelib, o'zbek bastakorlik an'analariga xos bo'lgan hamda jahon musiqa ijodiyoti namunalariga mos kompozitorlik ijodiyoti o'zbek musiqa merosiga qachon kirib kelgan?
6. Kompozitorlik ijodiyoti bilan birga o'zbek musiqasiga yevropa musiqiy an'analariga xos qanday professional janrlar kirib kelgan?

### **Mavzu bo'yicha topshiriqlar:**

1. O'zbek musiqasi tarixi yoritilgan adabiyotlar bilan tanishib chiqish.

2. Musiqa dunyosining insoniyat ma'naviyatida turgan o'rni va ahamiyati xususida bayon yozing.
3. Musiqa merosining ikki ulkan yo'nalishi va o'ziga xos an'analarini yoritib bering.
4. O'zbek folklor musiqasining yo'nalishlarini o'zlashtiring.
5. O'zbek kompozitorlik ijodiyotini bastakorlik an'analaridan faqini asoslang.
6. Kompozitorlik ijodiyotidagi janrlarni aniqlab ularga xarakteristika bering.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz.—T.: 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi. (elektron versiyasi).
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.—T.: 2008.
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.—T.: 2005.
5. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir.—T.: 1963.

## **XX ASR BOSHLARIDA O'ZBEK MUSIQASI**

### **Mavzu rejasi:**

1. O'zbekistonda XX asr boshlarida siyosiy-ijtimoiy va madaniy muhit.
2. O'rta Osiyo xalqlari Rossiya imperiyasi mustamlakachilik changalidan ozod bo'lishda jadidchilik harakatining paydo bo'lishi va mohiyati.
3. Jadidchilik harakati ulug' namoyandalarining ijodiy faoliyatি. Jadidchilarning matbuot va ma'rifiy faoliyatি.
4. Milliy uyg'onish davridagi o'zbek san'ati. Yevropa uslubidagi milliy teatrning bunyodga kelishida jadidlar roli.
5. O'zbek xalqining musiqiy merosi va uning XX asr rivojinining asosiy bosqichlari.

XX asr, umum insoniyat tarixida eng murakkab ijtimoiy-siyosiy voqealarga boy, ilm-fan va texnikaviy taraqqiyotning keskin rivojlanish asri sifatida tarixga muhrlandi. Mazkur davrda Yevropa, Amerika va Rossiyada ilm-fan rivojlanishi bilan birga harbiy to'qnashuvlar va qurollanish avj ola boshladi. Shu sababli, Yevropadagi ayrim taraqqiy etgan davlatlar tomonidan XVII asrdan boshlab olib borilgan mustamlakachilik siyosatlari natijasida Afrika, Hindiston, Osiyo va Yaqin Sharqdagi bir qator davlatlar, zo'ravonlik urush yo'li bilan ularni qo'li ostida bo'lib qolgani kabi, Turkiston ham XIX asrning ikkinchi yarmidan harbiy kuchlar orqali Chor Rossiyasi podshohligi tasarrufiga o'tdi.

Rus aholisi va harbiylarining ma'naviy va madaniy talablarini qondirish uchun Yevropa, Rossiya va Kavkazdan turli teatr, ijrochi jamoalar, mashhur xonanda va sozandalar tez-tez gastrol safarlariga kelib turadigan bo'lilar. 1884-yilda tashkil etilgan "Туркистанское музыкально – театральное общество" jamiyati bunga bevosita o'z faoliyatini bag'ishladi va Yevropa, rus musiqa va teatr san'atlarini O'rta Osiyoda keng targ'ib qilishda muhim rol o'ynadi. Shu bilan

birga, rus ziyolilarining orasida turli musiqiy va teatr badiiy havaskorlar va professional jamoalarining paydo bo'lishiga ko'maklashdi. O'lkamizda turli san'at jamoalari, kutubxona va muzeylar ochildi.

Madaniy hayotda ham ayrim siljishlar yuz bera boshladi. Mana shunday tarixiy muhitda O'rta Osiyo xalqlari XX asrga qadam qo'ydi. Garchand XX asrning boshlarida ham O'rta Osiyo xalqlarining taqdiri Rus imperiyasi va boshqa davlatlar tarixida sodir bo'lgan voqealar, harakatlar, o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lsada, xalq hayotida o'zgarishlar ozodlik uchun kurashlar olib borilganligi tarixdan ma'lumdir. Shoirlar ijodida adolatsizlikka qarshi, kirdikorlarni fosh etuvchi hamda ozodlik nafasi barq uruvchi adabiy asarlar yaratila boshlandi. Bu albatta mudroq xalqni milliy-ma'naviy o'yg'otish, erk va ozodliklari uchun intilishlarini kuchaytirish yo'lida ijobiy ta'sirini ko'rsatdi.

XX asrning boshida boshlangan Turkistonda milliy ozodlik harakati 1905-yildagi voqealardan so'ng jonlanadi. Eng muhim masala, inson huquqlarini himoya qilish, demokratik g'oyalarni xalq ongiga singdirish, ma'rifat va ma'naviyat ishlarini yo'lga qo'yish zaruriyat edi. Bu o'rinda ma'rifatparvar shoirlarning ijodiy faoliyatida shakllangan "Jadidchilik" (arabchadan "yangilik") harakati alohida ahamiyat kasb etdi.


O'rta Osiyoda jadidchilik harakatining asoschisi **Mahmudxo'ja Behbudiy** (1874 – 1919), jamiyat a'zolari bo'lgan shoirlar: **Sadriddin Ayniy, Abdurauf Fitrat, Tavallo, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Shakuriy** va boshqalar bilan bирgalikda jadidchilik harakatini oldiga qo'ygan maqsadi hamda vazifalar masalasi to'g'risida bir to'xtamga kelindi.

Jadidchilik harakatining asosiy maqsadi va dasturi xususida N.Karimov o'zining "Jadidchilik nima?"<sup>3</sup> maqolasida batafsil bayon qiladi. Xususan jadidchilik harakatining to'rt asosiy maqsadini keltiradi.

Jadidchilik g'oya va harakati yildan-yilga avj oldi va mahalliy xalqlar orasida ommalasha bordi. Chunki, ular chorizm siyosatining xalq erkinligiga, milliy o'yg'onishiga qaratilgan mohiyatini

<sup>3</sup> N.Karimov "Jadidchilik nima". // "San'at", 1990 № 12. 1991 № 1.

fosh qilar edilar. Ma'rifatparvar shoirlarning qalami o'tkir, eng muhimi xalq ozodligini kuylovchi she'riy va badiiy asarlari, sahnnaviy namoyishlari, oddiy xalqqa ozodlik kurashi qanchalar zarur ekanligi va uning mohiyati xususida oddiy va sodda ma'lumotlar bilan ta'minlar edi.



### Jadidchilik harakati namoyandalari:

Ma'rifat nurini va vatan tuyg'usini targ'ibot etishda va amalda joriy qilishda, jadidchilik harakatining rahbarlaridan biri **Abdulla Avloniyning** (1873 – 1934) ijodini alohida qayt etish lozimdir. U 1904-yilda Toshkentning Mirobod mahallasida yangi usulli jadid maktabini ochdi, o'zi unga mudirlik va o'qituvchilik qildi. 1909-yilda kambag'al, yetim - yesirlarga ko'mak beruvchi "Jamiyat xayriya" uyushma tashkil qiladi. "Turkistonda birinchilardan bo'lib, adabiyotshunos olim B.Nazarov – maktabga Avloniy geografiya, kimyo, handasa, fizika fanlari kiritilishiga ta'sir ko'rsatdi, ta'limni real turmush bilan bog'lashga intiladi, bir dars bilan boshqasi o'rtasida muayyan tanaffusni, bir sinfdan ikkinchisiga o'tishdagi imtihonni joriy etdi, ta'lim tizimining dunyoviy yo'nalishini kuchaytirishga alohida e'tibor berdi. Uning "Birinchi muallim" (1909), "Ikkinchi muallim" (1912) nomli darsliklari hamda "Turkiy guliston yoxud axloq" (1912) nomli qo'llanmasi o'z davrida

yoshlarni yangicha yo‘nalishda o‘qitish va an’anaviy milliy ruh asosida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. U yaratgan 5 to‘plamdan iborat “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” (1909 – 1916) maktablarda qo‘llanma vazifasini o‘tadi.

Abdulla Avloniy ko‘plab she’rlar, she’riy to‘plamlar muallifidir. Uning she’riyatida vatanparvarlik, ma’rifatparvarlik va milliy – ozodlik taronalari alohida o‘rin tutadi. Masalan, bolalarga bag‘ishlangan “Vatan” (1916) she’rida dunyodagi eng ulug‘ va muqaddas tushuncha vatandir, vatanga sadoqatli bo‘lmoq har bir insonning vijdoniy burchidir, degan g‘oyani ilgari suradi<sup>4</sup>.

Ushbu harakat faoliyatida shoir, dramaturg va adabiyotshunos olim **Abdurauf Fitrat** (1886 – 1938)ning ijodini alohida e’tirof etish lozimdir. U jadidchilik harakatining asoschilari va rahbaridan biri edi. O‘rta Osiyoda eski maktabni va maorifni isloh etish, yangi usulli jadid maktabini hayotga joriy etish g‘oyalarni ilgari surdi, jamiyatni, xususan Buxorodagi tuzumni keskin tanqid ostiga olib, turli omma harakatlarida faol qatnashdi. Uning dunyoqarashida ma’rifatparvarlik va vatanparvarlik g‘oyalari yetakchilik qildi.

Xususan Abdurauf Fitratning musiqa san’atiga qo‘sghan hissasi alohida e’tirofga loyiqdir. 1921-yili Buxoroda Sharq musiqa maktabini tashkil etib, uning birinchi rahbari bo‘lgan. Maktabga mumtoz musiqa bilimdonlari (sozanda va xonandalar) bilan birga Viktor Aleksandrovich Uspenskiy singari musiqashunoslarni ham taklif etgan. U shu vaqtidan boshlab “Shashmaqom” kuylarini to‘plash va notaga yozib olish ishlariga rahbarlik qildi.

Fitrat tashabbusi bilan Ota Jalol Nosirov va Ota G‘iyos Abdug‘anilardan Buxoro Shashmaqomi Viktor Uspenskiy tomonidan ilk bor notaga olinib, nashr etildi (1924). Bundan tashqari, Fitrat “Shashmaqom”, “O‘zbek musiqasi to‘g‘risida” deb nomlangan maqolalari hamda “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” (1927) risolasi bilan XX asr o‘zbek musiqashunoslik fanini boshlab berdi.

Atoqli shoir, dramaturg, bastakor va jamoat arbobi **Hamza Hakimzoda Niyoziy** (1889 – 1929) ham ijodiy faoliyatining ilk davrida Nihoniyl taxallusi bilan turli mavzu va shakllarda she’rlar

<sup>4</sup> XX asr o‘zbek adabiyoti, 11 sinif uchun darslik, T.: “O‘qituvchi”, 1995 y., 35- bet.

yozdi. Hamza 1913-yilda Toshkentning Qashqar mahallasida yangi “Jadid” maktabini ochdi.

1915 – 17-yillar orasida muallif “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar” nomli majmuani yaratdi. “Oq gul”, “Qizil gul”, “Pushti gul”, “Savsar gul”, “Sariq gul”, “Yashil gul” va “Atir gul” nomlari bilan to‘plamga kiritgan she’riy turkumlari omma o‘rtasida keng tarqaldi.

Hamzaning mazkur “Milliy she’rlar”ida ilgari surilgan g‘oya O‘zbekiston milliy mustaqillikni qo‘lga kiritib, taraqqiyot uchun kurashayotgan bugungi kunda ham katta ahamiyatga ega”<sup>5</sup>.

Xullas, jadidchilik harakati paydo bo‘lishi bilan chor Rossiya ma’muriyati va mahalliy muttasiblar va “qadimiy”larning qattiq qarshiligiga duch keldi. Shunga qaramay, jadidchilikning g‘oya va harakatlari yildan-yilga avj ola boshladi va mahalliy xalqlar orasida ommalasha bordi. Ayniqsa, jadidchilar harakati va uning namoyandalari adabiyot va san’at an’analarini davom etish bilan yangi uslubli milliy teatrni barpo etishga ham katta ahamiyat berdilar. Yevropa uslubidagi milliy teatrning ravnaq topishida O‘rta Osiyo jadidchilar harakatining tashkilotchisi, Mahmudxo‘ja Behbudiy birinchilardan bo‘lib, 1911-yilda “Padarkush” nomli pyesani yozdi. 1914-yili Samarqandda o‘zi tashkil qilgan havaskorlar teatrida, bu fojiali asarni ozarbayjonlik rejissyor Aliasqar Asqarov sahnalashtirdi. “Padarkush”ning sahnada ko‘rsatilishi katta madaniy voqeaga aylanib ketdi. Spektakl tez orada Toshkent, Kattaqo‘rg‘on, Qo‘qon, Andijon, Namangan, Farg‘ona, Buxoro shaharlarida namoyish qilindi<sup>6</sup>.

“Padarkush” fojiali spektaklining asosiy g‘oyasi ma’rifatparvarlikka qaratilgan jamiyatdagi barcha baxtsizlik, zamon talab

<sup>5</sup> “XX asr o‘zbek adabiyoti” 11 sinfi uchun darslik. T.: “O‘qituvchi”, 1995 y., 82-bet.

<sup>6</sup> “Padarkush” (Yoxnid o‘qimagan bolaning holi, Turkiston hayotidan olingan ibratnoma, uch parda to‘rt manzarali, milliy birinchi fojia) spektaklining qisqa mazmuni shundan iborat: katta mulkdor boy Toshmurod ismli yolg‘iz o‘g‘lini erka o‘stirib maktabga bermaydi. Savodini chiqarishni istamaydi. Bundan achingan domla uning huzuriga kirib amri ma‘rif qiladi. Ammo boy uning nasihat gaplariga ensasi qotib qulq solmaydi. Domlaga javoban: “Ey domla! Siz menga tabqiqchi-mi? O‘g‘il maniki, davlat maniki. Sizga nima! O‘qig‘onni biri siz. Yemoqqa noningiz yo‘q. Bu bolingiz ila menga nasibat qilasiz. Mirzasi Xayrulloni chaqirib uyqum keldi, joy tayyorla” deb, domlani haydagandy qilib jo‘natadi. Bir oz vaqt o‘tgandan so‘ng Ovrupocha kiyinigan, o‘rischa o‘qigan ziyyoli boyinika keladi va nasihat qiladi. Unga ham domlaga berilgan javob beriladi. Natijada, o‘qishda-to‘qishda yo‘q o‘g‘li Toshmurod axloqsiz bo‘lib o‘sadi, bezori Tangriqul va uning hamtovoqlari bilan oshni bo‘ladi, Maishat, ichimlik va qinorga berilib ketadi. Restoranda maishat paytida puli yetmay qoladi. Tunda Toshmurod do’sti Tangriqul bilan otasini pul omonatini o‘g‘irlash paytida, otasi uyg‘onib qoladi va o‘z padarini o‘ldirishga yordam beradi. Oqibatda sheriklari bilan qo‘lga olinib Sibirga qamoqqa jo‘natiladi.

qilayotgan ilmlarni egallamaslik tufaylidir. Mazkur drama XX asr o'zbek adabiyoti va milliy teatri tarixida chuqur iz qoldirish bilan bir qatorda, yozuvchi va san'at ahliga ijobiy ta'sir qilib ibrat maktabini ham o'tadi.

Shuni ayтиб o'tish joizki, XX asrning boshlarida Turkistonda yangi usulli ustoznavozlik milliy teatrining barpo etilishida, rus teatridan tashqari, ayniqsa qozon, tatar va ozarbayjon teatrlarining o'lkamizga 1910-yillardan boshlab drama, 1914-yildan esa Ozarbayjon musiqali teatrlarining gastrolga safari ulkan madaniy voqeaga aylanar edi va o'zbek ziyolilariga katta tassurot qoldirardi. Ular ham milliy teatrni barpo etishni orzu qildilar. Ozarbayjon musiqali teatrining gastrollari davrida ulug' kompozitor Uzeir Gadjibekovning "Layli va Majnun", "Asli va Karim" operalari, "Arshin Molchi" hamda "U o'lmasin, bu o'lsin" kabi musiqali komediylarini o'zbek tomoshabinlari zavq bilan tomosha qildilar. M.Behbudiyning "Padarkush" dramasidan keyin Turkistonda o'zbek yozuvchilari birin-ketin turli mavzularda pyesalar yoza boshladilar va ko'p mahalliy havaskorlik teatr jamoalarini tuzdilar. O'lkamizda 1911-yildan to 1917-yilga qadar o'zbek shoir, dramaturglari tomonidan quyidagi pyesalar yozildi va sahnalaشتirilgan edi: Sh.Xurshidning "Bezori", "Terakxo'r", "Qora xotin", "Orif va Maruf"; A.Samadovning "Mahramlar"; Xoji Muin Shukrulloning "Mazluma xotin", "Juvonbozlik qurbanbi", "Qozi ila mulla", "Eski mакtab, yangi maktab"; Abdulla Badriyning "Juvonmarg", "O'gay ota", "Bo'yvachcha", "Saodat bitdi"; Abdulla Avloniyning "Advokatlik osonmi", "Pinak"; Abdulla Qodiriyning "Baxtsiz kuyov"; Hamzaning "Zaharli hayot", "Feruzaxonim", "Ilm hidoyati", "Mulla Normuhammad domlaning muf xatosi", "Loshmon fojiasi"; Abdurauf Fitratning "Begi jon" va boshqa asarlar yaqqol misol bo'la oladi. Xullas, Turkistonning yirik shaharlarida bunyodga kelgan havaskorlik teatrlari va ayniqsa, Toshkentda Mannon Uyg'ur tashkil qilgan "Turon" teatrining faoliyati olqishga sazovor bo'lди. Kundan-kunga, yildan-yilga teatrlar ijodiy faoliyati saviya jihatidan yuksala bordi va kelgusida juda ko'p iste'dodli yoshlар o'zlarining hayot taqdirlarini teatr va musiqiy san'atlar bilan bog'ladilar.

O'zbek xalqining musiqa merosi boy an'analarga va qadimiy tarixga egadir. Uning davrlar osha rivoji, xalq musiqasi va mumtoz musiqasi negizida rivoj topib kelganligi amaliyotdan ma'lumdir. Musiqa san'ati insoniyatning ma'naviy boyligi, estetik dunyoqarashi va kelajak kamolotini belgilovchi mezonlardan biri sifatida ardoqlanib kelinadi. Unda har bir xalqning milliy an'analari, urfodatlari, marosim va qadriyatlar munosib o'rinni olgan. Musiqa ijrochiligi, xalq musiqa madaniyatining shakllanib, rivoj topuvchi jonli jarayoni ekanligi hammaga ma'lum. Uning namoyandalari bo'lmish sozanda, xonanda va bastakorlar xalq madaniyatining o'ziga xos mutasaddilari sifatida e'zozga loyiqlik ko'rilib. Bu borada o'tmish risolalarida ham tarixiy ma'lumotlar zikr etib kelingan. Abu Nasr Farobiyning "Katta musiqa kitobi", Zaynullobiddin Husayniyning "Qonuni ilmi, amali musiqi", Abdurahmon Jomiyning "Risolai musiqiy", Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois", Darvesh Ali Changiyuning "Musiqa risola"lari bunga yorqin misoldir.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida o'zbek musiqa san'ati, azaliy an'analar negizida yangicha munosabatlardan davri sifatida tarixga muhrlandi. Davrning yetakchi hofizlari Hamroqul qori, Hoji Abdulaziz Adurasulov, Mulla To'ychi Toshmuhammedov, Domla Halim Ibodov kabi namoyandalarining ijodlari, ijrochilik uslublari mumtoz musiqa an'analariga asoslangan. 1920-yillardan boshlab xonanda va sozandalarning yangi avlod shakllandi.

O'zbek musiqasining XX asr jarayonida, zamon talabi doirasida keskin rivojlanganligi tuzumning o'zgarishi, yangi munosabatlarni yuzaga kelganligi bilan bog'liqdir. Buning zaminida eng avvalo yevropa madaniyatining kirib kelishi va unga asoslangan holda turmush tarzini shakllanganligi hamda musiqa ijodkorlarining yangi avlod tarbiyalanganligi bilan bog'liqdir.

XX asr o'zbek musiqa ijodiyoti yangi avlod shakllanishi bilan bog'liqdir. Uning shakllanish mezonlari va rivojlanish yo'lining o'zbek kompozitorlik ijodi hamda zamonaviy musiqa san'atining ommalashishi bilan bog'liq bir qator omillari mavjuddir. Shunga ko'ra XX asr o'zbek musiqasi rivojlanish jarayonini uch bosqichga bo'lib tahlil qilish o'rindir.

## O'zbek musiqasi tarixi rivojlanish bosqichlari

XX asr o'zbek musiqa ijodiyotining shakllanishi, O'zbekistonda yashab ijod etgan rus kompozitorlari ijodi

Rus kompozitorlari va o'zbek bastakorlarining hamkorlikdagi ijodiyoti

O'zbek kompozitorlarining ijodi. Jahon andozalariga mos o'zbek kompozitorlarining ijodi, ijrochilik an'analarini rivojlanishi.

### Tayanch so'zlar:

Tarix, musiqa, jadidchilik harakati, gastrol, ma'naviyat, madaniyat, san'at, arxeologiya, davr, folklor, musiqiy teatr, klassik musiqa, drama, spektakl, musiqali drama, risola, musiqiy risola, sozanda, xonanda, bastakor, mumtoz musiqa, kompozitor, kompozitorlik ijodi.

### Mavzu bo'yicha savollar:

1. Turkistonda milliy ozodlik harakati qachon boshlangan?
2. Milliy ozodlik harakati uchun katta hissa qo'shgan guruh nomini ayting.
3. Rossiya musulmonlari dunyosida jadidchilik harakatining asoschisi kim bo'lgan?
4. Jadidlar harakatining asoschilaridan biri, olim Abdurauf Fitrat qalamiga mansub milliy musiqaga oid asar nomini ayting.
5. Hamzaning "Oq gul", "Qizil gul", "Pushti gul" kabi she'riy turkumlari qaysi nomdagi to'plamdan joy olgan?
4. Mazkur davrda shakllangan yangi uslubli teatrlarning vujudga kelishiga qanday sabablar omil bo'lgan?

7. XX asr boshidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotni o‘rganish uchun xizmat qiluvchi manbalarni aytинг.

### **Mavzu bo‘yicha topshiriqlar:**

1. XX asr boshida Turkistonda yuz bergan siyosiy voqealar xususida ma’lumot to‘plash.
2. Milliy ozodlik harakatiga oid ma’lumotlar, jadidchilik harakati va uning yorqin namoyandalari, o‘zbek san’atiga qo‘sghan hissalarini xususida ma’ruzalar tayyorlash.
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasidan jadidchilik va jadidchilarga oid ma’lumotlar to‘plash.
4. XX asr yetakchi sozanda, xonanda va bastakorlari ijodi bo‘yicha ma’lumotlar to‘plash.
5. Ushbu davr va hozirgi zamonaviy teatr larning qiyosiy tahlilini qilish.

### **Foydalanaligan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi (elektron versiyasi).
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: 2008.
4. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. T.: 2002.
5. История музыки народов Средней Азии и Казахстана. – М.: 1994.
6. O‘zbek musiqasi tarixi. –T.: 1981.
7. XX asr O‘zbek adabiyoti. Darslik. T.: 1995.
8. Karimov N. ‘Jadidchilik nima’ //San’at. –T.: 1990, № 12. 1991, № 1

## **XX ASRNING 20-40-YILLARIDA MADANIY-MUSIQIY HAYOT**

### **Mavzu rejasi:**

1. Ijtimoiy va musiqiy-madaniy muhit. Badiiy havaskorlik jamoalarning tashkil topishi va professional san'atning rivojlanish jarayoni.
2. Respublikada maxsus musiqa o'quv maskanlarning ochilishi, faoliyati.
3. Professional teatr larning bunyodga kelishi. Ilk o'zbek drama, opera va baletlari.
4. O'zbekiston radio eshittirish komiteti tashkil topishi va musiqiy targ'iboti.
5. Radio va O'zbek davlat filarmoniyasi qoshidagi ijrochi jamoalar faoliyati.
6. Bastakorlik san'ati namoyandalari. O'zbekiston kompozitorlar uyushmasining tashkil topishi va faoliyati.

1918-yildan boshlab madaniyat va san'at ishlarini davlat o'z ixtiyoriga oldi. Milliy madaniyat va san'atni yuksaltirish sohasida hokimiyat turli qarorlar qabul qildi va ularni amalda joriy etishga astoydil kirishdi.

1919-yilda Turkiston respublikasi Xalq maorif tashkiloti qaramog'ida teatr bo'limi ochildi va uning zammaiga quyidagi vazifalar yuklandi:

1. Respublikadagi jamiki teatr ishlariga umumiy rahbarlik qilish.
2. Havaskor va professional ijodiy jamoalarning ish faoliyatini yuksaltirish va repertuarlarini boyitish.
4. Respublika bo'y lab muntazam ravishda markaz va viloyatdagi tomoshabinlarga doimiy ravishda gastollar uyushtirish.

Mazkur bo'limning boshlig'i lavozimiga Iskandar Valijonov tayinlandi. 1920-yil 28-aprelda "Musiqa – etnografiya" bo'limi ham

ochildi. Bu bo‘limga atoqli kompozitor va etnograf (kelgusida O‘zbekiston va Turkmaniston xalq artisti) V.A.Uspenskiy, uning o‘rinbosari qilib atoqli kompozitor - etnograf N.N.Mironov va bo‘lim xodimi etib, atoqli shoir - dramaturg G‘ulom Zafariylar tayinlandi. Zikr qilingan ikki bo‘lim birgalikda reja asosida ish olib borib, o‘zbek xalqini musiqiy va teatr merosini ilmiy o‘rganish, to‘plash va targ‘ibot ishlari bilan band bo‘ldilar. Yillar davomida bu bo‘limlar turli tadbirlar o‘tkazdi va o‘zbek xalq san’atini targ‘ibot qilib keldi.

20 – 30-yillarda musiqa va teatr san’atlarining zamонавији ruhda rivojlanishiga ma’lum imkoniyatlar yaratib berishga turli moliyaviy va ma’naviy choralar, yordamlar hokimiyat tomonidan berib turildi. O‘zbekistonning poytaxti va barcha viloyatlardagi zavod - fabrika, yirik korxonalar, o‘rtalim maktablarida, o‘rtalim oliy hunar dargohlarida ashula va raqs ansambllar hamda teatr to‘garaklari birin-ketin paydo bo‘la boshladи. Ularning soni juda ham ko‘p edi. Bu havaskorlik to‘garaklarning ayrimlari kelgusida professional teatr, konsert tashkilotlarini bunyodga kelishida tamal toshini qo‘ydilar va iste‘dodli san’at arboblari yetishib chiqishga ham zamin yaratdilar. Respublikada badiiy havaskorlar jamoalarining bunyodga kelishlarida va rivojlanish jarayonida kasaba uyushmalar tashkilotlarni roli ham samarali bo‘ldi. Ularning zimmasiga maorif xodimlari bilan birgalikda, klub, madaniyat va istirohat bog‘larida, qizil choyxonalarda, mакtab, hunar texnikum va institutlarda, qishloq joylarda havaskor xalq ashula va raqs ansambllar teatr jamoalarini tashkil qilish, ularning san’atlarini namoyish etish, ommaviy kechalar, ko‘rik-tanlovlар, karnaval-tomoshalar, maxsus tadbir kechalar o‘tkazish an’anaga aylandi.

Shuningdek mazkur davrda o‘zbek ashula va raqs ansamblaridan tashqari respublikaning katta korxonalarida baynalmilal xor va damli cholq‘ular orkestrlari, harbiy orkestrlardan tashqari, rus xalq cholq‘ulari orkestri va ansambllari, simfonik orkestr, maxsus raqs ansambl jamoalari bunyodga keldi. Ular orasida Toshkent temir yo‘l korxonasi qaramog‘ida 1923-yilda tashkil topgan o‘zbek va rus havaskorlar to‘garaklari, Toshkent tramvay tresti qaramog‘idagi, o‘zbek ashula va raqs ansambl, rus ashula raqs ansambl hamda katta damli cholq‘u orkestr, xor jamoasi, 1927-yili havaskorlar

simfonik orkestri, damli orkestr, bayanchilar ansamblı, 1918-yilda respublika matbuot birlashmasi qoshidagi "Lira" nomli madaniyat uyida mashhur dirijyor V.V.Leysek o'zbek dramto'da, o'zbek xalq ashula va raqs ansamblı, rus xalq dramto'da, rus xalq cholg'ular orkestri, bolalar va kattalar ishtirokida ikkita damli orkestrlar tashkil etib, ularga rahbarlik qildi. Nomlari tilga olingen havaskorlar jamoalari musiqiy va teatr san'atlarini rivoj topishlariga tamal toshini qo'ydilar. Ular turli ko'rik-tanlovlarda faol qatnashib, kundalik hayotda xalqqa xizmat qildilar. Dirijyor V.V.Leysek O'zbekistondu badiiy havaskorlik san'atining rivojlantirishida olib borjan ulkan xizmatlari uchun 1928-yilda O'zbekiston Respublikasi mohim qahramoni va 1935-yili O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi faxriy unvoni bilan taqdirlandi.

1918-yili "Turkiston Xalq konservatoriysi" nomli musiqiy o'quv dargohi tashkil topdi. Uning tashkilotchilari fizika, matematika o'qituvchilari, havaskor violonchelchi A.M.Popov va skripkachi E.A.Chernyavskiylar mazkur o'quv dargohini ochish niyatlarini matbuotda e'lon qildilar. E'londa ko'rsatilgan muddatda Toshkentda istiqomat qilayotgan san'atkorlardan 32 kishi musiqadan yoshlarga dars berishga o'z xohishlarini bildirdilar. Xalq konservatoriysi ish faoliyatini reja asosida boshqarish maqsadida 9 kishidan iborat Kengash tuzildi. Kengash raisi lavozimiga shifokor, kompozitor, dirijyor I.Gizler-Arskiy, bir yildan so'ng xonanda V.A.Karelin, kengash kotibi lavozimiga E.A.Chernyavskiy va a'zolariga kompozitor, dirijyor N.N.Mironov, kompozitor V.A.Uspenskiy, xormeyster V.F.Sakovich, violonchel cholg'usi ijrochisi general V.M.Kox, A.M.Popov va konservatoriyaning xo'jalik ishlarini olib borishga D.A.Lukonin saylandilar. Mazkur Xalq konservatoriyasining asosiy vazifasi xalqqa musiqadan boshlang'ich ma'lumot berish, birorta cholg'u-sozda ijo etishni o'rgatish va xonandalik mutaxassisligidan saboq berishdan iborat edi. O'qish muddati va dasturi aniq belgilanmaganligi sababli har bir o'qituvchi tashrif buyurgan o'quvchi-talabaning qobiliyati va imkoniyatini nazarga olgan holda dars bergen. Birinchi o'quv yili musiqada o'qishni xohlaganlarning soni 500tadan oshib ketdi. Ikkinchi o'quv yilida esa 1000ga yaqinlashdi. O'quv xonalari yetishmasligi sababli konservatoriyaning bir nechta filiallari tashkil

etila boshlandi. Xususan: Toshkent temiryo‘lining ishchi va xizmatchi xodimlari uchun 1919-yili “Privokzalnaya” nomli bo‘lim (filial) ochilib, bu bo‘limni xormeyster V.F.Sakovich boshqardi. O’sha yili Toshkentning baland masjid rohat bog“ida “Eski shahar” bo‘limini kompozitor V.A.Uspenskiy boshqardi. U eng avval mashhur hofiz Shorahim Shoumarov bilan tanishdi. Ta’lim jarayoni ikki yo‘nalishda joriy etildi, ya’ni o‘zbek xalq musiqasini og‘zaki o‘zlashtirish hamda nota uslubi va ko‘p ovozli musiqa nazariyasini o‘rganishdan iborat edi.

Mazkur jarayonni amalda joriy etish uchun maxsus dastur tuzilib, shaharda istiqomat qiluvchi mashhur o‘zbek san’atkolaridan: Hofiz Mulla To‘ychi Toshmuhammedov, tanburchi Shobarot aka, doirachi Shojalil, dutorchи-doirachi Abdusoat Vahobov, changchi Ismat, g‘ijjakchi Qurbonxon Hakimov, naychi Imomjon Hakimov, g‘ijjakchi Solixon Xoji kabi ustalarini yoshlarga dars, saboq berishga taklif qildilar. V.A.Uspenskiy talabalarga nota yozuvi va musiqa nazariyasidan dars berdi.

Pianinochi Saodatxonim Yenikeyeva mazkur cholg‘uda dars berish bilan bir qatorda tarjimonlik vazifasini ado etardi. E.A.Dyakova bilan fortepianoda chalishni talabalarga o‘rgatishdi.

1919-1920-yillarda “Turkiston Xalq konservatoriysi” kabi musiqiy muassasalar Samarqand, Farg‘ona, Namangan, Qo‘qon, Andijon shaharlarda ham tashkil topdi.

**1921-yilda Buxoroda Abdurauf Fitrat tashabbusi bilan birinchi “Sharq musiqa maktabi” ochildi.** Ma’lum vaqtgacha Fitrat o‘zi rahbarlik lavozimida faoliyat olib bordi. Ko‘p asrlik milliy musiqa merosimizni saqlab qolish, iste’dodli yoshlardan yetuk mutaxassislarni tayyorlashdek oliy maqsad ila maktabga “Shashmaqom”dan saboq berish uchun Ota Jalol Nosirov, Domla Halim Ibodov, Ota G‘iyos Abdug‘ani, Abdurahmon Umarov kabi ustozlarni ishga taklif qildi. 1925-yili yangi o‘quv yilidan boshlab “Buxoro davlat Sharq musiqa maktabi”ning o‘quv dasturiga yevropa nota yozuvi, solfedjio, musiqa nazariyasi, musiqa tarixi kabi yangi fanlar hamda yevropa cholg‘ularida ijro etishni o‘rgatish kabi o‘zgartirishlar kiritildi.

**1924-yili Toshkent davlat birinchi musiqa – internat texnikum tashkil topdi.** Toshkent xalq konservatoriyasida ishlagan

ko‘p pedagoglar ushbu texnikumga ishga o‘tdilar. Mazkur o‘quv dargohi respublikamizning musiqiy hayotida va o‘rta ma’lumotli san’atkorlarni tarbiyalashda samarali xizmat qilganligini ta’kidlash lozim. 1930-yili ushbu musiqa texnikumida o‘zbek xalq musiqa merosini o‘rganish, notaga yozish bo‘limlari ham ochiladi. Mualliflik ishlariga Shorahim Shoumarov, notaga yozish ishlariga esa Viktor Uspenskiy rahbarlik qildi.

**1928-yilda Samarqand davlat musiqa va xoreografiya ilmiy tadqiqot instituti** ochildi va direktor lavozimiga Nikolay Mironov tayinlandi. U institutning ish faoliyatini uch yo‘nalishida olib bordi. Ya’ni o‘zbek va yevropa musiqa cholg‘ularida talabalarni o‘qitish, raqs bo‘limida milliy va yevropa professional raqs san’atini o‘rganish, musiqa merosini o‘zlashtirish notaga yozish hamda targ‘ibot qilish.

Tasdiqlangan dastur asosida professional milliy kadrlar tayyorlash vazifasi yuklandi. O‘zbek, tojik xalqlarining va yevropa musiqiy meros an’analarini talabalarga o‘rgatish uchun institutga Buxoro, Xorazm va Farg‘ona vodiysidan yuqorida zikr etilgan san’at ustalari: Ota Jalol Nosirov, Domla Halim Ibodov, Hoji Abdurahmon Umarov, Matyusuf Xarratov, Abduqodir Ismoilov, Ahmadjon Umrzoqov kabi ulug‘ san’atkorlar yoshlarga maqom san’ati sirlarini o‘rgatishdi. Tez orada institut Nikolay Mironov rahbarligida quyidagi musiqa doir kitoblarni nashrdan chiqardi: O‘zbek va tatar tillarida “Boshlang‘ich musiqa nazariyasi”(1929-yil) darslik, rus tilida “Музыка узбеков” (1924-yil), “Обзор музыкальных культур узбеков и других народов Востока” (1931-yil), “Музыка таджиков” (1932-yil) va institut talabalarini: Muxtor Ashrafiy Buxoro, Tolibjon Sodiqov Farg‘ona vodiysi va Sharif Ramazonov Xiva xalq qo‘shiqlarini zamонави notaga yozdilar va Nikolay Mironovning muharrirligida 1931-yili “Песни Ферганы, Бухары и Хивы” nomi bilan chop etildi. Muzkur institut O‘zbekiston va Tojikiston Respublikalarini quyidagi san’at arboblarini yetkazib berdi: Muxtor Ashrafiy, Mutal Burxonov, Tolibjon Sodiqov, Sharif Ramazonov, A.Xalimov, Doni Zokirov, Manas Leviyev, M.Nasimov, Sh.Shibov, M.Kalandarov, P.Rahimov, Nabijon Hasanov, F.Shamsuddinov, B.Inoyatov, F.Shahobov, Qori Siroj Yusupov kabi san’at ahli talabalik davrlarini hurmat va


ehtirom bilan eslashardi. Mazkur institut 1932-yil O'zbekistonning yangi poytaxti Toshkent shahriga ko'chib o'tkazilishi sababli faqat ilmiy tadqiqot ishlari bilan faoliyat ko'rsatadigan bo'lib qoldi. Chunki, institut talabalari Toshkent davlat musiqa texnikumiga o'tkazildi, xoreografiya bo'limi uchun maxsus maktab ochildi. Kelgusida ushbu institutda turli san'at bo'limlari ham tashkil topdi. Hozirda ilmiy tadqiqot instituti respublikamizning madaniy hayotida, turli san'atlarga bag'ishlangan fanlarning rivojlanish jarayonida faoliyat ko'rsatmoqda.

**1927-yili** Toshkentning Beshyog'och dahasida pianinochi A.Toshmuhammedov rahbarligida "**Toshkent shahar 7-yillik musiqa maktabi**" tashkil qilindi. Maktabda fortepiano, skripka, violonchel, fleyta, klarnet, truba kabi sinflarga turli millatlarning iste'dodli o'g'il-qizlari qabul qilinardi. 1935-36 o'quv yildan boshlab ta'lim jarayoniga ayrim o'zbek xalq cholg'ularini o'rgatish kiritilgan edi. Yildan-yilga musiqa maktabining o'quvchilari soni ko'payib bordi. Ana shu maktabda mashhur kompozitor Reyngold Glier o'zbek va rus sinflarda musiqa nazariyasidan dars bergen va kelgusi yillarda ayniqsa, ikkinchi jahon urushi va keyingi yillarda maktabning ish faoliyati bilan aloqani uzmagan edi. 1956-yili Glier vafoti tufayli mazkur maktabga uning nomi berildi va Respublika davlat 10 yillik musiqa maktab-internatiga aylantirildi.

Turkiston hokimiyati Toshkentdag'i va viloyatlardagi barcha teatr, turli jamoalarni va shaxsiy boylarning binolarini davlat qaramog'iga olish uchun 1918- yil 22-iyulda maxsus komissiya tuzib, uning taklifiga binoan Toshkent va viloyatlardagi ko'p hashamatli binolar davlat ixtiyoriga o'tkazildi. 1919-yilda Turkiston Respublikasi Xalq maorif tashkiloti qaramog'ida teatr bo'limi ochildi va uning zimmasiga quyidagi vazifalar yuklandi:

1. Respublikadagi jamiyki teatr ishlariiga umumiy rahbarlik qilish.
  2. Havaskor va professional ijodiy jamoalarning ish faoliyatini yuksaltirish va repertuarlarini boyitish.
  3. Respublika bo'y lab muntazam ravishda markaz va viloyatdagi tomoshabinlarga gastrollar uyuştirish.
- Shuni aytish joizki, 20 – 40-yillarda, ya'ni ikki o'n yillik mobaynida ijtimoiy - madaniy va siyosiy - iqtisodiy hayotda bir

talay o‘zgarishlar ro‘y berdi. Eng muhim ijtimoiy ishlab chiqarishning uzlucksiz o‘sishi, katta korxonalar, suv inshootlari, maktab va institut, teatr va madaniyat saroy binolarining qurilishi natijasida va mehnatkashlarning tobora ortib borgan moddiy va madaniy ehtiyojlarini to‘la qondirish imkonini berdi. Ayniqsa o‘zbek millatini va O‘zbekistonda istiqomat qiluvchi boshqa xalqlarni birlashtirishda va ularni madaniy - ma’naviy talablarini qondirishda **1927-yilda tashkil topgan O‘zbekiston Radio qo‘mitasi** va uning qoshida tashkil topgan musiqa bosh muharririyyati, ulug‘ bastakor Yunus Rajabiy rahbarligidagi “O‘zbek xalq ansambl” (kelgusida maqomchilar ansambl), **1936-yilda tashkil topgan simfonik orkestr va xor jamoalari** juda katta rol o‘ynadi.



O‘zbek xalqining asrlar davomida an’ana bo‘lib kelgan milliy musiqliy san’atining jozibali, kishini maftun etadigan olam-olam zavq-u shavq bag‘ishlaydigan, estetik ruhni boyitadigan xalq hofizlarini xizmat o‘rinlari beqiyosdir. Mazkur jarayonda XIX asrning oxiri XX asr boshlarida yashagan va ijod qilgan milliy musiqliy san’atimiz namoyandalari yangi tuzumda ham xalqqa faol xizmat qildilar. Masalan, Toshkentda mashhur hofiz Shorahim Shoumarov bir guruh sozandalar ansambl asosida 1918-yili “Sanoyi nafisa” nomli birinchi kasaba uyushma tuzib, shahardagi jamiyki san’atkorlarning huquqlarini himoya qilish va musiqliy

san'atni xalq orasida targ'ibot qilishda tashabbuskorlik qildi. Uning rahbarligida tuzilgan ansamblida, ustozi Mulla To'ychi Toshmuhammedov, Ilhomjon dutorchi, Karimbek Xo'ja g'ijjakchi, Shoborot – tanburchi, Ilyosxo'ja – changchi va ularning shogirdlari: Yunus va Risxi Rajabiylar, g'ijjakchi bastakor Imomjon Ikromov, kamonchi bastakor Po'lat Rahimov, dutorchi Abdusoat Vahobov, hofizlar Shoqosim, Shoolim, Shoakbar Shojalilovlar kabi san'at ustalari xalqqa faol xizmat qildilar. Ustoz Shorahim Shoumarovning chorsu bozori yonida joylashgan ansambli va Yunus Rajabiyning "Chaqar" mahalla choyxonasida tuzgan ansambli yosh havaskor san'atkorlar uchun haqiqiy musiqa maktabi bo'ldi.

Bu ikki dargohda Toshkent san'atkorlaridan tashqari Farg'ona vodiysidan, Buxoro, Samarcand, Xorazmdan mashhur san'at ustalari va ularning shogirdlari ham birgalikda xalqqa o'z san'atlarini namoyish qilishardi. Ularning konserт dasturlari asosan maqom, mumtoz ashulalar va o'zlari bastalagan kuy va qo'shiqlardan iborat edi. Bundan tashqari, ustoz san'atkorlar o'zlari ham turli klub-maktablarda musiqliy havaskorlar to'garaklarini tuzib yoshlarga saboq berib, ko'p yosh sozanda va xonandalarni tarbiyaladilar.

Xuddi shunday "Sanoyi Nafisa" kabi uyushmani 1920-yili Andijon shahrida xalq orasida Orif garmon nomi bilan tanilgan Orif Toshmatov tashkil qildi. O'zbek san'atkor va ziyolilaridan tuzilgan jamoada Muhiddin Xo'ja Najmiddinov, Sobirjon Siddiqov, Berkinboy Fayziyev, Dehqonboy Hofizlar, Yoqibjon changchi, Ashurali Oxun dutorchi, Zokir eshon doirachi, Hayit Oxun tanburchi, Rustam Mehtar surnaychi, Ismat karnaychi, Sayfi qayroqchilar bor edi. Ularning ishtirokida zikr qilingan uyushma va "Tutzor" guzarida xalq ansambli tuzildi. Bu ansamblida g'ijjakchi bastakor To'xtasin Jalilov, Hayitxon tanburchilarni yonlarida: Komiljon Jabborov, Lutfullaxon Xo'jayev, Rahmat Otaboyev, G'anijon Toshmatov, Isxoq Qori, Salohiddin hoji kabi havaskor yoshlarni ham ko'rish mumkin edi. Ansamblning dasturi keng edi. Ular nafaqt Andijon, balki Qo'qon, Marg'ilon, Farg'ona, Namangan, Jalolobod, O'sh shahar va qishloqlarida ham ish olib bordilar. Mazkur jamoani keyinchalik To'xtasin Jalilov ham boshqargan edi. Mashhur bastakor, O'zbekiston xalq artisti

To'xtasin Jalilov o'zining ustozini Orif Toshmatov faoliyatini shunday ta'riflagan edi: "Bizning rahbarimiz Orif aka garmonda o'zbek xalq kuylaridan "Abdurahmonbegi", "Nasrullo'i", "Ajam", "Tanavvor", "Ufor" kabi klassik musiqalardan tashqari "Дунайские волны", "Амурские волны", "Краковяк", "Полька", "Варшавянка", "Смело мы пойдём" kabi ruscha, bundan tashqari Hamzaning kuylarini hamda o'zi bastalagan musiqalarni jo'shqinlik bilan ijro etib hammani lol qoldirar edi. Shular orasidan o'zlarini yaratgan "Andijon polkasi" esa juda ham mashhur bo'lib ketdi. Shunisiga qoyil qolar edimki, ustoz o'zbek xalqining mumtoz kuylarini dutorda qanday chalsa garmonda ham shunday nozik mohirlilik bilan ijro etar edi. Bular o'sha muhitda o'zbek tomoshabinlari uchun ham qiziqarli, ham yangilik edi<sup>7</sup>.

Yana shuni aytib o'tish joizki, "Inqilob"dan avval Farg'ona vodiysida, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Surxondaryo va Qashqdaryo vohalarida istiqomat va ijod qilgan, mashhur, el-yurt hurmatiga sazovor bo'lgan san'atkorlar, sho'ro hokimiyyati davrida ham, shogirdlari bilan, o'z faoliyatlarini davom ettirib xalqqa xizmat qildilar. Ular yangi zamonda, shaharlarning xalq bilan gavjum bo'lgan katta choyxonalarida o'z san'atlarini namoyish qildilar. Ayniqsa, yuqorida zikr qilganimizdek O'zbekistonning 1924 – 1932-yillarda poytaxti bo'lgan Samarqand shahrining Registon yaqinidagi "Rastai Nov" choyxonasida Hoji Abdulaziz Abdurasulov ishtirokida bo'ladigan musiqiy kechalarda ko'pincha Buxoro, Toshkent, Farg'ona vodiysidan, Xorazm va boshqa hududlardan kelgan mohir sozanda va xonandalar ishtirok etishardi. Ularning orasida Ota Jalol Nosirov, Levicha Boboxonov, Domla Halim Ibodov, Qori Siroj Yusupov, Tolibjon Sodiqov, Abduqodir Ismoilov, Matyusuf Xarratov, Ahmadjon Umrzoqov, Shohnazar Sohibov, Fazliddin Shahobov kabi qator san'atkorlarni ko'rish mumkin edi.

Xulosa qilib aytish joizki, yuqorida nomlari tilga olingan va olinmagan o'zbek xalqining sevimli san'atkorlari o'z ijrochilik san'atlarini namoyish etish bilan birga turli musiqiy to'garaklar tuzib, yoshlarni musiqiy meros an'analarida tarbiyaladilar va kelgusida el yurt hurmatiga sazovor bo'lgan san'atkorlarni yetkazib

<sup>7</sup>Ahmad Jabborov tomonidan Usta To'xtasin Jalilov bilan, O'zbekiston kompozitorlar uyushmasining binosida 1964-yilning 19-dekabrida, suhabat paytida yozib olingan.

berdilar. Ustozlarning ayrimlari hokimiyat tomonidan tashkil qilingan musiqiy o'quv maskanlarida teatr va konsert tashkilotlarida faol xizmat qildilar.

Shuni aytish joizki, 20 – 30-yillarda yuqorida nomlari esga olingan, xalqimizning sevimli san'atkorlari, Respublikamizda tashkil topgan musiqali teatr va konsert tashkilotlarining, musiqiy ansamblarning asosiy guruhini tashkil qilishdi va respublikada hamda Butunitifoqda 1925, 1930, 1932, 1933, 1935, 1938 - yillarda o'tkazilgan teatr va olimpiadalarda, ko'rik - tanlovlarda faol qatnashganlar. O'zbek musiqa san'atini namoyish etishda, ayniqsa 1936-yilda tashkil topgan O'zbekiston davlat filarmoniyasi katta ro'l o'ynadi. Mazkur filarmoniya qoshida boshqa ijrochi jamoalar bilan birga 1936- yilda mashhur bastakor, ustoz To'xtasin Jalilov rahbarligida 100 kishidan iborat "**Etnografik ansambl**" tuzildi. Bu ansamblga respublikaning ko'plab viloyatlaridan keksa va yosh san'atkorlar jalb qilindi. Ular orasida: Usta Olim Komilov, atoqli qiziqchi Yusuf qiziq Shakarjonov, naychi Abduqodir Ismoilov, qo'shnaychi Ahmadjon Umrazoqov, naychilar Saidjon Kalonov, Valijon Hoshimov, g'ijjakchilar Po'lat Rahimov, Nabijon Hasanov, Doni Zokirov, Said Aliyev, Xayri Izomov, Mamadali Niyozov, rubobchilar – Tavur Jumayev, Ergash Shukrullayev, changchilar – Fahriddin Sodiqov, Matyusuf Xarratov kabi sozandalar bilan birgalikda quyidagi xonanda va hofizlar qatnashdilar: Mamat bobo Sattorov, Muhiddin Qoriyoqubov, Domla Halim Ibodov, Mulla To'ychi Toshmuhamedov, Halima Nosirova, Tamaraxonim, Abdulla baxshi Nurullayev, Erka Qori, Gabriel Mullaqandov, Karim Mo'minov, Jo'raxon Sultonov, Lutfixonim Sarimsoqova, Ma'murjon Xudoyberganov, Berkinboy Fayziyev, Nazira Inog'omova, Nazira Ahmedova, Fotima Boruxova, Shoista Zokirova va ular qatorida Madrahim (Sheroziy) Yoqubov bor edi. O'zbek raqs san'atini dekada konsertlarida: Rahim Ollaberganov, Xoji Tam-Tam, Shukur Hamdamov, Ashur qori Rasulov, Ismoil Po'latov, Usmon qori, Mukarrama Turg'unboyeva, Roziya Karimova, Halima Rahimova, Lizaxonim va boshqalar namoyish qilishdi.

Mazkur san'atkorlar Moskvada 1937-yilning may oyida o'tgan dekada kunlari o'zbek xalqining musiqiy san'atini shoir dramaturg Komil Yashin (Nug'monov)ning "**Say!**" ikki bo'limli ssenariy

asosida katta konsert dasturi namoyish qilindi. Sahnalashtirishda bosh rejissor Mannon Uyg'ur (Mannon Majidov), rejissorlar: Yetim Bobojonov, Sora Eshonto'rayeva, rejissor yordamchisi Miroqilov, Ali Ardobus Qo'ldoshev, rassomlar: X.X.Ikromov va M.A.Gvozdikov, musiqa rahbari hamda dirijor Tolibjon Sodiqov, dirijorlar Muxtor Ashrafiy va Nikolay Mironov, "Etnografik ansambl"ning rahbari To'xtasin Jalilovlar faol qatnashdilar. Umuman mazkur dekada O'zbek xalqining boy musiqiy merosini va mohir ijrochilik san'atining katta jozibali ruhda namoyish qilishda, san'atkorlarning ko'p guruhlari hokimiyat tomonidan orden, medal va unvonlar bilan taqqdirlandilar.

Umuman, ushbu davrda ruspublikamizda, o'zbek va rus san'atkorlarining hamkorligida musiqa maktablari, 1934-yilda Namangan va Buxoro musiqa o'quv bilim yurtlari, 1935-yilda Moskva konservatoriyaning qoshida "O'zbek opera studiya"si, 1936-yilda Toshkent davlat konsrvatoriysi kabi musiqa o'quv maskanlari bunyodga keldi. 1920-yilda Toshkent rus opera va balet teatri, viloyat musiqali drama teatrлari, 1926-yilda M.Qoriyoqubov rahbarligida tashkil topgan "O'zbek etnografik ansamбли" asosida 1929-yilda bunyodga kelgan "O'zbekiston davlat musiqali drama teatri", uning asosida 1939-yili "O'zbek davlat opera va balet teatri" va "Muqimiy nomidagi o'zbek davlat musiqali drama va komediya teatr"lari faoliyat ko'rsata boshladi. O'zbekiston davlat filarmoniyasi tarkibida "O'zbekiston ashula va raqs ansamбли", "Dutorchi qizlar ansamбли", "Tamara-xonim ansamбли", "Xorazm garmonchi qizlar ansamбли", "Simfonik orkestr", "O'zbek xalq cholg'u asboblari orkestri", "Xor a'kapella jamoasi" kabi ijrochi jamoalar zamonaviy o'zbek musiqa madaniyatini rivojlantirish jarayonida samarali xizmat qildilar.

**1938-yili O'zbekiston kompozitorlar uyushmasi tashkil topdi** va uyushma raisi sifatida O'zbekiston xalq artisti, mashhur kompozitor Tolibjon Sodiqov tayinlandi. Bu tashkilot respublikamizda istiqomat va ijod qiluvchi kompozitor va musiqa shunoslarni birlashtirdi, zamonaviy yangi-yangi musiqiy asarlar, ilmiy maqola va kitoblar yaratishda hamda musiqani targ'ibot qilishda katta rol o'ynab kelmoqda.

Qisqa tarixiy muddatda, ya’ni ikki o‘n yillik davr, O‘zbekiston musiqiy san’ati mukammal ravishda taraqqiy etdi. Xalqimiz musiqiy merosining silsilasi uzilmay zamonaviy ko‘p ovozli musiqiy uslublar bilan uyg‘unlasha bordi.

### Bastakorlik ijodiyoti

Asosan mumtoz, qisman xalq ijodiyoti bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan bastakorlik sohasi qariyb bir yarim, ya’ni ming yillik tarixiy davr mobaynida shakllanib, rivojlanib kelmoqda. Uning qator sifatlarini anglash borasida “bastakor” so‘zining lug‘aviy ma’nosi ham e’tiborlidir. Atoqli maqomshunos olim I.R.Rajabovning bergen ta’rifiga ko‘ra, “bastakor” forscha so‘z bo‘lib, uning zamirida “kuy-ni tashkil etuvchi unsurlarni bir-biriga bog‘lovchi” degan ma’no yotadi (“basta” – bog‘langan, “kor” – ish, ishlovchi ma’nolarida).

Bastakorlikning musiqa ijodiyotidagi mohiyati ma’lum qonun-qoidalar bilan bevosita bog‘liq holda yuzaga chiqadi. Bunda, bastakor ko‘p asrlik an’anaviy kuylarning ritmik va ohang variantlarini yaratishi, shuningdek kuy yo‘llariga yangi lavhalar, tayyor holdagi avjlar kiritishi nazarda tutiladi. Ashula yo‘llariga yangi she’rlarni moslab tushira bilgan san’atkorlar ham bastakor nomiga sazovor bo‘lganlar.

Ma’lum bo‘ladiki, bastakorlar musiqa amaliyotida keng qo‘llanib kelingan kuy andozalari asosida ham musanniflik qilganlar, ularni (kuylarni) she’riyat namunalari bilan bog‘lab, ashula yo‘llarini ham yaratganlar. Bunda badiiy an’ana – eski va yangi ijodiy hodisa o‘rtasidagi biridan-biriga o‘tib boruvchi uzviy aloqa – keyingi davr ijodkorlari tomonidan qabul qilingan va rivojantirilgan g‘oyaviy-badiiy xususiyatlар tarzida namoyon bo‘ladi. Bu jarayonda bastakorlar iste’dodi ana shu an’analari doirasida badiiy mahorat ko‘rsata bilishga, tabiiy holda yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirishga, “tanish” shaklu-shamoyilning yangi qirralarini ochib berishga xizmat qiladi. Zotan, tarixiy rivojlanish jarayonida badiiy merosxo‘rlik yo‘li bilan asrlar davomida ustozdan-shogirdga meros o‘tib kelayotgan musiqiy qadriyatlar muayyan tarixiy shart-sharoitlarda turlichay ko‘rinish kasb etib kelgan. Binobarin, badiiy an’ana yangilikni mustasno

etmaydi, balki yangilik uchun muhim zamin, poydevor asos bo‘lib xizmat qiladi. Muqim an’anani yangilik bilan boyitish uchun esa, tabiiyki, har bir ijodkordan badiiy an’anani teran anglash hamda yuqori mahorat talab qilinadi<sup>8</sup>.

O‘tmishdagi bastakorlik ijodiyoti bilan hozirgi davr bastakorlik ijodiyoti orasida albatta tafovutlar bor. Bastakorlar mumtoz musiqa hamda xalq musiqa ijodiyotining chuqur bilimdonlari, ustoz sozanda va xonandalardir.

Respublikamizda XX asr mobaynida maxsus musiqa o‘quv yurtlari tashkil etilishi munosabati bilan ta’lim tizimida an’anaviy bastakorlik emas, balki Yevropacha kompozitorlik mutaxassisligiga ustuvor ahamiyat berildi. G‘arbda shakllangan musiqiy yaratuvchilik yo‘nalishida esa aksincha, kompozitorlik ma’lum bir “Musiqa yozuvchisi” mutaxassisligini anglatgan.

Musiqa merosimizning yangilanishidagi tashabbuskor targ‘ibotchilari bastakorlardir. Bastakorlarimiz hozirda mavjud maqom turkumlari zaminida noyob asarlar yaratmoqdalar. Shu bilan bir qatorda, ularning ijodida yangi uslubiy yo‘nalish va ijodiy mакtablar shakllandı. Shu asnoda bastakorlarning ijodiy mahsuli bo‘lmish turli kuy, qo‘shiq va ashulalar musiqiy xazinamizni yanada boyitib bormoqda. Bastakorlik ijodiyotida sozandalik va xonandalik faoliyati qadimdan alohida ahamiyat kasb etib kelgan. Hozirgi kunda ham bastakorlarimiz ijrochilik hamda ijodkorlikning o‘zaro uzviy bog‘liqligini o‘z faoliyatida ko‘rsatib kelmoqdalar.

XX asrning 20 – 40-yillarida zamonaviy musiqiy san’atning rivojlanish jarayonida bastakorlik ijodiyoti muhim o‘rin egalladi. Ya’ni ana shu davrdan boshlab poytaxt va viloyatlarda istiqomat qilgan har xil yoshdagi xalq bilan hamnafas bo‘lgan bastakorlar mehnatkash ommaning fikr o‘ylarini, orzu-umidlarini va respublika hayotida ro‘y berayotgan muhim voqealarni, madaniy - ma’naviy o‘zgarishlarni o‘z ijodlarida aks ettirdilar. Ular an’anaviy bir ovozli musiqiy uslubida zamon talabi va xalq ruhiga moslab turli mavzularda klassik va zamondosh shoirlarning she’rlariga ommaviy va lirik qo‘shiqlar, sahna asarlariga esa xalq musiqa merosidan

<sup>8</sup> «Bastakorlik ijodiyoti» mavzusi yoritilishida tadqiqodchi Ch.Ergashevaning “O‘zbek kasbiy musiqasida nazira an’analari” mavzusidagi dissertatsiyasi materiallaridan foydalanildi.

ijobiy foydalangan holda noyob hamda betakror musiqiy asarlar yaratdilar.

### **Hamza Hakimzoda Niyoziy**

“XX asr o‘zbek musiqasi tarixi” sahifalarida chuqur iz qoldirgan obro‘ – e‘tiborga sazovor bo‘lgan xalqimizning sevimli bastakorlarining safida birinchilardan bo‘lib Hamza (1889-1929) yangi zamon ruhida shakllangan ijodda izlanib, yangilikka intildi. O‘zbek va boshqa xalqlarning qo‘shiqchilik an’analarini o‘rgandi.

Ularga suyanib ijodiy foydalandi. Uning 1918–1928-yillarda marsh, vals shakllarda bastalangan quyidagi qo‘shiqlari: “Ishchilar uyg‘on”, “Biz ishchimiz”, “Hoy ishchilar”, “Uyg‘onmoq davrida” kabi qo‘shiqlari safdoshi hofiz Muhiddin Qoriyoqubov va boshqa xonandalarning ijrosida mashhur bo‘lib ketdi. Yangi hayot orzusida yashagan shoir, bastakor Hamza qo‘shiq bastalashda ko‘proq barmoq vaznini qo‘llashga ahamiyat berdi.

### **To‘xtasin Jalilov**

O‘zbekiston xalq artisti, ulug‘ bastakor – sozanda, ustoz hofiz va rahbar To‘xtasin Jalilov ko‘p qirrali ijodiy faoliyati bilan XX asr o‘zbek musiqasi tarixi sahifalarida unutilmas iz qoldirdi. U juda mashaqqatli va farovon hayot va ijod yo‘lini bosib o‘tdi.

Musiqiy san’at sohasida uning hayotida ro‘y bergen burilishni ustoz shunday eslaydi: - “Orif garmon tashkil qilgan “Tashviqot aravasi” nomli ansamblida ishlab yurgan kezlarimda 1919-yili shoir Hamza Hakimzoda Niyoziy Farg‘onada 1918-yili tashkil qilgan “Yosh muslimonlar sayyor teatri” bilan Andijonga keldi. Ana shu teatr jamoasi bilan bizning ansamblimiz Hamza tuzgan “Sharq kechasi” nomli konsert dasturida jaranglagan Hamzaning otashin nutqi, zamonaviy she‘r va qo‘shiqlarini maroq bilan tingladim, yod oldim va ularning ta’sirida yashadim. Mazkur kechada men ham xalq kuy va ashulalaridan ijro etdim. Konsertdan so‘ng Hamza meni qizg‘in tabrikldi. Menga bo‘lgan munosabatini rahbariyatimizga izhor qilgan ekan. Hamza bilan uchrashuv menda juda katta taassurot qoldirdi va mening san’atkorlik faoliyatimda keskin burilish bo‘ldi. 1920-yilda mening yoshligimga qaramay Andijon

viloyat musiqali drama teatriga musiqa rahbari lavozimiga tayinlandim.

San'atkor T.Jalilovning bastakorlik ijodiyoti mazkur teatrda ishlab yurgan kezlarida boshlandi. Sahnada qo'yilayotgan asarlarga xalq musiqa merosidan tanlab kiritdi. So'z mazmunidan kelib chiqqan holda ayrim kuylarning jumlalarini o'zgartirdi, o'zi ham kuylar yaratdi. Uning ilk bor yaratgan kuylari orasida "Signal" nomli orginal kuyi juda ham mashhur bo'lib ketdi.

Bastakor T.Jalilov kelgusi yillarda ijodiy izlandi, zamonaviy yangi-yangi kuy va qo'shiqlar yaratdi. Ular orasida "Dovruq", "Yosh qo'mondon", "Yer ekkanniki", "Ey, har Vatan", "Azim Vatan", "Ona Vatan", "Kuylasam", "Yalla" (Uyg'un so'zlari), "Oq oltin" (Kamtar so'zi), "Gulistonim mening" (Muqimiy g'azali), "Bahor ayyomida" (Furqat g'azali), ayniqsa, xalq orasida uning "To'ylar muborak" qo'shig'i juda ham mashhur bo'lib ketdi. U qo'shiqchilik faoliyatida A.Navoiy, Z.Bobur, Muqimiy, Furqat g'azallariga, shuningdek, S.Abdulla, Uyg'un, M.Shayxzoda, Mirtemir, H.Olimjon, G.G'ulom, T.To'la kabi shoirlarning she'rlariga kuylar bastaladi.

Bastakor T.Jalilov Andijon teatriga musiqa rahbari lavozimiga tayinlangan yildan boshlab, sahnaga qo'yilayotgan spektakllarga xalq musiqa merosidan tanlab, kirita boshladi. Xususan, dramaturg Komil Yashinining "Lolaxon", Sobir Abdullaning "Qashqar qizi", G'ulom Zafariyning "Erk bolalari" va "Halima", Shamsiddin Xurshidning "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" kabi spektakllariga ilk bor o'zbek va uyg'ur xalq qo'shiq, yalla, ashulalar hamda cholg'u musiqalar tuzilgan bo'lsa, kelgusi yillarda ayniqsa, Muqimiy nomidagi musiqali teatrga badiiy rahbar va bosh dirijor lavozimida ishlagan yillarida "Tohir va Zuhra", "Nurxon", "Alpomish", "Ravshan va Zulxumor", "Qurbon Umarov", "G'unchalar", "Orzu" (S.Abdulla pyesalari), "Farg'ona hikoyasi" (H.G'ulom pyesasi) kabi musiqali dramalarga yaratgan musiqalarni simfonik orkestrga moslashda B.Brovzin, L.Stepanov, G.Mushel, A.Sobitov kabi kompozitorlar bilan hamkorlikda bastaladi. Umuman O'zbekiston Xalq artisti, bastakor - sozanda T.Jalilov benazir mahorat bilan ajoyib qo'shiq lirik ashulalar va 40 dan ortiq

musiqali spektakllar yaratdi. U XX asr musiqasi tarixi sahifalarida chuqur iz qoldirdi.

### **Yunus Rajabiy**

O'zbekiston xalq artisti, davlat mukofoti sovrindori, bastakor, sozanda, hofiz, akademik Yunus Rajabiy ko'p qirrali ijodiy faoliyati bilan o'zbek musiqasi tarixida yorqin iz qoldirdi.

Bastakor Yunus Rajabiy o'tgan asrning 20–30-yillarida zamondosh shoirlarning she'rlariga ko'proq murojaat qilib qo'shiqlar yaratgan bo'lsa, keyingi yillarda esa asosan mumtoz shoirlarning she'rlariga turli janrlarda musiqalar bastaladi. Bular: "Davron-davron" (G'ayratiy so'zi), "Fabrika yallasi", "Yashnadi" (M.G'ani so'zi), "Hammamiz", "O'rtoqlar" kabi juda ko'p qo'shiqlari zamon ruhiga hamohang sifatida yakka xonanda va bir ovozli xor jamoalarining ijrolarida yangradi va o'z vaqtida mashhur bo'lib ketgan edi. Mumtoz va zamondosh shoirlarning g'azallariga yaratgan qo'shiq, yalla va ashulalarida u asosan o'zbek xalq qo'shiqchilik an'analarini davom ettirib, ularning uslubiy yo'nalishiga suyangan holda ijod qildi. Masalan: "Bahor keldi" (Kamtar so'zi)ga yaratgan kuy o'zbek xalq ashulasi "Sanamo" asosida bastalangan, "Vatan" (H.G'ulom so'zi) xalq raqs musiqasi, "Muhabbat dashti" (A.Navoiy g'azali), "Chapandoz" xalq kuyi asosida "Tong nasimi" (A.Navoiy g'azali), "Markazi xumoriman" xalq kuyi asosida "Gul bog'lar" (Habibiy she'ri), "Askariy" xalq kuyi asosida "Yuzi oydek" (Muqimiy she'ri), "Tanovar" xalq ashulasi asosida "Koshki" (A.Navoiy g'azali), Ozarbayjoncha kuyi asosida "Mustahzod" (H.Olimjon she'ri), "Navo" maqomi asosida yaratgan qo'shiq va ashulalar 200 dan ortiqdir.

Ezgulik, muhabbat, do'stlik, birodarlik kabi insoniy xususiyatlarini musiqiy asarlarida ham tarannum etdi. Bastakorning yaratgan barcha musiqali drama, sahma asarlarining musiqasi ana shu uslubda yozilgan. Bastakor va folklorshunos Yunus Rajabiy hayotining so'nggi nafasigacha ijod etib, mehnat qildi. Uzoq yillar davomida xalq musiqa merosini to'plab, notaga yozdi. Grammofon plastinkalar chiqardi. Uning nomiga atalgan O'zbekiston teleradiokomiteti qoshidagi "Maqom" ansambliga rahbarlik qildi.

Ana shu xizmatlari uchun O'zbekiston Fanlar Akademiyasiga haqiqiy a'zo etib saylandi.

### **Imomjon Ikromov**

O'zbekiston Xalq artisti, sozanda va bastakor Imomjon Ikromov XX asr o'zbek musiqasi tarixida chuqur iz qoldirdi. Imomjon Ikromovning bastakorlik ijodiyoti XX asrning 20-yillaridan Turkiston Xalq konservatoriyasida tahsil ko'rayotgan davrdan boshlangan.

I.Ikromov bastakorlik ijodiyoti uning ko'p yillik sozandalik faoliyati negizida shakllandi. Zero, I.Ikromovning ijrochi sifatidagi noyob sozandalik fazilatlari tabiiy bir yo'l bilan bastakorlik iste'dodini uyg'otdi.

Ilk ijod qadamini 20-yillarda boshlagan bastakor o'zbek musiqiy an'analariga suyangan holda yangi zamon talabiga binoan musiqiy doirani kengaytirish, yangicha intonatsiya va ohanglar topishga harakat qilib ajoyib natijalarga erishdi. I.Ikromov yarim asrdan ziyodroq ijodiy faoliyati davomida qo'shiq va ashula janrlarida ko'plab asralar yaratdi. Bastakor asarlariga nazar so'ssak, u ko'proq zamondosh shoirlarning nazmiy asarlariga murojaat qilganligi ayon bo'ladi. Yillar davomida zamondosh shoirlar Hamza, H.Olimjon, S.Abdulla, Habibiy, Mirtemir, H.G'ulom, S.Zununova, G'ayratiy, Chustiy, Charxiy, T.To'la, P.Mo'min, E.Vohidov va ayniqsa Navoiy, Bobur, Mashrab, Muqimiy, Furqat kabi ulug' shoirlarning she'rлariga 200dan ortiq qo'shiq va ashulalar yaratdi.

"I.Ikromovning ijodida Alisher Navoiyning merosi alohida o'rin tutib, xususan, bastakor musiqiy "Navoiynomasi"ga doir "Sarvi gulro' kelmadni", "Qoldimu", "Ul qaro ko'z" nomli ashulalari hozirda ham juda mashhurdir. Aynan shu asarlarida nazira an'analarini yorqin namoyon bo'ladi"<sup>9</sup>.

Ma'lumki, "Munojot", "Cho'li Iroq", "Ajam" singari kuylar uzoq yillar davomida asosan mumtoz cholg'u asarlari sifatida ijro

<sup>9</sup> Ergasheva Ch. "Bastakorlik an'analarini kesimida Imomjon Ikromov ijodi". // "Barkamol avlod shakllanishida san'atning ahamiyati" mavzuidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2010. 46-49 betlar.

etilib kelingan. Bastakor ushbu kuylar zaminida ularning ashula yo'llarini ijod etdi.

I.Ikromov har bir yaratgan asarini o'zi birinchi bo'lib xonandalarga o'rgatar edi. "Sarvi gulro' kelmadi" ashulasining birinchi ijrochisi O'zbekiston xalq hofizi Akbar Haydarov bo'lgan. 1940-yillarning o'rtalarida bu ashulani O'zbekiston xalq artisti Berta Dovidova o'zgacha talqin ila ijro etgan.

Misol tariqasida ayrim qo'shiq, ashula va ilk ijrochilarning nomlarini eslatib o'tamiz: O'zbekiston xalq artisti, xonanda Berta Davidovaning mohirona ijrosida "Munojot" yoki "Sarvi gulro' kelmadi" (A.Navoiy g'azali) ashulasi juda ham mashhur bo'lib ketdi.

Munojot kabi o'zbek mumtoz ashula yo'llari asosida bastalangan: "Diloromimga ayt", "Bir pari" ("Ajam"), "Qorasoch", "Zori ko'ngil", "Ul qaro ko'z", "Qoldimu", "Topilmas", "Aylay desam", "Bir kelsangiz", "Keldilar", "Qoshi qarosini ko'ring", "Kim desun" kabi ashulalarni xalqimizning sevimli mashhur hofizlari: Mo'lla To'ychi Toshmuhammedov, Akbar Haydarov, Shojalilovlar, Orif Alimaxsumovlarning shirali ovozlari bilan musiqa shinavandalarining qalblarida saqlanib kelmoqda. Bastakor I.Ikromov yuqorida nomlari tilga olingen zamondosh shoirlarning she'rlariga bir talay ommaviy va lirik qo'shiqlar yaratdi. U ijodiy qadamini yurtimizning go'zal tabiatini, mehnatkash insonlarning ishda ko'rsatgan jasoratlarini, yoshlarning his-tuyg'ularini, chin muhabbatni madh etuvchi "Chaman", "So'lim", "Paxtakorlarga", "Sher yigitlar", "Mirzacho'l qahramonlari", "Yangiyer taronasi", "Davru - davronim go'zal", "Olgish", "Vatan mehri", "Aziz Vatanim", "Shon muborakdir senga", "Terimchi qiz yorim bor", "Tinchlikka – tinchlik", "Yor armug'oni", "Vasli yorim", "Gul diyordi", "Roziman" kabi qo'shiqlar ayniqsa ustozning shogirdi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist xonanda Ne'matjon QulabduLLayev ijrosida "Indamadi", "Qo'lda ra'nosi bilan", "Jon bo'libdi, jonon bo'libdi" (P.Mo'min so'zлari ), "O'ynasin", "Suluv chechaklar" (Mirtemir g'azallari) kabi qo'shiqlar mashhur bo'lib ketdi.

Umuman, o'zbek xalq musiqa merosining bilimdoni, mashhur sozanda va bastakor I.Ikromov ijodiy faoliyati bilan milliy

qo'shiqchilik san'atining yorqin namunalarini yaratib, XX asr musiqa tarixi sahifalarida chuqriz qoldirdi. Imomjon Ikromov 1943-yilda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist va 1953-yilda O'zbekiston Xalq artisti faxriy unvonlariga sazovor bo'lган.

### Komiljon Jabborov

O'zbekiston Xalq artisti, mohir sozanda, atoqli bastakor, Komiljon Jabborov o'zining betakror musiqa asarlari va nodir ijrochilik san'ati bilan Vatanimizning milliy musiqa madaniyatini rivojlantirish jarayonida xalqqa ulkan xizmat qilib, XX asr o'zbek musiqasi tarixida yorqin iz qoldirdi. Komiljon Jabborov (1914-1975) bastakorlik faoliyati bilan zamondosh va mumtoz o'zbek shoirlarining turli mavzularda yaratgan she'rleriga milliy ohangdor, o'ziga xos jozibali 100 dan ortiq qo'shiq va ashulalar yaratdi. Yillar davomida bastalagan asarlarining orasida "Mubtalo bo'ldim senga" va "Ey, pari" (A.Navoiy g'azallari) "Diyorimsan", "Obod o'ljam", "Xushyor yor", "Bahor qo'shig'i", "Nazzora qil", "Mumtoz etgani keldik" (Z.Habibiy so'zları), "Lolaxon" (K.Otaboyev so'zi), "Toshkent piyolasi" (X.Xo'jayev so'zi), "Shifokorlar" (P.Mo'min so'zi), "Salom", "Birma-bir", "Ko'rgim kelur" (T.To'la so'zları), "Vatan" (Uyg'un so'zi), "Xush keldingiz" (R.Parfi so'zi), "Kel" (E.Vohidov so'zi), "Muhabbat gulshani" (X.Muhammad so'zi) kabi qo'shiq va ashulalari ijrochi xonandalar tomonidan sevilib ijo qilinib kelinmoqda. Ayniqsa uning A.Navoiy, Lutfiy, Fuzuliy larning g'azallariga yaratgan "Mubtalo bo'ldim senga", "Etmasmidim", "Bu ko'ngil" kabi ashulalari O'zbekiston xalq artisti Saodat Qobulovaning ijrosida eng noyob san'at asari sifatida xalq qalbida qadrlandi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalqining musiqiy merosini chuqriz bilgan sozanda-bastakor Komiljon Jabborov o'tgan asrda musiqa san'atini rivojlantirish jarayonida tinimsiz xalqqa xizmat qildi.

### Saidjon Kalonov

O'zbekiston xalq artisti, mohir naychi va bastakor Saidjon Kalonov XX asr o'zbek musiqasi tarixi sahifalarida yorqin iz qoldirdi. U xalqimizning mumtoz musiqiy san'ati an'analari chuqriz

bilimdoni va davomchisi sifatida hamda o'ziga xos uslubi bilan turli mavzularda qo'shiq, ashula, yalla va raqs kuylar yaratib, ijrochi, xonanda, sozandalar va xalq orasida shuhrat qozondi. Katta san'at dargohiga sozandalik bilan qadam tashlagan Saidjon Kalonov juda ko'p ustozlar davralarida bo'lib, turli ashula raqs va ansamblarda, teatrлarda hamda mashhur san'atkor Tamaraxonim ansamblida sozanda sifatida ishslash jarayonida bastakorlik ijodiy faoliyatida ana shu san'at dargohlarining konsert repertuarlarini boyitishda 200 dan ortiq qo'shiq, yalla, ashula va raqs kuylar yaratdi. Ular orasida "Vatan sevgisi", "Vatan taronasi", "Gulistonlar arsi", "Chevar qizlar", "Yashang qizlar", "Fazoga birinchi bosqich", "Quyoshli o'lkam" kabi qo'shiqlarida Vatanni, insonlarni mehnatda ko'rsatgan jasoratlarini aks etishi bilan birga insonlarning orzu - umidlarini, sevgi - muhabbatlarini: "Gulmidi ra'nomidi" (N.Narzullayev so'zi), "Sevgilim" (M.Qoriyev so'zi), "Oydin kechada" (Mirtemir so'zi) "Intizorman" (A.Po'lat so'zi), "Dilnavozim" va "Gulyor aytib kel" (A.Navoiy so'zlari) "Darkor emas" (A.G.ofuriy so'zi), "Ayb etma" (Z.Obidov so'zi), "Visol gulshani" (A.Istroilov so'zi) "Ey, sarvi ravon" (Nodira she'ri), "Bu nasim" (Z.Habibiy she'ri) kabi ashulalar madh etdi. Mazkur qo'shiq va ashulalar ko'p ijrochi avlodning repertuar mulki bo'lib qoldi va qo'shiq san'atining shaydolari dillarida saqlanib qoldi.

Saidjon Kalonov 1950-yil O'zbekiston xalq artisti faxriy unvoni, bir necha faxriy yodgorliklar hamda orden, medallar bilan mukofotlangan.

### Muxtorjon Murtazoyev

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, O'zbekiston Bastakorlari uyushmasi a'zosi, sozanda, xonanda va bastakor Muxtorjon Murtazoyev zabardast san'atkorlardan biri. U turli mavzularda bastalagan rang-barang, jozibali qo'shiq, yalla va ashulalari xalqimizning sevimli xonandalarining bir necha avlodlari ijrolarida yangrab kelmoqda.

Mohir ijrochi sozanda, atoqli bastakor ko'p yillik ijodiy faoliyati bilan XX asr o'zbek musiqasi tarixida o'chmas iz qoldirdi. M.Murtazoyev Qo'qon shahrida 1909-yil dunyoga keldi. U bolaligida musiqaga qiziqdi. Ustozlar ko'rdi. Mashaqqatli hayot va

ijod yo‘lini bosib o‘tib, ajoyib ovozi va mohir sozanda sifatida xalqqa tanildi. O‘zbek xalqining musiqiy merosini chuqur o‘zlashtirgan holda o‘tmishdagi va zamondosh bastakorlarga ergashdi. Bastakorlik ijodida o‘z uslubiy yo‘nalishini topib olishda izlandi va ijobiy natijalarga erishdi. 1933-1940-yillarda Qo‘qon shahar musiqali drama teatrida musiqa rahbari lavozimida ishlagan yillar uning uchun haqiqiy ijod maktabi bo‘ldi. Bu dargohda mashhur, ajoyib san’atkorlar bilan doimiy ravishda muloqotda bo‘ldi. Mahalliy shoirlarning so‘zlariga ilk bor: “Bo‘lsin omon”, “Bir ishva bilan”, “Ey go‘zal”, “Obod o‘lkam”, “Jon jo‘rajonim”, “Yigit qo‘shig‘i”, “Hur diyor”, “Umring ziyoda bo‘lsin”, “Vatanga muhabbat” kabi qo‘shiq va ashulalari teatrning yakkaxon xonandalari tomonidan konsertlarda ijro etilardi. Teatrning spektakllariga o‘zbek xalq musiqalaridan tanlab kiritdi va o‘zi ham musiqalar bastaladi.

Ikkinchı jahon urushi boshlangan yili Yangiyo‘l teatrida bastakor Yunus Rajabiy musiqa rahbari lavomiziga tayinlandi. U respublikada nomlari mashhur bo‘lgan sozanda va xonandalarni hamda ayrim iste’dodli yosh san’atkorlarni teatrda ishlashga taklif qildi. Ularning orasida Muxtorjon Murtazoyev ham bor edi. Bu tinib-tinchimas sozanda, hofiz va bastakor o‘z vazifasini bajo etish bilan birga vatanparvarlik, jangovar ruhda “Vatanim”, “Tor-mor aylay bugun”, “Maktubingizni oldim”, “Vafodorlar”, “Malohat” kabi qo‘shiqlarni yaratdi.

Urushdan keyingi 1945–1957-yillarda Muxtorjon Murtazoyev Muqimiyl nomli Respublika davlat musiqali teatrida jo‘rnavoz lavozimida, O‘zbekiston Radiokomiteta va Qo‘qon musiqali teatrda faoliyat ko‘rsatdi hamda mumtoz va zamondosh shoirlarning turli mavzularda yozgan she’rlariga 100 dan ortiq qo‘shiq va ashulalar yaratdi. Ularning orasida: “O‘rtama”, “Gulzor makon” (A.Navoiy g‘azallari), “Bizni tashlab” (Miskin g‘azali), “Jonim ila jonim” (Fuzuliy g‘azali), “Aylading qo‘yding” (Muqimiyl g‘azali), “Bir ishva bilan” (Hamza she’ri), “Ey ko‘ngil”, “Bulbullaring”, “Tasadduq”, “Jafo ham qilmading”, “Shahlolaringmu”, “O‘rgilay”. “O‘n sakkiz yoshimdadur”, “Barnoligin-gizdan”, “Vafodorlar”, “Sumbullaringdan” (Charxiy she’rlari), “Jonim erursan” (Kamtar she’ri), “Tamanno” (Kamtar yoki

X.Yahyoyev so‘zlarida ijro etadilar), “Farg‘ona tong otguncha” (Haziniy she’ri) kabi ashulalari umrboqiyiliklari bois yillar davomida mashhur va yosh xonandalarning ijrolarida yangrab, xalqimizga ma’naviy ozuqa berib kelmoqdalar.

Ajoyib inson, yorqin iste’dod sohibi bastakor, xonanda va sozanda Muxtorjon Murtazoyev o‘z noyob san’ati bilan xalq dilida, musiqa san’atimiz tarixida o‘chmas iz qoldirdi.

### **Muhammadjon Mirzayev**

O‘zbekiston Xalq artisti, bastakor va sozanda Muhammadjon Mirzayev ajoyib, shirali qo‘shiq, yalla, ashula cholg‘u musiqa va raqs kuylari bilan el-yurt hurmat e’tiboriga sazovor bo‘lib, XX asr o‘zbek musiqasi tarixida yorqin iz qoldirdi.

U bastakorlik an’analalarini davom ettirgan holda yaratgan asarlarida zamonaviy hayotni Vatanni, sevgi muhabbatni, vafo va sadoqatni, mardlik va jasoratni ardoqlab baralla kuyladi. O‘zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari uyushmasi a’zosi Muhammadjon Mirzayev Toshkentda 1913-yilning 13-avgustida ishchi oilasida dunyoga keldi. 1920-yillardan boshlab to‘qimachilik kombinatida ishladi. Havaskorlar musiqa to‘garagiga faol qatnashib, mandolina chalishni o‘rgandi. 1936-yil O‘zbekiston davlat filarmoniyasi qoshida mashhur bastakor sozanda To‘xtasin Jalilov rahbarligida tashkil topgan “O‘zbek ashula va raqs ansambl”da sozanda lavozimida ishladi. Mazkur ansambl uning hayotida ijrochilik maktabini o‘tadi.

Ikkinchi jahon urushi yillari filarmoniya tarkibida tashkil topgan front konsert brigadalarning biriga mashhur yozuvchi Oybek rahbar, kompozitor Dadaali Soatqulov esa musiqa rahbari lavozimiga tayinlangan edilar. Ana shu konsert brigadada Muhammadjon Mirzayev ham sozanda lavozimida xizmat qildi. 1946-yili yana filarmoniyaga qaytdi. 1948-yili esa Toshkent davlat konservatoriyasida “O‘zbek xalq cholg‘ulari” kafedrasi tashkil qilindi. Muhammadjon Mirzayev birinchi talabalar qatorida o‘qishga kirdi va 1953-yili bitirdi. Shu yildan boshlab, hayotining oxirigacha filarmoniyada rubobchi yakkanavoz ijrochi sifatida shuhrat qozondi. Mohir sozanda Muhammadjon Mirzayevning bastakorlik ijodiyoti XX asrning 50 – 80-yillarida keng quloch

yozdi, gullab yashnadi. U yillar davomida xalqimizning sevimli xonanda, sozandalariga atab, ularning ijrochilik imkoniyatlariga mo'ljallab, 300 dan ortiq qo'shiq va ashulalar yaratdi. Bular orasida "Qachon bo'lg'ay", "Sho'xi jononim mening", "Yor istar", "Yo'lingda" (Z.Furqat she'rlari), "Yakka bu Farg'onada", "Ko'zlarin", "Suvrating", "Yolg'iz", "Yana" (Muqimiy she'rlari), "Shaydo bo'libman" (Kamtar she'ri), "Zor etding" (Jannatiy she'ri), "Parvo etib ket" (S.Abdulla she'ri) va h.k.

Shuni alohida ta'kidlash lozimkii, bastakor yillar davomida Mukarama Turg'unboyeva nomidagi "Bahor" raqs ansambl O'zbekiston davlat filarmoniyasining "Shodlik", "Lazgi" ashula va raqs ansamblari repertuarlarini boyitib keldi. Ularning ijrolarida "Bahor valsi", "Intizor etma", "Ufori sanam", "Gulnoz" raqs qo'shiqlari va rubob uchun bastalagan kuylari juda mashhur bo'lib ketdi. Yorqin iste'dod sohibi, zukko bastakor Muhammadjon Mirzayev o'z davrining mashhur kuychisi 1937 – 1951 va 1959-yillarda Moskvada o'tkazilgan O'zbekiston adabiyoti va san'ati dekadalarida faol qatnashdi, turli orden va medallar, faxriy yorliqlar va O'zbekiston Xalq artisti faxriy unvoni bilan mukofotlandi.

### Fahriddin Sodiqov

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, O'zbekiston bastakorlar va musiqashunoslari uyushmasi a'zosi sozanda, changchi, bastakor, murabbiy - ustoz.

Fahriddin Sodiqov ijodiy mohir ijrochilik, muallimlik va jamoatchilik faoliyati bilan XX asr o'zbek musiqasi tarixida yorqin iz qoldirdi. U o'zbek xalq mumtoz musiqa an'analarini ustozlardan puxta o'rganib, ularni izchil davom ettirib, o'ziga xos uslubiy yo'naliishda ijod qilib, yaratgan ashula, qo'shiqlar va cholg'u musiqalari bilan el-yurt hurmatiga sazovor bo'ldi.

Fahriddin Sodiqov bolaligidan musiqaga qiziqdi. Dutor chalishni mahalladagi katta yoshdagи bolalardan o'rgana boshladi. Keyin Nug'mon Qori Mo'minzodadan chang chalishni, Abdusоat Vahobdan dutor chertishni puxta o'rgandi hamda Turkiston Xalq konservatoriyasining Viktor Uspenskiy rahbarligida tashkil topgan eski shahar filialida tahsil ko'rди. 1926-yil Toshkent davlat musiqa texnikumida o'qidi va 1933-yil muvaffaqiyatli bitirdi. O'zbekis-

tonda tashkil topgan turli musiqa jamoalarida ishladi va 1972-yildan to umrining oxirigacha Toshkent davlat konservatoriyaning “Sharq musiqasi” kafedrasida maqom ijrochiligi bo‘yicha talabalarga ustozlik qildi. Bastakor F.Sodiqov musiqiy ijodiyotida 300dan ortiq qo‘sish, ashula va cholq‘u musiqalar yaratdi. Jumladan “Marhabo” (Mirtemir so‘zi), “Vatandan minnatdor” va “Ey chehrasi tobonim” (Muqimiy so‘zleri), “O‘ynasin” (Habibiy so‘zleri) kabi ilk yaratilgan qo‘sish va lirik ashulalari tinglovchilarda yaxshi taassurot qoldirdi va yana bir iste’doli bastakor bunyodga kelganidan dalolet berdi. Uning bastalagan qo‘sishlari orasida “O‘zbekistonim mening” (Uyg‘un so‘zi), “Hosil to‘yi” (M.Qoriyev so‘zi), “Jahon bo‘ylab bir ovoz yangrar” (Q.Muhammadiy so‘zi), “Tinchlik qo‘sishig‘i” (U.G‘ani so‘zi), “Zarafshon” (A.Po‘lat so‘zi), “Gullar vodiysi” (T.To‘la so‘zi), “Vatan o‘xshar quyoshga” (E.Rahim so‘zi), “Oltin vodiy”, “Oq oltin karvon - karvon” va “Mirzacho‘lning qiziman” (Z.Obidov so‘zleri), “Terimchi qizga” (S.Zunnunova) kabi qo‘sishlarda Vatanni, mehnat ahlini, tinchlikni madhiyaladi. Bu qo‘sishlar radio to‘lqinlarida muntazam jaranglab keldi. Bastakorning ko‘plab qo‘sish va ashulalari tabiatni, ayniqla, bahor faslini, ishq muhabbatni, insoniylikni, go‘zallikni quyidagi asarlarda madh etgan: “Sevgilim”, “Tong shabbodalari”, “Uyalaman”, “Hayo” (M.Qoriyev so‘zleri), “Yor bilib”, “Xo‘p de janim”, “Yor bo‘lsin deyman” (S.Zunnunova so‘zleri), “Bir go‘zal”, “Oydin kechada” (Mirtemir so‘zleri), “Onajonim”, “Ayb etma”, “Xushhavo chamanlarda”, “Muborakbod”, “Ko‘zim”, “Mezbon bo‘lay” (Z.Obidov so‘zleri), “Menga navbat”, “Shirmonoy”, “Yor bo‘limasa”, “Go‘zal”, “Zuhroga” (T.To‘la so‘zleri), “Ochil nihol”, “So‘lim bahor”, “Visol gulshani”, “Vafo qo‘sishig‘i”, “Suv suluv qo‘sishig‘i” (A.Istroilov so‘zleri), “Xumor”, “Shaydosiman”, “Tashna qalbim” (Yo.Mirzo so‘zleri) mazkur qo‘sish va ashulalar musiqa shinavandalarning bir necha avlodlarining qalblaridan mustahkam joy olib xalq mulkiga aylanib ketgan.

### Nabijon Hasanov

O‘zbekiston Xalq artisti, mohir g‘ijjakchi, sozanda va bastakor Nabijon Hasanov dilrabo qo‘sish va ashulalari bilan hamda sahna

asarlariga, cholg'u ansamblariga yaratgan musiqa asarlari bilan XX-asr o'zbek musiqasi tarixida unutilmas iz qoldirdi.

O'zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari uyushmasi a'zosi, yorqin iste'dod sohibi, bastakor Azimjon o'g'li Nabijon Hasanov Samarqand shahrida hunarmand oilasida 1913-yilda tavallud topdi. Uning musiqa san'atiga bo'lgan muhabbatini dastlab otasi uyg'otdi. Keyin mashhur bastakor, naychi-sozanda Tolibjon Sodiqov ustozlik qildi. Kelgusi yillarda Samarqand davlat musiqa va xoreografiya ilmiy tadqiqot institutida o'qidi. Nabijon Hasanov 1937, 1951–1959-yillarda Moskvada o'tkazilgan O'zbekiston adabiyoti va san'ati dekadalarida faol qatnashdi. 1942–1944-yillarda o'tkazilgan O'rta Osiyo va Qozog'iston san'at haftaliklarida ham faol ishtirok etdi. Urush yillarda sahna yuzini ko'rgan "O'zbekiston qilichi" spektakliga musiqa bastaladi.

Bastakor Nabijon Hasanov 1947-yil O'zbekiston radiosи qoshidagi "O'zbek xalq cholg'u asboblari orkestri"ga jo'mavoz lavozimiga tayinlandi. 1948-yili Toshkent davat konservatoriysi tarkibida yangi ochilgan "O'zbek xalq cholg'u asboblar ijrochiligi fakulteti"ga ikkinchi kurs sifatida qabul qilindi. 1951-yili esa ayrim sabablarga ko'ra o'qishni to'xtatishga majbur bo'ldi. Ammo u hayotining oxirigacha radio orkestrida ijrochilik va bastakorlik faoliyat bilan zamonaviy o'zbek musiqa san'atiga faol xizmat qildi. Yillar davomida bastakor o'z uslubiy yo'nalishi bilan zamonga hamnafas bo'lib, 200 ga yaqin xilma-xil, rang-barang, dilrabo qo'shiq va ashulalar yaratdi. Ularning orasida: "Jonajon o'ljam", "Mening Vatanim" (S.Ismoilov she'ri), "Ona Samarqand" (Nazarmat she'ri), "Maftuningman Samarqand", "Sho'xi zamonim" (A.Kamtar so'zi), "Gullaydi Toshkent" (T.To'la so'zi) kabi ommaviy qo'shiqlar yoki "Tinglang yulduzlar" (Z.Obidov so'zi), "Jon tasadduq bo'yginingga" (Ya.Qurban so'zi), "Kuylar yigirma yoshim" va "Intizor" (Mirtemir so'zleri) "Charos", "Kashta tikdim siz uchun" va "Gulchiroy" (S.Zununova so'zleri), "Gullar ochilur" (M.Rahimov so'zi), "Noz etardi, e'zoz etardi" (P.Mo'min so'zi), "Gulchehralar" (E.Vohidov so'zi), "Ne bo'ldi" (Bobur so'zi), "Dilbar" (Mashrab so'zi), "O'n sakkiz yoshligim" (A.Navoiy g'azali) ashula va qo'shiqlari hamda "O'ynab o'ting shabbodalar", "Qizlar valsi" (M.Qodirov so'zi), "Baxt yallasi", (A.Po'lat so'zi)


kabi yallalar musiqa muxlislarining qalbidan joy olgan. Ayniqsa, xalq orasida Saodat Qobulova ijrosida mashhur bo‘lib ketgan “Oq kaptarlar iltimos” (M.Boboyev so‘zi) lirik qo‘shtig‘i jozibadorligi, mazmundorligi bilan tinglovchilarni maftun qilib kelmoqda. Qo‘shtiq janridan tashqari N.Hasanov o‘zbek xalq cholg‘ulari orkesri uchun “Lirik kuy”, “Do’stlik” (ko‘p qismli syuita), G‘ijjak va orkestr uchun pyesa, doira, g‘ijjak va nay uchun pyesa, “Paxta raqsi” nomli xoreografik syuita kabi asarlarini yaratdi. Ajoyib dilkash inson, mashhur sozanda va bastakor uning musiqa san’atiga bo‘lgan fidoyiligi, mehnatsevarligi, hamkasblari va umuman insonlarga do’stlariga, mehribonligi bilan alohida ajralib turardi. Zamonaviy musiqa san’atini rivojlantirish jarayoniga samarali qo‘shtigan hissasi uchun Nabijon Hasanov 1950-yili O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, 1967-yili esa O‘zbekiston xalq artisti unvonlari bilan taqdirlandi.

**Tayanch so‘zlar:** milliy madaniyat, konservatoriya, kompozitor, dirijor, etnograf, musiqashunos, bastakor, musiqa maktabi, musiqa texnikumi, musiqa bilim yurti, institut, teatr, gastrol.

### Mavzu bo‘yicha savollar:

1. XX asrning 20-40-yillaridagi madaniyat rivoji haqida ma’lumot bering.
2. O‘rganilayotgan davrda madaniyat, san’at sohalarining rivojlanish bosqichlari xususida gapirib bering.
3. Respublikaning turli viloyatlarida tashkil etilgan musiqiy uyushmalar va to‘garaklari haqidagi ma’lumotlar.
4. Musiqiy ta’lim muassasalari xususida.
5. Yunus Rajabiy ijodi va faoliyatiga oid ma’lumotlar.
6. XX asrning 20-40-yillaridagi madaniyat sohasini o‘rganish uchun xizmat qiluvchi ikkilamchi manbalarni aytинг.

## **XX asrning 20 – 40-yillarda madaniy - musiqiy hayot mavzu rejasining diagramma shaklidagi ko‘rinishi.**



### **Mavzu bo‘yicha topshiriqlar:**

1. O‘rganilayotgan davrda yashab ijod qilgan san’atkorlar haqida ma’lumotlar topish.
2. Yunus Rajabiy ijodiy faoliyati haqida ma’ruza tayyorlash.
3. 1920-1940-yillarda tashkil etilgan musiqiy havaskorlik jamoalari, musiqiy o‘quv maskanlar, dastlabki teatrlar xususida ma’lumotlar yig‘ib mustaqil ma’ruza tayyorlash.
4. Tayyorlangan mustaqil ma’ruza asosida mavzuni so‘zlab berish.


### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. “История узбекской советской музыки”. –Т: 1972, 1973, 1991.
2. O‘zbek musiqasi tarixi. –Т.: 1981.
3. Jabborov A. O‘zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari –Т.: 2004.
4. Jabborov A. Musiqiy drama va komediya janrlari O‘zbekiston kompozitorlarining ijodiyotida. –Т.: 2000.
5. Begmatov S. Bastakorlar ijodi. –Т.: 2017.

## IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA MUSIQIY HAYOT


### Mavzu rejasি:

1. Konsert tashkilotlari va teatrlar faoliyati.
2. Front konsert brigadalarining tashkil topishi va faoliyati.
3. Bastakor va kompozitorlar ijodiy faoliyati.
4. Urush yillarida yaratilgan musiqali drama va operalar.



Urush yillarida xalqlarning iqtisodiy turmushlari mushkul bo‘lishiga qaramasdan, O‘zbekistonda madaniy va musiqiy hayot to‘xtab qolmadi. Respublikadagi hamma teatr va konsert tashkilotlari, musiqa maktablari, o‘quv bilim yurtlari, konservatoriya va boshqa madaniyat maskanlari o‘z ish faoliyatlarni urush muhitiga

moslab, davom ettirdilar. Yozuvchilar, kompozitorlar va butun san'atkorlar ahli Vatanparvarlik harakatining peshqadami bo'ldilar. Ular bu og'ir damlarda xalqni va ziyolilarni oldilariga qo'yilgan jangovor vazifalarni yaxshi tushunar va amalga oshirish yo'lida kuch - quvvat, bilim g'ayratlarini ayamasdan ishladilar va ijod qildilar. Odatda, zambaraklar guldiraganda, musiqa sukunat suqlaydi deyidilar. Ammo o'tgan urushda buning aksi bo'ldi. Musiqalar jarangladi, yangi - yangi vatanparvarlik, insonparvarlik qo'shiqlar va turli janr va shakllarda mazmundor, fashizmga qarshi nafratlar nayzasi otildigan musiqiy asarlar, konsert dasturlari va kinofilmilar bunyodga keldi.




### Muqimiy nomidagi o'zbek davlat musiqali drama va komediya teatri

1943-yili O'zbekiston fanlar akademiyasi va uning ayrim ilmiy institutlari tashkil qilindi. O'zbekiston san'atshunoslik ilmiy tadqiqot instituti qoshida 1943-yil o'zbek xalq cholg'ularini takomillashtirish maqsadida maxsus laboratoriya ochildi. Unda musiqashunos Ashot Ivanovich Petrosyans bilan yonma-yon Leningrad konservatoriyasining professorlari<sup>10</sup>: S.L.Ginzburg, B.A.Struve va X.S.Kushnaryovlar ilmiy ish olib borishdi. 1944-yili Toshkent davlat teatr va rassomchilik instituti tashkil topdi. Respublikamizning viloyat markazlarida va yirik shaharlarida o'zbek, rus drama teatrлari, o'zbek musiqali drama va komediya teatrлari tomoshabinlarga madaniy xizmat qilib turdi.

1940-yillar garchand xalqimizning hayotida og'ir kunlar tarzida o'tgan bo'lsada, madaniyat va ma'rifat sohasida bir qator o'quv maskanlari, madaniyat va san'at dargohlari barpo etildi. Xususan, 1941-yili Toshkent xoreografiya o'quv bilim yurti ochildi. 1943-yili Muqimiy nomidagi Respublika davlat musiqali teatr uchun hashamatli, chiroyli, yangi bino qurildi

<sup>10</sup> Urush yillari Leningrad konservatoriysi Toshkentga evakuatsiya qilingan edi

Teatr sahnalarida urush mavzusiga bag‘ishlangan, vatanparvarlik va insonparvarlik g‘oya his tuyg‘ulari bilan sug‘orilgan konsert dasturlaridan tashqari “Tohir va Zuhra” (S.Abdulla pyesasi, T.Jalilov musiqasi), “Muqanna” (H.Olimjon pyesasi, Yu.Rajabiy va G.Mushel musiqasi), “Qo‘chqor Turdiyev” (Sobir Abdulla va Chustiy pyesasi, Yunus Rajabiy musiqasi), musiqali dramalar sahna yuzini ko‘rdi.



Aholini ma’naviy jihatdan ta’minlash maqsadida Toshkent shahrida ikkita: opera va balet teatri hamda Toshkent viloyatining Yangiyo‘l shahrida maxsus davlat musiqali drama teatri o‘z faoliyatlarini olib borar edi.

### Alisher Navoiy nomidagi DKAOBT

Shuni aytish joizki, “Yangiyo‘l teatri”da 1942-yili “Qo‘chqor Turdiyev”, 1944-yili “Muqanna” nomli musiqali dramalarining premyeralari ham katta madaniy voqeaga aylanib ketgan edi. Teatrning spektakllarini sahnaga qo‘yishda, konsert dasturlarini tayyorlashda va ularni namoyish etishda Ukraina, Belorusiya, Moskva va Leningraddan kelgan mohir sahna ustalarini hamda musiqachilarining qatnashishlari musiqiy teatrning ijrochilik saviyasini ko‘tarishda muhim o‘rin egalladi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Dahshatli urush yillarida ham O‘zbekiston kompozitorlar uyushmasi, O‘zbekiston xalq artisti, kompozitor Tolibjon Sodiqov rahbarligida, butun san’at ahlining markaziga aylandi. Bu to‘g‘risida musiqashunos I.N.Karelova “Песня и романс”<sup>11</sup> maqolasida shunday ma’lumot beradi: “O‘zbekiston kompozitorlar uyushmasida har kuni endigina yozilgan qo‘sish yoki yirik asarlarni eshitib bo‘lgach muhokama qilinardi. Unda hamma mahalliy va Moskva,

<sup>11</sup> “Музыкальная культура Советского Узбекистана”. Т.: 1955. //“Песня и романс”.

Leningrad, Ukraina, Belorusiyalardan kelgan kompozitorlar, musiqashunos va ijodiy sozandalar ham qatnashardilar va o‘zlar bastalagan asarlarni muhokamaga qo‘yar edilar. Albatta ular yaratgan qo‘schiqlarni ko‘pi urush, vatanparvarlik, insonparvarlik mavzularda yozilishi tabiiy hol edi. Muhokamalar qizg‘in va tanqidiy o‘tar edi. Urush yillari juda ham ko‘p “Mudofaa” va lirik qo‘schiqlar yozilgan. Ulardan eng jozibali qo‘schiqlar ijrochilarga tavsiya etilgan va ayrimlari nashr ham qilingan. Ular orasida qo‘yidagi qo‘schiqlarning nomlarini keltiramiz: bastakor T.Jalilovning kompozitor M.Shteynberg bilan hamkorlikda yozgan “O‘zbekiston doim tayyor” (T.Fattoh so‘zları), M.Ashrafiyning “Kel”, “Qasam”, “Arzimni yorga aytинг” (Uyg‘un she’rları); M.Burhonovning “Jangchilar qo‘shic‘i”, xor uchun “Ey ulug‘ ustoz” (T.Fattoh so‘zi), “Ishqida” (Uyg‘un so‘zi); bastakor M.Xarratovning “Sevimli Vatan”, “Jangovor qo‘sishin” (Davron so‘zları) va “Yigitlar” (Uyg‘un so‘zi); bastakor Sh.Sohibovning “Bayrog‘imiz” (T.Fattoh so‘zi), “Vatan o‘g‘loni”, “Ey dilbar” (Chustiy so‘zi) va “Dilnavoz”, (A.Navoiy so‘zi) kabi xor qo‘schiqlari; M.Leviyevning “O‘zbek o‘g‘li”, “Biz dohiy farzandlari”, “Maydondamiz” (M.Shayxzoda so‘zları) va “Vatan chaqirmoqda” (T.To‘la so‘zi); D.Zokirovning “Ol qasos”, “Jangda bardam bo‘l” (S.Abdulla so‘zi); bastakor Nabijon Hasanovning “Nayzabardor” va “Ofarin” (T.Fattoh so‘zları); S.Yudakovning “Qonga-qon, jonga jon” (T.Fattoh so‘zi), “Otliq askar qo‘shic‘i” (Mirtemir so‘zi) kabi qo‘schiqlar misol bo‘la oladi.

O‘zbek musiqali teatr jamoalari, kompozitor va dramaturglar bilan hamkorlikda urushning dastlabki kunlaridan boshlab butun ijodiy ish faoliyatlarini g‘alaba uchun bag‘ishladilar. Jumladan, urushning ilk oyida Muqimiy nomidagi respublika musiqali teatr jamoasi **“Qurban Umarov”** musiqali dramani tomoshabinlarga havola qildi (dramaturglar S.Abdulla va Chustiy, musiqa mualliflari T.Jalilov va G.Shperling). Bu spektakldan so‘ng birin-ketin qo‘yidagi musiqali dramalar bunyodga keldi: **“Qasos”** Yu.Rajabiy va B.Nadejdin musiqasi, Sh.Tuyg‘un va A.Umariylar pyesasi, **“Nurxon”** T.Jalilov musiqasi, K.Yashin pyesasi, **“Oftobxon”** X.To‘xtasinov va G.Mushel musiqasi, K.Yashin pyesasi, O‘zbek opera va balet teatrinda esa quyidagi musiqali dramalar sahna yuzini

ko'rdi: “**Davron ota**” (T.Sodiqov va A.Kozlovskiy musiqasi, S.Abdulla, Chustiy va K.Yashin pyesasi), “**Sherali**” M.Ashrafiy, S.Vasilenko va A.Kozlovskiy musiqasi, H.G‘ulom, B.Xalilov pyesasi; “**O‘zbekiston qilichi**” T.Sodiqov, M.Burhonov, S.Vaynberg, T.Jalilov, N.Hasanov, A.Klumanyov musiqasi, S.Abdulla, H.Olimjon, O.Uyg‘un, N.Pogodinlar so‘zi.

Yuqorida zikr qilingan Yangiyo‘l teatrida sahna yuzini ko‘rgan asarlar: “**Qo‘chqor Turdiyev**” Yu.Rajabiy musiqasi, S.Abdulla va Chustiylar pyesasi, “**Muqanna**” Yu.Rajabiy va G.Mushel musiqasi, H.Olimjon pyesasi<sup>12</sup>. Opera va balet teatr jamoasi esa, urush yillari, yuqorida nomlari eslatilgan musiqali dramalardan tashqari quyidagi opera va baletlarni tomoshabinlarga havola qildi: “**Ulug‘bek**” A.Kozlovskiy musiqasi G.Gerus va A.Kozlovskiy librettosi, “**Mahmud Tarobiy**” O.Chijko musiqasi, Oybek librettosi, “**Ледовое побоище**” (“Muz ustidagi jang”) G.Taranov musiqasi, G.Taranov va N.Varlamov librettosi; S.Vasilenkoning “**Oqbilak**” nomli baleti ham sahna yuzini ko‘rdi. Shoir Mirtemir tarjimasida, kompozitor J.Bizening “**Karmen**” operasi o‘zbek tilida ilk marotaba tomoshabinlarga havola qilingani, katta madaniy voqeaga aylandi. Albatta, mazkur musiqali drama va operalar badiiy mezon jihatidan bir-birlaridan farqlanib, ularning sahnadagi taqdirlari, kelgusida har xil bo‘ldi. Ayrimlari, masalan: “**Nurxon**”, “**Oftobxon**” dramalari va “**Ulug‘bek**” operasi urushdan keyingi davrda ham sahnada uzoq vaqt namoyish etildi.

Urush yillari simfonik va vokal - simfonik musiqa ham sezilarli rivojlana boshladı. Bu sohada kompozitorlar milliy asarlar yaratishdi. Kompozitsiya tamoyillarini o‘zlashtirishda ijobji izlanishlar va yaxshi natijalarga ham erishdilar. Mazkur janrlarda yaratilgan asarlar g‘oyaviy mavzusi bilan davr talabiga javob bera oladigan qahramonlik – jasorat va dushmanqa nafrat his-tuyg‘ularini uyg‘unlashtiradigan yirik musiqiy asarlar bunyodga keldi. Bu sohada V.A.Uspenskiyning “**Muqanna**” (1943y.) nomli 5 qismli (“**Karvon**”, “**Olovga sig‘inish**”, “**Irodaga qarshi raqs**”, va “**Guloyimning chiqishi**”) syuitasini ta’kidlash lozim. Mazkur asar shoir H.Olimjonning “**Muqanna**” dostoni ta’siri ostida yozilgan.

<sup>12</sup> Mazkur musiqali dramalar haqidagi batafsil ma‘lumot va tahlillar A.Jabborovning “Musiqiy drama va komediya janrlari O‘zbekiston kompozitorlarining ijodiyotida” kitobida keltirilgan.

G.A.Mushelning 1941-1942-yillarda yaratgan ikkita simfoniyasi va “Farhod qurilishi” (A.Lagutin so‘zi) nomli kantatasi, M.Ashrafiyning (S.Vasilenko va A.Kozlovskiy larning tahririda) yaratilgan “Qahramonlik simfoniyasi” (1943), “Zafarlarga Ofarin” nomli ikkita simfoniyasi va “Tantanali marsh”; M.O.Shteynbergning bastakor K.Jabborov bilan hamkorlikda yaratgan “Simfoniya-rapsodiya”si, “Ilg‘or” uvetryurasi, V.Voloshinovning “O‘zbekcha syuita”si, G.Mushelning ikkinchi fortepiano konserti, V.Levitinning “Muqaddas urush” (“Священная война”) oratoriysi; A.Kozlovskiy va B.Arappingarning “Jaloliddin Xorazmiy” (O.Kamtar so‘zi) oratoriysi (1944). S.Yudakovning “G‘alaba” (G‘.G‘ulom so‘zi) kantatasi kabi asarlar misol bo‘la oladi.

Shuni alohida aytish joizki, o‘sha yillarda Toshkentdagи barcha teatr va konsert jamoalari sayyor konsert va spektakllar berishar edi. Ular mazkur yillarda 4000dan ortiq konsert, spektakllar adabiy suhbatlar va madaniy kechalar tashkil qildilar.

Dirijor I.Musin rahbarligida o‘zbek filarmoniyasining simfonik orkestri Leningrad konservatoriyaning simfonik orkestrlari birlashmasi bilan hamkorlikda 1942-yilning 22-iyunida ulug‘ rus kompozitori Dmitriy Shostakovichning urush yillari Leningrad qalqonida yaratgan 7-simfoniyasining ijro etilishi katta badiiy ahamiyatga molik voqeaga aylanib ketdi.

Leningradlik olimlarning tashabbusi bilan O‘zbekiston musiqa tarixida, musiqiy merosni o‘rganish va san’atkorlar faoliyatiga bag‘ishlangan, S.Ginzburg muharrirligi ostida muallimlar jamoasi tomonidan yaratilgan “Пути развития узбекской музыки” (“O‘zbek musiqasining rivojlanish yo‘llari”) nomli maqolalar to‘plami, 1946-yili Leningradda nashr etildi.

Urush yillari maxsus tashkil qilingan “Front – konsert brigada” jamoalarining matonatli xizmatlari “O‘zbek musiqasi tarixi” sahifalarida yorqin iz qoldirdi. Mazkur jamoalar a’zolari asosan o‘zbek filarmoniysi, o‘zbek va rus opera - balet teatrining, o‘zbek radiosи, Toshkent va Leningrad konservatoriyalari ning xonanda, sozanda, raqqosa va turli ansamblari san’atkorlaridan tashkil topgan edi.

Aynan, o‘sha olovli yillarda O‘zbekistondan 15 ta “front konsert brigadalar” faoliyat ko‘rsatdi. Ularning har birini faoliyati

katta doston, deyish mumkin. Urush davrining mashaqqatlariga mardonavor chidab o'zbek musiqa san'atini jangchilar orasida yorqin namoyish etganlar orasida: Tamaraxonim, Halima Nosirova, Gavhar Rahimova, Komuna Ismoilova, Mukarrama Turg'unboyeva, Mehri Abdullayeva, Isaxor Oqilov, Narzulla Yoqubov, Muhiddin Qoriyoqubov, Roziya Karimova, Dadaxo'ja Sottixo'jayev, Mamadaziz Niyozov, Fahriddin Sodiqov, Dadaali Soatqulov, Muhammadjon Mirzayev, Yelizavetta Petrosova, Qumrixon Qodirova, Sora Samandarovna, Xadicha Hakimova, Saida Safarova, Tamara Korolyova, Roza Beglanova, Ruqiya Azimova, Poshsho Matchonova, Anjelika Maskalyova, Sayyora Arzumanova, Habib Rahimov, Nabi Hasanov, Ergash Shukurullayev, Po'lat Rahimov, O'g'iloy Masharipova, Vanda Perachina, G'ofur Solixov, G'affor Vallamatzoda, Shohnazar Sohibov, Abduqodir Ismoilov, Usta Olim Komilov kabi boshqa o'nlab san'atkorlarning nomlari hurmat bilan tilga olinadi. "Front konsert" brigadalarida xizmat qilganlar hukumat mukofotlari, faxriy unvonlar, harbiy orden medallar bilan taqdirlандilar. Tamaraxonim "Qizil yulduz" ordeni va kapitan unvoni bilan Gavhar Rahimova "Qizil yulduz" ordeni, D.Soatqulov "За отвагу" медали bilan, S.Sodiqov, R.Baglanova, G.Azimova, X.Rahimovalar "За боевые услуги" medali bilan va boshqa hamma qatnashchilar "За победу над Германией 1941 – 1945" medali bilan taqdirlangan edilar. Shunday qilib, urush yillari mashaqqatli va qiyinchiliklariiga qaramay O'zbekiston to'laqonli mustaqil hayot kechirdi. Respublikamizda istiqomat qilgan barcha san'atkorlarning har biri buyuk g'alabani yaqinlashtirishga jonini fido etib, xalqqa, front jangchilariga xizmat qildilar. Shu bilan birga ayrim san'atkorlar qo'llarida qurol bilan jang maydonlarida fashistlarga qarshi kurashdilar. Ular orasida M.Leviyev, G.Sobitov, M.Yusupov, V.Knyazev, T.Jumayev, X.Izamov, A.Muhammadiyev, F.Nazarov, A.Otajonov, Sh.Ramazonov, B.Gienko, V.Zudov kabi kompozitorlar va M.Axmadiyev, M.Kovbas, A.Jabborov kabi musiqa shunoslari harakatdagagi harbiy qismlar orkestrida va ansamblarida xizmat qilishdi. Urushda qurbanlar orasida yozuvchilar, teatr, kino musiqa, tasviriy san'atning vakillari va namoyandalar ham bor edi. Adabiyot va san'atimizning oltin sahifalarini yaratgan yurtdoshlarimiz xotiramizda va qalbimizda mangu yashaydi.

**Tayanch so‘zlar:** madaniyat, san’at, front-konsert brigadalar, o‘quv muassasalar, drama, musiqali drama, spektakl, opera, san’atkorlar, kompozitor, musiqashunos, bastakor, teatr.

### **Mavzu bo‘yicha savollar:**

1. Ikkinchi jahon urushi haqida nimalarni bilasiz?
2. Bu davrda O‘zbekistonda qanday o‘quv, ilmiy va madaniy muassasalar ochildi?
3. Qachon va kimning tashabbusi bilan Toshkent viloyatining Yangiyo‘l shahrida musiqali drama teatri tashkil etildi?
4. 1942-yilning iyun oyida Qirg‘iziston Respublikasining poytaxtida qanday tadbir bo‘lib o‘tdi va unda O‘zbekiston delegatsiyasi tomonidan qaysi asarlar ijro etildi?
5. Urush yillarida san’atkorlar qanday faoliyat yuritdi?
6. Ushbu davrda sahnada qo‘yilgan operalar haqida ma’lumot bering.

### **Mavzu bo‘yicha topshiriqlar:**

1. Ikkinchi jahon urushi yillarida bo‘lib o‘tgan dekada xususida ma’lumot to‘plash.
2. Ushbu davrda yaratilgan musiqiy asarlar qanday janrlarga taalluqli bo‘lgan?
3. “Front konsert brigadaları”da faoliyat olib borgan san’atkorlar haqida ma’ruza tayyorlash.
5. O‘zbek opera va balet, Muqimiy nomidagi hamda Yangiyo‘l musiqali drama teatrida faoliyat olib borgan san’atkorlar, ushbu teatrlarda sahnaga qo‘yilgan asarlarni mukammal o‘zlashtirish.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. Музыкальная культура Узбекистана. –Т.: 1955.
2. История узбекской советской музыки. –Т.: 1972.
3. A.Jabborov “Musiqiy drama va komediya janrlari O‘zbekiston kompozitorlari ijodiyotida”, –Т.: 2000.

## **XX ASRNING 50-80-YILLARIDA MUSIQIY HAYOT**

### **Mavzu rejasি:**

1. Respublikamiz madaniy hayotida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar.
2. Musiqiy o‘quv yurtlari faoliyatini takomillashtirish. Tanlov, festival, qo‘sish bayramlari, simpozium va dekadalar.
3. Filarmoniya, O‘zbek estrada-konsert tashkilotlari va teleradio qoshidagi eski va yangi tashkil topgan jamoalar faoliyati.

Ko‘rib chiqilayotgan davr o‘zbek musiqa san’atining deyarli barcha sohalarda ulkan va jiddiy siljishlar davridir. Aynan mana shu davrga kelib, O‘zbekiston kompozitrlarining asarlari respublika miqyosidan tashqarida ham tanila boshlandi. Jumladan: Ikrom Akbarovning “Shoir qalbi” poemasi va skripka uchun konserti, M.Burhonovning xor a’kapellalari, G.Mushelning fortepiano konsertlari va organ asarlari, A.Kozlovschiyning simfonik poemalari, S.Yudakovning “Maysaraning ishi” hamda M.Ashrafiyning “Dilorom” operalari<sup>13</sup>.

O‘zbekiston musiqa san’ati, xususan kompozitorlik ijodiyoti uchun mazkur davr yuksalish, o’sish davri hisoblandi. Millatga xos, mukammal o‘zbekona asarlarni yaratish imkoniga ega bo‘lgan Ikrom Akbarov, Sobir Boboyev, Doni Zokirov, Xayri Izomov, Sulaymon Yudakovlar va kelgusi yillarda To‘lqin Qurbonov, Muxtor Ashrafiy, Mutal Burhonov, Manas Leviyev, Tolibjon Sodiqov kabi o‘zbek milliy kompozitorlari mustaqil ijod yo‘liga chiga boshladilar. Ular tomonidan yaratilgan asarlarda janrlar xilmassisligini alohida qayd etish lozim. 50-yillardan boshlab musiqiy janrlar qamrovi kengaya bordi va o‘zbek musiqa san’atiga “kantata”, “oratoriya”, “jo‘rsiz xor”, “organ musiqasi” hamda “kino musiqa” kabi yangi janrlar kirib keldi. Mavjud janrlar (opera san’ati, musiqali drama, cholgu musiqa, vokal musiqa, kino musiqa)da esa

<sup>13</sup> История узбекской советской музыки. Т.: 1973, 5-6.

asarlarda ifoda vositalarining boyitilishi, muallifning musiqiy tilini yorqinroq ifoda etish, mukammallikka intilish kabi jihatlar sezilarli darajada o'zgarganligini kuzatish mumkin.

Shuningdek mazkur davrda O'zbekistonda Hindiston, Italiya, Fransiya, Yaponiya, Finlyandiya, Bolgariya, Yugoslaviya, Vengriya, Mongoliya, Gruziya, Ozarbayjon, Estoniya, Qirg'iziston, Qozog'iston, Tojikiston kabi mamlakatlarning milliy musiqa san'atiga bag'ishlangan haftaliklar o'tkazildi. O'zbekiston san'ating dongdor vakillari ham ("Трибуна Азии", Самаркандские международные музыковедческие симпозиумы и фестивали традиционной музыки Востока, 1978 va 1983-yillarda) Xalqaro anjuman, simpozium va festivallarda qatnashgan edilar.

An'anaviy, milliy san'atga bo'lgan e'tiborning ortganligini aynan 1972-yilda Toshkent davlat konservatoriyasida "Sharq musiqasi" kafedrasining ochilishi, 1975-yilda Toshkent shahrida o'tkazilgan "Макомы, мугамы и современное композиторское творчество" mavzusidagi ilmiy-nazariy konferensiya, 1979- yilda musiqiy sharqshunoslik masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan ken-gash, 1980-yilda Xiva shahridagi an'anaviy ijrochilik masalalariga bag'ishlangan seminar va ko'plab turli ko'rlik tanlovlardan namoyon etdi.

Muntazam ravishda ijrochi, musiqashunos, kompozitor tala-balari o'rtasida tanlovlardan o'tkazish an'anaga aylandi. Ushbu tanlovda g'oliblikni qo'lga kiritgan yosh iste'dod egalari Toshkent davlat konservatoriyasiga imtiyozli tarzda qabul qilinish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Ushbu davrda O'zbek davlat filarmoniyasining tarkibi yanada kengayib, faoliyati mustahkamlana bordi (1978-yilda Muhiddin Qori Yoqubov nomi beriladi). Uning tarkibida O'zbekiston davlat simfonik orkestri (badiiy rahbar va bosh dirijor Z.Haqnazarov), T.Jalilov nomidagi xalq cholg'ulari orkestri (bosh dirijor F.Sodiqov), xor kapellasi (bosh xormeyster A.Hamidov), Mukarrama Turg'unboyeva nomidagi "Bahor" xalq, raqs ansamblı mavjud edi. 1969-yilda "Bahor" konsert zali ochilib, asosiy akademik konsertlar shu maskanda o'tkazilishi rasm bo'ldi.

**Opera san'ati.** Opera janrida yaratilgan dastlabki asarlar musiqali spektakllarning operaga o'zgartirilgan varianti ("Gulsara",

“Tohir va Zuhra”, “Layli va Majnun”) hisoblangan bo‘lsa, ushbu davrga kelib opera teatri repertuari dramaturgiya, mavzuiylik nuqtayi nazaridan o‘ziga xos asarlarni xalqqa taqdim eta boshladi. Bular: tarixiy – biografik janrdagi Sobir Boboyevning “Hamza”, Muxtor Ashrafiyning “Shoir qalbi”, Rashid Hamroyevning “Zulmatdan Ziyo”, Tolibjon Sodiqov, Boris Zeyzman, Yunus Rajabiy va Doni Zokirovlar hamkorligida yaratilgan zamonaviy - maishiy mavzudagi “Zaynab va Omon”, Aleksandr Berlinning “To‘y kunida”, Muxtor Ashrafiyning afsonaviy – ertaknamo mavzudagi “Dilorom”, Sulaymon Yudakovning “Maysaraning ishi” nomli ilk hajviy operalaridir.

Asardagi mazmun-g‘oya va musiqaning o‘zaro uzviy bog‘-liqlik jihatlarini yoritib beruvchi operalar 70-80-yillarga kelib “topildi” desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bunga R.Hamroyevning “Noma‘lum kishi”, U.Musayevning “Mangulik”, N.Zokirovning “To‘qnashuv”, I.Akbarovning “So‘g‘d elining qoploni” va R.Abdullayevning “Sadoqat” operalarini misol qilish mumkin.

Janr ko‘lamini kengaytirish maqsadida kompozitorlar bolalar uchun opera yaratishni maqsad qilgan edilar. Teatrlar repertuaridan endi S.Boboyevning “Yoriltosh”, Varelasning “Alouddinning sehirli chirog‘i”, Yanov-Yanovskiyning “Петрушка иностранец” kabi oprealari ham joy ola boshlagan edi<sup>14</sup>.

**Balet san’ati.** Ushbu janrga taalluqli, muvaffaqiyatga erishgan asarlar quyidagi kompozitorlar ijodiga mansub edi: Georgiy Mushelning “Raqqosa”, “Baxt gul”, “Kashmir afsonasi”, Boris Zeydmanning “Kulayotgan odam”, “Ajdar va quyosh”, Ikrom Akbarovning “Orzu”, Doni Zokirov va Boris Gienkolar hamkorligida yozilgan “Oynisa” baletlari.

60-yillarga kelib O‘zbekiston kompozitorlarining balet janrida yaratgan asarlari (U.Musayevning “Индийская поэма” va “To‘maris”, M.Ashrafiyning “Matonat”) jahoning boshqa mamlakatlarida muvaffaqiyat bilan namoyish etildi.

60-yillarning oxirida opera va balet teatri sahnasida M.Leviyevning ikkinchi tahriri ostida “Suhayl va Mehri”, I.Akbarovning “Layli va Majnun”, M.Ashrafiyning “Sevgi tumor”,

<sup>14</sup> История узбекской советской музыки. Т.: 1973, 1991.

70-yillarda A.Kozlovskiyning “Tanova”, M.Ashrafiyning “Sevgi va qilich”, 80-yillarda I.Akbarovning “Navro‘z” kabi baletlarining premyeralari bo‘lib o‘tdi<sup>15</sup>.

**Musiqali drama.** Xalq an’analarini, qadriyat va udumlarini saqlagan holda xalq orasida ma’lum va mashhur bo‘lgan janr – musiqali drama janri izchil rivoj topdi. Mazkur janrda yaratilgan dastlabki asarlarning aksariyati ikki muallifli, ya’ni kompozitor va bastakor hamkorligi asosida yaratilgan bo‘lsa, endi ushbu holat yakka mualliflik bilan chegaralanadigan bo‘lgan edi. Boisi, o‘zbek bastakorlari ham endilikda ko‘p ovozli musiqa asosida yirik janrlarda tajriba to‘plab bo‘lgan, mustaqil ijod namunalarini namoyish etish imkoniyatiga ega edilar.

**Simfonik musiqa.** Simfonik musiqa sohasida benihoya ulkan yutuqlar sari yuz tutilgan edi. Eng ahamiyatiga molik jihat shunda ediki, o‘zbek musiqa san’atida “milliy simfonizm” tushunchasi shakllanib, kompozitorlar simfonik fikrlash borasida yangi uslub-larni qo‘lga kiritgan edi. Syuita, poema, uvertyura, konsert, simfoniya va simfonietta kabi janrlarning qamrovi ham kengaya bordi. Bu janrlarda ustunlik qilgan holat – asarlarning dasturliligi bo‘ldi.

**Vokal musiqa.** Mazkur davrda samarali ijod vokal musiqada ham kuzatildi. Muhim bosqich sifatida Mutal Burhonovning “Jo‘rsiz xorlar” (1953 y.) to‘plamini alohida e’tirof etib o‘tmoq lozim. Ushbu to‘plam bugungi kunda ham xor dirijorligi yo‘nalishida ta’lim oluvchi talabalar uchun eng asosiy muhim qo‘llanma sifatida foydalanib kelinmoqda.

**Kino musiqa.** Yuqorida to‘xtalib o‘tilgan janrlar orasida musiqa amaliyotiga yangi yo‘nalish sifatida kirib kelgan janr – bu kino musiqasi bo‘ldi. Shakllanishi biroz kechroq bo‘lishiga qaramasdan, ko‘plab kompozitorlarda qiziqish uyg‘otdi va yaqin yillarda eng noyob musiqiy namunalar yaratildi. Bular: Mutal Burhonov musiqasi asosida “Abu Ali ibn Sino”, Ikrom Akbarov musiqasi asosida “Hamza”, “Sinchalak”, “Sen yetim emassan”, Mutal Burhonov musiqasi asosida “Samolyotlar qo‘nmadi” kabi kinofilmlar.

O‘zbekiston kompozitorlar uyushmasining faoliyatida ham ushbu davrda sezilarli o‘zgarishlar kuzatildi. Kompozitorlar

<sup>15</sup> История узбекской советской музыки. Т.: 1973, 1991.

yangicha ish shaklini yo‘lga qo‘ya boshladilar, xalq ma’naviy ehtiyojini o‘rganish asosida asarlar yaratilar, ularning ommaviy muhokamasi amalga oshirilar edi. Ushbu davrda uyushma tomonidan forumlar, anjumanlar o‘tkazilishi an’ana tusiga kirib ulgurgan edi.

**Tayanch so‘zlar:** zamonaviy musiqa, ijod, janr, opera, balet, musiqali drama, vokal musiqa, kompozitor, musiqashunos, filarmoniya, gastrrol, kino musiqa, simfonik musiqa, kamer-cholg‘u, syuita, tafakkur, uslub, meros.

### Mavzu bo‘yicha savollar:

1. O‘zbekiston kompozitorlari asarlaridagi uslubiy izlanishlar va bularning samarasini haqida ma’lumot bering.
2. Simfonik ijod sohasidagi ijobiy natijalar?
3. Opera, balet, musiqali drama, kino musiqadagi ilk yutuqlar xususida ma’lumotlar bering.
4. O‘zbek davlat filarmoniyasi jamoalari faoliyati va qo‘shni respublikalar hamda ayrim xorijiy mamlakatlarga qilgan safarlari?
5. O‘zbekistonga gastrollari bilan tashrif buyurgan ijrochilar?

### Mavzu bo‘yicha topshiriqlar:

1. 50-80-yillarga doir umumiy ma’lumotlarni to‘plash.
2. Ushbu davrda musiqa amaliyotiga kirib kelgan yangi janrlar (xor, a’kapella, kino musiqasi, fortepiano va organ musiqalari, estrada san’ati) xususida ma’ruza tayyorlash.
3. Davrning ijod mahsullari: baletlar va operalar.

### Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. –T.: 2001.
2. История узбекской музыки. –Т.: 1973, 1991.
3. Н. Янов-Яновская. Музыка узбекского кино, –Т.: 1969.
4. Н. Янов-Яновская. Узбекская симфоническая музыка, –Т.: 1979.

## MUSIQALI TEATR

### Mavzu rejasi:

1. O‘zbek musiqali teatrining rivojlanishi.
2. Musiqali dramalar: “Halima”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Gulsara”, “Tohir va Zuhra”, “Alpomish”, “Ravshan va Zulxumor”, “Nurxon”, “Vatan ishqisi”, “Zafar”, “Alisher Navoiy Astrobodda”, “Momo yer”, “Ishqing bilan”, “Kimga to‘y, kimga a‘za”, “Yusuf va Zulayho”, “Fotima va Zuhra”.
3. Musiqali komediylar: “Oltin ko‘l”, “Toshbolta oshiq”, “Jon qizlar”, “Ajab savdolar”, “O‘jarlar”.

O‘zbekistonning madaniy hayotida XX asrda bunyodga kelgan Alisher Navoiy nomidagi davlat akademik katta opera va balet teatri, Muqimiy nomidagi Respublika davlat musiqali drama va komediya teatri, Berdaq nomidagi Qoraqalpog‘iston avtonom respublikasi davlat musiqali teatri va Respublikamizning barcha viloyatlaridagi hamda Qo‘qon va Bekobod shaharlaridagi musiqali drama va komediya teatrлari xalqimizning ma’naviy hayotida alohida ahamiyat kasb etib kelgan. O‘zbek teatrining yillar davomida bosib o‘tgan tarixiy va ijodi yo‘li hamda faoliyati keng qamrovli, samarali ekanligini e’tirof etish lozimdir.

Tarixdan ma’lumki, o‘zbek va O‘rta Osiyo xalqlarining madaniy hayotlarida XX asrga qadar qadimiylar Yunon va Yevropa davlatlarida shakllangan “musiqali drama”, “musiqali komediya”, “operetta”, “vodivil”, “opera”, “balet” kabi janr hamda teatr san’ati turlari bo‘lmagan. Mahalliy xalqlarning yuqoridagi mavzularda tilga olingan teatr elementlari, xalq tomoshalari, “mim” (taqlid), “masxaraboz”, “askiya”, “qo‘g‘irchoq”, teatrning ko‘plab turlari qadim-qadim zamonlardan rivojlanib kelgan. Ularni umumlashtirib “xalq teatri” atamasи qo‘llanmoqda. “Xalq teatri” san’ati uzoq asrlar davomida past-baland, mashaqqatli yo‘llarni bosib o‘tdi. Markaziy

Osiyoda turli davrlarda bunyodga kelgan davlatlarninig siyosiy va diniy mafkurasida “xalq teatri”ga munosabat turlicha bo‘lgan edi. Masalan, O‘rta Osiyo xalqlari Islom dinini qabul qilganidan buyon, ya’ni eramizning VII asridan boshlab “xalq teatri”ga din arboblari tomonidan munosabat keskin ravishda o‘zgardi. Turli bahonalar bilan tahqiq qilishlariga qaramasdan “xalq teatri” aktyorlari o‘z kasbiy mahoratlarini avlodlardan-avlodlarga yetkazib, yetarli ijod qilib, ulkan ma’naviy me’ros qoldirdilar. Ular bizning XXI asrga qadar yetib keldi.

“Xalq teatri”ning muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tarkibiy tarmog‘i bu – musiqadir. Masxaraboz, qiziqchi, ayniqsa qo‘g‘irchoq tomoshalarida ishtirok etuvchi aktyorlar o‘zbek xalq terma, aytishuv, lapar, yalla, qo‘sinq va turli cholg‘u kuylardan keng foydalangan holda ijro etganlar. Xalqqa ko‘rsatilayotgan tomosha voqealariga musiqa bevosita aloqador bo‘lmasa-da, obrazga kirishda va zavq ta’sirini kuchaytirishda albatta musiqa ishlatilgan. Tomosha boshlanishidan avval tomoshabinlarni to‘plashda karnay, surnay, nog‘ora, doira kabi cholg‘u - sozlardan tashkil topgan ansambl ham doimiy ravishda ishtirok etgan. “Xalq teatri”ning aktyorlari o‘z kasbining ustasi bo‘lishlari bilan birga, ular badiiy so‘z, askiya, musiqa va raqs san’atlarini ham yaxshi bilganlar. Shuninig uchun *sinkritik* aktyorlar asar lavhalaridagi yoki farsdagi ijobiy yoki salbiy timsolni (obrazni) ichki va tashqi qiyofasini ochib berishda, xarakterini yaratishda yoki talqin qilishda o‘zlarining aql-idroklli bilan ko‘rsatilayotgan tomoshani zavq baxsh etuvchi ta’sir kuchini uyg‘unlashtirishga harakat qilar edilar. “Xalq teatri” tomosha ko‘rsatish davrida aktyorlar “tanqid” va “taqlid” (“muqallid”) qiluvchi ikki guruhgaga bo‘linib, savol va javob orqali qisqa-qisqa dialog-muzokaraga muhim ahamiyat berar edilar. Bunday masxaraboz-qiziqchi aktyorlarning hunar vazifasi (qamrovi) juda keng edi. Ular mohirona dialog, monolog, qo‘sinq aytish, raqsga tushish, turli jismoniylar harakat, “akrobat”, ya’ni muallaqchilik san’atlaridan keng ravishda foydalanganlar. Aktyorlar asardagi shaxs (obraz) qiyofasiga kirish, ularni kiyim nusxalariga o‘xshatish, grim, turli maskalardan ham keng foydalanganlar.

O‘zbek “xalq teatri”da dramaturg - yozuvchi tomonidan yozilgan pyesa repertuarida bo‘lmasa ham, lekin ijroda aktyorlar

o‘tmish tarixni, o‘z davridagi xalq hayotini, jamiyatdagi ayrim tabaqa-jamoalarda ro‘y bergen muammo va ikir-chikirlarni yaxshi o‘rganib, hayotda uchrab turadigan shaxslarni, zargarlarni, mullavachchalarini, savdogarlarni, dallollarni va boshqa kasb egalarining ayrim shaxsiy nuqsonlarini, yomon xatti-harakatlarini, nayrangbozlik hamda tovlamachiliklarini tanqid nishoniga olib, fosh etishga harakat qilib, jamiyatni sog‘lomlashtirishga o‘z hissalarini qo‘shar edilar. Bundayin “xalq teatri”ning repertuari to‘g‘risida teatrshunos A.L.Troitskaya 1936 - yili Farg‘ona vodiysiga ekspe-ditsiya tashkil qilib “xalq teatri”ning tarixini va ish faoliyatini o‘rganib, “Из истории народного театра и цирка в Узбекистане”<sup>16</sup> maqolasida shunday yozadi: “G‘afurjon Toshmatov, Ismat qori, Ibrohim Teshaboyev, Aka Buxor, ayniqsa Yusufjon qiziqchi Shakarjonovlar bilan tanishib hamda arxivlarni o‘rganib “xalq teatri” to‘g‘risida, uning tarixi, repertuari, boshqarish va moliyaviy faoliyatlarini o‘rganishga harakat qildim. Repertuardagi “Mudarris”, “Zarkokil”, “Tabibchilik” “Attorlik”, “Murab”, “Hammom”, “O‘lik sotdi”, “To‘g‘on”, “Tol sotti”, “Xum o‘g‘risi”, “Er bo‘lish” va boshqalarni mazmunlari bilan keltirmoqdaman”.

Bunday “xalq teatri” qadim zamonlardan to XX asrning 17-yiliga qadar o‘zbek xotin - qizlar davralarida ham mavjud bo‘lgan. Xotin - qizlar “xalq teatri”ni, tarixiy yo‘nalishini mashhur ijrochilari va repertuari to‘g‘risida teatrshunos-olim M.Qodirov “Женский народный театр Узбекистана” nomli maqolasida mukammal yoritgan. Teatr repertuarida ijtimoiy-iqtisodiy va oilaviy mavzular o‘z aksini topgan. Muallif “Ari”, “Loy sovun”, “Podachi”, “Gung” (“Soqov”), “Kundoshlik”, “Qaynona va kelin janjali”, “Charx”, “Kelin salom” kabi asarlarni mazmunini keltiradi.

Umuman “xalq teatri” o‘zbek xalqining ma’naviy hayotida ulkan rol o‘ynaydi va kelgusida Yunon va Yevropa uslubidagi drama va musiqali drama teatrining O‘zbekistonda bunyodga kelishiga zamin yaratdi.

Shuni aytish joizki, talabalar hamda tomoshabinlar orasida “Nima uchun dunyo xalqlarinng tilida “teatr”, “drama”, “kome-

<sup>16</sup> А.Л.Троицкая “Советская этнография”. // “Из истории народного театра и цирка в Узбекистане” 1948., 716.

diya”, “operetta”, “opera”, “balet” atamalari bir xil nom bilan ataladi” degan tabiiy savol tug‘iladi. Bunga javob topish uchun bir zum fikrimiz bilan olam charxpalagini orqaga aylantiramiz. Teatrni paydo bo‘lish tarixiga murojaat qilsak, shunday javob topamiz. Miloddan avvalgi davrlarda qadimgi Yunon davlatida sahnada tomosha ko‘rsatishni “teatr” (ko‘ryapman), sahna asari nomini “drama” – harakat, fikr, g‘oya to‘qnashuvi, dialog va monolog badiiy so‘z orqali ifodalanadi, ya‘ni jamiyatning nuqsonlarini, insonlarning orasida tug‘ilgan qarama - qarshiliklar, ziddiyatlar, g‘oyaviy to‘qnashuvar va ularning yechimi yaxshilik bilan yoki fojiali tugaydi.

**Tragediya** (fojia) teatri – jamiyat tuzumidagi nuqsonlar, insonlarning orasidagi munosabatda jiddiy muammolar, ziddiyatlar, qarama-qarshi fikr, g‘oya, turli yomon xislatlar, xatti-harakatlar kabi masalalar to‘qnashuvi va ularning yechimi fojia bilan tugallanadi.

**Komediya** (hajviya) teatri – jamiyat tuzumidagi va insonlarni xulq-atvorlarida, yurish-turishlarida, bir-birlari bilan imunosabatlarda yuzaga kelgan kelishmovchiliklar, ziddiyatlar to‘qnashuvi va ularning yechimi kulgi-hajviya orqali amalga oshiriladi.

Tarixiy manbalarda zikr etilishicha, antik dunyoda, xalq marosimlarida she‘r, musiqa, raqlarni bir-birlariga qo‘sib ijro qilish an‘anaga aylangan edi. Lekin drama, tragediya va komediyalarga ovozli va cholg‘u musiqalarni, raqs turlarini qo‘sib sahna asarini ta’sir kuchini boyitish eng avval Yunon (Eliada) davlatida miloddan avvalgi V-VI asrlarda keng qo‘llangan va rivojlangan edi. Ya‘ni yozuvchi - dramaturg “Drama”, “Tragediya” janrlarining asoschilarini Esxil, Sofokl va Evripidlarning “Dionis”, “Orfey”, “Evridika” kabi sahna asarlari hamda Aristofen, Filemon va Menandlarning komediyalarida ovozli va chog‘u musiqalar keng qo‘llangan. Bu haqda professor Gruber shunday yozadi: “Qadimgi Yunon “Drama”, “Tragediya”larida turli san’atlarni SINTEZ (qo‘sish) qilish yuksak darajaga ko‘tarilganligini biz hech qachon unutmasligimiz kerak. Bu esa monumental va ommaviy sahna asarlari yaratishda olamshumul ahamiyatga ega bo‘lishi bilan birga insoniyatning eng ulkan yutuqlaridan biridir<sup>17</sup>. Shuni aytish joizki,

<sup>17</sup> Р.И Грубер “Музыкальная культура древнего мира”. Л.: “Музыка” 1937.

antik dunyoda Qadimgi Yunon davlatida turli sohali ilm - fan falsafa, estetika, etika, logika, badiiy adabiyot, musiqa, raqs va boshqa san'at turlari mukammal ravishda taraqqiy etib, kelgusida jahon madaniyatiga, adabiyot va san'atiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu o'rinda o'zbek va O'rta Osiyo xalqlari ham chetda qolmay manfaatdor bo'ldilar. Yunon teatr san'atining an'analarini esa Aleksandr Makedonskiy (Iskandar Zulqarnayn) lashkarlari O'rta Osiyonidagi bosib olgandan keyingi davrda tashkil topgan Grek-Baqtriya yunon teatri faoliyat ko'rsatgani to'g'risida M.Rahmonov "O'zbek teatr tarixi" hamda "Hamza va o'zbek teatri"<sup>18</sup> kitoblarida ayrim ma'lumotlar berilgan.

Yevropada eramizning XVI asrida yunon teatrining an'analariga qiziqish boshlandi. Italiyada shu asrning oxirlarida Florensiya shahrida istiqomat qilgan graf Jovanni Bardi di Vernioni o'z saroyida shoirlar, xonanda va sozandalar, aktyorlarlar, rassomlar doimiy ravishda yig'ilib, she'riy-musiqiylar kechalarda o'z san'atlari bilan o'rtoqlashar edilar. Shu yig'inlarda Qadimgi Yunon teatrini qaytadan tiklash fikrini ma'qulladilar hamda Esxil, Sofokl va Evripidlarninig drama va tragediyalariga murojaat qildilar. Qizig'i shundaki, bu to'da a'zolari uy teatrida o'tkazgan ijodiy tajribalari, birinchilardan bo'lib, kelgusida Italiya va boshqa Yevropa davlatlarida yangi uslubiy musiqali teatr va drama, musiqali komediya, opera va balet kabi janrlarni bunyodga kelishiga sabab bo'ladi deb, hech birlarini xayoliga kelmagan ekan. Tajriba jarayonida ba'zi bir kompozitorlar musiqali drama yaratdilar, lekin ularning asarlarida ishtirok etuvchi qahramonlarni musiqiy obraziga jiddiy ahamiyat bermaganliklari hamda ularning ruhiy histuyg'ulariga aloqador bo'lmasligi juda ko'p intermediya musiqalarni kiritganliklari sababli ular tarixda iz qoldirmadi.

Musiqli drama janrining shakllanishiga kompozitor, xonanda, skripkachi – sozanda Klaudio Monteverdi "Orfey" nomli musiqali dramasida ilk bor asos qo'ydi. Uning ijodida musiqali drama (opera) janri mukammal ravishda shakllandi. Ya'ni janrni hosil qiluvchi asosiy komponentlar: adabiy mazmun (libretto), musiqani barcha turlari va janrlari, raqs san'atining barcha turlari, tasviriy san'at,

<sup>18</sup> M.Rahmonov "O'zbek teatr tarixi". T.: 1975.

sahna bezaklari, ishtirok etuvchi qahramonlarning kiyim-kechaklari, (liboslari) va asarni sahna harakatlari bilan uzviy bog'lanishi orqali mukammal ravishda janr shakllandi. Bu to'g'risida kompozitor K.Monteverdi shunday degan edi: "Musiqali spektaklda tomoshabinning vaqtini chog' qilaman deb, ermak uchun sayr - tomosha bo'lib qolmasligi kerak. Sahna asarda musiqaning asosiy vazifasi, uni boy va mo'jizalni tili, tebranish harakatlari va turli vositalari bilan boyitish lozim. Men shu talabga o'z ijodimda amal qildim"<sup>19</sup>.

Shunday qilib, Italiyada XVI asrlarda yangi uslubiy "musiqali teatr" va "musiqali drama", "musiqali komediya" janrlari bunyodga keldi. Kelgusi asrdan boshlab "OPERA" (Italyancha "opera" so'zi harakat, ijod ma'nosini bildiradi) atama bilan aytish odatlandi.


Opera janr sifatida rivojlanish jarayonida "musiqali drama"ga nisbatan bir oz o'zgarishlar ham bunyodga keldi. Ya'ni "musiqali drama"da ishtirok etuvchi personajlarni dialoglari oddiy so'z bilan aytilsa, "operada" dialoglar musiqa sadosi bilan birga RECHITATIV (ital. ifodali o'qish ma'nosini bildiradi) orqali ijro qilinadi. Operada ikki xil rechitativ qo'llanadi:

1. Rechitativ musiqa jo'rligida tez harakatda, quruq cho'zmasdan so'zlarni burro - burro qilib ijro qilinadi.

2. Rechitativ ohangli, ya'ni musiqa jo'rligida so'zlarni ohang (cho'zib) ijro qilinadi. Yana bir farqi: "musiqali drama"da ishtirok etuvchi personajlar o'z tabiiy ovozlari bilan ijro qilishsa, "opera"da ishtirok etuvchi xotin - qizlar ovozi: koloratura - soprano, soprano, metso - soprano, alt; erkaklarniki: tenor, bariton, bas va bas profundo kabi ovozga bo'lingan holda operaning partiturasiga yoziladi. Ushbu ko'rsatma orqali opera ijro qiluvchilarning ovozlarini tanlab, rol o'ynashga kiritiladi. Shu bilan birga operani har parda ko'rinishlarida barcha musiqalar: aria, ariozo, xor, balet nomerlar va rechitativlar bir - biriga uzviy bog'lanishlari bilan simfonik orkestrning ishtirokida jaranglaydi. Shularni birlash-tiradigan musiqali dramaturgiya baquvvat va ta'sirchan bo'lsa, opera asari sahnada uzoq umr ko'radi. Musiqali drama va komediya

<sup>19</sup> Марх Зильберквит "Мир музыки", М.: 1988. 229-с.

janrlari ham ichki tuzilishlarida bir oz farq qilsa-da, lekin musiqali dramaturgiyasi baquvvat bo‘lishi lozim.



Umuman Yevropa davlatlari va Rossiyada “musiqali teatr” avval podsholar, knyazlar, gersoglarning saroylarida paydo bo‘lib, saroy ahliga xizmat qildi. XVII–XVIII asrlarda esa davlatlarining poytaxti va katta shaharlarida “musiqali teatr” maxsus binolari qad ko‘tara boshladi. Bu tetrлarda “musiqali drama”, “musiqali komediya”, “opera - seriya”, “opera - buffo”, “opera”, “opera - balet”, “balet” kabi janrlarda, turli mavzularda yaratilgan sahna asarlari birin-ketin bunyodga keladigan an’ana hozirga qadar davom etmoqda. Asrlar davomida ulug‘ kompozitorlarning ijodida olam-shumul klassik operalar ham bunyodga keldi. Yevropa davlatlari va Rossiyada bunyodga kelgan musiqali teatrlar va klassik opera va balet asarlarni tarixi bilan “Jahon musiqa tarixi” va “Rus musiqa tarixi” maxsus fanlar orqali tanishiladi.

Tarixdan ma’lumki, XIX asrning ikkinchi yarmida O‘rta Osiyo, asta- sekin Rossiya imperiyasining mustamlakasi sifatida, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy tarkibiy qismiga aylandi. Rus olimlari, ziyolilari o‘lka tabiatini, yer boyliklarini, tarixini, mahalliy xalqlarni madaniyati va siyosati bilan tanishish masalariga e’tibor berdilar. Rus aholisini madaniy va ma’naviy hayot talablarini qondirish va boyitish uchun 1884 - yili “Turkiston teatr va musiqa jamiyat” tashkil topadi. Bu jamiyat asosan rus teatr va musiqi san’atini tashviqot - targ‘ibot qilish, teatr va musiqiy havaskorlik

to‘garaklarini va professional jamolarni tashkil qilish, Rossiya va Yevropa davlatlаридан turli teatr va mashhur xonanda, sozandalarni, musiqiy ansambllarni gastrollarini tashkil qilish vazifalari topshirilgan edi. Masalan: 1891- yili Parijdan Lassalni operetta teatri gastrolga kelib J.Offenbax, F.Legar, Sh.Lekon, I.Shraus kabi mashhur kompozitorlarning “musiqali komediya” asarlarini namoyish qildi. 1894-yili esa Tiflisdan opera va balet teatri gastrolga kelib: “Aida”, “Faust”, “Karmen”, “Demon”, “Kardinal qizi”, “Ivan Susanin”, “Traviata” va “Pikovaya dama” kabi mashhur klassik operalarni namoyish qilgan.

Shuni aytish joizki, Turkistonda doimiy ravishda istiqomat qilgan harbiy damli orkestrlarning dirijorlari: V.Leysek, V.I.Gordon, N.Mironov, A.L.Bachinskiy, A.S.Gerson, E.A.Vilde; kompozitorlar: G.I.Gizler – Arskiy, V.A.Uspenskiy kabi san’at arboblari birgina rus va Yevropa kompozitorlarining musiqiy asarlarini targ‘ibot qilish bilan birga, mahalliy xalqlarning musiqiy san’atlari bilan ham yaqindan tanishib, o‘rganib, ularni notaga yozib ayrimlarini damli orkestrga va boshqa cholg‘ularga qayta ishladilar, xalq kuylari asosida simfonik asarlar yaratdilar. Va birgina Turkistonda emas, Moskva, Sankt - Peterburg, Vena va Praga shaharlarida ijro qildilar. Tilga olingan bu san’atkorlarning ijodiy faoliyatları turli matbuot va kitoblarda yoritilgan<sup>20</sup>.

O‘zbek musiqasi tarixida musiqali dramalar aynan XX asrning boshlarida yaratila boshlanadi. Bu jarayon H.H.Niyoziy, A.Avloniy, A.Fitrat kabi ma’rifatparvar shoir, dramaturglar ijodida shakllanadi. XX asrning 20-30-yillaridan boshlab kompozitorlarning o‘zbek bastakorlari bilan hamkorligi natijasida o‘zbek musiqali dramalari yaratila boshlanadi. Xususan, 1927-yilda “O‘zbek davlat etnografik” ansambl jamoasi konsert chiqishlar bilan birga musiqali spektakllar qo‘yishga qo‘l uradi. Ansambl jamoasi avval G.Zafariyning “Erk bolalari”, “Binafsha”, “Tuyg‘unoy”, “Bahor” kabi bir pardali musiqali spektakllarini tomoshabinlarga havola qildi. Zamon teatr ijrosi uchun moslashgan “Halima” nomli musiqali dramasi premyerasi 1929 - yil 10- avgustda bo‘lib o’tdi. Shundan so‘ng “O‘zbekiston davlat musiqali teatri” nomi bilan yuritila boshlanadi.

<sup>20</sup> “История узбекской музыки” Т.: 1971

**“Halima”** musiqali dramasi<sup>21</sup>. G’ulom Zafariy pyesasi. Musiqalarni xalq namunalaridan Shorahim Shoumarov va bastakor To’xtasin Jalilovlar tanlab spektaklga kiritganlar. Asar 4 pardadan iborat. Voqeа O’zbekistonda XX asr boshlarida o’tadi<sup>22</sup>.

O’zbek musiqali teatrining ilk namunalarida asosan musiqalar xalq musiqasidan tanlab olingen va spektakllarga moslangan. Asosan Farg’ona-Toshkent maqom yo’llari, Shashmaqom va xalq yo’lidagi asarlardan keng foydalanilgan. Ushbu an’anadan qaysidir ma’noda zamonaviy kompozitorlar ham foydalanib keladilar.

**“Farhod va Shirin”** musiqali dramasining premyerasi 1936-yili 25-fevralda birinchi marotaba simfonik orkestrning ishtirokida o’tdi. Spektaklni tomoshabinlar nihoyatda zo’r qiziqish va olqishlar bilan kutib oldilar. Jamoatchilik ham teatrning mazkur ishiga katta baho berdi va matbuotda turli maqolalar chop etildi. Mutaxassislar tomonidan bir ovozdan o’zbek teatrining, umuman o’zbek professional san’atining rivojlanish jarayonida ham ulkan ijodiy yutuq deb baho berildi.

“Farhod va Shirin”<sup>23</sup> musiqali dramasining ikkinchi tahriri 1936-yilning 21-dekabrida respublika jamoatchiligidagi havola qilindi. Dramaning musiqasi professor Uspenskiy tomonidan qaytadan ishlab chiqildi. Musiqaning orkestrovkasi Mushel va Sveyfel hamkorligida V.A.Uspenskiy tarafidan bajarildi. O’zbek musiqa tarixida birinchi marta rechitativ, duetlar, ikki va uch ovozli

<sup>21</sup> Spektaklning qisqacha mazmuni: Muslimboyning bo'yiga yetgan qizi Halima o'z mahallalaridagi yosh qo'shni etikdo'z Rahim otaning o'g'li Ne'matjon bilan bir - birlariga ko'ngil qo'yishgan. Halimani otasining savdo ishlari yurishmay Ortigboydan katta niqdorda qarz oldi. Qarzni to'lash muddati o'tib ketadi. U yana muddat so'raydi. Bu muddat ham o'tadi. Ortigboy o'z odamini yuboradi, qarzni berishimi ogohlantiradi. Shu payt qo'shmachi – makkor aylol Xoljon xola Ortigboyga Muslimboyning go'zal Halima ismali qizi borligini yetkazadi. Bundan Ortigboy benihoyat xursand bo'ladi. U yana o'z odamini yuboradi, agar Muslimboy qarzni to'lay olmasa, qizini xotinlikka bersin deydi. Muslimboy bu darakni eshitgach xursand va rozi bo'ladi. Boyning nomidani Xoljon xola bir necha ayollar bilan sovchi bo'lib Muslimboyning xonadoniga kelishadi. Sovchilar maqsadni izhor qilishadi. Ruqiyaxon ularning maqsadini rad etadi. Lekin Muslimboy xotini va Zokirjonlarning qarshiliklariga qaramay to'y o'tkazishga rozilik beradi. Bu xabarni Halimadan eshitgach Ne'matjon iztirob chekadi va bemon bo'lib yotib qoladi. Halima ham iztirobda. Ortigboy yigitning betobligini eshitgach raqibini yo'qotish uchun tabibiga para berib. Neg'matjonini hayotdan judo qiladi. Bir xonadonda motan, yon qo'shninkida dabdabali to'y, karnay - surnaylar jaranglamoqda. Fojiani eshitgagan Halima bog'larida o'zini osib o'ladiradi. To'y fojia, ma'rakaga aylanadi. Xalq ikki boyning qilgan ishlaridan nafatlardan.

<sup>22</sup> 1970 - yili “Halima”ni Muqimiy nomidagi musiqali teatr jamoasi, bastakorlar Saidjon Kalonov va Nainjon Xalilovlar hamkorligida simfonik orkestrga moslab, yangi tahrir asosida tomoshabinlar e'tiboriga havola qilingan.

<sup>23</sup> V.A.Uspenskiy “Farhod va Shirin”ni 1937-yilda nashri qilingan klavirda o'zbek xalq musiqasini quyidagi san’atkorlardan notaga yozib olganini ko'satigan. Bular: Abdugodir Ismoilov, Halima Nosirova, Shorahim Shoumarov, Xayrulla Ubaydullayev, Fahriddin Mirzayev, Karim Zokirov, Boborahim Mirzayev, Qobilov, Mirvohid Mirkarimov, Ahnadjon Umrzoqov, Shoborod Qoraxonov, Zulayho Komilova. Notaga yozgan ashula va kuylarni royalda o'zi ijro qilib, qayta-qayta ularning ishtirokida tekshirgan.

xorlar kiritildi. Bosh rollarda: Karim Zokirov, Boborahim Mirzayev (Farhod), Halima Nosirova, Nazira Inog‘omova, Fotima Boruxova, Nazira Ahmedova (Shirin), Muhiddin Qoriyoqubov (Xisrov), Sa‘dulla Norxonov (Shopur). Matn va kuylarni o‘rganishda spektakl harakatlarini o‘zlashtirishda respublika xalq artisti M.Uyg‘ur ishtirot etdi”.

“**Nurxon**”. Atoqli bastakor T.Jalilov dramaturg K.Yashin (Nug‘manov) bilan hamkorlikda o‘zbek ayollarining orasida teatr san’atiga birinchilardan bo‘lib qadam qo‘ygan yosh aktrisa Nurxon Yo‘ldosh Xo‘jayeva (milliy istiqlol dushmanlari tomonidan qatl qilingan) hayotiga bag‘ishlangan (bu 20-yillarda sodir bo‘lgan) tarixiy fojia asosida “Nurxon” nomli musiqali dramasini bunyodga keltirdilar. Spektaklning premyerasi 1942-yil 23-dekabrda Muqimiy nomidagi musiqiy teatrda o‘tgan. Asar tomoshabinlar tomonidan qizg‘in kutib olingan va respublikaning madaniy hayotida katta voqeaga aylanib ketgan. 1942-yildan 1952-yilga qadar asar musiqasi o‘zbek xalq cholg‘u ansamblu jo‘rligida ijro etilgan. 1952-yildan buyon ikkinchi tahrir asosida kompozitor G.Sobitovning simfonik orkestrga yozgan partiturasi tufayli simfonik orkestr tomonidan ijro etilmoqda.

“**Alisher Navoiy Astrabodda**”. Tarixiy biografik mavzuda yaratilgan musiqali sahna asarlari orasida “Alisher Navoiy Astrabodda” musiqali dramasi ham e’tiborga molik. Pyesa muallifi Inoyat Maqsumov. Musiqani ulug‘ bastakor Yunus Rajabiy kompozitor Sayfi Jalil bilan hamkorlikda yozgan. Spektaklning premyerasi 1968-yili Muqimiy nomidagi musiqali teatrda o‘tgan. Asar ulug‘ shoir Alisher Navoiy tavalludining 525-yilligiga bag‘ishlangan.

## **O‘zbek musiqali drama va komedayasi XX asrning 50 – 90- yillarida**

XX asrning 50-90-yillarida o‘zbek professional kompozitorlarining yozuvchi - dramaturglar bilan hamkorlikda yaratgan musiqiy sahna asrlariga murojaat qilishdan avval shuni aytib o‘tish joizki, respublikamizda urushdan avval va keyingi yillarda musiqiy teatrlarga o‘zbek xalq cholg‘ulari ansamblining o‘rniga simfonik

orkestr kiritilganidan buyon tengsiz ijodiy hamkorlik uslubi bunyodga kelgan edi. Ya’ni o’zbek bastakori klassik maqom, mumtoz ashula, yalla, qo’shiq va o’zlari bastalagan kuylarni yozilayotgan sahna asariga tanlab berar edi. Professional kompozitor esa ularni garmoniyalashtirib, simfonik orkestrga moslashtir edi. Bunday tengsiz ijodiy uslub orqali musiqiy sahna asarlari yaratish uzoq yillardan buyon davom etdi va etmoqda. Yuqorida zikr qilingan barcha sahna asarlar va urushdan keyingi yillarda shu uslub asosida viloyat teatrлaridan tashqari faqat Muqimiy nomidagi davlat musiqiy teatr jamoasi sahnada qo’ygan asarlarga va professional o’zbek kompozitorlarining mustaqil ravishda yaratgan musiqiy drama va komediyalarga murojaat qilinmoqda. Bastakorlar va professional kompozitorlar shu davrda yaratgan musiqiy sahna asarlarini tahlil qilishda va ularga baho berishda biz ham atoqli musiqashunos, kompozitor A.N.Serovning italyan va fransuz kompozitorlarining opera, musiqiy drama yoki musiqiy komediyalarining katta qismini tahlil qilib, har bir sahna asariga baho berishda quyidagi mukammal (yuksak orzu) MEZONNI qo’llab, u yozadi: “... Agar asar tomoshabin - tinglovchini har sahnada pyesa sifatida ham musiqiy asar sifatida qiziqtira oladigan musiqiy dramani yoki komediyani ham dramatik adabiy mazmun, ham musiqiy taassurot birgalikda bir butun bo‘lib ketgandagina musiqiy sahna asar inson qalbida sezilarli zavq uyg’otadi, chuqur iz qoldiradi. Agar bunga o’rni kelganda orkestr sadosi vokal(ovozi) go’zalligi orqali ajralmas taassurot mukammal bo‘lsa, unda musiqiy drama yoki komediya tomoshabin tinglovchida mukammal taassurot qoldiradi. Shularni amalda hal qilish imkoniyati bor - ku axir!”<sup>24</sup> deydi Serov va hamkasblarini ijodlarida shu “MEZON”ni nazarda tutmoqlariga da’vat qiladi. Biz ham mazkur davrda yaratilgan musiqiy drama va komediyalarning ayrimlarini tahlil qilishda shu “mezon”ga yondashamiz. Urushdan keyingi to’rt yil orasida “Muqimiy nomidagi davlat musiqiy teatri”da sahna yuzini ko’rgan, yuqorida zikr etilgan qardosh respublikalarning kompozitorlari yaratgan spektakllardan tashqari quyidagi musiqiy dramalar ham sahna yuzini ko’rdilar: 1946-yilning

<sup>24</sup> А.Н.Серов – “Избранные статьи” Л.: Музгиз, 1950.134-с.

25-iyunida “Tohir va Zuhra” musiqiy dramasining ikkinchi tahriri; 1947-yili kompozitorlar T.Sodiqov va V.Meyenlarning “Sovg‘a” (pyesa mualliflari M.Muhammedov va A.Bobojonovlar) musiqali dramasi; 1948 - yili T.Jalilov va A.Brovsinlarning “Asrlar” (pyesa muallifi Uyg‘un) musiqali dramasi; 1949-yili T.Jalilov va A.Brovsinlarning “G‘unchalar” (pyesa muallifi Z.Fatxullin) musiqali dramasi; 1949-yili T.Jalilov va G.Sobitovlarning “Alpomish” (pyesa muallifi S.Abdulla) musiqali dramasi kabi spektakllarning musiqalari yuqorida zikr qilingan tengsiz hamkorlikda buniyodga kelganlar.

O‘zbek musiqiy teatr tarixida, o‘zbek professional kompozitorlarining orasida birinchi marotaba mustaqil ravishda kompozitor Manas Leviyev shoir - dramaturg Uyg‘un bilan hamkorlikda “Oltin ko‘l” nomli musiqiy drama - komediya partiturasini yaratdi. Mazkur asarning premyerasi 1949-yili 6-noyabrda “Muqimiy nomidagi davlat musiqiy teatr” jamoasining ijrosida tomoshabinlarga havola qilindi. Spektaklning premyerasi respublika jamoatchiligidagi juda katta taassurot qoldirdi. Matbuotda ham asarga, ayniqsa kompozitor o‘zbek xalq musiqasidan “iqtibos” kiritmay milliy ruhda orginal musiqa yaratgani mutaxassislar tomonidan yuqori baholandi. O‘zbek professional kompozitorlarga o‘rnak bo‘lishini bashorat qilishdi.

Kompozitor Manas Leviyev (1912 – 1990), “Oltin ko‘l”ga musiqa bastalashdan avval, Leningrad konservatoriyasini bitirgach, yillar davomida musiqaning turli janrlarida asarlar yaratishda ko‘p ovozli musiqiy uslubda, milliy musiqiy asarlar yaratishda ijodiy izlandi. Mutaxassislik mahoratini oshirishga harakat qildi va ayrim ijodiy yutuqlarga tuyassar bo‘ldi. Natijada u zamonaviy milliy ruhda yorqin ommaviy qo‘shiqlar, romanslar, vokal - simfonik asarlar drama teatrining spektakllariga, kinofilmrlarga musiqalar bastaladi. “Suhayl va Mehri” nomli balet yaratdi. Yuqorida zikr qilingan barcha kompozitorlar yillar davomida mustaqil ijodiy faoliyatlarida M.Leviyev kabi o‘z ijodiy yo‘lini topib olishda izlandilar, ijodiy mahoratlarini oshirishda tinimsiz ishlab, musiqiy san’atning turli shakl, janrlarida bir talay asarlar, jumladan, musiqiy sahna asarlari ham yaratdilar.

**“Oltin ko‘l”.** Musiqali drama - komediya “Oltin ko‘l” (nomi ramziy ma’noda atalgan)da voqeal Farg‘ona vodiysining bir dongor kolxozida o‘tadi. Mehnat jarayonida sodir bo‘lgan yosh kolxozchilarni mehnatga va kattalarga bo‘lgan munosabatlari, sevgi - muhabbatlari, rashk o‘tida yonishlar, turlicha kelishmovchiliklari aks etgan.

**“Jon qizlar”.** Zamonaviy qishloq-xo‘jalik mavzuiga bag‘ishlangan musiqiy komediylar orasida kompozitor Abdurahim Muhammedov (1923-1980)ning “Jon qizlar” asari alohida o‘rin egallaydi. Pyesa mualliflari qirg‘iz dramaturglari: K.Shangitboyev va K.Bayseitovlar, o‘zbek tiliga shoir Po‘lat Mo‘min tarjima qilgan. Spektaklning premyerasi 1963-yili Muqimiy nomidagi musiqali teatrda o‘tgan. Mazkur asar tomoshabinlarda katta qiziqish uyg‘otdi va tez orada “Jon qizlar” respublikamizdagi barcha musiqali drama va komediya teatrlarida ham tomoshabinlarga havola qilindi. Asar sahnalarda uzoq umr ko‘rdi.

**“Fotima va Zurha”.** Mustaqillik yillarda yaratilgan zamonaviy mavzuda yozilgan musiqali sahna asarlarining orasida kompozitor Farhod Alimovning (dramaturg U.Umarbekovning pyesasi) “Fotima va Zuhra” musiqali dramasi adabiy mazmun va musiqiy saviyasi bilan ajralib turadi. Muqimiy nomidagi respublika davlat musiqali teatr jamoasi 1997-yili spektaklni tomoshabinlarga havola qildi va qizg‘in olqishlarga sazovor bo‘ldi. Asar mazmuni va g‘oyasi giyohvandlikka qarshi kurashga qaratilgan. Zamona zayli bilan yoshlarning orasida bangilikka duchor bo‘lganlarning soni yildan-yilga ko‘payishi sababli, jinoiy voqealar sodir bo‘lmoqda. Mazkur asarda yig‘indi obrazlar orqali, giyohvandlik qanday fojealarga olib kelishi tasvirlanadi.

**“Vatan ishqisi”.** Tarixiy mavzuda yaratilgan musiqali sahna asrlari orasida kompozitor S.Boboyevning 1958-yili yaratgan “Vatan ishqisi” nomli musiqali dramasi muhim rol o‘ynaydi. Muqimiy nomidagi musiqali teatr, keyin barcha viloyat musiqali drama va komediya teatr jamoalari sahnalashtirishdi. Teatrlarning premyeralari katta madaniy voqeaga aylanib ketgan edi. Spektakl uzoq yillar davomida hamma teatrlarda qayta-qayta sahnalashtirildi. Tomoshabinlarning turli avlodlari ko‘rishga, eshitishga muyassar bo‘ldilar. Ya’ni mazkur asar sahnada uzoq umr ko‘rdi.

“Vatan ishq” dramasining bunday yutuqqa sazovor bo‘li-shining sababi nimada? Eng avval aytish joizki, spektaklning adabiy mazmuni va musiqiy dramaturgiyasining yaxlitligidadir. Ya’ni musiqa bilan dramatik voqealarning ajralmas uзвиy ravishda bog‘lanishi, ishtirok etuvchi qahramonlarning yorqin musiqiy “portret” tasvirlari mazkur janrning asosiy xususiyat, qoida talablariga mukammal ravishda javob bera olishi, bundan tashqari, spektakl zaminidagi hayotiy voqealar shaxsiy masala bo‘lib qolmasdan, ijtimoiy umur davlat darajasiga ko‘tarilishi muqaddas ona Vatan tuyg‘usi bilan yashash va Vatanga jonini qurban qilish g‘oyasi ustuvor turishi bilan ajralib turadi. Shu bilan tomoshabinlarning diqqat e’tiborini beixtiyor o‘ziga tortadi.

“Ajab savdolar”. Zamonaviy mavzuda yaratilgan juda ko‘p musiqiy sahma asarlari orasida kompozitor Manas Leviyev atoqli shoir-dramaturg Hamid G‘ulom bilan birgalikda yosh avlodlarning hayotlariga bag‘ishlab, “Ajab savdolar” nomli musiqiy kome-diyasini yaratdi. Spektaklning premyerasi 1969-yili Muqimiy nomidagi respublika davlat musiqiy teatrda o‘tgan. Spektaklni tomoshabinlar juda katta ko‘tarinki ruh va olqishlar bilan kutib oldilar.

“O‘jarlar”. Zamonaviy mavzuda ishchilar hayotiga bag‘ishlangan musiqiy sahma asarlarining orasida kompozitor Ikrom Akbarovning shoir-dramaturg Jumaniyoz Jabborov bilan hamkorlikda yaratgan “O‘jarlar” musiqiy komediysi o‘zining qiziqarliligi, adabiy mazmun va jozibali original musiqasi bilan respublikamizda mashhur bo‘lib ketdi. Spektaklning premyerasi 1972-yili Muqimiy nomidagi Respublika davlat musiqiy teatrda o‘tgan. Asarning premyerasini tomoshabinlar qizg‘in olqishlar bilan kutib olgan edilar va spektakl Muqimiy nomidagi respublika teatri va viloyat teatrlarida uzoq umr ko‘rdi va tomoshabinlarga ma’naviy ozuqa berdi.

“Alpomish”. Muqimiy nomidagi O‘zbekiston davlat musiqali teatr jamoasi 1949-yil atoqli bastakor T.Jalilov shoir-dramaturg Sobir Abdulla bilan hamkorlikda “Alpomish” musiqali dramasini tomoshabinlarga havola etdi va olqishlarga sazovor bo‘ldi. Spektaklni musiqasi o‘zbek xalq cholq‘u asboblar ansambl jo‘rligida ijro etilardi. 1953-yildan boshlab kompozitor G.Sobitov

bilan hamkorlikda asarning musiqasini qaytadan ishlab, simfonik orkestr uchun moslashtirdi.

“Alpomish” o‘z vaqida O‘zbekiston madaniy hayotida katta voqeaga aylangan edi. O‘zbek xalqining sevimli dostoni “Alpomish” muvaffaqiyatli sahnalashtirilgani va unga milliy ruhdagi musiqalar bastalanganligi tomoshabinlar e’tiborini qozonishiga asosiy sabab bo‘ldi.

“Yusuf va Zulayho”. 1990-yilda shoir Ramz Bobojon bilan hamkorlikda kompozitor Farhod Alimov “Yusuf va Zulayho” musiqali dramasini sahnalashtirdi. Spektaklning premyerasini jamoatchilik va tomoshabinlar qizg‘in kutib olgan edilar. Musiqali teatr tarixida yana bir yaxlit badiiy asar dunyoga keldi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, kompozitorning ilk yirik musiqali sahna asari, bir so‘z bilan aytganda, o‘zining mazmundorligi, musiqiy dramaturgiyasining baquvvatligi va jozibadorligi bilan tomoshabin-tinglovchida yaxshi taassurot qoldiradi.

“Zafar”. Muqimiylar teatri jamoasi 1956-yilda dramaturg Umarjon Ismoilov, kompozitor Hamid Rahimov va Po‘lat Rahimovlarning “Zafar” musiqali dramasini sahnalashtirdi. Asar, o‘zbek va ukrain xalqlarining do’stligi hamda nemis-fashistlarga qarshi kurash mavzusiga bag‘ishlangan. Unda urush vaqtida o‘z otanonalaridan judo bo‘lgan yosh bolalarni tarbiyalashda o‘zbek xalqining ko‘rsatgan muruvvati ham yorqin ifodalangan.

“Momo yer”. Muqimiylar nomli teatr jamoasi 1965-yilda, g‘alabaning 20- yilligiga bag‘ishlab, “Momo yer” nomli musiqali dramasini sahnalashtirdi. Ch.Aytmatovning mashhur “Momo yer” qissasi asosida shoir To‘rob To‘la librettosiga kompozitor Ikrom Akbarov musiqa bastalagan.

“Momo yer” spektaklida To‘lg‘anoy ismli oddiy qishloq ayolining dahshatli urush va urushdan keyingi yillarda boshidan kechirgan qismati haqida hikoya qilinadi. Urush bu ayol boshiga juda og‘ir musibat olib keldi. Avval eri Suvonqul, keyin ketma-ket uch o‘g‘li Qosim, Masalbek va Jaynaqlar urushda qahramonlarcha halok bo‘lganlaridan qora xat oladi. Ammo judolik va achchiq hayot, bu irodasi kuchli To‘lg‘anoyni sindira olmaydi. U kelini Oliman bilan duch kelgan qiyinchiliklarga bardosh beradi, eri va o‘g‘illari xotirasi, nabirasining kelajagi bilan yashaydi.

Mazkur musiqali dramalarning har biri teatr repertuarini boyitiib, sahnada uzoq umr ko'rdi. Tomoshabinlarga ma'naviy-estetik ozuqa berdi.

**"Ishqing bilan".** XX asrning 50 – 90-yillarida zamonaviy - ijtimoiy mavzuda qishloq hayotiga bag'ishlangan, uzoq yillar davomida teatr repertuarida saqlanib, tomoshabinlarga ma'naviy - estetik ozuqa bergen musiqiy drama va komediylar orasida kompozitor Hamid Rahimovning "Ishqing bilan" (Hamza Umarov pyesasi) nomli musiqali dramasi 1959 - yili Muqimiy nomidagi Respublika davlat musiqali teatr jamoasi tomonidan tomoshabinlarga havola qilindi. Spektakl sahnada uzoq umr ko'rdi va teatr tarixida chuqur iz qoldirdi. Asar kolxoz hayotiga bag'ishlangan.

"Ishqing bilan" spektaklida hayotiy tuyg'ular, hajviy voqealar, hazil-askiya va latifalar keng o'rin olgan. Kompozitor ustalik bilan sahnalardagi voqealarni jiddiy va hajviy vaziyatlarga qarab, kerakli musiqiy vositalar bilan boyitishga harakat qilgan.

H.Rahimovning bu musiqiy dramasi mazkur janr xususiyatlarini badiiy ifodalovchi asardir. Spektakldagi oddiy qo'shiq, yallalar, murakkab ariya, ansambl, xor va raqs nomerlar hamda so'z dialoglar uzviy bog'lanib, ishtirok etuvchi qahramonlarning xatti-harakatlari, his-tuyg'ulari musiqiy sadolarda aks etilgan.

Spektaklning adabiy so'z mazmunidagi ayrim kamchiliklarga qaramasdan, spektakl tomoshabinni o'ziga tortadi va yaxshi taassurot qoldiradi hamda yoshlarga o'rnak bo'la oladi. Bu spektakl ham 1959-yilda Moskvadagi "Kreml" teatrida "Oltin ko'l" bilan birga tomoshabinlarga namoyish qilingan.

**Tayanch so'zlar:** teatr, drama, komediya, pyesa, spektakl, rechitativ, bastakor, kompozitor, dramaturg, ansambl, orkestr, musiqa, musiqiy dramaturgiya.

### **Mavzu bo'yicha savollar:**

1. Musiqali teatr tushunchasi.
2. Dastlabki havaskor va professional teatrlarning tashkil etilishi.
3. Ilk (hamkorlikda yaratligan) musiqali dramalar. Ulardagi yutuq va kamchiliklar.

4. 50–90-yillarda o‘zbek kompozitorlari tomonidan yaratilgan musiqali drama, komediylar.

### **Mavzu bo‘yicha topshiriqlar:**

1. O‘zbekiston musiqiy teatrлari va ularning faoliyati xususida ma’lumotlar topish.
2. Ilk spektakllar va ularning musiqiy jo‘rligi hamda professional musiqali dramalar haqida ma’ruza- taqdimot tayyorlash.
3. Tayyorlangan mustaqil ma’ruza asosida mavzuni so‘zlab berish.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. –Т.: 2003.
2. История узбекской музыки. –Т.: 1972, 1973, 1991.
3. Jabborov A. Musiqiy drama va komediya janrlari O‘zbekiston kompozitorlarining ijodiyotida. Т: 2000.
4. Вопросы музыкальной культуры Узбекистана. –Т.: 1961, 1969.
5. Кари-Якубова Э. Мухитдин Кари-Якубов. –Т.: 1968.
6. Akbarov I. Yunus Rajabiy. –М.: 1982.
7. Ashrafiy M. Yunus Rajabiy. –Т.: 1980.
8. Akbarov Il. To‘xtasin Jalilov. –Т.: 1979.

## O'ZBEK OPERASI

### Mavzu rejasi:

1. Opera san'atining rivojlanish jarayoni.
2. Rus kompozitorlari tomonidan yaratilgan operalar, ularning tarixiy o'rinnari, yutuq va kamchiliklari, janr muammolari.
3. Drama, bolalar va qo'g'irchoq teatrлar spektakllariga o'zbek kompozitorlarning yaratgan musiqasi.

1930-yillar oxirida o'zbek va rus kompozitorlarining hamkorlik ijodiyotida yirik sahnaviy janrda asar yaratiladi. Ya'ni kompozitorlar M.Ashrafiy va V.Vasilenkolar hamkorligida birinchi "Bo'ron" operasi yaratildi.

Urushdan keyingi davrdan opera teatrining milliy repertuari ancha boyidi. Bu birdaniga bo'limgan, albatta. Davr boshida repertuarda qayta tahrir qilingan eski asarlar (S.Vasilenko va M.Ashrafiyning "Buyuk kanal", V.Uspenskiy va G.Mushelning "Farhod va Shirin", T.Jalilov va B.Brovtsinning "Tohir va Zuhra") ustunlik qilgan. Biroq 1958-yildan boshlab deyarli har yili teatr o'z repertuariga yangi o'zbek operalarni kiritdi.

Mavzu va badiiy saviyasi turlicha bo'lgan mazkur asarlar tomoshabinlar tomonidan ham turlicha qabul qilindi. Ba'zilari sahnadan tezda tushib ketdi, boshqalari esa teatr repertuaridan muhim o'rinni egalladi. Biz shulardan ahamiyatliroqlarini ajratib, avvalambor zamonaviy, muhim mavzuga bag'ishlangan asarlarni ko'rib chiqamiz.

"Gulsara" operasi 30 - yillarda yozilgan shu nomli musiqali drama singari o'zbek ayolining ozodlikka chiqishi mavzusi bilan bog'liqdir. Albatta, spektakl mazmunini 40-yillar oxirining tomoshabini "Gulsara" musiqali dramasi o'n ikki yil avval birinchi bor sahnalashadirilganidan boshqacharoq qabul qiladi. Vahshiyona mutaassiblik ham, paranji tashlagani uchun o'ch olish ham uzoq o'tmishda qolib ketgan edi. Lekin eskicha e'tiqodlar, xususan,

ayollarga nisbatan “sovuq” munosabat hali hayotda uchrab turardi. Shuning uchun ularga qarshi kurash o‘z keskinligini yo‘qotmagan edi. Ko‘pgina o‘zbek ayollarining hayoti, kurashi, orzulari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan Gulsaraning taqdiri tomoshabinlar qalbida aks sadosini topar edi. “Gulsara”ning ommabopligi, hayotiyligi ham shundadir<sup>25</sup>.

Libretto mualliflari K.Yashin va M.Muhamedov yaxlit, izchil rivojlangan voqelikni yaratishga muvaffaq bo‘ldilar. Ayniqsa bosh qahramon obrazi to‘laqonli chiqqan. Spektaklning boshlanishida u zaif va itoatkor, ongida aslni qullarcha itoatkor bo‘lishga mahkum qiladigan eski musulmon aqidalar ustunlik qiladi. Lekin asta-sekin, chuqur jafolar tufayli Gulsara o‘tmish sarqitlariga qarshi ochiq, shiddatli kurashish zarurligini anglaydi.

Opera asosidaga musiqa namunalarini T.Jalilov to‘plab, qisman yaratib bergen, T.Sodiqov yozib olgan va R.Glier qayta ishlagan kuylardan tashkil topgan. “Gulsara” operasining 1949-yili sahna premyerasi bo‘lib o‘tgan.

“Maysaraning ishi”. Alisher Navoiy nomidagi akademik katta opera va balet teatr jamoasi kompozitor Sulaymon Yudakov, shoir - dramaturg Sobir Abdulla va M.Muhamedovlar hamkorlikda “Maysaraning ishi” nomli hajviy operani 1959-yilning 6-yanvarida tomoshabinlarga havola qildi. Opera premyerasi juda katta muvaffaqiyatlar bilan o‘tdi.

Respublikamizning madaniy - ma’naviy hayotida ulkan voqeaga aylandi. Operaning sahnalahtirilishida ishtirokchilar: dirijor Fazliddin Shamsuddinov, baletmeyster Mukarrama Turg‘unboyevaga, asosiy rollarni ijro etuvchilar:

Maysara – Halima Nosirovaga, Oyxon – Saodat Qobulova, Cho‘bon Ali – Sattor Yarashevga, Mulla do‘s – Karim Zokirovga, qozi – Xusan Ismoilovga, Hoji Darg‘a – Jamol Nizom Xo‘jayevga, Hidoyat – Mixail Davidov. Mazkur opera, bir necha avlodlar ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar. “Maysaraning ishi”<sup>26</sup> operasining

<sup>25</sup> Spektaklning qabramoni, yosh juvon Gulsara o‘z eri, ilg‘or ishchi Qodir ta’sirida paranjisini tashlab, o‘qishga kirishga qaror qiladi. Lekin bu rejusi xurofotchilarining quroliga aylangan Gulsaraning otasi – Ibrohimming qarshiligiga uchraydi. Drama qizini otasining zuhnidan himoya qilmoqchi bo‘lgan qahramonning onasi – Oysaraning o‘limi bilan tugaydi. Gulsara Ibrohimming qo‘lidan qutuslib chiqib, maydonga chopadi va barcha ayollarni yangi hayot uchun kurashga chorlaydi.

<sup>26</sup> Operaning qisqacha mazmuni: voqeа Turkistonda XIX asrda o‘tadi. Maysaraning akasi o‘lim oldida hovlisini sotib, sag‘ir qolayotgan o‘g‘li Cho‘pon Alini nomiga 20 tillo pulni vasiqani Qoziga, boj pulini to‘lab, pulni vasiqani

musiqiy tili yorqin milliy ohangdorligi, jo'shqin – jozibadorligi va musiqiy dramaturgiyasining badiiy baquvvatligi bilan alohida ajralib turadi. Musiqa muallifi S.Yudakov atoqli shoir va bastakor Hamzaning shu nomli pyesasi asosida yozilgan librettoga musiqa bastalashda operada ishtirok etuvchi asosiy personajlarni xatti - harakat va munosabat, niyatlaridan kelib chiqqan holda yondashib, ijobjiy va salbiy obrazlarni har biriga, alohida o'zbek xalq qo'shiq, lapar va yallalarga juda yaqin turadigan, original, yorqin "Musiqiyy portret"lar yaratgan. Ya'ni hajviy opera janrning barcha tipik xususiyatlari yondashib, kompozitor tez harakat rivojlanuvchi hajviy epizodlar, sahna voqealarini uzviy ravishda o'zgarishlari va bog'lanishlari, burro - burroli rechitativ dialoglarni mantiqligi, yorqin – milliy xushchaqchaq musiqiy sadolarni ta'sirchanliklari bilan tomoshabin – tinglovchilarni maftun qildi.

Opera musiqiy dramaturgiyasining rivojlanish jarayonida, partituraga kiritilgan ariyalar, duet, trio, kvartet, kvintet, vokal ansamblar, ommaviy xorlar, o'rinni joyda jaranglaydi. Simfonik orkestr vokal nomerlarga birligina jo'r bo'lib qolmasdan, u ayrim epizodlarda, mustaqil ravishda muhim rol o'ynaydi. Yuqorida zikr qilingan musiqiy alomatlar mazkur hajviy operaning ta'sirli mavqeini mukammal ravishda boyitadi.

Sulaymon Yudakovning "Maysaraning ishi" birinchi hajviy operasi, jahonga mashhur bo'lgan hajviy operalarni qatoridan munosib o'rinni oldi desak mubolag'a bo'imaydi. Chunki mazkur operada ham opera "buffa"dagi kabi barcha tipik xususiyatlari to'la - to'kisdir. Ya'ni ohangdor ariyalar, vokal - ansamblar, ommaviy xorlar, ohangdor va "secco" (tez harakatda so'zlash) rechitativlar orkestr sadolari bilan hamohang birlikda jonli va ildam sur'atda sahnada sodir bo'layotgan jiddiy va hajviy vaziyatlar, mukammal ravishda tasvirlanadi.

---

o'g'li voyaga yetgunga qadar saqlashga topshirgan va singlisi Maysarani ogohlantirgan. Yillar o'tadi. Cho'pon Ali voyaga yetib Oyxonni sevib, unga uylanishga ahd qiladi. Cho'pon Ali va Maysara Qozini huzuriga bir necha bor, pulni va vasixani talab qilgani borishadi. Lekin Qozin turli bahonalar qilib talabini qondirmaydi, chunki niyati buzaq va ochko'z Qozin o'zi Oyxonga o'yash bo'linoqchi va tillo pulni bergisi yo'q. Mirshablarni boshlig'i Hoji Darg'a va Qozini o'g'li qonunshunos Hidoyat ham Oyxonga o'yash bo'linoqchi niyatida xatti - harakatga kirishadilar. Bu hukmdor va mansabdor kimsalarni jirkanch - yovuz niyatlarini fahmlagan Maysara aql - zakovati bilan ish tutib, puxta o'ylab rejali holatda to'ymas, ochko'z Qozin, badjahlil Mirshab Hoji Darg'a va qonunbuzasi Hidoyatlarini laqillatib, o'ta ketgan noqulay vaziyatga ularmi solib qo'yadi. Maysara ularmi xalq oldida sharmanda qilib, kuladilar. Cho'pon Ali va Oyxonning bir - birlariga bo'lgan sevgi - muhabbatini saqlab qoldi va ular murodu maqsadlariga yetishadilar.

“Maysaraning ishi” operasi avval kirish cholg‘u musiqa, keyin muqaddima bilan boshlanadi. Simfonik orkestrga kiritilgan o‘zbek xalq sozlaridan: nog‘ora, doira, rubob, karnayni trambon va valtornalarda emitatsiya qilishlari tufayli muqaddimada ijobiy obrazlardan: Maysara, Oyxon, Cho‘pon Ali, Mulla Do‘s’t, salbiy obrazlardan: Qozi, Hoji Darg‘a va Hidoyatlarni turli tomonlarini xarakterlovchi “leytmotiv”lar operani rivojlanish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Muqaddimaga kiritilgan “leytmotiv”lar jaranglash jarayonida har bir personajni qotib qolgan haykal siymosi namoyon bo‘ladi, (sahnada aktyor oddiy ovoz bilan) ularning qiyofalarini ta’riflaydi, mavzu oxirida ular jonlanib chiqib ketadilar. Ya’ni har bir personajning xarakteriga, yurish - turishlariga, xatti - harakatlariga xos leytmotivlar orkestr sadosida jaranglashi tufayli tomoshabin – tinglovchilar ularning qiyofalari bilan oldindan tanishadilar. Aytish joizki, operaning rivojlanish jarayonida jiddiy lavhalar va ayniqsa hajviy epizodlar mavjud, yengil, hushchaqchaq musiqlar va hiyla-nayranglar, oddiy va juda tez so‘zlash rechitativ – dialoglar bilan ham mavjud.

Operaning bosh qahramoni zakovatli, irodasi kuchli Maysaraning musiqiy obrazini tasvirlashda S.Yudakov atoqli shoir, dramaturg va bastakor Hamzaning “Hoy, ishchilar” mashhur qo-shig‘ini “leytmotiv” sifatida operaga kiritgan. Albatta, Maysarani inqilobchi rahbar qilib ko‘rsatishga emas, balki adolat uchun, inson huquqini hamoya qiluvchi inson sifatida gavdalantiradi.

Umuman, Maysara obrazi, uning ikki sevishgan yoshlarning to‘ylarini o‘tkazib, ularni qovushtirish niyatidagi amaliy harakatlari va to‘yga to‘sinqilik qilayotgan kimsalarga qarshi kurashda ruhiy kechinmalari ariya, arioza, qo‘sish, vokal - ansambl va ommaviy xor sahnalarda insoniy fazilatini turli qirralari to‘la - to‘kis ochilib boradi. Opera uch parda ikki ko‘rinishdan iborat.

Operaning birinchi pardasi Maysaraning kichkina, ko‘rimsiz hovlisida o‘tadi. Go‘zal qiz Oyxon, o‘zi yakka uy yumushlarini bajarish jarayonida “Ishqida yondim” nomli ma'yusli – lirik ariyasida Cho‘pon Aliga bo‘lgan ehtirosli muhabbatini izhor etadi. Mazkur ariya o‘zbek xalq ashula shaklida, do minorda yozilgan. U oddiy garmonikakkordlar, jo‘r bo‘lgan orkestrni ravshanli faktura,

sinkopalar bilan boyitilganligi tufayli Oyxonning musiqiy obrazi yorqin ohangdor milliy ruhi bilan namoyon bo‘ladi.

Oyxonning ariyasi tugashi bilan, ishdan qaytayotgan Cho‘pon Ali uzoqdan shodu xurramlik bilan, quvnoq, jozibali ariya ijro etib uuga keladi. Oyxon va Cho‘pon Ali bir - birlari bilan hazillashadilar, Cho‘pon Ali jiddiy so‘zlashish niyatida “Kel, so‘zlashaylik” nomli ariyada izhor etadi.

Mazkur ariya orkestr jo‘rligida qisqa kirish musiqa bilan boshlanadi. Orkestrning yorqin fakturasi, oddiyakkordlar bilan boyitilgan ariyada Cho‘pon Ali sevgilisi Oyxonni butun diqqat – e’tiborini o‘ziga tortadi. Ikki sevishganlar bir - birlariga bo‘lgan muhabbat his - tuyg‘ularini izhor etish jarayonida, tez harakatli valssimon sho‘x musiqa sadosida ular hazillashib, bir - birlarini quvlab, goh hovlida, goh chorbog‘ tornon chopishib ketayotganlari paytida, favquloddan simfonik orkestr sadosida vahimali tremoloakkordlar bilan birlikda pasayuvchi xrammatik oktava tovushlarni siljishida dahshatl Qozini va jangovor harakatli Hoji Darg‘ani “leytmotiv”lari nomoyon bo‘ladi.

Qozi va Hoji Darg‘a jin ko‘chadan o‘tayotganlarida, Maysarani hovlisidan sho‘x - o‘ynoqi ovoz va qo‘shiq eshitiladi va ular e’tibor berib, devordan hovliga qaraydilar. Go‘zal Oyxon va Cho‘pon Ali bir - birlarini quvlab, ikkinchi duetlarida ham davom etib yana hovliga qaytib, quvlashib o‘ynayotgan paytda Qozi va Hoji Darg‘a ularga zang solib, Oyxonning yuzini va qomatini ko‘rib, har biri dillarida (ovozi chiqarib) to‘lqinlanib hushomad qiladilar. Oyxonga ishq tushgan Qozi (murojaat bilan) Hoji Darg‘aga “Maysara bizni buzuqchilikda ayblagan edi. O‘zi ikki yoshni uyda birga saqlashi shariatga to‘g‘rimi?” deydi. Hoji Darg‘a “Mutlaqo noto‘g‘ri” endi Maysara o‘zi tumshug‘idan ilindi. Uni hibsga qamayman deb javob beradi. Ular ketadilar. Ana shu birinchi pardada sodir bo‘lgan voqeadan boshlab, operada qarama - qarshi (konflikt) to‘qnashuv boshlanadi.

Bozordan horib kelgan Maysara trio vokal - ansambida Oyxon va Cho‘pon Ali bilan muloqotda bo‘ladi. Muloqot davomida Maysara bozordan olgan sarpo - tugunni Oyxonga berib, uy yumushlarini bajaraver deb jo‘natadi va “Amma, Qozidan pulni undirdingizmi?” Cho‘pon Alining savoliga javoban “Qozi yana turli

bahona qilib pulni bermadi, yer yutgur!” deydi. Cho‘pon Ali: “Endi Qozini o‘ldiriman” deydi. Maysara: “yo‘q!”, uni o‘ldirsang qamoqda chirib ketasan. Men boshqa reja tuzib qo‘ydim: “Kunning yarmisi yoruq, ikkinchi yarmisi qorong‘i degan dono xalqimizning maqoli bor” deb jiyanini yupatadi va trio “mi bemol” major tonalligida yakunlanadi.

Mazkur trio ularning ikkinchi “fa major”da yozilgan trio bilan uzviy bog‘lanib ketadi. Maysaraning eshigi oldida, yurish - turishlari, xatti - harakatlari qiz bolaga o‘xshagan Qozini o‘g‘li, qonunshunos - amaldor Hidoyat raqssimon qo‘sish ayтиб, Oyxonga bo‘lgan ishq - muhabbatini baralla izhor etadi va eshikni taqillatadi. Maysara eshikni ochib Hidoyatga “keling azizim” deb kutib oladi. Ularning rechitativ dialoglari va duetlari boshlanadi. Operaning dramaturgik rivojlanish jarayonida mazkur vasiqani va 20 oltinni Qozidan undirish muammosi muhim rol o‘ynaydi. Hidoyat: “bularni undirsam menga nima berasiz?” Maysara “Palov tayyorlayman”. Hidoyat “Palov bilan ish bitmaydi, yuragim baxt tilamoqda” deydi. Maysara “Yuragingiz nimani tilayapti” desa, Hidoyat “Go‘zal Oyxonni”. Maysara “O‘zi qiz bolaga o‘xshaydi-yu, Oyxonga xushtor deb kuladi va vasiqa bilan 20 oltinni undirsangiz Oyxon sizniki” deb xayrplashadi. Hidoyat xursandchiligidan “Ostonasida chilla ultiray” deb kuylaydi, ariqni tuynukchasidan Oyxonga yana bir qaray deb qaragan paytida Oyxon o‘choqni kulini ustiga sepib yuboradi. U aksalar berib, mayli kul sepsangiz ham sevaman, deb qo‘sishiqni davom etayotgan paytida, uzoqdan Mulla Do‘ssti ko‘rib qolib, tezlik bilan devordan chipta qopni olib yopinib tungakka o‘xshab yotib oladi. Mulla Do‘ssti esa uning ustiga chiqib hovliga qaraydi, keyin esa “bu it”- deb tepadi. Hidoyat og‘riqqa chidamay, o‘zini oshkora qiladi. Mulla Do‘ssti uning ustidan “bu yo baliq, yo mahluq” deb kuladi va Hidoyat qochib ketadi. Qarilik chog‘ida bo‘lsa ham uylanish orzusida yurgan Mulla Do‘ssti, Maysarani eshigi oldiga yaqinlashib, “Kel dilrabo xushtoringman” qo‘sishig‘ini kuylaydi. Mazkur band (kuplet)li qo‘sishqa uning soddaligi, hazilkash hajviy – qistirmali qochirma gaplarga chechanligi rechitativ va musiqa sadolarda, mukammal ravishda, boshqa musiqa partiyalarida ham namoyon bo‘ladi.

Maysaraga ishqisi tushgan Mulla Do'st, xursandchilik bilan eshikni taqillatib, Qozi sizni huzuriga chaqiradi deb xatni berib ketadi. Mazkur qo'shiqni melodik intonatsiyasida o'zbek xalq hajviy "Bilakuzuk" va xorazmcha "Jononim" kabi laparning o'xshashligi bor.

Maysara yakka o'zi hovlida "re minor" tonalligida yozilgan katta ariyada ko'ngli o'ksingan holatda beva qolganini eslab "Baxtim ochilmadi, dunyo menga qorong'u, shodlik qo'shiq menga nasib etmadni, yonimda erim yo'q, mayli menga ham baxt ato qilar" deb qayg'urib kuylaydi.

Maysaraning mazkur o'zbek xalq ashula uslubida yozilgan katta ariyasi 26 takhti kirish orkestr sadosi bilan boshlanadi, temp harakati Allegro con brio – dan Moderato, s dan 6/8 larga o'tib aria rivojlanadi va birinchi pardani finaliga olib keladi.

Operaning birinchi pardasi final qismi Allegro con spirit (G – dur) juda tez harakatlari marshsimon musiqa sadolari bilan boshlanadi va shu tempo – ritm finalni oxiriga qadar saqlanadi. Maysara, Mulla Do'st, Hoji Darg'alar bilan sahnada sodir bo'layotgan voqeada ikkita ommaviy xor ishtirok etadi. Tez harakat musiqa sadosi fonida hayajonlangan Mulla Do'st Maysaraga "Tezda qochinglar, sizlarni hibsga qamash uchun Qozini buyrug'i bilan Hoji Darg'a mirshablar bilan kelmoqda" deb xabar beradi. Oyxonni yerto'лага bekitadi, Mulla Do'stga bozorga borib Cho'pon Aliga xabar berishni iltimos qiladi. Maysara o'zi suppada namoz ibodatini bajo qilib turadi. Hoji Darg'a boshliq mirshablar grotest bilan xor aytib, hovliga atrof - tarafdan bostirib kiradi. Ular Oyxon bilan Cho'pon Alini izlaydilar, topolmaydilar.

Maysarani qamashga olib ketadilar. Hamma ketgandan so'ng, devor orqasidan poylab turgan Qozi yerto'ladan Oyxonni majburan uy xonardoniga olib ketadi. Maysarani hamqishloqlari ommaviy xor mirshablarni nohaq xatti - harakatlarni yomonlab, noroziliklarini namoyon qiladilar. Shuni aytish joizki, mirshablarning xori g'ayri ixtiyoriy harakatlari rechitativ uslubida jaranglasa, xalq xori esa Maysaraning "leytmotivi" asosida bastalangan. Lekin xor, finalni umumiy musiqasi tez harakatda bo'lgani uchun "leytmotiv" bir oz cho'zilgan talaffuzda ijro etiladi.

Umuman operaning ekspozitsiyasida (ikkinchi parda) ishtirok etuvchi ijobi va salbiy qahramonlarning kim - kimligini aniq ko'rsatish bilan, ularning xatti - harakatlari, his - tuyg'ulari musiqiy dramaturgiyaning rivojlanish jarayonida, mukammal ravishda Maysara, Cho'pon Ali, Oyxon obrazlarini aks etuvchi ariya va vokal ansambllar xush ohangliklari bilan ajralib tursa, bularga qarama - qarshi turganlar: Qozi, Hoji Darg'a, Hidoyatlarning obrazlarini aks ettiruvchi hajviy epizodlarga boy fabula, yengil, xushchaqchaq ommabop aytishuv laparsimon, raqssimon band (kuplet)li qo'shiqlar va hajviy rechitativ (dialog)larda aks etilgan.

Operaning uchinchi parda, ikkinchi ko'rinishi yerto'la hibsda o'tadi. Qamoqda yotgan Maysara tuynikdan osmonda charaqlagan yulduzlarga tikilib xayol surayotgan paytida, uning "leytmotiv'i orkestr sadosida uzoqdan qulog'iga chalina boshlaydi va Maysara, shoir - bastakor Hamzaning "Hoy, ishchilar" qo'shig'inining so'zini o'zgartirilgan holatda, ariya aytadi.

Mazkur oddiy garmonik vositalar bilan boyitilgan ariya jaranglash jarayonida (sahna orqasida) Cho'pon Ali va xalq xor bilan jo'r bo'ladi. Ya'ni Maysaraning haqiqat uchun kurashi, xalqning orzu - umidlari bilan uzviy bog'lanib ketadi. To'satdan Cho'pon Ali hibsga kirib "Amma endi siz ozodsiz, qorovul soqchiga pul berib jo'natdim, qochaylik" deb o'z ariyasida izhor etadi. Maysara uning taklifini tinglab rad qiladi. Maysara "Nima uchun biz qochishimiz kerak! Yo'q! Biz aql - zakovatimiz bilan dushmanlarga qarshi kurashamiz" deydi. Shu payt hibsga Mulla Do'st kiradi va Cho'pon Alini tezlik bilan chiqarib yuboradi. Cho'pon Ali Maysara so'ragan besh tilloni beradi. Shu payt Qozi va Hoji Darg'a hibsga kira dilar. Qozi Maysarani so'roq bilib "Ikki yoshlarni qayga bekitding, ayt! Aytmasang jazo beramiz! deb urmoqchi bo'ladi. Mulla Do'st "Avf eting, Maysaraxon gunohkor emaslar - ku". Qozi: "Siz aralashmang, men qonunni yaxshi bilaman, siz chiqib keting!" deb uni haydaydi. Hoji Darg'aga "Sizning oldingizda Maysara yoshlarni bekitganini aytmaydi" deb uni ham chaqiradi. Qozi endi nima qilamiz? Maysara: "Eshiddim, Hoji Oyxonni olib qo'ymoqchi, siz bizni himoya qiling" deb haltachadagi oltinni ko'rsatadi. Qozi oltinni tekshirib ko'rib bo'lgach "Mayli endi, mendan davoiim yo'q deb tilxat yozib ber" deydi. Maysara, xo'p bo'ladi, Oyxon nima

bo'ladi? Qozi "Endi Oyxonni to'g'risida o'ylamayman". Maysara: "demak Oyxonni u bekitgan" deb fahimlab, "ertaga tilxat yozib beraman" deydi. Qozi: "Faqat Hoji Darg'a bilmisin" deb chiqib ketadi va Hojiga pulni berib, Maysarani hibsdan ozod qiling" deb ketadi. Hoji Darg'a: "Endi bildim, bu cho'chqa, xotinboz Qozining maqsadini, bunga yo'l qo'yamayman" deb nafratlanib, Maysarani huzuriga kiradi va sizni ozod qilaman, lekin bir sirim bor deydi. Maysara: "Nima sir ekan". Hoji Darg'a Maysara bilan ijro qiladigan duetda maqsad – dardini aytishuv duetda "Oyxonga bo'lgan ishq – muhabbatda telba bo'lib qoldim" deb kuylaydi. Maysara: "Sizga yordam bermaymi, agar Qozidan vasiqa bilan 20 oltinni undirsangiz Oyxon kechalari sizning huzuringizda bo'ladi" deydi.

Maysarani hibsdan ozod qilish sahnasi: Hoji Darg'a, Hidoyatni chaqirib, unga xaltadagi besh tilloni beradi va Maysarani hibsdan chiqarish uchun hujjat yozib bering deb chiqib ketadi. Maysara Hidoyatga hujjatni va pulni menga bering, endi Oyxon sizniki bo'ladi deb, hibsdan chiqib eshigini yopib ketadi. Hidoyat suyunib kuylaydi va eshikdan chiqolmay vahimaga tushib, yordamga qichqiradi.

Operaning ikkinchi parda ikkinchi ko'rinishi Qozi hovlisining tashqari mehmonxonasida o'tadi. Shiddatli orkestr sadolari bilan kirish musiqasining oxirgi fonida sahananing orqasidan Oyxonning qichqiriq – yig'i va Qozini ovozlari eshitiladi. Qozi nafratlanib chiqib ketadi. Oyxon o'z taqdirlari haqida katta qayg'uli ariyada izhor etadi.

Mazkur ariyada Oyxon qayg'u hasrat bilan dilida Cho'pon Aliga murojaat etib, qanday mushkul ahvolda qolganini, mukammal ravishda izhor etadi. Qozini hujrasida qamoqda ruhiy ezilgan Oyxon kayfu ruhiyatini nozik tafovut ifoda vositalari bilan orkestr sadosida past bas tessiturada, vazmin sur'atda, yoyilganakkordli fakturada jo'r bo'lib borishi ariyaga alohida ma'no berib boyitadi.

Jahli chiqqan Qozi yana Oyxonni huzuriga kirib, endi sani o'ldiraman deb do'q qiladi. Oyxon: "o'ldir, ablah! Hech qachon senga xotin bo'lmayman. O'lganim afzal!". Qozi: "o'lsang ham mendan qutula olmaysan!" deb xizmatkor ayolni chaqirib, olib ket buni, Mullado'stga hovliga hech kimni qo'yma, deb chiqib ketadi.

Shunday qilib operaning o'tgan sahnalarida sodir bo'lgan mojarolar, Maysara va Oyxonning boshidan kechirganlari keskin pallasiga mazkur sahnada yotadi va Qozi, Hoji Darg'a, Hidoyat kabi kimsalarni Maysara tuzgan reja - tuzoqqa ilinishlari kelgusi sahna voqealarda namoyon bo'ladi. Shu tariqa oldingi va kelgusi sahnalarda sodir bo'lajak voqealar jarayonida ham operani dramaturgiya tizim ipini bog'lashda Maysara bilan birga Mullado'st muhim rol o'ynaydi.

Operaning rivojlanish jarayonida sodir bo'layotgan voqealarda Mullado'st ishtirok etuvchi qahramonlar bilan turlicha munosabat va aloqalar vaziyatida faol qatnashadi, o'zining taqdiridan ham koynadi hamda Qozi, Hoji Darg'a va Hidoyatxon kabi kimsalarni kirdikorlarini fosh etishda Maysaraga madadkor bo'ladi. Masalan, yuqorida zikr qilingan Maysaraning eshigini oldida, (birinchi parda) kuylaydigan "Kel dilrabo xushtoringman" qo'shiqda Maysaraga ko'ngli bor holatini jozibali lirik kuyda izhor etsa, Qozini xonadonida (ikkinchi parda ikkinchi ko'rinish) o'z taqdiridan achinib "Qarilik yuki ezdi yelkamni" qo'shig'ida "sochlarim oqardi, bitta xotinga yalchimadim" deb qayg'ursa ham, lekin dunyoga umid, hazil - mutoyiba bilan qaraydi. Qozining hovlisida paydo bo'lgan Hoji Darg'a Mullado'stni kuylashini oxirini tinglab, u Mullado'stga xotin topib qo'yanini izhor etadi. Makkor, hiylagar Hoji Darg'a Mullado'stga xotin olib beraman deb, uni avrab Qozini uyini kalitini olib, uydan vasiqa hujjatini olib chiqib, "Vasiqasi bor endi, Oyxon menga yor endi" deb zavq - shavq bilan jozibali ariyada Oyxon bilan kechalarini qanday o'tkazishini ta'riflab raqs bilan kuylaydi va kalitni tashlab, Mullado'stni aldarab chiqib ketadi.

Hovliga ayol libosini kiygan, paranji yopilgan Hidoyat tezlik bilan hovlini ichkarisiga kirib ketadi. Mullado'st: "Kim ekan bu yo'rg'alab kirib ketgan ayol?" deb hayron bo'ladi. Shu payt xonadonga Qozi kirib Mullado'stga xotin olib berish to'g'risida muloqotda bo'ladi. Natijada 30 yil unga xizmat qilgan Mullado'stga "sizni shuncha yil boqdim, endi siz menga qarzdorsiz, nimangizga uylanasiz" deb ichkariga kirib ketadi. Mullado'st esa nafratlanib "Ax iflos, cho'chqa Qozi, haqqimni bermaysanmi, mayli teshib chiqsin jig 'ildoningdan, endi senda ishlamayman" deb chiqib ketadi. Hidoyat otasining xonadonidan topgan 20 tilloni xursandchilik bilan

Maysaraga berib “endi Oyxonga mehmonga kelaman ” deb raqsga tushib ketadi. U raqsni Maysara ijro etadigan “Bola - Bola” jo‘shqin, jozibali qo‘shiq sadosida davom etadi.

Maysara Hidoyatdan undirgan 20 tilloni Cho‘pon Aliga “bu to‘yga”, deb beradi. Shu payt asabi buzilgan Mullado‘st paydo bo‘ladi. Maysara “Nima bo‘ldi o‘rgilay, Qozi uyidami?”. Mullado‘st: “U o‘lsin” deb dardini Maysaraga quyidagi duetda izhor etadi.

Mazkur duetda Mullado‘stning dardini Maysara fahmlab, u ham bevalik dardini izhor etadi. Ular bir - birlariga bo‘lgan sevgi - muhabbat his - tuyg‘ularini sir saqlab kelganlarini duetda oshkor qiladilar. Xursandchilik tuyg‘ularidan raqsga tushib o‘ynaydilar va duetni oxirida bir - birlariga vafodor bo‘lishlarini izhor etadilar. Ularning vokal va raqs partiyalariga orkestr jo‘r bo‘lishi ham duetning ta‘sirchanligini kuchaytiradi.

Operadagi vokal - orkestrlar orasida Qozini xonadonida o‘tadigan terset ham qiziqarli. Orkestr sadosi, tremololar fonida sahma orqasidan “Seni savalayman” degan Qozini va “Voydod” degan Oyxonni ovozlari eshitiladi. Qozini xonadoniga kirib kelgan Maysara, ularning orasiga aralashib, Oyxonning (qulog‘iga pichirlab) yolg‘ondan, Oyxonni Qoziqa turmushga chiqishga ko‘ndiradi. Maysara Qoziqa Oyxonni ko‘ndirdim, lekin uning bitta sharti bor ekan. “Bu xonadonda Qozini katta xotinlari kun bermaydi. Eng yaxshisi kechalari bizning xonadonimizga kelib tursalar deyapti”. Qozi “Bu to‘g‘ri, men ham shunday o‘ylagan edim ” deb kelishadilar. Maysara Qoziqa bergen tilxatini qaytib oladi. Mazkur epizod kattakon dinamik kvintetga o‘tib tugaydi. Kvintetda: Oyxon, Maysara, Cho‘pon Ali, Mullado‘st va Qozi sodir bo‘lgan kelishuv voqeadan o‘z xursandchilik munosabatlarini, tez harakatli rechetativ va musiqa sadolarda quyidagicha namoyon qiladilar. Kvintet bilan ikkinchi parda tugaydi.

Shuni aytish joizki, kompozitor S.Yudakov vokal – ansamblarda va ayniqsa zikr qilingan tertset va kvintetda, har bir ishtirot etuvchi qahramonlarni, bir - birlariga bo‘lgan munosabatlarini, xatti - harakatlarini, ruhiy holatlarini musiqada aks etishda polifoniya - kontrapunkt uslubidan, mukammal ravishda, foydalanganidan dalolat beradi.

Operaning uchinchi pardasi yana Maysaraning xonadonida o'tadi va birinchi va ikkinchi pardalarda sodir bo'lgan hodisalar tufayli tugaydi. Maysara tuzgan reja - tuzoqni amalgalashda Cho'pon Ali, Oyxon va Mullado'st ko'mak berib, kechasi keladigan "aziz" mehmonlarni kutib olishga puxta tayyorgarlik ko'radilar. Birinchi Qozi keladi. Maysara xursandchilik bilan samimiy sifatda uni kutib oladi. Qozi ustidagi choponni yechib, suppa ustida tayyorlangan dasturxon yoniga o'ltiradi. Omin qilgach "qani Oyxonni olib chiq" deb buyuradi. Maysara: "Hozir Oyxon huzuringizda bo'ladi" degan paytida eshikni taqillatadi, men Cho'pon Aliman deb ovoz chiqaradi. Qozi juda qo'rqib ketadi va Maysaraga meni bekit deb iltimos qiladi. Maysara uni molxonaning ustuniga bog'lab, ustiga ho'kizni terisini yopib, boshiga ho'kizni kallasini kirgizib, oldigi somon va paqirda suv qo'yib qo'yadi. Qozi nochor ahvolga tushib qolGANI to'g'risida "Ho'kiz"cha ovozga o'xshatma qilib, xajviy uslubda ariya aytadi.

Qozini mazkur ariyasiga kirish musiqa, uning "leytmotiv"i asosida bastalangan. Orkestr sadosida o'tadigan "leytmotiv" xrammatik garmonik akkordlar past registrda asta - sekin siljishlari mukammal ravishda, uning yomon hajviy ahvolga tushib qolganini mungli ariyada izhor etadi.

Qisqa pauzadan so'ng Maysara sidqidillik bilan Hidoyatni kutib oladi. U qo'lida bog'langan tuhfa bilan juda ham tez musiqa fonida hovliga kirib, girdi - kapalak holatda raqs tushib, molxonaning yoniga borib qoladi. "Ho'kiz" Qozi uni tepadi, Hidoyat qoqilib yiqiladi, qo'rqqanidan oqsoqlab qochadi. Maysara uni yupatadi. Hidoyat tugunni Maysaraga beradi va dasturxon yoniga o'ltiradi va Oyxonni olib chiqishni so'raydi. Shu payt eshik taqillaydi va Cho'pon Ali ovozi bilan eshikni ochishga chaqiradi. Hidoyat qo'rqqanidan vahimaga tushib, Maysaradan uni bekitishni iltimos qiladi. Maysara esa uni uyga kiritib, o'zi olib kelgan atlas lozim va ko'yakni kiydiradi, yuzini, qoshini bo'yab, boshiga ro'mol o'raydi.

Qisqa pauzadan so'ng Hoji Darg'a keladi va Maysara qarshi oladi, "nima bilan keldingiz?" deb so'raydi. Vasiqani olib keldim, Oyxon endi menga yor bo'ladi. Qayga uni bekitding, tezlik bilan Oyxonni olib chiq, meni toqatim yo'q! Maysara xo'p bo'ladi deb

ayol kiyimidagi Hidoyatni etalab chiqadi. Maysara qo‘liga rubob olib raqs musiqa chala boshlaydi va Hidoyatni raqsga da’vat qiladi. Hoji Darg‘a Maysara bilan aytishuv uslubda, yalla (duet) aytib Hidoyatni o‘ynatadilar. Hoji Darg‘a uni quchoqlab, o‘pishga urinadi. Hidoyat esa tarsaki beradi. Hoji esa yana xushomat qilib, uni erkalatib, noz - noz o‘yna deb kuylaydi.

Hoji Darg‘a kuylashining oxirida Hidoyatni nozik belini ushlab yana o‘pmoqchi bo‘ladi. Hidoyat esa yana tarsak beradi. Shu payt ko‘chadan “sen mening nozik niholimsan Oyxon, kulishlaring, ovozlarining xuddi nozik dutor ovoziga o‘xshataman” deb Cho‘pon Alini ovozi eshitiladi. Maysara “voy, kutilmagan Cho‘pon Ali kelib qoldi” deydi. Hoji Darg‘a qo‘rqqanidan qayerga bekinishini izlab, un solingan katta ko‘zani ichiga tushib ketadi. Uy ichidan chiqqan Mullado‘st “shumidi seni ahvollaring, la’nati mazzarabozlar, bularni qamchin bilan savalash kerak” deydi. Maysara, Oyxon va Cho‘pon Aliga dugona, jo‘ralaringni va qishloq ahlini chaqiringlar, bularni ahti - basharalarini ko‘rishsinlar deb qo‘liga doirani olib chala boshlaydi, hovli xalqqa to‘lib ketadi. Bugun Oyxon bilan Cho‘pon Alining to‘ylari deb, mashhur o‘zbek xalq qo‘shig‘i “Yor - yor” Maysara, Oyxon, Cho‘pon Ali, Mullado‘stlar ijrosida yangraydi va xalq jo‘r bo‘ladi. Maysara “Cho‘pon Ali va Mullado‘stga boshlanglar tantanani” deydi. Ular mashhur o‘zbek xalq raqsi “O‘yin bayoti” asosida yozilgan yallani boshlab yuboradilar.

Kompozitor mazkur yallani butunlay sitata asosida kiritmay, uning usul – intonatsiyasidan foydalanib, keng ravishda, katta ommaviy raqs - xor sahnasini yaratgan. Musiqani umumiy jaranglashini boyitishda, o‘zbek xalq musiqasiga xos usullarni, rubob, doira, nog‘ora sozlarini simfonik orkestr asosida organ - punkt, kvarta - kvinta birin - ketin tebranishlari jami inson qalbini to‘lqinlantrib yuboradigan musiqa yaratgan. Bu musiqani to‘lqinlanish halovati uzviy ravishda “Jon qizlar o‘ynang” to‘rt ovozli xor bilan bog‘lanib ketadi. Mazkur ommaviy xor operani finalidagi xor bilan uzviy bog‘lanadi. Xor va orkestr sadosining fonida ko‘tarinki ruhda, qiyqiriq kulishlar bilan yoshlar xumni ichidan unga bo‘yalgan Hoji Darg‘ani chiqarib uradilar. Maysara “Endi Hoji o‘zi aytsin” deydi. Hoji “Qattiq urmanglar” deydi. Yoshlar Hidoyatni atlas ko‘ylagini yechib, tepadilar. Hidoyat “Avf

etinglar” deydi. Maysara molxonadan arg‘amchiga boylangan Qozi - ho‘kizni olib chiqadi. Qozi “Voy! O‘lib qolaman” deb yalinadi. Maysara, Oyxon, Cho‘pon Ali va Mullado‘stlar bu ifoslarni hovlidan xalq bilan birlikda haydaydilar. Hamma Maysaraning ishiga qoyil qolib, ofarinlar izhor etadilar va hajviy opera nihoyasiga yetadi.

“Maysaraning ishi” hajviy operasining tahlili shuni ko‘rsatdiki, operani adabiy mazmuniga kiritilgan barcha qahramonlar xarakterlariga xos musiqiy til - iboralari, garmonik - polifonik vositalar bilan boyitib va shakl - janrlarni kompozitor aniq va mohirlilik bilan qo‘llagani musiqiy dramaturgiyada yaqqol namoyon bo‘ladi. Musiqiy dramaturgiyaning rivojlanish jarayonida yakka ovoz, ariya, qo‘sish, laparlar bilan ommaviy xor, ayniqsa vokal - ansambllar: duet, tertset, kvartet va kvintetlar muhim rol o‘ynaydi.

Kompozitor S.Yudakov operada o‘zbek xalq musiqasidan iqtibos kiritmay, faqat kuy - ohangi va usul doirasi bilan cheklanadi. Ya’ni xalq qo‘sish, ashula, yalla, lapar kabi janrlarning xususiyatlardan, mukammal ravishda foydalangan. Kuylarni obrazli tuzilmasi tiniq oddiy va ta’sirchan ohanglarni zamini asosan major yoki minor ladlar, garmonik funksiyalari soddaakkordlar bilan boyitilgan. Shular sababli opera xalqchilligi, asl hajviyligi, o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi va tomoshabinni juda ham qiziqtirib, Maysaraxonning aql - zakovatli ishi girdobiga olib kiradi.

“Dilorom”. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston davlat akademik katta opera va balet teatr jamoasi 1958 - yilning 5 - fevralida “Dilorom” nomli operani tomoshabinlarga havola qildi. Mazkur opera musiqa muallifi kompozitor Muxtor Ashrafiy, libretto muallifi Komil Yashin va Muzaffar Muhammedovlar.

Operaning mazmuni ulug‘ shoir Alisher Navoiyning “Xamsa”sining to‘rtinchchi epik dostoni “Sabbayi sayyor” (Yetti sayyora) asosida, sahna talabi tufayli, librettoga ayrim o‘zgarishlar kiritib yozilgan. Ya’ni bu ishqiy - sarguzasht doston Bahrom va Dilorom haqidagi hikoyaning kompozitsion tuzilishi yetti mustaqil hikoyadan iborat: Birinchi hikoya shanba kuni – qora qasrda; ikkinchi hikoya – yakshanba kuni – sariq qasrda; uchinchi hikoya dushanba kuni – yashil qasrda; to‘rtinchchi hikoya seshanba kuni – gulgun qasrda; beshinchi hikoya – chorshanba kuni – nilufar qasrda;

oltinchi hikoya – payshanba kuni sandal tusli qasrda va yettinchi hikoya – juma kuni – oq qasrda bayon qilingan, xilma - xil hikoyalarda sevgi va vafo, do'stlik va sadoqat, himmat va saxovat, mardlik kabi insoniy xislatlarni ulug'lab, real hayot lavhalaridan tortib fantastik manzaralarga qadar, oddiy turmush voqealaridan tortib kishini esankiratuvchi xayoliy sarguzashtlarga, shu bilan birga kundalik hayotda sodir bo'lib turadigan qarama - qarshi yaxshilik bilan yomonlik o'ttasidagi kurash, podsholar saroyidagi g'iypat va xusumatni, xudbin va firibgar kimsalarning xatti - harakatlarini ifodalaydi, tanqid qiladi, aysh - ishratga berilgan, xiyonatchi va hiylakor kishilarni jirkanchli axloqi, xislatlarini qattiq qoralaydi.

Mazkur libretto asosida kompozitor Muxtor Ashrafiy mustaqil ravishda "Dilorom" afsonaviy - romantik operani yaratdi. Operaga musiqa bastalashda kompozitor o'zbek va boshqa xalqlarning musiqiy merosidan foydalanib, milliy ruhda o'zbek folklori bilan uzviy bog'liq intonatsion zaminida original musiqa yaratishga muyassar bo'lган. Opera jahon klassik operalar shaklida yozilgan. Ya'ni simfonik orkestr jo'rligida: rechitativlar, qo'shiq, romans, arioza, ariya, turli vokal ansamblar va xor nomerlardan iborat. Opera 4 parda, 7 ko'rinishdan iborat.

"Zebuniso". Alisher Navoiy nomidagi akademik, katta opera va balet teatr jamoasi 1987-yili kompozitor Sayfi Jalilning "Zebuniso" ("Samarqand Ushshog'i") operasini tomoshabinlarga havola qildi. Operaning librettosi shoir Uyg'unning "Zebunniso" dramasi asosida yozilgan. Opera janrining qonun xususiyatiga binoan asar qisqartirilgan va librettoga ariya, arioza, vokal – ansambl va xor nomerlarga she'rlar bastalangan.

Mazkur tarixiy beografiq, lirik - drama operada XVII asrda Hindistonda hukmdorlik qilgan shoh Avrangzebning qizi, mashhur shoira Zebunisoning hayoti va ijod taqdiri ifodalanadi<sup>27</sup>.

Lirik - dramatik operada sodir bo'ladigan voqealar asosan ikki bosh personaj – Zebuniso va uning otasi shoh Avrangzeb atrofida

<sup>27</sup> Operaning qisqacha mazmuni. Voqe XVII asrda Hindistonda o'tadi. Zebuniso va Roziy - ikki shoir bir birlariga ko'ngil qo'yadilar. Ularning sevgi mulabbatlari saroyda oshkora bo'ladi. Bunga shoh Avrangzeb mutlaqo qarshilik ko'rsatadi. U qizini o'z vaziri Amirkonga turmushga uzatishga ahd qilgan. Zebuniso otasini taklifini va buyrug'ini rad etadi. Amirkonning taysiyasi bilan shohni o'g'li Akbarni, uning do'sti Roja – ramni va shoir Roziyini urushga jo'natadi. Vazir Amirkon ularni orqasidan o'zining uch navqiron yigitlarni o'ldiradi. Bu noxush xabarni shoh (qayg'u yig'i bilan) qiziga xabar beradi va Amirkonga turmushga chiqib, eta taxtini saqlab davlatni bosqarishni va saroya qaytishini taklif qiladi. Zebuniso "Mening tojim she'riyat!" deb taklifini rad etadi.

mojaro markazlashtirilgan. Mazkur tarixiy - biografik mavzuda yozilgan opera “Layli va Majnun”, “Tohir va Zuhra” kabi operalarni an’analari asosida yozilgan. Asarning lirik - dramatik ruhi musiqiy til bilan hamohang. Mana shu xususiyat vogelikni idrok etib kompozitor Sayfi Jalil (1932 - 2003) lirik – shoira Zebunisoning ruhiy olamiga hamohang ravishda musiqa bastalagan.

“Alisher Navoiy”. Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Respublikasi davlat Akademik katta opera va balet teatr jamoasi 1990-yilning 25-noyabrida “Alisher Navoiy” nomli operani tomoshabinlarga havola qildi. Operaning musiqa muallifi Mutal Burhonov, librettoni kompozitorning o’zi, dramaturglar Izzat Sultonov va Otaqo’zi Uyg‘unlarning shu nomli dramasi asosida yozgan.

Buyuk shoir, mutafakkir, davlat va jamoat arbobi boboka-molimiz Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligiga bag‘ishlangan bu tarixiy - biografik opera XV asrda sodir bo‘lgan ziddiyatli voqealar bilan chambarchas bog‘liq. Mazkur sahna asarining premyerasini tomoshabinlar qizg‘in olqishlar bilan kutib olishlari tarixiy voqeaga aylanib ketgan edi. Kompozitor ulug‘ shoirning asarlarini, doimiy ravishda mutolaa qilib keldi. Opera yozishdan avval u dastlab A.Navoiyning she’rlariga romanslar yozdi. 1943-yili Hamza nomidagi o’zbek davlat Akademik drama teatri sahnasida qo‘yilgan “Alisher Navoiy” nomli dramaga musiqa bastaladi. 1968-yilda esa shoir Abdulla Oripov bilan hamkorlikda ulug‘ shoir tavalludining 525 yilligiga bag‘ishlab “Alisher Navoiy”ga qasida nomli vokal - simfonik poema kabi asarlari bilan murakkab opera yozishga zamin yaratdi.

Asarning badiiy - g‘oyaviy mohiyati, A.Navoiyning faqat she’riyat sultonii bo‘lib chegaralanib qolmasdan, uning butun hayoti muqaddas Vatanga faol xizmat qilish, katta - katta bino va inshootlar qurish, go‘zal bog‘lar yaratish, shular bilan birga davlatga va xalqqa xiyonat qiluvchi xudbin - yovuzliklarga qarshi kurashlari bilan chambarchas bog‘langan.

A.Navoiyning “Odami ersang demagil odami, oniki yo‘q xalq g‘amidin g‘ami” otashin hikmatli so‘zi opera g‘oyasining asosiy negizidir. Mazkur so‘z sahna pardasining peshtoqiga shior qilib yozib qo‘yilgan.

Asarda asosiy qahramonlarning musiqiy “portret”lari operadagi ommaviy sahnalarda sodir bo‘layotgan voqeа - muhitlari bilan uzviy bog‘langan. Umuman, opera davomidagi ariyalar, vokal ansambllar va xorlar, rechitativlar, orkestr sadolari bilan payvand bo‘lishlari tufayli musiqiy dramaturgiya yaxlit rivojlanadi. Ya’ni operada qatnashuvchi har bir qahramon o‘zining individual musiqali xarakteristikasiga ega.

**Tayanch so‘zlar:** opera, musiqa, libretto, kompozitor, basta-kor, an’ana, ijod, rechitativ, ariya, arioza, ansambl, orkestr, xor, teatr.

### **Mavzu bo‘yicha savollar:**

1. Opera janrining o‘ziga xosligi.
2. O‘zbek musiqasidagi dastlabki operalar, yutuq va kam-chiliklar.
3. Tarixiy-biografik, ishqiy romantik va zamonaviy mavzulardagi operalar.

### **Mavzu bo‘yicha topshiriqlar:**

1. Mavjud adabiyotlardan opera janri bo‘yicha bat afsil ma’lumot to‘plash.
2. O‘zbek operalarini janrlari kesimida tahlil qilish.
3. “O‘zbek oprea san’ati” mavzusi bo‘yicha taqdimot-ma’ruza tayyorlash.

### **Foydalaniłgan adabiyotlar:**

1. История узбекской советской музыки. –Т.: 1973, 1991.
2. Jabborov A. “Musiqiy drama va komediya janrlari O‘zbekiston kompozitorlarining ijodiyotida”, –Т.: 2000.
3. Ян Пеккнер “Узбекская опера”, –М.: 1984.

## BALET

### Mavzu rejasi:

1. O'zbekistonda balet san'atining rivojlanish jarayoni.
2. Dastlabki yaratilgan baletlar, ularning tarixiy o'rirlari, yutuq va kamchiliklari, janr muammolari.
3. O'zbek kompozitorlari tomonidan yaratilgan muvaffaqiyatli baletlar.

O'zbekiston kompozitorlarining balet janriga qiziqishi aynan urushdan keyingi yillarda ancha jonlandi<sup>28</sup>. Agar 50-yillarda zamonaviy yoki ertak mavzusida yozilgan baletlarning musiqali sahna rivojida epik qissalar xarakteri ustun turgan bo'lsa, 60 – 70-yillar baletlarida, shubhasiz, 50-yillar oxirida boshlangan xoreografik san'atning umumiy yuksalishi bilan bog'liq bo'lgan yirik, dramatik to'liq spektakllar yaratishga, keskin, ko'pincha fojiali syujetlar ifodalashga intilish seziladi. Xilma-xil mavzu va syujetlarda balet uchun an'anaviy mavzu bo'lgan muhabbat mavzusiga oid (M.Leviyevning "Suhayl va Mehri", I.Akbarovning "Layli va Majnun", M.Ashrafiyning "Sevgi tumorı", G.Mushelning "Bibixonim" baletlari), qahramonlik va vatanparvarlik (M.Ashrafiyning "Sevgi va qilich" baleti), ommabop mavzuda (A.Kozlovskiyning "Tanovar" baleti) asarları yaratildi.

Urushdan keyingi davr balet san'atida G.Mushelning "Raqqosa" baleti katta ahamiyatga molikdir.<sup>29</sup>

Balet O'zbekistonning san'atkori yoshlariiga bag'ishlangan. Yoshlarning "katta" san'atga chiqishi, sahnaga intilishiga katta yoshli avlod, ko'pincha e'tiroz bilan qarar edi. Balet ssenariysining asosiga ana shunday hayotiy munozara olingan. Asar markazida

<sup>28</sup> 30-yillar oxiri 40-yillar boshida uchta balet yaratildi: F.Talning "Shohida", Ye.Brusilovskiyning "Gulandom" va S.Vasilenkonning "Oq bilak" baletlari.

<sup>29</sup> Premyerasi 1952-yilning 30-aprelida A.Navoiy nomidagi opera va balet teatrda bo'lib o'tdi.

dastlab qishloq havaskorlik to'garagining eng yaxshi raqqosasi, so'ng xoreografiya bilim yurtining talabasi Gulnora obrazi turadi.



“Raqqosa”ning musiqiy-xoreografik kompozitsiyasi o‘zining umumiy xususiyatlarida klassik balet spektakli tuzilishiga tayanadi. Buni kam voqelilik, raqs va pantomima epizodlarining almashishi, yaxlit kompozitsiyaning asosi sifatida klassik syuita va xalq raqs syuitalari mavjudligida ko‘rish mumkin.

Balet musiqasi yorug‘ lirik ohanglarda ifodalanadi va asosan, dramatik epizodlardan xolidir. Balet partiturasida yetakchi musiqali obraz bo‘lib, o‘zbek xalq lirik qo‘shiplari “Qal’a bandi” va “Bo‘lmasa” vositasida ifodalangan Gulnora obrazi turadi. “Raqqosa” zamonaviy mazmunda yozilgan eng yuksak baletlardan biri hisoblanadi.

Balet spektaklining o‘zgacha janrini I.Akbarovling “Layli va Majnun” baleti tashkil etadi.<sup>30</sup> Balet xususiyati, avvalambor, kompozitor Navoiyning mashhur dostonini o‘qishi va undagi obrazlarni ijodiy talqin etishiga bog‘liqdir. Bir aktli balet doirasida musiqa mazkur poemaning aniq syujetini emas, balki uning hissiyotli mohiyatini: ikki dil sevgisi, bu sevgi sevinchi va baxti, hijron fojiasi va o‘limni ifodalaydi. Dunyo adabiyoti ushbu mazmundagi afsonalarning juda ko‘piga ega. Akbarov aynan shu nuqtayi nazardan bu abadiy syujetga yondashadi: “Layli va Majnun” baleti o‘zbek ijodkorı musiqasida aks ettirilgan umuminsoniy afsona sifatida qabul qilinadi.

<sup>30</sup> Premyera 1968-yil 14- noyabrda A.Navoiy nomli opera va balet teatrida bo‘lib o‘tgani.

“Katta” syujetli balet janriga 60-yillar oxirida M.Ashrafiy murojaat qildi. Uning “Sevgi tumori”<sup>31</sup> baleti hind dramaturgi B.Gargining “Soxanni va Maxival” poemasi asosida yozilgan. Bu romantik rivoyat buxorolik yigit Mirzoning Hindistonga qilgan safari va uning hind qizi Soxanniga bo‘lgan sevgisi, sevishganlar yo‘lidagi to‘sinqalar va ularning fojiali halokati haqida hikoya qiladi. Melodramatik mazmun, bosh qahramonlarning hayajonga soluvchi taqdiri, dramaga fon bo‘lib xizmat qiluvchi maishiy sahnalar mavjudligi mazkur baletni lirik-maishiy drama deb hisoblash imkoniyatini beradi.

“Sevgi tumori” uch pardalari, muqaddima va xotimasi bilan olti ko‘rinish, ko‘p personaj va almashib turadigan epizodlardan tashkil topgan. Baletning musiqali-xoreografik dramaturgiyasi tugallangan nomerlar tamoyiliga tayanadi, u uchun qarama-qarshi kuchlarning bir-biriga munosabati emas, balki ularni taqqoslash xarakterlidir.

Baletning musiqiy tili o‘zbek, hind, afg‘on musiqalariga xos turlicha kuy va ritmik xususiyatlari bilan sug‘orilgan. Spektakl yorqin va tomoshabinbopligi, hodisalar chizmasi qiziqarlıligi va unda raqs ruhiyatining hukmronligi baletni keng tomoshabinlar olqishiga sazovor bo‘ldi.

1970-yilda Samarqandning 2500 yillik to‘yiga G.Mushel uch pardali “Bibixonim” baletini yozdi<sup>32</sup>. Ssenariyga Temurning to‘ng‘ich xotini Bibixonimning usta Bahromga bo‘lgan sevgisi va bu sevgi fojiali tugallanishi haqidagi rivoyat asos qilib olingan. Doimo lirik obrazlarni talqin qiluvchi va rivojlantiruvchi Mushelning baletlari qatorida “Bibixonim” baleti ham musiqali ifoda hamda spektakl rivoji uyg‘unligi nuqtayi nazaridan eng yetuk asardir.

A.Kozlovskiyning uch pardali “Tanova” baleti romantik janr an'analarida yozilgan<sup>33</sup>. Baletning nomi, asosan, ayollar ijro etadigan qadimiy o‘zbek qo‘shig‘i nomidan olingan. Balet yosh Nurxonning raqqosa bo‘lish orzusida ota uyini tashlab chiqib ketishini hikoya qiladi. O‘zbek qizining yangi hayotga yondashishi, uning san‘atga kirib kelish mavzusi hayotdan olingan. Ko‘pchilik o‘zbek aktrisalarining taqdiri ana shunday bo‘lgan.

<sup>31</sup> Premyera 1969-yil 21-iyunda A.Navoiy nomidagi opera va balet teatrida bo‘lib o’tgan.

<sup>32</sup> Ikkinchil tahrirda Samarqand Davlat opera va balet teatri tomonidan sahnalashtirilganida balet “Samarqand afsonası” nomini oldi. Premyerasi 1970-yilda Samargandda bo‘lib o’tdi.

<sup>33</sup> Premyerasi 1971-yilda A.Navoiy nomli Opera va balet teatrida bo‘lib o’tdi.

M. Ashrafiyning “Sevgi va qilich<sup>34</sup> nomli yangi “katta” uch pardali baletining yuzaga kelishiga kompozitor tomonidan avval yozilgan va bo‘lajak balet mavzuiyigini shakllantirgan “Temur Malik” simfonik poemasi asos bo‘ldi. Ikkala asar ham o‘z xalqining Chingizzon O‘rdasiga qarshi kurashiga rahbarlik qilgan Xo‘jand hokimi – mardonavor lashkarboshiga bag‘ishlanadi. Birinchi bor o‘zbek balet sahnasida real tarixiy shaxslar paydo bo‘ldi, qahramonlik mavzusini aks ettirishda ilk tajriba qilindi. Balet san’ati xususiyatiga javoban asarda Temur Malik obraziga shoirona tus berilgan: bosh syujet yo‘nalishi (ikki qarama-qarshi kuchlarning kurashi)dan tashqari sevishganlar Temur Malik va Zarina obrazi orqali lirik sevgi mavzusi ham kiritilgan.

U.Musayevning “Afsonalar vodiysi” va “To‘maris” 1982-yilda Frunze teatrida; 1984-yildan Toshkentda), I.Akbarovning “Navro‘z” (G.Izmaylova va R.Farhodiy librettosi, 1983) kabi baletlari o‘zbek balet san’ati rivojiga o‘zining beqiyos hissasini qo‘shdi deyish mumkin.

1980 - yillardan boshlab, balet janri shaklan o‘zgartirishga o‘rta va to‘ng‘ich avlod vakillarining hissalarini yuqori bo‘ldi: S.Yudakovning “G‘alaba” (T.To‘la librettosi, 1982), M.Ashrafiyning “Rustam haqida doston” (Muqaddima Ashrafiy librettosi, 1984) va Rustam Abdullayevning “Quyoshga ta’zim” (A.Rahimov librettosi, 1985) balet – oratoriyalari, Nurilla Zokirovning “Xotira doirasi” (O.Melnik librettosi, 1985, Chingiz Aytmatov asari asosida), baletlari bunga misoldir.

**Tayanch so‘zlar:** balet, musiqa, libretto, kompozitor, teatr, orkestr, xoreografiya, baletmeyster.

### Mavzu bo‘yicha savollar:

1. “Balet” so‘zining lug‘aviy ma’nosи.
2. Balet san’atining vujudga kelishi.
3. O‘zbekistonda balet san’atiga tegishli dastlabki muvaffaqiyatsiz baletlar.
4. O‘zbek kompozitorlari tomonidan yaratilgan baletlar.

<sup>34</sup> Balet birinchi tahririda “Temur Malik” nomi bilan 1971-yilda Dushanbeda qo‘yilgan, ikkinchi tahriri esa 1974-yilda Toshkentda sahnalashtirilgan.

### **Mavzu bo'yicha topshiriqlar:**

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasidan "balet" atamasini batafsil o'rganish.
2. "O'zbek baletlari" mavzusi bo'yicha taqdimot-ma'ruza tayyorlash.
3. Qayta tahrirlarga duch kelgan baletlar yuzasidan ma'lumot to'plash.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. –Т.: 2001/
2. История узбекской советской музыки. –Т.: 1973, 1991.
3. Музыкальная критика в Узбекистане. –Т.: 1984.
4. Т.А.Юлдашбаева "Мастера узбекской оперной сцены, –  
Т.: 1985.

## VOKAL MUSIQA

### Mavzu rejasi:

1. Qo'shiq va romans o'zbek kompozitorlari ijodiyotida.
2. Romans janrining rivojlanishi.
3. Jo'rli va jo'rsiz xor san'atining rivojlanishi.
4. Bir qismli vokal-simfonik janrlarning rivojlanishi.
5. Ko'p qismli vokal-simfonik (syuita, kantata va oratoriya), janrlarning rivojlanishi. Syuitalar. Oratoriylar.

**Vokal musiqa** (qo'shiq, romans, a'kapella xorlar) – cholg'u jo'rligida yoki jo'rsiz kuylash uchun mo'ljallangan musiqadir. Vokal musiqaning asosini tashkil etuvchi matn (she'r) – mazkur janr mukammaligida muhim ahamiyatga egadir.

**Qo'shiq** – keng ma'noda she'riy-musiqiy janr; *vokal musiqaning* eng ommalashgan, ko'proq band shakliga asoslangan turi, shuningdek, kuylashga mo'ljallab to'qilgan she'riy asarlarning umumiy ifodasi.

XX asrning 20 - yillarida yaratilgan dastabki qo'shiqlar asosan xalq farovonligi, fidokor mehnatkashlar hayotini ifodalashga qaratilgan bo'lib, ushbu janrda jonbozlik ko'rsatgan bastakor va kompozitorlar qo'yidagilar edi: To'xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, Komiljon Jabborov, Imomjon Ikromov, Fahriddin Sodiqov va h.k.

30-yillarga kelib janr rivojiga taniqli bastakor – kompozitorlardan tashqari Toshkent davlat konservatoriyasining talabalari ham o'zlarining beqiyos hissalarini qo'sha boshlaydilar. Xususan: M.Burhonovning "Tabassum qilmading hech...", "Ey bulbul, giryा makun" romanslari, A.Kozlovskiyning "Tanova", "O'zgancha", "Gul yuz uzra", "Fig'on" kabi vokal – simfonik asarlarini misol tariqasida keltirib o'tish mumkin.

Keyingi yillarda vokal musiqa yangi janr turlari bilan boyidi. Mavjud qo'shiq va romanslardan tashqari a'kapella xorlari, yirik

vokal shakllar sohasida esa kantata, oratoriya va syuitalar yuzaga keldi.

Qo'shiq janri rivojiga beqiyos hissa qo'shgan keksa avlod kompozitorlardan T.Sodiqov, M.Burhonov, M.Ashrafiy, M.Leviyev, S.Yudakovlarning nomini alohida eslab o'tish joiz.

Bastakorlar o'zbek milliy usullari negizida vals usuliga ko'proq murojaat eta boshlaydilar. Misol tariqasida Nabijon Hasanovning "Toshkent piyolasi", "Dilraboden bu chiroy" qo'shiqlarini keltirish mumkin.

Shuningdek mazkur janr rivojida O'zbekiston (gimn) madhiyasini (1946) yaratish yuzasidan e'lon qilingan tanlov ham ulkan ahamiyat kasb etadi. Ko'plab kompozitorlar o'z ijod namunalari bilan ishtirok etishlariga qaramay, M.Burhonov tomonidan yaratilgan.

Asar o'zining yorqinligi va kuychanligi bilan O'zbekistonning yangicha hayot muhitini o'ziga xosligini namoyon etadi.

Folkloarning an'anaviy janrlariga ijodiy yondashgan va turli usullarni qo'llagan holda O'zbekiston kompozitor (D.Zokirov, X.Rahimov, I.Akbarov, S.Yudakov) larining yangi qo'shiqlari vujudga kela boshlaydi. Umuman O'zbekiston kompozitorlarining qo'shiq janrida samarali ijod etishlariga, umrboqiy ijod namunalarini yaratishga xalq ijodiyoti bilan uzviy bog'liqlik asosiy omil sifatida xizmat qilishi begumon.

Romans janrining rivojiga 1948-yilda Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligi va 1949-yilda A.S.Pushkin tavalludining 150 yilliklari munosabati bilan o'tkazilgan romanslar tanlovi ulkan hissa qo'shdi.

Mazkur tanlov romans janri o'zbek musiqasi uchun yaqin, xalq aytim san'atiga bevosita bog'liqligini namoyon etdi. Davrning eng sara romanslari qatoriga S.Yudakovning Navoiy matni asarida bastalagan "Basandast" romansini keltirish joiz. Romans band shaklida, folklor an'analariga tayanga holda yaratilgan.

A.Navoiy tavalludining yubileyi munosabati bilan yaratilgan yana bir e'tiborga molik asar – M.Leviyev qalamiga mansub "Dilistonim sen mening" romansidir. Romansda kompozitor rechitativga murojaat qilgan bo'lishiga qaramay, kuy talqini o'z xususiyatini saqlab qola olgan:

Moderato

Гар-ва-ли фо-юмл гар жа-фо ким  
вер ной будь или жес то-кой будь,  
*p*  
дилис-всё то-рав-но миц-всё раз-но миц  
ним-сен-менинг

Romans ikki qismli, repriza shaklida yozilgan.

Romans janriga taalluqli asarlar milliy musiqadagi turli xil uyg'unliklar me'yorida ishlatilganligi bilan qiziqarli. Bu o'zbek musiqasi ritmik aylanma va parda intonatsiyasi uchun tabiiy birikmalar (melodik yurishlar, past turdag'i melodik harakatlar, o'mashgan joy va avjning "nolalari", kadanslarda noturg'un pog'onalarining yetishmasligi, sinkopik ritmlar), yevropa professional musiqasida tarkib topgan.

Buning natijasida o'zbek musiqasida yangi - romans janri paydo bo'lidi. Romansning obraz qatorida, uning musiqiy tilida, milliy an'anaviy meros boyliklarini aniq, ravshan ko'rish mumkin.

30-yillarning ikkinchi yarmiga kelib ovoz va orkestr uchun yozilgan dastlabki katta asarlarning paydo bo'lishi kiradi. Katta e'tibor bilan A.F.Kozlovskiyning simfonik orkestr jo'rligidagi ayollar ovozi uchun yozilgan partituralar ijro etilgan. Bu asarni yaratishda kompozitor keng tarqalgan xalq qo'shiqlari "Tanovar", "O'zgancha", "Gulyuz uzra", "Fig'on" musiqalaridan foydalangan.

Mazkur asarlar Moskva konservatoriyasini tamomlab, 1936-yilda Toshkentga kelgan A.F.Kozlovskiyning o'zbek folklori asosida qayta ishlangan kuy namunalarining ilk tajribalaridan biridir. Partituralarning barchasi 1938-yilda vujudga kelgan.

Muallifning aytishicha o‘zbek xalq san’atini o‘rganish ishlariga ikki yil ketgan. Kozlovskiy yon daftarchasidan hech ham ayrimagan, qayerda qanday kuy tinglasa, xoh cholg‘u kuyi bo‘ladimi, xoh raqs kuylari, xoh qo‘shiqlar deyarli barchasini mana shu yon daftarchasiga yozib borishga harakat qilgan. Bu musiqiy folklor yozuvlari keyinchalik musiqa asarlarining yaratilishida katta rol o‘ynagan. “Men ishondim, kompozitor uchun aynan o‘zining xalq musiqalari yozuvlaridan foydalanish zarur. Tembrlarni nota yozuvlariga tushirib bo‘lmaydi va yozuvlar – bu sxema” – deydi A.F.Kozlovskiy. O‘zbek xalq san’atiga bo‘lgan asl muhabbat, milliy nolalarning chuqur xarakterli xususiyati A.F.Kozlovskiyning partituralarida ko‘rsatilgan. Bu asarlarda “qayta ishlash” termini kam ishlatilgan. Ularning formasi qanchalik rivojlangan bo‘lsa, uning fakturasi shunchalik chiroylar, simfonik orkestrning o‘mi qanchalar yuqori bo‘lsa, ular vokal simfonik poema sifatida qabul qilinadi. Xalq kuylaridan – dardli “Tanovar”, nafis “O‘zgancha”, yorqin, lirik xarakterli “Gulyuz uzra” va fojiyaviy asar “Fig‘on”, asarlarni kompozitor boy simfonik imkoniyatlar orqali rivojlantirish, ularga yanada jozibali sayqal berish mumkinligini yaxshi anglandi. Kuylarning asos kuy negizini saqlab qolgan holda, asosini o‘zgartirmasdan, simfonik orkestrning vositalari formasini rivojlantirishga erishdi. Kuylar orasida ayniqsa “Tanovar” kuyi o‘zgacha rang va boy sayqalga ega asar sifatida gavdalandi.

“Tanovar” O‘zbekiston xalq lirik qo‘shiqlari ichida eng mashhuri bo‘lib, farg‘ona folklorining xususiyatlari bilan sahnalashtirilgan. Sekin usulda yozilgan kuy, shiddatli yuksalish yumshoq va ravon kamayishlar bilan o‘zgaradi. Ritmik ko‘rinishning sinkopalari, ko‘tarilish paytidagi keng ifodali mavzusi va qaytish paytida toliqqan intonatsiyalar, kuy jarayonlarning qaytarilishi, har bir bo‘limning tugallanishi va ko‘p shakllarda qo‘llanilgan asosiy butunlik – bularning barchasi aniq muhabbatning poetik obraziga, qahramonlarning nozik izardobi, she’rlarda xalq qo‘shiqlarining kiritilganiga va uning musiqasi chuqur o‘zgarishlariga ega bo‘lgan.

Xalq ijodidagi bu chiroylar namunani garmonlashtirib Kozlovskiy o‘ziga xos ladlaridan frigiy ladini saqlab qolib, yorqin xarakterli “Tanovar” asarini yaratdi.

Aynan shu sabab kompozitor asarni yaratishda subdominanta guruh akkordidan foydalangan. Buni asarning boshlanishidan orkestrning kirish qismidanoq guvoh bo'lish mumkin.

O'zbek xalq musiqasining xususiyatlaridan noturg'un II, III, IV, VII pog'onalar "Tanova" garmoniyasida ham mavjud. Bunday usullar garmoniya ifodali xususiyatlarini kengayishiga olib keladi, uning xalq ladlari tarkibini boyitadi.

Orkestr kirish qismining rivojlanishi poemaning asosiy qismiga olib keladi. Bu yerda qo'shiqchi "Tanova" mavzusini ijro etadi. Unga usul sifatida "re" notasining organ punkti va ko'chirma ko'rinishning xususiyatlari xizmat qilgan.

"Tanova"ning organ punkti nafaqat konstruktiv, balki rang-bo'yoq jihatidan ahamiyatga ham ega. Qiyin subdominanta garmoniyasi, tonika organ punktiga suyangan holda yarim xususiyat birlashuvini hosil qiladi. Xromotizm va alteratsiyalar bilan boyitilgan ijro natijasida o'zbek folklor tarkibida o'ziga xos iadlar boyitilgan.

Poemaning cholg'u asboblari bo'limida kompozitor o'zbek xalq musiqasidan assoslanib, polifonik imkoniyatlarini rivojlantiradi. Kuy aylammali qo'shiqlardan foydalanib, Kozlovskiy partituraga imitatsiya, kontrast ovozlar qo'shgan. Vaqt kelib qo'shiqchi yakkaxon duet ichrochiligi va orkestrning bitta cholg'usidan tashkil topgan mavzuni kanon usulda ijro etish vujudga kelgan (masalan stretta ijroligida yozilgan fagot ozgina o'zgartirilishlar bilan "Tanova" vokal partiyasi melodiya bilan bog'lanib ketishi).

"Tanova" parturasidagi qiziqarli o'zgarishlar xalq ijrochiligi va cholg'uchilar jo'rliги uchun yozilgan. Lekin, agar xalq musiqasida alohida kichkina cholg'uchilar ijrolari bo'lgan bo'lsa, Kozlovskiyda esa aksincha, orkestr chiqishida asosiy bo'limlar orasida intermediya formasi usuli bo'lgan. Forma bunday ko'rinishda o'z holatini saqlab qoladi, pyesa markazining orkestr epizodi shunchalik rivojlangan bo'lsa, xuddi shunday uning kirish va tugallanish qismlari ham rivojlantirilgan. Bu qo'shimcha bo'limlarning tematik materiali, 2 takhti qisqa ijro kabi folklor pyesa asosi bilan bog'liq. Barcha qisqa ijrolar kuychanlik jihatidan bir xil: ular birinchi kuy asosida yozilgan.

“Tanovar” partiturasida xalq cholg‘ularidan faqatgina nog‘ora qo‘llanilgan. Kompozitor simfonik orkestrning asoslaridan olib, o‘zbek cholg‘u ansamlini ijrosini o‘zgartirdi. Torli cholg‘ular guruhi jo‘rli cholg‘ular guruhiga aylantirildi: torli cholg‘ularning pitsikatosining ijrosi xalq cholg‘usini eslatadi. Birinchi skripkalar va alt partiyalarida xalq ijrochiligining usullaridan – nolish, birinchi tovushdan ikkinchi tovushga bo‘lgan glissandolar ishlatilgan.

Partiturada asosiy o‘rinni urma cholg‘ular egallaydi (litavralar, barabanlarning bir necha turlari, uchburghak cholg‘usi, tamburin, tarelkalar, nog‘ora). Lekin urma cholg‘ularning guruhlari to‘liq ijro bilan faqatgina kirish qismida ishlatiladi. Kirish qismning birinchi takti, bitta urma cholg‘uga berilgan, shundan so‘ng darhol ritmik akkomponiment ko‘rinishi aniqlangan va bu xalq ijrochiligi usullarida chaqiradi. Keyinroq akkomponiment funksiyasi bas torli cholg‘ulariga o‘tadi (violonchellar va kontrabaslar). Shunday qilib akkomponiment, xalq musiqasi usullaridan o‘sib, nafaqat ritmik, balki garmonik ifodaga ega. Ritm ovozni jo‘rligi kuy tayanchining turg‘uni bo‘lib, pyesaning barcha cho‘ziluvchan joylarida asosiy ahamiyatligini saqlab qolishda davom etadi.

Obrazli mazmuni, qo‘shiqlari, uning ichki dinamikasi sekinsta o‘sib boradigan hissiyotli kuchlanish, oxirida katta pasayish bilan uzilish – orkestr bayonotida ko‘rinadi. Boshlangandagi yorqin faktura avj joyida birdaniga kuchli va to‘liq ovozga aylanadi. Faqat shu yerdagina kompozitor orkestrda tuttidan foydalangan. O‘zining katta bo‘limlari bilan “Tanovar” partiturası nozik sur’at, yumshoq, orkestr tembrining aralashmalari bilan ta’riflanadi.

“Tanovar” vokal-simfonik poemasi tinglovchilarning “chegirmalar” tayyorgarligisiz yozilgan bo‘lsada, ko‘pgina olqishlarga sazovor bo‘ldi. Kozlovschiyning qiyin garmonik va orkestr usullari katta mashhurlikni egallashga to‘sinqlik qilmadi, chunki bu usullar “... o‘zbek xalq kuylari asosida betakror mazmunga ega ekanligi, ijodiy tomondan chuqurlantirilishi uning mazmuni va ichki kechinmalarni ko‘rsatib bergenligi aniq bo‘ldi”.

Kozlovschiyning boshqa zamonaviy partituralari singari “Tanovor”ni ham mashhurlik darajasiga ko‘tarilishiga betakror va iqtidorli Halima Nosirova o‘zining qaytarilmash harakatlari va o‘zbek xalq qo‘shiqlarining yuqori pog‘onadagi aylanmalari bilan

ko'rsatib katta hissa qo'shgan. Bu asar nafaqat O'zbekistonda, balki butun dunyoga ham mashhur bo'lgan asarlar qatoriga kiradi.

**A'kapella.** (ital. capella musiqada xor jamoasi. Dastlab faqat qo'shiqchilardan iborat bo'lgan; keyinchalik, cholg'u musiqa rivoji natijasida vokal-cholg'u musiqa jamoalariga aylangan. O'zbekistonda xor san'ati ravnaq topib, turli xor jamoalari, shu jumladan, O'zbek davlat filarmoniyasi xor kapellasi (1952), O'zbekiston televideniesi va radiosи xor kapellasi (1960) tashkil etilgan; 3) ba'zi maxsus orkestrlarning nomi (harbiy kapella, raqs kapellasi va b.); 4) a kapella – cholg'ular jo'rligisiz xor ijrochiligi. Professional xor san'ati uslubi sifatida o'rta asrlarda katolik cherkovidagi diniy marosimlarda yuzaga kelgan.

O'zbekistonda kapella janrining asoschisi M.Burhonovdir. Uning an'analarini O'rtta Osiyo kompozitorlari va o'zbek kompozitorlaridan S.Boboyev, M.Nasimov, I.Akbarov, B.Umidjonov, M.Bafoyevlar davom ettirishgan<sup>35</sup>.

**Tayanch so'zlar:** vokal musiqa, qo'shiq, romans, xor, a'kapella, bastakor, kompozitor, musiqiy asar, janr, ijrochi, simfonik asar, bastakor, kompozitor,

### Mavzu bo'yicha savollar:

1. O'zbek vokal musiqasining tavsifini bering.
2. O'zbek kompozitorlarining vokal janr (qo'shiq, romans, xor)da yaratilgan asosiy asarlarining tahlilini keltirib o'ting.
3. Ko'p qismli vokal - simfonik janrlar (kantata, oratoriya, suita)ga tegishli asarlarining yutuqlari va zamonaviy madaniyat ravnaqi uchun ahamiyati xususida so'zlab bering.
4. O'zbek akademik vokal ijrochilaridan kimning ijodini bilasiz?
5. Vokal ijrochiligidagi akademik hamda an'anaviy xonandalikni mohir ijrochilarini xususida so'zlab bering.
6. Mohir o'zbek vokal xonandaligini san'atining yorqin namoyandalari Halima Nosirova, Saodat Qobulova, Nazira Ahmedova, Muyassar Razzoqovalarning ijodini tavsiflab bering.

<sup>35</sup>O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T.: 2003.

7. Milliy romans ikodkorlari, kompozitorlar ijodini va ularning yaratgan original asarlari xususida so‘zlab bering.

### **Mavzu bo‘yicha topshiriqlar:**

1. Vokal musiqasiga doir umumiylumotlarni to‘plash.
2. Davrlarga ajratgan holda musiqa amaliyoti mavjud va yuzaga kelgan yangi janrlar xususida ma’ruza tayyorlash.
3. Davrning ijod mahsullari: qo’shiq, romans, xor asarlari, kantata, oratoriya, syuitalar.
4. O‘zbek vokal ijrochiligining ikki uslubi xususida qiyosiy ma’ruzalar yozish.
5. Akademik va an'anaviy vokal xonandalarining mukammal ijrochilari ijodini yoritish.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. –T.: 2003.
2. История узбекской советской музыки. –T.: 1973, 1991.
3. Burhonov M. Jo‘tsiz xorlar. –T.: 1952.
4. Hakimova A.X. Xor a’kapella. –T.: 1992.
5. История вокального и хорового исполнительства музыки Узбекистана. –T.: 1991.

## **CHOLG‘U MUSIQASI**

### **Mavzu rejasi:**

1. O‘zbekistonga simfonik musiqaning kirib kelishi.
2. Dastlabki simfonik asarlar: N.Mironov, V.Uspenskiy, V.Desharov, M.Ippolitov-Ivanov, V.Zolotaryov, S.Vasilenko, R.Glier, V.Uspenskiy, A.Kozlovskiy, G.Mushel ijodida.
3. Davrning yosh avlod kompozitorlari – M.Ashrafiy, T.Sodiqov va Sh.Ramazonov, M.Leviyev, M.Burhonovlar ijodida simfonik musiqa.
4. 50-80-yillarda simfonik musiqaning turli janrlarini rivojlanishi.
5. Simfonik syuita, simfonik poema va simfonik uvertyuralar.
6. Simfoniya. Cholg‘u konsert. Skripka, violonchel, truba, fleyta, ovoz uchun konsertlar.
7. Kamer-cholg‘u musiqasi. Kamer-cholg‘u musiqa janrlarining rivojlanishi. Yakka va ansambllar kompozitorlik ijodiyotida rivojlanishi. Torli kvartet.

### **O‘zbekistonda simfonik musiqaning rivojlanish jarayoni**

Musiqiy san’atning turlari orasida SIMFONIK MUSIQA eng murakkab janrlar qatoriga kiradi. Tarixdan ma’lumki, professional kompozitorlarning ijodiy izlanishlari tufayli cholg‘u musiqaning turli shakl va janrlari avval XVI asrda Italiyada paydo bo‘la boshladi. Kelgusi asrlarda “Simfonik syuita”, “Uvertyura”, “Simfonik poema”, “Simfonik ballada”, “Simfoniato”, “Rapsodiya” “Simfoniya” va “Cholg‘u konsert” nomli atamalar bilan belgilanuvchi cholg‘u musiqalar kompozitorlik ijodida shakllandi.

Simfonik musiqaning ommalashishida va turli janrlarini rivojlanish jarayonida “Vena musiqa maktabi” muhim rol o‘ynadi. XVIII-XIX asrlarda Korelli, Vivaldi, Gaydn, Bax, Gendel, Mostart, Betxoven, Shubert, Shuman, Paganini, Smetana, Dvorjak, List,

Shopen, Grig, Glinka, Borodin, Musorgskiy, Rimskiy-Korsakov, Chaykovskiy kabi ulug' kompozitorlarning yaratgan "Simfoniya", "Cholg'u konsert" va simfonik musiqani boshqa shakllaridagi asarlari jahondagi barcha simfonik orkestrlarning hamda mashhur sozandalarning asosiy repertuarlaridan o'rinn oladi.

XX asrda simfonik orkestr va simfonik musiqani barcha janrlari G'arb va Sharq mamlakatlarda ham keng rivojlandi. Shular qatorida O'zbekistonda ham ilk simfonik musiqa XIX asrning oxirlarida kirib keladi. Simfonik musiqaning O'zbekistonda shakllanish rivojlanish jarayoni o'ziga xos uch ijodiy jarayonlardan iboratdir. Birinchi bosqich – bu simfonik janr, ijrochilik mezonlarining O'zbekistonga kirib kelishi hamda rusiyabon kompozitorlari tomonidan o'zbek musiqa ohanglari asosida bir qator simfonik janrlarga xos asarlarni yaratilishi bilan bog'liqdir. Ikkinci bosqich – hamkorlik, milliy kompozitorlik maktabi namoyandalari ijodida simfonik asarlarni turli janrlarida namoyon bo'lishi. Uchinchi bosqich o'zbek simfonist-kompozitorlarining shakllanishi va jahon andozalariga xos yetuk asarlar yaratilishi bilan bog'liqdir.

O'zbek simfonik maktabining ilk namoyandalari rusiyabon kompozitorlardan iborat edi. "Samarqand syuitasi" (1930) V.Desh-evov, "O'zbekistonning musiqali manzarasi" (1931) M.Ippolitov-Ivanov, "O'zbekcha rapsodiya" va "Farg'onacha marsh" (1931) V.Zolotaryov "Советский Восток" (1932) S.Vasilenko, birinchi simfoniya (mi minor, 1937) G.Mushel kabi kompozitorlar tomonidan yaratilgan asarlar, o'zining milliylik jihatlarini namoyon etadi. Ayniqsa, A.F.Kozlovskiyning 1937-yili yaratgan uch qismli "Lola" simfonik syuitasi, G.Mushelning uch qismli birinchi simfoniya (e-moll)si, M.Glierning "Tantanavor uvertyura"si va 1939-yilda yaratgan "Ферганский праздник"<sup>36</sup> uvertyuralari mutaxassislar e'tirofiga sazovor bo'ladi. Ushbu kompozitorlar o'zbek kompozitorlik maktabini shakllantirishda va kompozitorlarning yangi avlodini tarbiyalashda o'ziga xos rahnamolik qiladilar. Natijada 30-yillarning oxiriga kelib M.Ashrafiy, T.Sodiqov, M.Burhonov Sh.Ramazonovlarning kompozitorlik ijodi namoyon bo'la bosh-

<sup>36</sup> R.M.Glierning "Ферганский праздник" uvertyurasi 1941-yilning 20-martida Amerikaning Chikago shahridagi simfonik orkestri Friderik Stokning dirijyorligida ijo etilgan. O'zbek simfonik musiqasi, ilk bor chet elda ijo qilindi.

laydi. M.Ashrafiy simfonik orkestr uchun “Qurilish marshi”, M.Burhonov “O‘zbekiston qizi” uch qismli simfonik syuitasini yaratadilar.

O‘zbekistonda milliy simfonik musiqa janrlari ilk davrdan boshlab serko‘lam va quyidagi ijodiy uslublarga asoslanib yaratiladi:

1. Xalq kuyini o‘zgartirmagan holda uni garmoniyalashтирish va cholg‘ulashtirish.

2. Xalq kuyini qayta ishlash, ya’ni ayrim o‘zgartirishlar tufayli mavzuni rivojlantirish.

3. Xalq kuyini iqtibos sifatida qo‘llash va rivojlantirish.

4. Xalq musiqasining intonatsiya, usul, tebranish xususiyatlardan mukammal foydalanish orqali asar yaratish.

5. Mustaqil ravishda, milliy ruhda, mualliflik-original mavzu asosida simfonik asar yaratish.

Mazkur ijodiy uslublarning barchasini qo‘llashda, har bir kompozitor, o‘z ijodiy imkoniyatidan kelib chiqib, erkin ravishda asarlar yaratadi.

XX asrning 20-40-yillari O‘zbekistonda simfonik musiqa, asosan, rus kompozitorlarining ijodiy faoliyatlarida bunyodga keldi va rivojiana boshladi. Ular mahalliy xalqlarning an'anaviy musiqa merosi xususiyatlarini o‘rganib, milliy ruhda simfonik asarlar yaratishda ijodiy izlandilar va ilk bor simfonik musiqani turli shakl va janrlarida asarlar yaratdilar. V.Uspenskiy, A.Kozlovskiy, G.Mushel va R.M.Glier kabi kompozitorlar yorqin simfonik asarlar bilan XX asr o‘zbek musiqasi tarixida yangi sahifa ochib berdilar. Mahalliy yosh ijodkorlarni tarbiyalab o‘zbek zaminida zamonaviy yangicha uslubiy yo‘nalishda milliy simfonik asarlarning bunyodga kelishiga zamin yaratildi.

1941-1945-yillari, Ikkinci jahon urushi yillarida ham O‘zbekistonda simfonik musiqa rivojiana bordi. Ular jangovar va lirik qo‘shiqlar bilan turli mavzularda musiqali sahna asarları, kamer musiqiy asarlar va simfonik musiqalar yaratdilar: 1941-yili G.Mushel ulug‘ shoir Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligiga bag‘ishlab to‘rt qismli ikkinchi (f-moll) simfoniyasini yaratdi. Asar qismlarining har birida uning g‘oyaviy mazmunini tinglovchilarga ochib berishga yordam beradigan g‘azallardan epigraflar keltirilgan.

Kompozitor 1942-yili o‘zining uchinchi (g-moll) simfoniyasini yaratadi.

Ikkinci jahon urishi yillarda, O‘zbekistonda vaqtincha istiqomat qilgan Yu.Tyulin, B.Arapov, M.Shteynberg, V.Voloshinov kabi kompozitorlar ham o‘zbek xalq musiqa merosi asosida simfonik asarlar yaratadilar. Xususan: 1942-yili M.O.Shteynberg Komiljon Jabborov va Saidjon Kalonovlar bilan hamkorlikda “Simfoniya-rapsodiya”, 1942-yilda “Tohir va Zuhra” uvertyurasi va 1943-yili “Ilgari” nomli Qahramonlik uvertyurasi. V.Voloshinovning “O‘zbekcha” nomli syuitasi, M.Ashrafiyning 1942-yilda yaratilgan birinchi – “Qahramonlik” va 1944-yilda ikkinchi – “G‘oliblarga shon-sharaf” nomli simfoniyalari ijod etiladi.

XX asrning 20-40-yillarida respublikamizda simfonik musiqani rivojlantirishida K.Abdullayev, M.Ashrafiy, M.Burhonov, T.Sodiqov, Sh.Ramazonov, G’.Qodirov, I.Hamrayev, M.Leviyev, S.Yudakov, S.Boboyev kabi iste’dodli kompozitorlar ham o‘zlarining ilk simfonik asarlarini yaratishga tuyassar bo‘ladilar.

XX asrning 50-60-yillarida zamonaviy o‘zbek kompozitorlarining safiga, Ikrom Akbarov, Fattoh Nazarov, Doni Zokirov, Abdurahim Muhammedov, Hamid Rahimov, Dadaali Soatqulov, Rashid Hamroyev, To‘lqin Qurbanov, Sayfi Jalil, Sulton Hayitboyev, Matniyoz Yusupov, Enmark Salixov, Aleksandr Berlin, Sovet Varelas, Feliks Yanov-Yanovskiy, Shoxida Shoimardonova, Dilorom Saidaminova, Zumrad To‘chiyeva, Rumil Vildanov, Albert Malaxov, Vladimir Milov kabi iste’dodli yosh kompozitorlar qo‘shildilar.

XX asr 70–80-yillar o‘zbek simfonik musiqa ijodida yangi nomlar va asarlar yaratilishi bilan bog‘liqdir. Bu uchinchi bosqich davrida keksa va o‘rta bo‘g‘inga mansub kompozitorlar safiga yuqorida zikr etilgan kompozitorlarning uchinchi va to‘rtinchisi avlodlari qo‘shila boshladi: Mirsodiq Tojiyev, Mirxalil Mahmudov, Ulug‘bek Musayev, Sobir Karimxo‘jayev, Nadim Norxo‘jayev, Najmiddin Muhammeddinov, Rustam Abdullayev, Mustafa Bafoyev, Habibulla Rahimov, Gaip Jemisanov, Dilorom Omonnulayeva, Qurbonboy Zaretdinov, Anvar Ergashev, Avaz Mansurov, Abdusaid Nabiiev, Nuriddin G‘iyosov, Muhammad Otajonov, Qahramonjon Rahimov kabi kompozitorlar o‘zbek simfonik musiqasining

rivojlanish jarayoniga dadil qadam tashlab kirib keldilar. Ushbu davr kompozitorlari ham professional musiqa yo‘nalishlarida munosib ijod qildilar. O‘zbek simfonik musiqa ijodiyotini jahonga olib chiqdilar yangi asarlar bilan boyitdilar.

### Syuita

Syuita (fransuzcha – qator, ketma-ket siljish ma’nolarini anglatadi). Musiqada, bir-biriga qarama-qarshi (kontrast) bo‘lgan bir necha musiqiy pyesalarning birlashishidan hosil bo‘ladi. O‘zbekiston kompozitorlari ushbu cholg‘u musiqasiga ko‘proq murojaat qiladilar, sabab janrning zohiriyligi tuzilish tarkibi shaklan “maqom” tuzilishiga yaqindir. XX asrning 40-60-yillarda musiqa ijodiyotiga ilk kirib kelgan aksariyat kompozitorlar ijodiy ishlarini, syuita yaratishdan boshlaydilar. Chunki inson hissiyotlarini, tafakkurini erkin talqin qilishda syuita, juda ham qulay hisoblanadi. Syuita ijodiyotidan esa Sh.Ramazonovning “Xorazmcha syuita” (1948), G.Sobitovning Yu.Rajabiy kuylari asosida yaratgan “Paxta” xoreografik-simfonik syuita (1949), G.Qodirovning “Yoshlar syuita”si (1954), F.Nazarovning “O‘zbekcha syuita”lari (1955, 1956); M.Ashrafiyning “Tojikcha raqs syuita”si (1952), Hamid Rahimovning ikkita “O‘zbekcha syuita”si (1955, 1956) va mashhur darajasiga ko‘tarilgan besh qismli “Miniatyura-konsert” raqs syuitasi (1956); S.Jalilning “Toshkent yodgorlik manzaralari” besh qismli syuitasi kabi qator asarlar yaratildi.

Shu bilan birga O‘zbekiston kompozitorlari o‘zlarining dramatik spektakllarga, baletlar va kinofilmalar uchun yozgan musiqalari asosida ham bir qator programmali syuitalar yaratadilar. Jumladan: M.Burhonovning “Avitsenna”, “Maftuningman” va “Samolyotlar qo‘naolmadii”<sup>37</sup> kinofilm musiqalari asosida uchta syuita; M.Ashrafiyning “Dilorom” va “Shoir qalbi” opera musiqalari asosida yaratilgan ikkita syuitalarini misol qilish mumkin.

A.Kozlovskiyning birinchi dasturli “Qoraqalpoqcha syuita”si (1956) besh qismdan iborat. Birinchi qism dastursiz bo‘lib, u turkumning umumiyligi birlashtiruvchi muqaddimasi sifatida

<sup>37</sup> M.Burhonovning mazkur uchta syuitalarini konservatoriyaning fonotekasida saqlanadi.

gavdalanadi. Bu qism "Ilmsulton" xalq kuyi asosida yaratilgan. Kompozitor simfonik orkestrga moslashda kuyni va uning sadolanish alomatlarini saqlab, uni ko'p ovozli uslubiy yo'nalish asosida rivojlantiradi va oddiy garmonikakkordlar vositalari bilan boyitishga harakat qilgan. Orkestrni barcha cholg'u guruhlarida ushbu xalq kuyi goh melodik holatda, goh pitsikato, goh stakkato va registrlarning o'rinnalmashishlari orqali ajoyib rang-barang, milliy kolorit saqlashga erishadi.



Syuitaning 2 - qismi «Sho'r ko'l bo'yida» deb nomlangan. Bu programmali qismda erta tongni quyosh nurlari endigina atrofni yoritayotgan paytda bepoyon cho'lda joylashgan «Sho'r ko'l bo'yida»gi ajoyib tabiat manzarasi kompozitorning ko'z oldida namoyon bo'ladi. Ana shu ko'lning oynadek silliq yuzi jimjidlik, asta-sekin tabiatni o'yg'onish manzarasi va hayotni osoyishta davom etishi orkestr sadolarida, nihoyatda nafosatli, to'laqonli darajada ifodalangan. Asta-sekin uzoqdan eshitilayotgan xalq kuyi asosiy mavzu sifatida orkestrning turli cholg'u guruhlarida paydo bo'ladi, o'zgarmaydi, faqat orkestrning dinamik sadolarini rivojlanish harakatlari bilan chambarchas bog'langan holda jaranglaydi. Mazkur kuy va tabiat manzarasi bilan birlikda jaranglaydigan musiqa tinglovchini befarq qoldirmaydi.

Syuitaning 3-qismi "Saltik" nomli xalq cholg'u kuyi asosida yaratilgan "Qoraqalpoqcha marsh" deb ataladi. Marsh xarakterli musiqa, butunlay 2- va 4-qism musiqalariga kontrast holda jaranglaydi.

Syuitaning 4-qismi "Qari podachi hikoyasi" deb ataladi. Bu qismni musiqasi "Teke nalish" qayg'uli xalq qo'shig'i asosida yaratilgan. Kompozitor mungli kuyni keng ravishda rivojlantirish

jarayonida qari podachining xayolidan o'tmish hayotning mushkulliklari, iztirobli, jafo chekkan kunlari orkestr sado silsilasida namoyon bo'ladi.

Syuitaning 5-qismi "Bayram tongi" deb nomlangan va "Nigorim" xalq qo'shig'i asosida yaratilgan. Syuitani yuqoridagi qismlarga butunlay kontrast sifatida, qizg'in, ko'tarinki ruh sadolari bilan sug'orilgan musiqa yangi zamon yangi hayotni mukammal ravishda ifodalaydi. Umuman, A.Kozlovskiy ijodiy faoliyatida birinchi marotaba Qoraqalpoq xalq kuylari asosida simfonik asar yaratishiga qaramasdan, u ulkan mahorati bilan, xalq kuylarining milliy xususiyatlari chuqur his qilgan holda shunday yorqin, ta'sirchan asar yaratgan.

Programmali syuitalar orasida kompozitor B.F.Gienkoning "O'zbekistonning lirik manzaralari" nomli olti qisqli syuitasi ham yorqin misol bo'la oladi. 1952-yilda yaratilgan bu syuitani qismlarini nomlari quyidagicha ataladi:

1. "Tong" ("Утро").
2. "Dalada qo'shiq bilan" ("С песней в поле").
3. "Ariq bo'yida dam olish" ("Отдых у арыка").
4. "Alla" ("Колыбельная").
5. "Raqs" ("Танец").
6. "Oqshom" (Вечер).

Syuitaning barcha qismlari goh lirik goh mayusli, goh shiddatli, goh o'ynoqi, xilma-xil, rang-barang, o'zbek va rus musiqalari ohanglari omixtasi bilan sug'orilgan mavzularning rivojlanish jarayonida bir-biriga kontrastli nomerlar bunyodga kelgan bo'l-salarda, yaxlit ta'sirchan asar tinglovchini qalbini turli holatlarda to'lqinlantiradi.

XX asrning 70-80-yillarida simfonik syuita janriga kompozitorlar kamroq murojaat qildilar. O'zbek xalq cholg'u orkestri uchun juda ko'p rang-barang syuitalar yaratilgan. Ushbu davorda simfonik orkestr uchun yaratilgan quyidagi asarlarni keltirish mumkin. Jumladan: E.Shukrullayevning "Do'stlik taronalari" (1987) syuitasi; F.Nazarovning "Bolalar syuitasi" (1976); T.Qurbanovning "Shiroq" (1983) syuitasi; A.Ikromovning "Shum bola" (1993) syuitasi; A.Nabiyevning "O'zbekcha syuita"si (1993) va h.k.

Xulosa qilib aytish joizki, XX asrning 50-80-yillarda O‘zbekiston kompozitorlarining ijodiy faoliyatlarida simfonik syuita janri keng ravishda rivojlandi. Bunga yuqorida misol sifatida tilga olingen simfonik syuitalar dalolat beradi. Kompozitorlar ushbu janrda asarlar yaratishda turli ijodiy uslublardan foydalandilar. Professionallik mahoratlari o‘sdi, mualliflik tematizmini rivojlan-tirish jarayoni mukammal ravishda ravnaq topdi. Orkestrning fakturasini murakkablashtirish tufayli asarni milliylik ruhi va sadolanish taassurotlarini boyitishga harakat qildilar.

### Simfonik poema

Poema (yunon tilida “yaratish”, fransuz tilida *poeme* – cholg‘u yoki ovozli bir qismli musiqiy asar). Professional kompozitorlarning ijodida shakllangan janrlardan biri. Juhon musiqa tarixida asrlar davomida yakka cholg‘u, cholg‘u ansambl va orkestrlar uchun hamda ovozli (vokal) programmali yoki noprogrammali poemalar mavjud. Poema shaklan bir qismli asar bo‘lsada, lekin uning ichki tuzilishi oddiy bir mavzuli yoki oddiy uch qismli yoki “sonata allegro” shaklida yoziladi.

XX asrning 50-yillaridan boshlab O‘zbekiston kompozitorlari poema janriga ham murojaat qila boshladilar. Ular poema, poema-ballada, poema-rapsodiya kabi turlarida xalqimizning fidokorona mehnat jasoratlarini, shodu xurram bayramlarini, ozodlik uchun kurashlarini, dahshatli urush voqealarini, o‘tmish dostonlarini, xalqlarning orzu-umidlarini va insonlarning shaxsiy, ruhiy kechin-malarini ifodalashga harakat qildilar. O‘zbek kompozitorlari milliy ruhda poema yaratishda murakkab hisoblangan “sonata allegro” shaklini qo‘llashda izlandilar va asl simfonik poemalar yaratishga muyassar bo‘ldilar. Jumladan: A.F.Kozlovskiyning o‘zbek xalq mumtoz kuyi asosida yaratgan “Tanova” va “Bayram tantanasi”; D.Zokirovning “Hamza”; H.Rahimovning “Yoshlik”; G.Qodirovning “Poema-ballada”; S.Boboyevning “Segoh”; I.Akbarovning “Shoir xotirasiga” va “Epik poema” hamda torli cholg‘u orkestr, fleyta, arfa, litavra uchun “Poema” asarlari; B.F.Gienkoning “Mirzacho‘l; M.Ashrafiyning “Temur Malik” poema-rapsodiyasi; S.Yudakovning “Yoshlar poemasi”; T.Qurbanovning “Osiyo”;

N.Muhammadiyevning "Simfonik poema"si; M.Tojiyevning "Shoir muhabbat"; R.Abdullayevning uchta simfonik poemalari va "Alisher Navoiy"; P.Xaliquovning "Saodat"; E.Salixonning "Erjigitovning jasorati" va "General Rahimovni xotiralab", M.Mahmudovning "Xotira"; N.Zokirovning "Mening Vatanim"; U.Musayevning "Tantanavor"; A.Mansurovning "Simfonik poema"si; N.G'iyosovning "Poema improvizatsiya"si; M.Bofoyevning "Shiroq haqidagi afsona"; A.Hasanovning "Simfonik poema"si; A.Hoshimovning "G'ani botir" kabi simfonik poemalari jamoatchilikning diqqat-e'tiboriga sazovor bo'ldi va simfonik orkestrlarning repertuarlarini boyitdi.

Yillar davomida o'zbek kompozitorlari ijodida bunyodga kelgan simfonik poemalar o'zining badiiy obrazlari bilan bir-biridan farq qilsada, har bir kompozitor simfonik poema yaratishda o'z shaxsiy professionallik mahoratiga va dunyoqarashiga xos bo'lgan individual uslubini topishga harakat qilgan.

*Andantino con molto*

Andantino con molto

Нет во-лос мо - их чер-ней, нет ко - сы мо-ей длин-ней Пря-дью чер-ной,

не по-хор-ной ни- спа - дают до бро-вей, Дост ё - рей!

Му-хи го-ре-чи не ма-ло при - на - ла я от те - бя, Дост ё - рей!

Не-звала я не ис - ка-ла то, что дал ты мне лю-бя. Дост ё -

Bunga bir misol. Asrlar davomida o'zbek xalqining qalbini ruhlantirib kelayotgan ashulalardan biri "Tanova"dir. Bu ajoyib

xalq kuyini kompozitor A.Kozlovskiy 1939-yili mashhur xonanda Halima Nosirova ijrosida ilk bor tinglab, ta'kidlashicha "Kuya oshiq bo'lgan va rus tiliga tarjima qilib, nota olgan":

A.F.Kozlovskiy mohir xonanda Halima Nosirovaning ijrosida yangragan "TANOVAR", "O'zgancha", "Gulyuz uzra", "Fig'on" kabi ashulalarni ham notaga tushirib, ularni simfonik orkestr jo'rligidagi ijroga moslashtiradi.

Inson qalbini rom qiladigan "TANOVAR" kuyida balog'at yoshiga yetgan sohibjamol qiz kelgusi taqdirini o'laydi. "Qora sochim o'sib qoshimga tushdi, ne savdolar mening boshimga tushdi" so'zlari bilan boshlanadigan bu ashula qizni mushkul ahvolga duchor bo'lgani, najot izlashi, kimgadir yalinib-yolvorishi, iltijosi, sevgi dard-hasrati, his-tuyg'usi kuyda yaqqol aksini topgan.

F.Kozlovskiy bu dardli, lirik, raqssimon ashulani avval fortepiano uchun garmoniyalashtirib, keyin simfonik orkestrga moslashtirgan. 1951-yili esa mazkur kuy asosida "TANOVAR" nomli simfonik poemani yaratdi. Kompozitor frigiy ladida kuyning ichki tebranishlardagi avj tomon va ko'proq pasayish harakatlarni, hamda o'zbek xalq kuylarining xususiyatlaridagi ladning II, III, VI, VII bosqichlarini noturg'un va o'zgaruvchan alomatlarini hisobga olgan holda ko'proq subdominanta (S)akkordlarini qo'llab, asar haqidagi taassurotini boyitishga harakat qilgan. Shular orqali kuyning ruhini va teran mazmunini saqlab, poemada yagona mavzu sifatida qo'llab uni juda ham mohirlik bilan simfonik orkestrning turli cholg'u guruhlarning registr tembrlaridan unumli soydalangan holda rivojlantiradi. Bunda u goh dardli-lirik, goh avjlarda ko'tarinki ruhiy hayajon baxsh etib, goh ma'yus lirik xayoliy holatga chorlash orqali, yuqori saviyali badiiy simfonik poema bunyodga kelgan. Bu asar o'zbek xalq kuylarini garmoniyalashtirishda, qayta ishslashda namuna sifatida xizmat qilmoqda.

Yosh kompozitor A.Nabiyev 1987-yili "TANOVAR" kuyini dutor va tanbur jo'rnavozligiga o'xshatma qabilida qilib fortapiano uchun qayta ishlaydi. 1995-yili esa fortapiano va kamer simfonik orkestr uchun simfonik poema yaratdi.

A.Kozlovskiy va A.Nabiyevlarning "TANOVAR" asariga bo'lgan munosabatlari farqlidir. A.Kozlovskiy ashulani lirik, dardli ruhiga

ahamiyat bergen bo‘lsa, A.Nabihev shiddatli, raqssimon harakat xususiyatiga e’tibor berib, fortepiano va orkestrga moslashtirgan.

1961-yil Ikrom Akbarov “Epik poema” nomli simfonik poema yaratdi. Kompozitorning bu poemasi ham xuddi “Shoir xotirasiga” asari kabi jamoatchilikda katta qiziqish uyg’otadi va o’zbek simfonik musiqa janrlarining rivojlanish jarayonida yana bir qadam sifatida muhrlanadi.

Ushbu asar “Sonata allegro” shaklida yozilib, qarama-qarshi mavzularni rivojlantirish, milliy ruhiyat bilan sug’orish, tarixiy voqealarning muhit jarayonini umumlashtirishlar orqali asarlarning bir-biriga yaqinliklari sezilarlidir.

“Epik poema” bir marom harakatlari g’am-g’ussa, og’ir sur’atlari, xayolni oladigan (mi doriy ladida) milliy ruh bilan sug’orilgan musiqiy muqaddima, violonchel-kontrabaslarning ohangdoshligi bilan boshlanadi. Misol № 6:


Andantino sostenuto

Bu ohangdoshli hikoyanavis musiqa asta-sekin torli, yog’ochli, valtorna va litavra cholg’ularida namoyon bo‘lib, dramatik avjga ko’tariladi. Muqaddima aslida simfonik poemada xuddi birinchi qism kabi tuyuladi, asosiy bosh mavzuga zamin ham yaratadi.

“Epik poema”ni asosiy mardonavor xarakterli bosh mavzu turli cholg’ular bilan kichik barabanli usullari tufayli namoyon bo‘ladi.

Ushbu mavzu bir davrda paydo bo'lgan raqssimon xalq kuyiga o'xshatma sadolar bilan birlikda rivojlanadi. Asosiy mavzu eskilik bilan yangilik jarayonlarni birlashtirilgan holda jaranglaydi. Jo'r-sozlarakkordlarining doriy-eoliy ladlarning almashuvi, mavzuning yuqoriga ko'tarilish harakatlari, tonikali kvinta ostinatosi, turli dinamik urg'ularning paydo bo'lishlari, mavzuning xotimasida marsh sadosining namoyon bo'lishi kabi vositalarning hammasi jamlanib, musiqaga kishini hayajonga soluvchi matonatli dramatik harakat asta-sekin susayib ikkinchi yondosh mavzuga o'tishga zamin tayyorlaydi.

Bu mavzu o'zbek xalq kuylariga sekventa va sinkopali usullarini jo'rnavoz bo'lib torli cholg'u guruhlarda rivojlandi:



Mazkur ikkala mavzu asarning rivojlanish qismida namoyon bo'lib qarama-qarshi kurash jarayonida tezlik harakatda, to'xtovsiz o'rin va modulatsiyalarni almashinuvi orqali orkestrni turli soz guruhlarini va registrlaridan o'tkazilib mustaqil holda rivojlanadi va dramatik avjiga ko'tariladi. So'ng reprizada yondosh mavzu ilgarigi holatdan ham nafosatli bo'lib, arfani arpedjiolari, skripkalarni turlicha figuralari bilan boyitilib, keyin bosh va yondosh mavzular birlik holda xotimada yangraydi.

I.Akbarovning “Shoir xotirasiga”<sup>38</sup> va “Epik poema” nomli ilk bor yaratgan simfonik poemalari mazmun va badiiy saviyalari bilan mutaxassislar tomonidan e’tirof etildi.

1972-yili ulug’ shoir Alisher Navoiyga bag‘ishlab M.Tojiyev “Shoir muhabbat”, R.Abdullayev esa “Alisher Navoiy” nomli simfonik poemalarini yaratishdi. Kompozitor dramadagi shoir bilan Gulining bir-birlariga bo‘lgan muhabbat, davr taqozosi tufayli fojiaga aylanib ketishini simfonik poemada ifodalashga harakat qilgan. Insonlarning hayot taqdirlarida sodir bo‘ladigan fojialar poemada falsafiy-ramziy musiqiy obraz orqali tasvirlanadi. Musiqashunos olima N.Yanov-Yanovskaya tomonidan asarning to‘liq tahlili amalga oshirilgan <sup>39</sup>.

### Simfonik uvertyura

Uvertyura – lotin tilida ochilish, boshlash ma’nolarini bildiradi. Uvertyura musiqali sahna asarida muqaddima rolini bajaradi. Uvertyura mustaqil asar sifatida turli cholg‘u orkestrlar uchun ham yaratiladi. Mustaqil ravishda yozilgan uvertyura programmali yoki noprogrammali bo‘lishi mumkin. Uvertyura jahon kompozitorlarning ijodlarida janr va shakl sifatida shakllangan. Asrlar davomida juda ko‘p musiqali sahna asarlari uchun hamda mustaqil ravishda yaratilgan uvertyuralar mayjud.

O‘zbekiston kompozitorlarining barcha avlodlari ham ijodiy faoliyatlarida, o‘tgan yillarda musiqali sahna asarlarga va mustaqil uvertyuralar yaratdilar. Ularning ijodida programmali va noprogrammali, turli mavzularda, xilma-xil, mustaqil ravishda yaratilgan uvertyuralar ham mavjud. Kompozitorlar yaratgan uvertyuralarida, asosan, zamonaviy hayotni poyonsiz rang-barangligi, cheksiz xilma-xilligi, tengi yo‘q xalq qudratini aks etishga harakat qildilar. Shuning uchun bo‘lsa kerak, barcha mustaqil ravishda yaratilgan uvertyuralarning asosiy mavzusi zamon ruhi bilan bog‘liq, ya’ni hayotni, ulug’vor ishlarni, shodiyona xalq bayramlarini, yoshlarni orzu-umidlarini, jamiyatning taraqqiyoti yo‘lida xizmat qilayotgan

<sup>38</sup> Ik.Akbarovning “Shoir xotirasiga” va “Epik poema”larining kompakt diskka yozilgan nusxalari Konservatoriyaning sonotekasida saqlanmoqda.

<sup>39</sup> Н.С. Янов-Яновская. «Узбекская симфоническая музыка». Т., 1979 г. стр. 143-145. Rus tilidan erkin va qisqartirilgan holatda o‘zbek tiliga tajrima qilingan.

azamatlarning obrazlarini, bugungi kunning qiyofasini, tabiat go'zalligini kompozitorlar uvertyuralarda tarannum qildilar. Quyidagi kompozitorlarning asarlari bunga yorqin misol bo'la oladi.

1949-yili kompozitor Sulaymon Yudakov (1916-1992) mustaqil ravishda yaratgan "Tantanavor uvertyura"si musiqa shinavandalarining orasida shov-shuvga aylanib ketgan edi. Bu uch qismli murakkab shaklda yozilgan asar bir-birini inkor qilmagan milliy intonatsiya ruhida yozilgan ikki tema rivojlanish jarayonida, o'rta qismida o'zgarib, qarama-qarshi lirik tema paydo bo'lishi bilan birga, asarning birinchi va oxirgi qismlari birinchi taktdan to oxirgi taktga qadar ajoyib usul jumlalari, sinkopalarining mavjudligi, litavra va boshqa urma cholg'ular sadolari, torli va damli cholg'ular guruhlari bilan goh birlashgan, goh ajrashgan holda tez harakatli, ko'tarinki ruhda yaratilgan original musiqa tantanavor bayram shodiyonalarni mukammal ravishda aks etadi. Kompozitor 1965-yili "Festival uvertyurasi", 1972-yili "Yoshlar uvertyurasi" kabi asarlarni ham yaratdi. Mazkur uvertyuralarning har biri tasodifiy emas. Ular kompozitorning kasbiy professionallik mahorati va o'ziga xos uslubiy yo'nalish tufayli, umumlashgan – ramziy musiqiy obrazlar bilan, ajoyib ohangdor musiqiy asarlar yaratdi.

Haqiqatan ham S.Yudakov bu optimistik ruhda yozgan uvertyuralarda, o'zining qaynab turgan ijodiyotida davr muhitiga bo'lgan his-tuyg'usini, fikr munosabatini ifodalashda, xalq musiqa merosiga murojaat qilmay original milliy musiqa yarata olgani olqishga sazovordir.

1954-yili kompozitor G.Qodirov (1917 – 1985), Respublikamiz tashkil topganining 30 yillik to'yonasiga bag'ishlab "Yoshlik uvertyura"sinи yaratdi. Bu asar milliy ohangdorligi, quvnoq hayotbaxsh rang-barangligi, lirik alomatlari va ta'sirchanligi bilan ajralib turadi. Asar rivojlovsiz sonata allegrosi shaklida yozilgan. Ekspozitsiyada yorqin ohangdor ko'tarinki marshsimon harakatli bosh mavzu va ikkinchi lirik-raqssimon harakatli yondosh mavzu paydo bo'ladi. Bu ikki mavzu orkestrning torli cholg'u guruhlarda rivojlanadi, orkestrning turli tembr sadolarida tovlanadi, rivojloving o'rniga yangi qisqacha musiqiy lavha paydo bo'lib, ular reprizada birlikda payvand holatda jaranglaydi. Simfonik orkestrning fakturasi nihoyat darajada oddiy va ixcham chol-

g'ulashtirilgan. Mazkur "Yoshlik uvertyura"ni ijodiy mohiyati shundaki, zamonamizni, jo'sh urib turgan davrni musiqiy sadolarda yorqin ifodalaydi.

Ayniqsa XX asrni 60-80-yillarda kompozitorlar ijodida uvertyura janri muvaffaqiyatlari ravishda rivoj topdi. Kompozitorlar zamonamizni abstrakli musiqa sadolarida ifodalash jarayonida yangi-yangi murakkab uslubiy vositalardan keng ravishda foydalaniib, badiiy, yuqori saviyali quydagi uvertyuralarni musiqa shinavandalariga havola qildilar. Bu o'rinda A.Malaxovning o'zbek xalq kuylari asosida yozgan "Kolxoz uvertyurasi" (1962); M.Yusupovning milliy koloritli, jadal usullar va ko'tarinki ruh bilan yaratilgan "Qahramonlik uvertyura"si (1963); O'zbekistonning 40 yillik to'yiga bag'ishlangan A.F.Kozlovskiyning "Shodiyona uvertyura"si (1964); T.Qurbanovning "Shodiyona uvertyura"si (1972); S.Anvarovning katta simfonik orkestr uchun "Uvertyura"lari yorqin misol bo'la oladi.

1977-yili kompozitor M.Bofoyev "Bayram uvertyurasi"ni musiqa shinavandalariga havola qildi. Asar sonata allegrosi shaklida yozilgan. Bu mukammal ravishda milliy intonatsiya usullari bilan boyitilgan original musiqiy sadolar simfonik orkestrning turli cholg'u guruhlarida tovlanib zamon ruhini yaqqol tarannum etadi. Uvertyura muqaddima bilan boshlanadi va ajoyib jo'sh – xuruj tez harakatli usul bilan sug'orilgan bosh partiya kiritiladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston kompozitorlari va ularning mustaqil ijodlari tufayli respublikamizda xilma-xil, rang-barang, milliy ruhda yaratilgan uvertyular bunyodga keldi.

## Simfoniya

Simfoniya – (yunon so'zi – ohangdosh so'z ma'nosini bilsirdi).

Jahon musiqa san'atida simfoniya janr sifatida, XVIII asrda G'arbiy Yevropa kompozitorlarining ijodiy izlanishlarida shakllangan. Klassik simfoniya aslida to'rt qismli murakkab cholg'u musiqadir. 1-qism "Sonata allegrosi", 2-qism vazmin suratli turli shaklga ega, 3-qism Skerso, 4-qism "Rondo" yoki "Variatsiya" shaklida yoziladi. Qismlarning o'rni almashishlari mumkin. Shu

bilan birga 1 yoki 5, 6 qismli simfoniylar ham bo‘ladi. Katta va kamer simfonik orkestr va boshqa turdag'i cholg‘u orkestrlar uchun simfoniya yozish mumkin. Kompozitorlar simfoniya yaratishda orkestrlarning barcha imkoniyatlaridan mukammal ravishda foydalananadilar.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, ayniqsa XX asrda insoniyat badiiy tafakkuri taraqqiyoti yangidan-yangi falsafiyestetik tamoyillar kashf eta boshladi. Musiqa san'atida realizmning turlanishi boshlandi. Romantik ideallar, abstrakt umumlashmalar, impressionizm, ekspressionizm kabi ijodiy oqimlar, ma'lum estetik tamoyil va yo'naliш bo'yicha turlanish jarayoni avj oldi. Bulardan tashqari: "Serial", "Aleatorika", "Puantilizm", "Sonorizm", "Elektron musiqa" kabi avangard atalmish oqimlar ham avj oldi. Natijada bu davrga kelib "Tonallik va notonallik" texnika egallandi. Ijodiy tafakkur maydonida qaysi uslubiy yo'lni tanlash yoki qaysi birisini qo'llash kompozitorning o'ziga havola.

Ma'lumki, yuqori saviyali, badiiy-simfoniya yaratish mushkul jarayondir. Chunki bu abstraktli musiqiy obraz bilan davr voqealar, xilma-xil, rang-barang murakkab hayotni, tabiatni aks ettirish ijod-kordan chuqur nazariy-musiqiy bilimni, ijodiy mahoratni, falsafiy dunyoqarashni, milliy musiqiy an'analarni mukammal ravishda idroklash va talqin eta olishni talab etadi. Shuning uchun kompozitorning birgina kasbiy mahorati bilan chegaralanmaydi. Uning asosiy mezonini yorqin, milliy ruh bilan sug'orilgan, yuqori saviyali, badiiy-estetik, ta'sirchan asar yaratishdadir.

Shu nuqtayi nazardan o'zbek kompozitorlarining ijodida ham jahon kompozitorlari ijodidagi eng mashhur simfoniya turlarining oqimlariga xos ijod namunalari shakllanganligini qayd etish mumkin. O'zbekiston kompozitorlarining barcha avlodlari XX asr davomida simfoniya janrining xilma-xil namunalarini yaratdilar.

O'zbekistonda ikkinchi jahon urushi yillari yuqorida zikr qilganimizdek, ilk bor G.Mushel S.Vasilenko, A.Kozlovskiy, M.Ashrafiylar bir qator simfonik asarlari bilan musiqa ijodiyotida o'zlarini namoyon etdilar. Urushdan keyin, so'nggi yillardagi janr

ijodiyoti xususida musiqashunos N.S.Yanov-Yanovskaya o‘zining “O‘zbek simfonik musiqasi” kitobida alohida tahlil qilib beradi.<sup>40</sup>

50-60-yillargacha o‘zbek kompozitorlari, asosan, simfonik musiqani “Syuita”, “Poema”, “Uvertyura” kabi kichik hajmli janrlarda barakali ijod qildilar va simfonik orkestrning repertuarini boyitdilar. 1955-yili Fattoh Nazarov tomonidan yaratilgan to‘rt qismli simfoniya, milliy ruh sug‘orilganligi bilan ajralib turadi.

1962-yili kompozitor Rashid Hamrayev o‘zining ilk 4 qismli simfoniyasini yaratadi. Asarni har bir qismida o‘zbek ayollarni uzoq va mashaqqatli bosib o‘tgan hayot yo‘llari ruhiy kechimalarini ziyo va taraqqiyot sari sabot qadam tashlashlari gavdalanadi.

Simfonianing birinchi qismi sonata allegroshi shaklida, ikkinchi qismi tez harakatli sketso, birinchi qismning qahramonlik obrazlari ifodasini davom ettiridi. Uchinchi qism shiddatli, lekin hijron, qayg‘uga to‘la g‘amgin ohang hukm suradi. To‘rtinchi-final qismida yuqorida ko‘rsatilgan qarama-qarshi obrazlar yanada bo‘rttirib beriladi. O‘ziga xos ta‘ziyanoma sifatidagi KODA jo‘shqin, finalga keskin kontrast hosil qiladi.

Kompozitor R.Hamroyev ushbu simfoniyasidan so‘ng, boshqa janrlarda bir talay asarlar yaratdi. Ular qatorida 1986-yili bir qismli simfoniya, 1968-yili uchinchi va 1985-yili to‘rtinchi simfoniyalarni yozdi. Bu simfoniyalarni jamoatchilik qizg‘in kutib olgan edi. Uning simfoniyalarni har biri g‘oyaviy abstrakt mazmundorligi, bosh va yordamchi partiyalarni rivojlanish jarayonida qarama-qarshi obrazlarning ham hayajonli to‘lqinli dramatik tebranish alomatlari, milliy ohangdorli hislari badiiy-estetik saviyaları yaxlitliklari bilan tinglovchida yaxshi taassurot qoldiradi. R.Hamrayevning milliy ruh bilan sug‘orilgan simfoniyalari zamonaviy o‘zbek simfonizmini rivojlantirish jarayonida muhim iz qoldirdi.

1961-yili To‘lqin Qurbonov o‘zbek kompozitorlik ijodida, polifonik uslub namoyandası sifatida tanildi. Uning yaratgan simfonik asarları o‘zbek milliy musiqiy ohanglariga asoslanganligi bilan qadrlidir. Ilk simfoniysi to‘rt qismli simfoniya bo‘lib, diplom ishi sifatida taqdim etilgan. 1963-yilda Buzruk maqomidan “Saraxbori Buzruk” qismini simfonik orkestr uchun qayta ishladi.

<sup>40</sup> Н.С.Янов-Яновская. “Узбекская симфоническая музыка”. Т., 1979.

Asar polifonik uslubda yaratilgan va ijobjiy baholangan. Bu borada kompozitorning o'zi: "O'zbekcha zamonaviy cholg'u musiqasini yaratishda yoki qayta ishlashda garmoniyaga nisbatan polifoniya uslubi yo'nalishidan foydalanish qulayroq" degan fikr bildiradi.

Haqiqatan ham T.Qurbanov polifonianing uslubiy yo'nalish qoidalarini, shaklan tuzilishlarini barcha yaratgan simfonik asarlarida keng ravishda qo'lladi. Bunga kompozitorning simfonik orkestr uchun yaratgan "Fuga"si (1966), "Prelyudiya va fuga", "To'yona" (1976), "Tarix sahifalari" nomli prelyudiya va fuga (1983), kamer simfonik orkestr uchun "Askiya" kabi asarlari yorqin misol bo'la oladi. U katta simfonik orkestr uchun mustaqil ravishda 1964-yili ikkinchi, 1966-yili uchinchi, 1975-yili to'rtinchchi, 1999-yili to'qqizinchi simfoniyalarini yaratdi. Kamer simfonik orkestr uchun 1977-yili "Hamza" nomli va 1985-yili oltinchi simfoniyalarini, o'zbek xalq cholg'u orkestri uchun 1990-1991-yillarda ikkita simfoniyalarini musiqa muxlislariga havola qildi.

Misol sifatida T.Qurbanovning 3-simfoniyasini keltiramiz: Kompozitorning 3-simfoniyasi ikki qismli bo'lib, ikkinchi qismi fuga shaklida yozilgan. Uning vazmin sur'atli, maqom usul-intonatsiyalari bilan sug'orilgan tema rivojlanish jarayonida birinchi qism mavzusi bilan kontrapunkt orqali payvand bo'lishi asarni ta'sirchan quvvatini boyitish bilan birga qarama-qarshi, tez-tez o'zgarib turadigan dinamikasi, modulatsion o'zgarishlar tufayli, orkestrning butun sadolari qahramona-dramatik qiyofaga kirishiga ko'mak beradi. Aslida, ikkinchi qismning birinchi mavzusi fuga ekspozitsiyasining hamma qoidalariga muvofiq tuziladi, ammo birinchi qismdag'i bosh mavzu ustuvor bo'lib, finalda boshdan-oyoq stretto orqali sonata-allegro bilan fuga simfoniyani rivojlantiruvchi funksiyasini birlashtiradi va rivojlantiradi. Ushbu uslubiy yo'nalish T.Qurbanovning polifoniya va kontrapunktga bo'lgan munosabati, uning ijodiy konsepsiyasiga aylanadi.

Kompozitor T.Qurbanov 1975-yilda bir qismli to'rtinchchi simfoniyasini, so'ngra beshinchi va oltinchi simfoniyalarini yaratadi. Ular g'oyaviy jihatdan o'ziga xos bo'lsada, kompozitorning asosiy ijodiy uslubining yorqin namunalari sifatida qadr topadi.

2001-yili T.Qurbanov katta hajmli, monumental bir qismli 9-simfoniyani yaratdi va bobosi Qurbanboy Ismoilov va otasi Umar

Qurbanovlarning xotiralariga bag‘ishladi. Lekin asar avtobiografik bo‘lishi bilan birga, zamon va davr voqealarini ifoda etadi. Ushbu zavonaviy milliy ruhda bastalangan chuqur fojiali simfoniya kompozitorning shaxsiy his-tuyg‘u, vijdon azoblari bilan sug‘orilgan. Simfoniyaning shakli ham noan‘anaviydir. Ya’ni bir qismli asarning o‘zida ham an‘anaviy sonata-allegro, ham variatsiya, ham fuga hamda “Syuita” tuzilish tamoyillari saqlangan holda bir-birlari bilan uzviy bog‘lanib rivojlandi. Kompozitor uchun birgina sonata allegrosi shakli yetarli bo‘lmadi, qandaydir rondo shakli kabi bosh mavzu-refren “Segoh” maqomining boshlang‘ich parchasi asosida tuzilib, butun boshqa shakkarda namoyon bo‘lishlari bilan besh marotaba refren kabi o‘tadi, ular o‘rnilarini bilan ham almashadilar. Mavzu sifatida “Segoh” T.Qurbanov uchun xuddi bir “Koda” bo‘lib tuyuladi va uning elementlari olamni yaratganga iltijo qilish bilan boshladi. Bu mavzu simfoniyada refren vazifasida o‘tadi. Unga qarama-qarshi zolim hukmdorlarning obrazi hajviy tarzda hali raqs, hali kulgi, hali to‘y kabi epizodlarda bo‘rttirish (groteks) orqali tasvirlaydi.


### Sayfi Jalil

Atoqli kompozitor Sayfi Jalil (Jalilov 1932-2003) simfonik musiqaning turli janr va shakkarda asarlar yaratib, ijodiy kamolotga erishgan chog‘ida, lirik qalb tuyg‘ulari bilan 1971-yili skripka uchun, 1975-yili violonchel uchun konsertlar yaratgandan so‘ng 1977-yili o‘zining birinchi “Samarqandnoma” simfoniyasini yaratadi. Asar milliy ruhiy, g‘oyaviy-badiiy qiyofalari bilan, lirik-dramatik va tantanavor xarakterga egadir. “Samarqandnoma” simfoniyasi uch qismidan iborat.

Simfoniya salobatli, keng ko‘lamda sadolanuvchi muqaddima mavzusi bilan ochiladi. Mazkur kuyda o‘zbek musiqiy merosining asl ko‘rinishi-milliy ohang doriy lad tuzilmasida, 3/2 o‘lchovli og‘ir metroritm va monologik uslub mujassam topgan:

Muqaddima mavzusi torli va damli sozlarning patski registrida ikki marotaba sadolanadi, ikkinchi galda dramatik avjiga ko‘tarilganidan so‘ng (maqom suporishlari kabi) yangi bo‘lim, ya’ni sonata allegrosiga o‘tiladi.

**Lento rubato**



1-qism, ekspozitsiya (allegro animato)ning bosh mavzusi o'zga mavzulardan farqli o'laroq tuzilishi va ohanglar yo'nalishi jihatdan cholg'u kuylariga yaqin. Undagi garmonik faktura, ya'ni jo'rnavozlari tuzilma o'ichov va usul metrikasining aktivligi, urg'ularga boyligi bilan ajralib turadi:

**Allegro animato**



Bu ikki qatlam (yuqoridagi bosh mavzu va pastki jo'rnavozlar) bir tomondan bir-birini to'ldirib borsa, ikkinchi tomondan ular orasida tafovut yuzaga kela boshlaydi. Bosh mavzuga kontrast sifatida yorqin yordamchi mavzu gaboy, so'ngra violonchel partiyalarida jozibali yangraydi:

Meno mosso


U nihoyatda ohangdor va hayajonli bo'lib, ko'proq polifonik kanon imitatsiya uslubida namoyish etiladi.

2-qism hajman ixcham (andante mesto), partituraning eng lirik sahifalarini tashkil etib, musiqiy merosimizning durdonalaridan biri "Giry'a" asariga asoslangan:

Hazin navo kuy va unga monand topilgan jo'mavoz sadolar o'zaro uzviy bog'lanadi. "Giry'a"ga ohangdosh kuylar, aytaylik orkestr tarkibiga qo'shilgan qadimgi ud solosi ketma-ket ijro etilib chuqur, ta'sirchan musiqa lavhasini yaratadi.

"Samarqandnoma"ning so'nggi 3-qismida kompozitor mash-hur bastakor Hoji Abdulaziz Abdurasulovning "Bozurgoniy" asaridan foydalangan.

Xotimada 2-qismdag'i kabi muayyan kuy ohanglarigina emas, balki samarqandcha uslubga xos badihago'lylik, sersayqallik an'analarini ham ko'povozli musiqaga uzviy ulanganini ko'ramiz:



Simfoniadagi so'nggi bo'lim – koda avvalgi (1-qism) mavzularining reminissensiya (aks sado)lari, eng oxirgi taktlarda esa ko'tarinki ruhda takrorlangan muqaddima mavzusi yangraydi.

Kompozitor S.Jalil «Samarqandnoma» birinchi simfoniyasidan so'ng 1983-yili Kamer simfonik orkestr uchun to'rt qismli 2-“Lirik simfoniya”ni yaratdi. Asarni birinchi qismi sonata allegrosi, kichik rivojlov shaklida yozilgan.

Kompozitor S.Jalil yaratgan barcha asarlari bilan XX asr o'zbek musiqasi tarixi sahifalarida chuqur iz qoldirdi.

**Mirsodiq Tojiyev.** Atoqli o'zbek simfonist kompozitori Mirsodiq Tojiyev (1944-1996) XX asr o'zbek musiqasi tarixida yorqin iz qoldirdi. U o'ziga xos ovozi bilan musiqani turli janr va shakllarida xilma-xil, milliy ruh bilan sug'orilgan asarlar yaratdi.

M.Tojiyev o'z faoliyati davomida 19 ta simfoniya yaratgan:

1972-yili Simfoniya № 2; 1972-yili Simfoniya № 3; 1975- yili Simfoniya №4 “Otam xotirasi” deb ataladi va ikkinchi jahon

urushining g‘alabasini 30 yilligiga bag‘ishlangan; 1976-yili simfoniya №5, mashhur dirijor Zohid Haqnazarovga bag‘ishlangan; 1977-yili simfoniya №6; 1978-yili Simfoniya №7; 1978-yili Simfoniya №8; 1979-yili Simfoniya №9; 1982-yili Simfoniya №10; 1983-yili Simfoniya №11; 1985-yili Simfoniya №12 “Xotira” deb ataladi; 1986-yili Simfoniya №13; 1989-yili Simfoniya №14; 1991 va 92-yillarda №15, “Arxipelag Gulag”, №16 “Ruhlar nidosi” va №17 simfoniya “Somon yo‘li nomli simfoniya-trilogiya”; 1994-yili Simfoniya №18; 1995-yili simfoniya №19 “Qahramonlik”. Mustaqil O‘zbekistonning istiqloliga bag‘ishlangan mazkur simfoniyalardan 7, 8, 12 va 18-lari kamer simfonik orkestr uchun yozilgan.

Kompozitor M.Tojiyev yaratgan barcha simfoniyalar mazmun, uslubiy yo‘nalish g‘oyaviy-estetik xilma-xil bo‘lsalarda, ammo ularning mavzulari ijtimoiy-siyosiy davr sadosi bilan vatanimizning tarixi tabiatini bilan chambarchas bog‘liqdir. Ya’ni u simfoniyalarda yaxshilik va yomonlik, urush va tinchlik, muhabbat va nafrat, tarix va zamonaviylikning o‘lmas mavzularini aks etishga harakat qildi. Ushbu asarlarni yaratishda kompozitor ongli ravishda o‘z oldiga qo‘ygan maqsadni, yuksak mas’uliyatni chuqur his qilib, yillar davomida o‘z ustida ishladi, ijod sirlarini sabot bilan egallab bordi, klassik kompozitorlarni va S.Prokofyev, D.Shostakovich, I.Stravinsky, A.Xachaturyan ijodlarini sinchiklab o‘rgandi, ulardan ibrat oldi va asarlarida ularning ijodidan foydalandi. Shu bilan birga M.Tojiyev o‘zbek xalq musiqa merosini, ayniqsa, maqom uslubiy yo‘nalishni o‘zlashtirdi. O‘zining simfoniyalarida Sharq va G‘arb musiqiy an‘analaridan unumli foydalandi, ularni go‘zal uyg‘unlik jozibasiga erishdi va ijodiy yutuqlarni qo‘lga kiritdi.

Uning ilk asarlaridayoq o‘ziga xos ijodiy xususiyatlar, ya’ni: milliylikka intilish, shaxsiy individuallikka erishish, simfonizm tafakkurida obrazli fikrlash, konflikt kontrast emotSIONALLIKNI uy-g‘unlashtirish kabi masalalar namoyon bo‘ladi va yaratgan simfoniyalari bunga yorqin misol bo‘la oladi. Bu o‘rinda kompozitorning 3- va 4-simfoniyalari yorqin misol bo‘ladi.

M.Tojiyev to‘rt qismli 3-chi simfoniyasining (1972-y) birinchi qismi ikki bo‘limdan iborat: 1-bo‘limi asta-sekin harakatda, arfa, fortepiano va torli cholq‘ularni akkord fonida, Buzruk maqomini Saraxbori o‘zgartirilgan holatda tuzilgan o‘ychan-ma’yusli asosiy

mavzu asta-sekin bas-klarnet ijrosida namoyon bo'ladi. Notada ko'rsatilgan mavzu uchinchi qaytarishdan so'ng klarnet mavzuni davom ettiradi, bas klarnet ijrosida esa kuy o'zgara boshlaydi. Keyin soloni fleytalar rivojlangan holda davom ettirib, torli cholg'u-larda jaranglaydi, arfa qo'shiladi, fleytalarda<sup>41</sup> kuy kengaytirilgan

*D Adagio solo*

Краткое описание сцены: Бас-кларнет играет медленную гамму звукоподражания, а Саксофон испытывает легкий трепет руки. Адажио. Соло-частье исполнения публике показано в конце гаммы звукоподражания, морозно. Тонкость исполнения.

holatda o'tadi va orkestrning avj nuqtasiga ko'tarilish jarayonida valtorna va trubalar sadolarida tema o'tadi, avj nuqtasidan so'ng, torli cholg'ular sadosida ikkinchi tahrirchan yorqin lirik tema namoyon bo'ladi. Birinchi mavzu bilan ikkinchi yondosh lirik mavzuning o'rtaida tafovut yo'q desa ham bo'ladi.

Mazkur mavzularning har biri rivojlanish jarayonida sekinsta, sezilmasdan yangilanib borib, o'zining jo'shqin avjiga yetadi. Biroq torli cholg'ular tremolosi fonida trubalarning ekspressiv monolog'i bilan boshlanuvchi markaziy keskin kontrast epizod (ikkinchi bo'limi – Allegro)ga qadar maqom ruhiyati va shakli saqlanib, tez harakatli Adajio – ikkinchi bo'limiga o'tib ketadi. Bu bo'limda ikkala mavzular bir oz o'zgargan holatda, turli qo'shimcha sadolar bilan jo'shqin harakatlar orqali avj cho'qqisiga ko'tariladi.

Avj cho'qqisidan so'ng yana asta-sekin fleytaning yolg'iz xuddi "xayrashuv" ohang kabu jaranglash bilan birinchi qism yakunlanadi. Umuman simfoniyaning birinchi qismida kompozitor sonata amaliyotiga xos elementlardan mukammal ravishda foydalangan bo'lsada, lekin bu qism asosan maqom shakli va uslubiy yo'nalishida yaratgan. Ya'ni asarning ichki mohiyati, tuzilishi zamona viy musiqa san'atiga xos bo'lgan kompozitorning subyektiv shaxsiy falsafiy dunyoqarashi va his-tuyg'usidan mushtarak

<sup>41</sup> M.Tojiyevning qo'lyozmasidan.

obyektiv tuyg‘ulargacha o‘z ifodasini topa olganligi, maqom asosida tuzilgan tematizm rivojlanishida kuychanlik hal qiluvchi vosita bo‘lib xizmat qilishi, tinglovchida yaxshi taassurot qoldiradi. Shunday qilib bu qismda sonata, uch qismli va rondosimon shakllarning birlashmasi (sintezi) hamda ularning kontrastli alomatlari keng ravishda namoyon bo‘ladi.

Simfonianing ikkinchi qismi bir-biriga yaqin “bolamga o‘xshaydi ovozing sening” xorazm xalq qo‘shig‘ini o‘zgartirilgan holatida ikkita mavzu tokkata sifatida skerso kabi juda tez suratda boshlanishdan to tugallanishiga qadar jo‘shqin to‘lqinli tebranishlar orkestr sadosida mukammal ko‘taringki ruhda yangraydi va tinglovchini o‘z doirasiga beixtiyor tortadi va maftun etadi. Bunga sabab jozibali-lirik xalq qo‘shig‘ini qayta ishlash jarayonida har bir taktda bir xil usul tebranishi, kuyning intonatsiyalar o‘zgarishi tufayli tez harakatli temp, tokkatali usul garmonik vositalar, orkestrning boy sadolari asarning jo‘shqin ruhini ko‘taradi.

Simfonianing uchunchi qismi xuddi to‘rtinchi qismdagi kabi arfa, fortapiano va torli cholg‘ular guruhini sado fonida maqom uslubida yaratilgan mavzu klarnet, fleyta cholg‘ularida paydo bo‘lib, rivojlanish jarayonida yog‘ochli, keyin misli cholg‘ularda namoyon bo‘lib rivojlanadi. Ya’ni tinglovchining xayolini yana simfonianing birinchi qismi falsafiy-ruhiy holatga chorlasa ham, lekin bu qismda qandaydir g‘amgin nido paydo bo‘lib rivojlanish jarayonini avj nuqtalarida lirik obraz qahramoniy-fojia darajasigacha ko‘tariladi. Bunda bir maromli qayg‘u xarakterli akkordlarning sadosi, ayniqsa, fagot ijrosida o‘tadigan temaga yog‘ochli cholg‘ular guruhi qo‘shilib orkestri avj cho‘qqisiga ko‘tariladi va asosiy mavzu yakka fleyta ijrosi bilan bu qism tugaydi.

Simfonianing to‘rtinchi qismi Allegro erkin ravishda, rondo-sonata shaklida yozilgan. Bu qism xuddi ikkinchi qism kabi shiddatli, dovul kabi tez harakatli jarayonda raqssimon mavzu butun orkestr sadosida goh sershovqin, bayram kabi quvnoq kayfiyatga, goh “yovuzli” bezovta qiladigan harakatlar lazzatga chorlaydi. Bunday kayfiyatga chorlashda raqssimon tez harakatga keltiruvchi asosiy mavzu fleyta-pikolo, fleytalar, klarnetlar, undan so‘ng torli cholg‘ularda namoyon bo‘lib, rivojlanish jarayonida orkestrning fakturasida urg‘u cholg‘ular bilan dissonans va konsonas akkordlarni

tez-tez almashuvlari, ohangdosh bas ovozlar, dominanta negizini silashlar tufayli diatonik lad (mi eoliy-frigiy ladlar), tembrlarning rang-barang sadolari, taktlar oralarida paydo bo‘ladgan sinkopalar. Ikkinci lirik yondosh mavzu oynali reprizada, turli dinamik vositalari tez-tez qo‘llanishlari, orkestrni sadosi kabi alomatlar katta kodaga olib keladi va asar ko‘tarinki ruh bilan tugaydi.

M.Tojiyev uchinchi simfoniyasida to‘rt qismli an’ana saqlagan holda, asarning botiniy tuzilishini erkin ravishda maqom an’analariga payvand qilishga qaratdi.

M.Tojiyevning, yuqorida zikr qilganimizdek, ijodi faoliyatida simfoniya musiqa ustuvor yo‘nalish sifatida gavdalandi.

### Kompozitor Mirxalil Mahmudov

XX asjni 70-yillar boshida musiqiy san’at dargohiga qadam qo‘ygan professional kompozitorlar avlodiga mansub. 1971-yil yosh kompozitorlarning “Navo” simfoniysi ilk marotaba ijro etildi. Ko‘p qirrali kompozitorlarning ijodi faoliyatida simfonik musiqa ustuvor turadi. M.Mahmudov ijodiy izlanishda jahon kompozitorlarining eng ilg‘or yutuqlarini va uslublarini ijobiy o‘zlashtiradi va o‘z uslubiy yo‘lini “Navo” nomli ilk simfoniyasidayoq namoyon qildi<sup>42</sup>.

Kompozitor M.Mahmudov kelgusi ijodiy faoliyatida bitta simfoniya bilan chegaralanib qolmay yillar davomida, uning qalami ostidan quyidagi simfonik musiqalar bunyodga keldi: 1972-yili “Simfoniya syuita”, Ikkinci simfoniya (1976), ulug‘ kompozitor D.D.Shostakovichga bag‘ishlangan “Xotira” nomli simfonik poema (197b), kamer simfonik orkestr uchun “Muxammas va ufor” nomli pyesa (1977), ikkita uvertyura (1978), Uchinchi simfoniya (1982), “Bayramona” syuita va “Fanfarlar” nomli syuita va boshqa simfonik asarlar, o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestriga va kamer simfonik orkestrga yaratgan asarlari bilan o‘zbek simfonik musiqa rivojlantirish jarayoniga samarali hissa qo‘shib kelmoqda.

<sup>42</sup> “Navo” simfoniya konservatoriyaning fonotekasida yozilgan. Mazkur simfoniyanı tahlil qilishda, tarjima qilinay, ayrim fikrlaridan erkin ravishda N.S.Yanov-Yanovskayaning “Узбекская симфоническая музыка” kitobini foydalilanilgan.

## Mustafo Bafoyev

Taniqli kompozitor va dirijor musiqa ijodiyotiga XX asr 70-yillarinining ikkinchi yarmida kirib keladi va eng samarali kompozitor sifatida shakllanadi. M.Bafoyev musiqa ijodiyotining eng darg'a namoyandalari ijodiy an'analarini o'zlashtiradi. Milliy musiqa tafakkuri doirasida zamonasining yetuk asarlarini barcha janrlarda namoyon etishga erishadi. Barcha simfonik asarlarida u serquyosh respublikamizning tarixini, mutafakkir ajdodlarimizni, zamondoshlar obrazlarini aks etib, bir qator chuqur mazmundor asarlar yaratadi. Bu sohada uning "Shiroq haqida afsona" nomli simfonik poema(1974), "Bayram uvertyura" (1976); truba va simfonik orkestr uchun "Konsert-rapsodiya" (1978); kamer simfonik orkestri uchun "Avitsena" nomli ikkinchi simfoniya (1984), "Shoiring hayot sahifasi" nomli atoqli shoir Hamzaga bag'ishlangan uchinchi simfoniya (1990) va "Mavarounnahr" nomli to'rtinchisimfoniyalari yorqin misol bo'la oladi.

M.Bafoyev zamonaviy kompozitorlar orasida eng sermahsul va keng qamrovli kompozitoridir. Shu bilan birga uning har bir asarga murojaatining o'ziga xoslik yondashuvi mavjud. Mavzuga jiddiy yondashish, asl g'oyani ochib berish, yangi zamonaviy uslublarda talqin etish, eng dolzarb mavzularga murojaat etish kompozitorning ijodiy tamoyilini tashkil etadi deyish mumkin. Uning ijodi bo'yicha juda ko'p tahliliy ilmiy-nazariy ishlar yaratilgan. Quyida uning kamer simfonik orkestr uchun yaratgan ikkinchi simfoniyasini qisqacha tahlili qilib ko'ramiz.

Simfoniya buyuk alloma Abu Ali ibn Sino xotirasiga bag'ishlangan bo'lib, unda asosiy obraz xususiyatlari jonli insoniy his tuyg'ularga yo'g'rilgan, jo'shqin ko'tarinki ruhda aks etilgan. Simfoniya uch qismidan iborat:

Simfoniyaning I qismi Andante va sonata-allegroshi shaklida yaratilgan. Falsafiy-lirik, yorqin ohangdor, Buzruk maqomi taronasi asosida tuzilgan bosh mavzu va jo'shqin ohangdag'i raqssimon yondosh mavzular bir-biriga qarama-qarshi (kontrast) bo'lmay, ekspozitsiyada namoyon bo'lib, ulug' olimning obrazi bilan bog'langan. Har ikkala tema, rivojlovni o'rniga, fugata-polifonik holatda kamol topadi. Reprizaga o'tishda va reprizada esa, qarama-

qarshi bo‘lganliklari uchun xuddi yaxlit obraz bunyodga kelganday tuyuladi. Shu bilan birga reprizada, mavzular avj nuqtasiga ko‘tarilganda asarni dramatrgiyasida, mavzularning ajralish holatlari sezildi. Umuman, bu qismda yondash lirik raqssimon mavzu birgina bu qismda emas, simfoniyaning barcha qismlarida ustuvor turadi.

Simfoniyani II qismi uch qismli shaklda yozilgan. Bu qismlarni dramaturgiyasini rivojlanish jarayonini o‘ziga xosdir. Ekspozitsiyada milliy ruhda yozilgan uchta original mavzular asosiy rol o‘ynaydi. Skersosimon mavzu alt, violonchel va skripka cholg‘ularda uch marotaba qaytarilishlarda namoyon bo‘lib, o‘rta tema bilan birlikda goh tez raqssimon harakatda, goh qayg‘uvahimali jarayonda rivojlanib, reprizada ham davom etadi.

Simfoniyaning III qismi Andante-reprizali uch qismli shaklda yozilgan. Bu qism, klassik kompozitorlarga xos, final qism sonata-allegro yoki ronda shaklda yozilgan an'anaga murojaat qilinmay, erkin ravishda turli obrazli musiqiy lavhalarni namoyon qilish bilan bog‘liq. Ya’ni shu qismni birinchi mavzusi simfoniyaning birinchi qismidagi asosiy birinchi mavzuni ohangi bilan sug‘orilgan, ikkinchi mavzu esa o‘scha qisdagi fugatta asosida tuzilgan. Shu sababli simfoniyada, ham falsafiy ham lirik raqssimon, ham xayoliy g‘amgin nigoh, ham dramatik hayajonli musiqiy obraz lavhalar jaranglaydi va final ma'yusti lirik xayoliy musiqiy yaxlit his-tuyg‘uli ohang bilan tugaydi.

Umuman simfoniyani yaxlit holda xuddi sonata-allegrosi shakliga o‘xshab ketadi. Birinchi qismida falsafiy lirik musiqa, ikkinchi qismda skertso va uchinchi qismida xayoli olis-olislarga chorlovchi musiqa bir oz o‘yga to‘ldiradi. Shu bilan birga aytish joizki, simfoniyani tematizmlarini tuzishda ham kompozitorning musiqiy tiliga xos yaxlitlik bor. Ya’ni har bir mavzu uch (ohang) jumladan iborat.

Bunday mavzu tuzish simfoniyani birinchi qismini tuzilishiga xos. Shunday qilib simfoniyadagi boshqa qismlar birinchi asosiy mavzuning ohanglari bilan bog‘langan holda tuzilgan.

M.Bafoyev o‘zbek musiqa ijodiyotida yorqin asarlar yaratib kelayotgan va samarali faoliyat olib borayotgan sermehsul kompozitor va ibratli ijodkordir.

**Tayanch so‘zlar:** Cholg‘u musiqasi, kamer musiqa, simfoniya, syuita, uvertyura, musiqiy til, uslub, garmoniya, polifoniya, janr, shakl, ijod, kompozitor, orkestr, kamer orkestr, simfonik uvertyura.

### Mavzu bo‘yicha savollar:

1. Cholg‘u musiqa ijodiyoti va uning asosiy yo‘nalishlari.
2. Simfonik musiqa xususida tushuncha bering.
3. O‘zbek simfonik musiqasi shakllanishida faoliyat olib borgan rus kompozitorlarining ijodi xususida ma’lumotlar keltiring.
4. S.Vasilenko, R.Glier, V.Uspenskiy, A.Kozlovskiy, G.Mushel kabi kompozitorlarning simfonik janrda yaratgan asarlari.
5. M.Ashrafiy, T.Sodiqov va Sh.Ramazonov, M.Leviyev, M.Burhonovlarning cholg‘u va simfonik asarlari.
6. 50-80-yillarda simfonik musiqaning turli janrlarini rivojlanishi.
7. O‘zbek musiqa ijodiyotida simfonik syuita, simfonik poema va simfonik uvertyuralar qaysi kompozitorlar ijodida yaratildi.
8. Simfoniya, cholg‘u konsert, skripka, violonchel, truba, fleyta, ovoz uchun konsertlar xususida ma’lumot bering.
9. Kamer-cholg‘u musiqa janrlarining rivojlanishi va kompozitorlik ijodi.

### Mavzu bo‘yicha topshiriqlar:

1. Cholg‘u musiqa ijodiyoti va uning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha ma’ruzalar tayyorlash.
2. Simfonik musiqa ijodiyoti va uning rivojlanish bosqichlarini kompozitorlar hamda ularning asarlari misolida panoramasini tuzish.
3. O‘zbek simfonik musiqasi shakllanishi rusiy zabon kompozitorlar yaratgan asarlarda o‘zbek musiqa merosi namunalari mavzusida yozma ish tayyorlash.
4. O‘zbek kompozitorlarining simfonik janrda yaratilgan asarlarni tinglash va tahlil qilish.
5. Simfonik syuita, sifonik poema va simfonik uvertyuralarning o‘zbek musiqasiga xos xususiyatlari xususida ijodiy ish qilish.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. –T.: 2004, 2005.
2. История узбекской советской музыки. –Т.: 1972, 1973, 1991.
3. Янов-Яновская Н.С. Узбекская симфоническая музыка. – Т.: 1979.
4. История и современность. –М.: 1972.

## KINO MUSIQA

### Mavzu rejasi:

1. O'zbekistonda kino san'atining paydo bo'lishi.
2. Ilk ovozsiz o'zbek filmlari va ularning musiqiy bezalishi. Ovozli o'zbek badiiy kinofilmlari.
3. O'zbek badiiy kinofilmlarni yaratishda respublika kompozitorlarining xizmati.
4. O'zbek telefilmlari uchun bastalangan musiqa. Multiplikatsion kinofilmarga yozilgan musiqa. Hujjatli kinofilmalar uchun yaratilgan musiqa.

O'zbek musiqasi tarixida o'ziga xos va eng qiziqarli janr sifatida keng quloch yozgan janr – kino musiqa hisoblanadi. Uning tarixiga nazar solar ekanmiz, dastlabki kinofilmlar “ovozsiz” (1930-yillarning 2-yarmigacha) hamda ikki bosqichdan iborat “ovozli” bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Ilk ovozsiz filmlarda asosan, ijrochilar (yakka sozanda-pianinochi yoki ansambl) tomonidan tanlangan yoki badiha tarzida ijod qilingan musiqiy namunalardan iborat bo'lgan bo'lsa, “ovozi kino”larda, odatda, har bir film uchun maxsus musiqa yozilib, ba'zan mayjud musiqa asarlaridan ham foydalilanilgan. Kino musiqa kinofilm mazmuni bilan uzviy bog'liq holda, qahramonlarning ruhiy kechinmalarini, dramatik holatlar, ziddiyatlarni badiiy ifodalashga yordam beradi.

O'zbekistonda dastlabki kinematografik mahsulotlar 1897-yildan amaliyatga joriy etilgan bo'lib, mazkur filmlar ovozsiz, shunchaki tomoshabin zerikmasligi uchun biror kuy tanlash asosida namoyish etilardi.

O'zbek badiiy kinosi shakllanib kelayotgan ilk davrda (1927-yilda) A.Fitrat o'zining "Sanatning manbai (kelib chiqishi)" nomli maqolasida" kino oltita qadimiy ajoyib (raqs, musiqa, adabiyot, rang-tasvir, haykaltaroshlik, me'morchilik) sanatlarning samarali

mevasidir"<sup>43</sup> deb yozgan edi. Kino o'zining shakllanish bosqichida bir-biriga yaqin san'atlardan tajribalarni singdirib olganligi bois, qisqa vaqt ichida chinakam san'atga aylanishiga, an'anaviy san'atlar bilan bir safda turishiga imkon yaratildi.

O'zbekistonda ilk film namoyishi, dastlab 1897-yil o'tkazilgan. Ilk bor o'zbek milliy urf-odatlar, xalq mehnati, uning tashvish va quvonchlarini o'z lavhalarida yorqin va to'g'ri ifoda etgan kinooperator Xudobergan Devonoydir. 1919-yilda Respublika Xalq maorifi komissarligi qoshida kino bo'lim tashkil topgan. 1923-yil esa bo'lim o'rniga maxsus Turkiston Davlat kino tashkiloti ("Turkgoskino") yuzaga kelgan. 1924-yilga kelib, O'rta Osiyoda bиринчи kino tashkilot "Buxkino" tashkil bo'ldi. Bir yildan so'ng "Buxkino", "Turkgoskino" bilan birlashtirilib, "O'zbek Davlat kino" tresti ("O'zbekgoskino"), uning qoshida esa "Sharq yulduzi" kino fabrikasi tashkil etildi.

Yurtimizda kino uchun maxsus musiqa yozish 1920 - yillardan boshlangan va 2-yarmidan boshlab milliy kino asta-sekin o'zining asosiylari an'alarini shakllantira bordi va boshqa san'at turlari qatoridan munosib o'rin oldi. "Mirzacho'ldagi paxta", "Moy ishlab chiqarish sanoati", "Bezgak kasaliga qarshi kurash", "Tabiat va sog'iqliq", "O'zbekiston ayoli", "Eski shaharlar", "O'zbekistonda xalq sayli" kabi ilk ovozsiz filmlar ishlandi. "Paxtaorol" (1925, rej. A. Shcherbakov), "Baxt -quyoshi" (1926, rej. V. Krivstov) badiiy filmlari xalq orasida katta muvaffaqiyat qozondi. 1927-yil rejissor M.Doronin "Ikkinchchi xotin", "Ravot qashqirlari" (rej. K.Gertel) kabi filmlar ishlandi<sup>44</sup>.

O'zbek kinomusiqa Brusilovskiy, Stepanov, A.Kozlovskiy, R.Glier kabi kompozitorlar ijodiyotida shakllana boshladи. Ular kinoda qo'llanilgan musiqalarni tanlashda asosan o'zbek xalq kuy va qo'shiqlaridan hamda o'zbek bastakorlari ijodiga tayanganlar. Jumladan, o'zbek kinofilmlariga ilk marotaba musiqa yozgan V.Uspenskiy musiqiy folklor namunalarini filmlarda keng qo'llagan. Uning 1927-yil rejissor N.G'aniyev tomonidan suratga olinigan "Ravot qashqirlari" ovozsiz filmi uchun yozgan musiqasida

<sup>43</sup> X.Boltaboyev "Fitrat va san'at nazariyasi", "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 1998 y.

<sup>44</sup> O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi 1997 y. 598-602-betlar.

6 ta o‘zbek xalq kuylari ”Qarinavo”, ”Sobirjon”, ”Ilg‘or”, ”Nasrulloi”, ”Zarkokil”, ”Dilrab”lardan foydalangan<sup>45</sup>.

30-yilarga kelib kino sohasida iqtidorli milliy kadrlar yetishib chiqdi. M.Qayumov, X.Sulaymonov, A.Rahimov, T.Zohidov, A.Rahmonov, A.Saidov shular jumlasidan. ”Avliyoning qizi” (rej. O.Frelix), ”So‘nggi bek” (rej. Ch.Sabinskiy), ”Yuksalish”, ”Ramanzon” (rej. N.G‘aniyev), ”Ulim qudug‘i” (rej. N.Klado), ”Qilich” (rej. I.A’zamov), ”Yigit” (rej. N.G‘aniyev) singari ovozli filmlar ishlandi. Ovozsiz kino davrida o‘zbek kinosining shakllanishi va rivoj topishiga rus rejissor va aktyorlari bilan birga N.G‘aniyev, K.Ermatov, R.Pirmuhamedov, S.Xo‘jayev, E.Hamroyev, Y.A’zamov, M.Qayumov kabi yetishib chiqqan yosh milliy kino san’ati vakillari ham salmoqli hissa qo‘shti.

O‘zbek kinematografchilari orttirgan tajriba, suratga olish texnikasining takomillashuvi ovozli kinoga o‘tishga zamin bo‘lib xizmat qildi. 1937-yil yaratilgan birinchi o‘zbek ovozli ”Qasam” (rej. A.Usoltsev) badiiy filmi madaniy hayotda muhim voqeа bo‘ldi. ”Qasam” filmida ilk bor chuqur va hayotiy yoritilgan ayol obrazi berilgan. Film musiqali sahnalar, qo‘shiqlarga boy bo‘lib, bosh rolni H.Nosirova ijro etgan. Mazkur film musiqasini yaratishda kompozitor A.Knyazevskiy komplikatsiya uslubidan foydalananib, maishiy xalq kuylarini kiritgan.

1940-yillar suratga olingan ”Tohir va Zuhra”, ”Nasriddinning sarguzashtlari” (1945, 1946, rej. N.G‘aniyev), ”Alisher Navoiy” (1947 yil rej. K. Ermatov) kabi filmlar o‘zbek kinematografiyasining yirik yutug‘i bo‘ldi va ular o‘zbek kinosining oltin fondidan o‘rin oldi. Musiqa kinoni yanada ta’sirli, zavqli va eng muhimi tushunarli hamda jozibali bo‘lishiga xizmat qiladi. Ya’ni qahramonlarni ruhiy kechinmalarini, dramatik holatlar, ziddiyatlarni badiiy ifodalashda qo‘llaniladi. Bu davrda ko‘plab film musiqalari hammualliflik asosida yozila boshlandi. Ya’ni rus kompozitorlari o‘zbek kinolaridagi yorqin milliy kolorit, nozik lirika hamda o‘zbekona romonatik bo‘yoqlarni aniq ko‘rsatib berishda o‘zbek musiqasining yetuk darg‘alari T.Jalilov, M.Ashrafiy, T.Sodiqovlar bilan birgalikda ish olib borishdi. Ular o‘zaro fikr almashib, o‘zbek kino-

<sup>45</sup> Н.Янов-Яновская ”Музика узбекского кино”, Т.:1969, 27-28.

musiqasini yangi qirralarini kashf etishdi. Jumladan: Muxtor Ashrafiy va Boris Arapovlar hamkorligidagi “Nasriddin Buxoroda” filmlari o‘zbek xalq kuy va qo‘shiqlaridan hamda o‘zbek bastakorlari ijodidan o‘nlab iqtiboslarga tayanilgan holda ommaga taqdim etildi; R.Glier hamda T.Sodiqovning “Alisher Navoiy” kinofilmi o‘zgacha taassurotlarga ega. Kinofilmni kompozitorlar “Cho‘li Iroq” musiqasi bilan ochib berishgan.

50-yillarda o‘zbek kinosiga U.Nazarov, Sh.Abbosov, A.Hamroyev, D.Salimov, R.Botirov, E.Eshmuhamedov, Q.Kamolova kabi rejissorlar, H.Fayziyev, D.Fatxullin, L.Travitskiy, G.Eftimovskiy singari operatorlar kirib keldi. “Boy ila xizmatchi”, “Qutlug‘ qon” (1953, 1956, rej. L.Fayziyev), “Maftuningman», “Furqat” (1958, 1959, rej. Y.A’zamov), “Farzandlar” (1959, rej. Z.Sobitov), “Mahallada duv-duv gap” filmlarida o‘zbek xalqining o‘tmishi va keyingi hayoti aks etdi.

Ushbu yillarda buyuk kino kompozitorlari M.Burxonov, M.Leviyev, S.Yudakov, I.Akbarov, D.Zokirov, D.Soatqulov, G.Sobitovlar samarali ijod qildilar.

Musiqashunosi N.Yanov-Yanovskaya o‘zining ilmiy tadqiqotlarida, kinomusiqada bir qator musiqiy uslublar qaror topganligini ta’kidlab o’tadi. Ular quyidagilardan iborat: Tasviriy (illyustrativ) kino musiqa; Umumlashtiruvchi kino musiqa; Syujetli kino musiqa; Kompilyativ kino musiqa; Real sinxronli kino musiqa; Konrastlikontrapunkt kino va h.k. Kinoda ishlatilgan musiqa ikki reja asosida qo‘llaniladi: Kadr ichidagi («realistic» realizistik) musiqa va Kadr ortidagi («function» funksional) musiqa<sup>46</sup>.

60-yillarda kino ishlab chiqarish avj oldi, moddiy baza mustahkamlandi. Filmlarning janr va mavzui sezilarli darajada kengaydi. 70-yillar kinosi turli janr va materiallarni qamrab olishi, mazmunan terangligi, qiziqarli mavzularda ishlanishi bilan diqqatga sazovor bo‘ldi. 80-yillarga kelib, o‘zbek kino aktyorlarining nufuzli avlodи shakllandi. Kinomusiqa ijodiyotida R.Vildanov, F.Yanov-Yanovskiy, H.Rahimov, A.Malaxov, E.Salixov, Sh.Ramazonov, T.Qurbanov, S.Jalil, B.Umidjonov, E.Shiryayev, E.Artemev, M.Mahmudov kabi kompozitorlar samarali faoliyat olib bordilar.

<sup>46</sup> Н. Янов-Яновская “Музыка узбекского кино”, Т.: 1969. 21-22.

Ushbu kompozitorlarning barchasi ko‘p qirrali ijodiy faoliyati bilan zamonaviy o‘zbek professional musiqa san’atining rivojlanishiga barakali hissa qo‘shganlar.

Musiqa o‘ta muhim o‘ringa ega o‘zbek kino komediyalari 50-yillarning oxiri, 60-yillarning boshlarida yuzaga keldi: “Mafstuningman” (Ikrom Akbarov, Mutual Burhonov, Manas Leviyevlar musiqasi 1958 y.), “Mahallada duv-duv gap” (Manas Leviyev musiqasi, 1960y.). 1960-70-yillarda o‘zbek filmlari uchun musiqa yaratuvchilar doirasi sezilarli darajada kengaydi:

Sayfi Jalil (“Zulmatni tark etib”, 1973), A.Malaxov (“Toshkent non shahri”, 1967), F.Yanov-Yanovskiy (“Qo‘g‘irchoqboz”, 1970; “Mayin yomg‘ir yog‘adi” multfilmi, 1984 va b.). Ayniqsa, Rumil Vildanov ijodi e’tiborga molik, 100 dan ortiq filmga musiqa yozdi: “Inson qushlar ortidan boradi”, 1980 – 90-yillarda Vladimir Milov (“Alibobo va qirq qaroqchi” 1980y.), Mirxalil Mahmudov “Kelinlar qo‘zg‘oloni” 1985y., “Abdullajon” 1994y., “Chimildiq” 1998y; Enmark Solihov “Alpomish”, 1999y., A.Ergashev “Sharif va Ma‘rif” 1992y., “Yulduzimni ber, osmon” 1995y.)lar ijodi e’tiborga molikdir.

1990-yildan, ya’ni vatanimizning mustaqillik yillardan o‘zbek kinosi keskin o‘zgardi. Davlat kinokompaniyasi tashkil etildi. “Inson”, “Yulduz”, “Iyomon”, “Vatan”, “5-studiya” kabi o‘z dasturiga ega bo‘lgan mustaqil ijodiy birlashma studiyalar yuzaga keldi. Kino oliv o‘quv yurtlarini bitirib kelgan yosh rejissor va aktyorlar hisobiga kino ijodkorlari safi kengaydi<sup>47</sup>. Bu davrga kelib, elektron musiqani taraqqiy etishi natijasida, kino musiqa ijodiyoti yangi bosqichga ko‘tarildi. Endilikda mazkur jarayonda professional kompozitorlar M.Mahmudov, A.Ergashev, D.Yanov-Yanovskiy, D.Izomov bilan bir qatorda musiqa tanlovchilar, musiqiy bezakchilar, aranjirovkachilar faol ishtirot eta boshladilar. Ular zamonaviy vositalar asosida ustozlar an’analalariga tayangan holda kinomusiqani yangi uslublarini yaratishga muvaffaq bo‘ldilar. So‘nggi yillarda o‘zbek kinofilmlari uchun musiqa yozishda J.Izomov, U.Karimov, D.Agzamov, Sh.Zokirov, F.Sobirov, U.Shermuhammedov, K.Dehqonov, S.Mo‘minov, S.Ergashev kabi

<sup>47</sup> O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T.: 1997.

yosh bastakor, aranjirovka ustalari faoliyat olib bormoqdalar. Ular zamonaviy vositalar asosida kinomusiqani yangi uslublarini yaratishga intildilar. Elektron musiqani shakllanishi natijasida kino mahsulotlari orasida tafovutlar paydo bo'laboshladi.

O'zbek kino san'ati zamon ta'siri ostida rivojlandi. Kinoning turlari bir-biridan, xususan bu jarayon, filmda gavdalangan material, ifoda vositalari, ilgari surilgan maqsadlari bilan farq qiladi.

1. *Badiiy kino*. 2. *Hujjatli kino* – ("Turkiston" (1923), "Turkiston ipakchiligi", "O'rta Osiyo bo'ylab" (ikkalasi 1924) birinchi o'zbek hujjatli filmlaridir. 70-yillarda yaratilgan "Bahordan bahorgacha", "13 qaldirg'och", "Toshkent, zilzila", "Samarqand hamisha men bilan", "Qariyalar", "Mirmahmud Usmonov va uning 100 shogirdi" va h.k.

3. *Apimatsiyali (multiplikatsiyali) kino*. O'zbekistonda multiplikatsion kino ishlash 60-yillardan boshlandi. "6X6 kvadratida" (1965 rej. D.Salimov) kinosi respublikada ishlangan birinchi multiplikatsion qo'g'irchoq, filmdir, "Sehrli sandiq" (rej. D.Salimov), "Shumtaka" (rej. Q. Kamolova), "Kichik yolg'onchi" (rej. 3.Royzman) va h.k.<sup>48</sup>.

Kinoning turli janrlarida yozilgan kinomusiqalar, o'zining vazifasi va ahamiyatiga ko'ra bir-biridan farq qiladi:

1. *Hujjatli* kinolar asosan tasavvur emas, balki real, voqeiliklarga asoslanadi.

2. *Animatsiyali (multiplikatsiyali) kino* – kino janrida yagona haqqoniylari va jonli musiqadir. Chunki, animatsiyali (multiplikatsiyali) kinoda musiqa tasvir bilan doimo parallel ravishda harakatlanadi. Kinoning mazkur turi bo'yicha R.Vildanov, V.Milov, A.Malaxov, F.Yanov-Yanovskiy, D.Saydaminova, E.Shiryayev, M.Tojiyev, D.Omonullayeva, D.Yanov-Yanovskiy, I.Berlin, D.Ilyasov, Sh.Kallosh, S.Avanesov, E.Pak, M.Maxmudov, A.Ikromov, A.Ergashev, D.Izomov kabi kompozitorlar samarali ijod etganlar.

**Tayanch so'zlar:** kino, musiqa, konsert, kinematografiya, kompozitor, ssenariya, bastakor, kompozitor, sahna, musiqiy bezak, milliy kolorit, film, animatsiya, aktyor, rejissor.

<sup>48</sup> H. Abulqosimova "Kino san'ati asoslari" T.: 2009 8-9-betlar.

### **Mavzu bo'yicha savollar:**

1. O'zbekistonga kino san'atining kirib kelish tarixi va shakllanishi hamda rivojiga hissa qo'shgan san'atkorlar yuzasidan ma'lumot bering.
2. Ovozsiz o'zbek kinofilmlar va ularning musiqiy bezalishi xususida qanday ma'lumotlarga egasiz.
3. Ovovzli o'zbek badiiy kino filmlari ("Qasam", "Asal", "Nasriddin Afandi Buxoroda")ning musiqiy bezalishi, tarixiy yo'nalishi, yutuq va kamchiliklari xususida so'zlab bering.
4. 1940-70-yillarda kinematograf va o'zbek kompozitorlari hamkorligida yaratilgan filmlar: "Tohir va Zuhra", "Alisher Navoiy", "Stadionda uchrashamiz", "Maftuningman", "Furqat", "Hamza", "Mahallada duv-duv gap", "Sen yetim emassan", "Qaydasan Zulfiya", "Ulug'bek yulduzları" kabi kinofilmlar musiqalarini mavjud nota namunalari asosida tahlil qiling.
5. Multiplikatsion, hujjatli kinofilmlar uchun o'zbek kompozitorlar tomonidan yaratilgan musiqa haqida to'xtalib o'ting.

### **Mavzu bo'yicha topshiriqlar:**

1. O'zbekistonga kino san'atining kirib kelishi va ilk ovozsiz kinolarning musiqiy bezalishi xususida ma'lumot to'plash.
2. Ovozli o'zbek kinofilmlarning yutuq va kamchiliklari xususida ma'lumot to'plash.
3. O'zbek badiy filmlarini yaratishda respublika kompozitorlarining o'rni xususida mustaqil ma'ruza tayyorlash.

### **Foydalanilgan abiyotlar:**

1. O'zbekiston milliy enstiklopediyasi. –T.: 2001.
2. История узбекской советской музыки. –Т.: 1973, 1991.
3. Янов-Яновская Н. Музыка узбекского кино –Т.: 1969.

## O'ZBEK ESTRADA SAN'ATI

### O'zbek estrada musiqasi

#### Mavzu rejasi:

1. O'zbekistonda milliy estrada san'atining bunyodga kelishi.
2. 1950-80-yillarda zamonaviy o'zbek estrada san'atining rivojlanishi.
3. Estrada guruhlari.
4. Estrada qo'shiqchiligi. Taniqli ijodkorlar va ijrochilar.
5. O'zbek estrada musiqasi.B.Zokirov va "Yalla" repertuari.

1917-1950-yillar xalqimizning ko'p asrlik boy musiqiy merosi, an'analari negizida yuzaga kelgan ma'naviy dunyosi keng omma-lasha boshlandi. Shu davrda keng ommaning musiqa havaskorligiga jalb etish ishlari, havaskorlik to'garaklarini tashkil qilish avj oldi. Musiqa folklori va og'zaki an'naviy professional musiqa deb yuritilgan xalq qo'shiqlari va cholg'u kuylari, mumtoz kuy va ashulalarni targ'ib etishda professional va havaskorlik jamoalarini shakllana boshlandi. Shular qatorida bir va ko'p ovozli uslubiy yo'nalishda o'zbek estrada san'ati ham bunyodga kela boshlandi. Turli milliy vokal-cholg'u ansambllar, «jaz», «simfo-jaz» orkestrlari shakllandi va ularda ijro etuvchi havaskor va professional xonanda va sozandalarning birinchi avlodlari yetishib chiqdi.

«Estrada san'ati» shakllanishidagi ilk jarayon, bu san'at yo'nalishini ifoda etuvchi va amaliyatda keng qo'llanila boshlangan atamalar bilan bog'liqligini e'tirof etish lozimdir. Jumladan:

«Estrada» (fransuzcha ESTRADA, lotincha STRATUM) atamasi aslida taxtadan pol qurish yoki sahna qurish ma'nosini anglatadi. Shu bilan birga konstertlar o'tkazish uchun maxsus qurilgan sahna(joy)ni bildiradi;

1. «Estrada konsterti» – bir xil yoki turli xil san'at namunalari yig'indisidan tuzilgan konstert tomoshasi.

2. «Estrada san'ati» – musiqaning bir turi bo‘lib, ko‘p qamrovli, ko‘pincha yengil cholg‘u va vokal musiqa asarlar yig‘indisi.

3. «Estrada musiqasi» – turli mavzu va mazmunda bastalangan yengil, rang-barang, xilma-xil qo‘sish, cholg‘u musiqasi, musiqa san’atining bir turi.

4. «Estrada bastakori (kompozitor)» – estrada musiqasini bastalovchi ijodkorning nisbiy nomi.

5. «Estrada xonandasi yoki sozandasi» – ijrochi san’atkor, kasbiy mutaxassisning nisbiy nomi.

6. Estrada musiqa jamoalarining nomlari: «Estrada orkestri», «Estrada-simfonik orkestri», «Jaz orkestri», «Simfo-jaz orkestri», «Big-bend», «Estrada vokal-cholg‘u ansambl» va boshqalar.

7. «Pop musiqa» (inglizcha – popmusic) – G‘arb madaniyatida keng tarqalgan ommaviy musiqa tushunchasi. Uning turlari va uslubiy yo‘nalishlari mavjud: «Rok musiqa», «Xard-rok», «Disko», «Rep», «Xevi», «Blyuz» va boshqalar. Bu atamalar XX asrning 50-yillardan jahon musiqa olamiga kirib keldi. Hozirgi kunda “estrada qo‘sishchiligi” ommaviy musiqa madaniyatining yetakchi yo‘nalishi sifatida e’tirof etish lozim.

**O‘zbek estrada san’atining shakllanish va rivojlanish jarayonlari.** XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab xalq orasida «estrada», «estrada konsterti», «estrada san’ati» kabi atamalar iste’molga kirib kela boshladi. Bu Turkiston o‘lkasining shaharlariiga Rossiyadan gastrolga kelgan konstert guruqlarining chiqishlari bilan bog‘liq edi.

XX asrning 20-30-yillarida O‘zbekistonda tashkil etilgan «Ashula va raqs guruhi», «Mashshoqlar to‘dasi», «Musiqiy etnografik ansambl»larning xalq ommasiga ko‘rsatgan tomoshalarini «konstert», «estrada konsterti» deb e’lon qilish asta-sekin odad tusiga kirdi. Shu davrdan boshlab musiqachilar ahli va xalq orasida «konstert», «estrada», «ansambl» kabi atamalar xalq orasida ommalasha bordi. 1927-yili Ali Ardobus (Ibrohimov) Samarqand shahrida yosh havaskorlardan tuzgan «Ko‘k ko‘ylaklar» ansambl konstertini «estrada konsterti» deb e’lon qiladi.

O'zbekistonda zamonaviy milliy estrada san'atini tashkil etishi va rivojiga Tamaraxonim (1906-1987) o'zining ulkan hissasini qo'shadi<sup>49</sup>.

O'zbekistonda Yevropa uslubidagi estrada san'atining turli xillari XX asrning 40-yillardan boshlab amaliyotga kirib keldi. Bu asosan Moskva va Leningrad shaharlarida bunyodga kelgan estrada orkestrlariga taqlid qilgan holda, rusiyabon san'atkorlarning tashabbusi bilan respublikamizning yirik korxonalari madaniyat saroylarida paydo bo'ldi. 1940-yil Toshkent shahrida M. Jolkov rahbarligida «Myuzik xoll» estrada jamoasi va O'zbekiston davlat filarmoniyasi tarkibida 1942-yili estrada ansambil, 1944-yili N. Zinin rahbarligida «Simfo-jaz orkestri» tuzdi. Ushbu ansambllarning ijro dasturi asosan rus kompozitorlarining qo'shiq va cholg'u musiqalaridan tuzilgan edi.

<sup>49</sup> Tamaraxonim ijodi haqida qarang:

Tamaraxonim o'z ijrochilik ijodiy faoliyatini Hamza Hakiunzoda Niyoziy «Vostok» agitbrigadasida boshlaydi (1919). 1921-yil davomida Toshkent shahar rus balet maktabida tahlil oladi. 1922-yili Muhibdin Qoriyoqubov ashula va raqs ansambliha o'zbek musiqa san'atining yetuk namoyandalarini Usta Olim Komilov, Yusufjon qiziq Shakarjonov, Hojisiddiq Islomov, To'xtasin Jalilov, Abdugodir Ismoilov kabi ustozlar bilan birga faoliyat olib beradi. Tamaraxonim o'zbek va boshqa jahon xalqlarining qo'shiq, lapar, yalla va raqslarini o'rganadi va mohiuna ijrochisigi aylanmadan. 1924-1925-yillarda Moskva shahar teatr texnikumida tahlil oladi. 1925-yilda Parijda o'tkazilgan jahon xalqlari amaliy san'ati ko'rigining kontsert dasturida M. Qoriyoqubov bilan birga qatnashib, o'zbek xalq qo'shiq, lapar, yalla va raqs namunalarini namoyish qiladi. Tamaraxonim o'z ustozini Usta Olim Komilov bilan o'zbek san'atining rivojiga samarali ulush qo'shdilar. Ular hankorlikda xalq musiqa merosida mayjud qo'shiq, lapar, yallalarni betakror raqs harakatlari bilan uyg'unlashtirish, yakka raqslarini o'zbekona milliy ko'rinishda talqin etadirler. Tamaraxonim ijro etgan asarlar, uning repertuaridagi «O'yjon», «Bo'g'macha bilagrim», «Tanavor», «Oromijon», «Dilxiroj», «Farg'onacha jonon», «Yali-yali», «Gulyor», «Zavq», «Tasadduqman», «Ro'molim», «Yana nima gaplar bor», «Joney» yoki «Olmani oldim otganga», «Qoraqosh», «La'l Badaxshon», «lliila yor», «Sanan uforisi», bastakor P. Rahimovning «Jon, jon O'zbekiston», «Bizning davron» kabi qo'shiq, yalla, laparlar hamda «Zango», «Sadro», «Gul o'yin», «Pilla», «G'ayratli qiz», «Buxorocha raqs», bastakor Orif Garmon(Toshmatov)ning «Andijon polskasi» kabi raqslar xalq orasida keng onumalashdi. Ular 1930-yili Butunmijoq olimpiadasi, 1932-yili O'zbekistonda o'tkazigan olimpiyadasi, 1935-yili Londonda o'tkazilgan Jahon xalqlari raqs san'ati festivalida faol qatnashib, o'zbek musiqa san'atini dunyoga tanitildilar.

1940-yil O'zbekiston davlat filarmoniyasining tarkibida «Tamaraxonim» milliy estrada ansamblini tuzdi va o'z ishlini davom ettirdi.

XX asrning 60-70-yillarigacha mazkur ansambl estrada san'atini rivojlanishiga o'z hissasini qo'shdi. Uning ijro repertuarida 86 dunyo xalqlarining qo'shiq va raqsulari mayjud edi. Uning boy repertuaridan nafaqat xalq, balki zamonalvagi kompozitorlarning asarları o'rinni oldi. Masalan, «O'zbekcha vals», «Yaxshi gul» (P. Rahimov), «Go'zal Farg'onha» (M. Burhonov), «Mehi gul» (D. Soatqulov), «Toshkem piyolasi» (K. Jabborov), xalq qo'shiq va laparlaridan «Qo'qoncha», «Ertal bilan», «Marg'iloncha», «Yallana yorim», «Farg'onacha raqs», «Buxoroche raqs-2», «Xorazm lazgisi», «Tom boshida», turkmancha «Bibijon»; mo'g'ulcha «Arvin tavni sara» («Yangi oy»); gruzinchcha «Nikol to'y»; ozarbayjoncha «Doyyma dedi» («Eshikni tagirlatma»); qirg'izcha «Parizod oy»; armancha «Zangezur» va «Kim kelayapti»; tatarcha «Garmonchi suda, suda», va «Jizzikay», yoqutcha «Kurules Kyuregom» («Bahor kunlari»); qozoqcha «Qora to'rg'ay»; uyg'urcha «Qoshining qorasisi»; hindcha «Paglaxavar» («Shamol»), «Suriya asta» («Hosil») va «Mudji me dji» («Nilufar»); turkcha «Yor, yor omon» va «Gulizor»; indoneziyacha «Qaydasan qo'zichog'im», «Chando» («Aks-sado»); arabcha «Binti shalabiya» («Xunor ko'zar»); yaponcha «Andzu-Banday-san» («Banday tog'i»); afg'oncha «Shirin zabon», koreyscha «Yansando» («Cho'pon o'yini») va «Toradis» («To'quvchi»), ispancha «Torero» va boshqa xalqlarning qo'shiq va raqslarini tabiiy tarzda, an'anaviy milliy ijrochilik harakatlari musiqa ohangi bilan uyg'unlashtirib ijro etishiga erishdi.

Tamaraxonim o'z ijrochilik matorati, uslubi bilan estrada san'atidagi o'ziga xos maktab yaratdi.

1950–80-yillarda zamonaviy o‘zbek estrada san’atining rivojlanishi. XX asning 50-60-yillarda respublikamizda estrada jamoalari ishtirokida tomoshabinlar uchun konstert berish rasm bo‘la boshladi.

1954-yilda O‘zbekiston davlat filarmoniyasi tarkibida «Estrada kvarteti» ansamblini tuzdi. 1954-yili «O‘zbek davlat estradasi» tashkil etildi va barcha jamoalar uning tarkibiga o‘tkazildi. Asosiy maqsad estrada musiqani rivojlantirish edi.

1957-yilda, Moskva shahrida jahon yoshlari va talabalarining VI xalqaro festivali o‘tkazilish munosabati bilan Toshkentda «Yoshlik» milliy estrada ansamblini tuziladi. Ansambl ikki guruhdan iborat bo‘lib, “Milliy estrada ansambl” va “Estrada ansambl” deb nomlanadi. Ansamblga yetakchi sozandalar bilan birga B.Zokirov, L.Zokirova, N.Zokirov, F.Sodiqova, R.Nomozov, N.Eshonxo‘jayev kabi xonandalar taklif etiladi.

Jamoa ijro dasturida kompozitor E.Salixov va V.Dementevlar bastalagan yoshlik, do’stlik, tinchlik mavzusidagi qo‘shiqlari o‘rin oladi. O‘zbekiston yosh san’atkorlari o‘z san’atlarini jahon yoshlari oldida namoyish qildilar va festival diplomiga sazovor bo‘ldilar.

Festivalda ilk bor xonanda Botir Zokirov o‘zining estrada qo‘shiqlari bilan ishtirok etadi va tomoshobinlar e’tiboriga tushadi. Uning ajoyib, noyob tembriga ega, betakror ovozi barcha tinglovchilarni maftun qildi va estrada xonandaligi faoliyatini belgilab beradi. So‘ngra o‘zbekistonda estrada ijrochiligiga alohida e’tibor sifatida 1958-yili O‘zbekiston davlat estrada jaz orkestri tashkil qilinadi. Sh. Ramazonov badiiy rahbariligidagi kompozitor Anatoliy Kroll va dirijor Yevgeniy Jivayevlar faoliyatlarini boshlaydilar. Orkestr ijro repertuarida «Arabcha tango», afg'on xalq qo‘srig'i «O, karvonboshi», «Maro bebus» qo‘shilari, meksikancha «Xayr muhabbat», bir qator o‘zbek xalq qo‘shiqlari davrning ommabop qo‘shiqlariga aylanadi.

O‘zbek bastakorlari va kompozitorlari musiqa ijodiyotida, ayniqsa estrada janriga bo‘lgan e’tibor oshadi va xalq musiqasi changlariga asoslangan va zamonaviy qo‘siq va kuylar yaratiladi. Ushbu sohada bastakorlardan M.Mirzayev, E.Salixov, Sh.Ramazonov, Yan Frenkel, A.Nesterov, A.Malaxov, X.Izomov,

S.Yudakov, M.Burhonov, M.Ashrafiy, Ye.Jivayev kabi kompozitorlar o‘z asarlarini yaratadilar.

«Ey mehribonim», «Namanganning olmasi», «Qahramon qizlar», «Toshkent haqida qo‘sishiq», «Toshkent osmoni», «Muhabbat», «Maftun bo‘ldim» kabi qo‘sishqlar, orkestr ijrosi uchun «O‘zbekcha syuita», «Bahor», «O‘yinqaroq qiz», «Lirik vals» kabi asarlar shular jumlasidandir.

**O‘zbekiston teleradiosi qoshida simfo-jaz orkestrining tashkil topishi.** 1960-yillarda Moskva teleradio qo‘mitasi qoshida «Simfo-jaz orkestri»ning tuzilishi, estrada san’atini rivojlanishi jarayonida muhim ahamiyat kasb etdi va barcha qardosh respublikalarda ham «Simfo-jaz orkestrlari»ni shakllanishiga zamin yaratdi. O‘zbekiston teleradio qo‘mitasi tarkibida ham 1964-yilda kompozitor Enmark Salixov rahbarligida «Estrada orkestri» tashkil etildi. Kelgusi yildan boshlab torli va ayrim o‘zbek xalq musiqa cholg‘ulari ham kiritildi va «Estrada-simfonik orkestri» deb ataldi.

Estrada-simfonik orkestri ijodiy yo‘nalishi va janrlar qamrovi har tomonlama o‘zbek musiqa san’atining an’anaviylik va zamnaviylik jihatlar bilan boyita bordi. Yillar davomida orkestrning repertuari yangi, original qo‘sishq va cholg‘u asarlar bilan boyitildi. I. Akbarov, M.Burxonov, Sh.Ramazonov, A.Muhamedov, X.Izomov, E.Salixov, D.Zokirov, S.Jalil, E.Qalandarov, D.Saydaminovalar ijodida milliy musiqa an’analariga asoslangan va zamon ruhi bilan sug‘orilgan estrada yo‘nalishidagi bir qator qo‘sishqlar ijod etildi. I. Akbarovning «Gazli», «Qaydasan» (Turob To‘la), «Yor kel» (H.G‘ulom), «Ra’no» (S.Akbariy), «Qor yog‘ar» (S. Zunnunova); A.Muhamedovning «Bu oqshom» (M.Qoriyev), X.Izomovning «Ko‘zi xumor» (Sh. Shomahmudov); E. Salixonning «Umid» (A.Muxtor), «Qiz bola» (P.Mo‘min); D.Zokirovning «Ko‘chalar» (T.To‘la); M.Burhonovning «O‘zbekiston gul diyorum» (E.Vohidov); Sh.Ramazonovning «Sevdim dildan» (A.Isroilov); E.Qalandarovning «Yor-yor»; D.Soatqulovning «Mohigul» (H.G‘ulom) kabi asarlar shular jumlasidandir.

B.Zokirov, Yu.To‘rayev, L.Zokirova, N.Zokirov, E.Qandov, R.Sharipova, M.Shamayeva kabi xonandalar o‘zbek estrada musiqasining mohir xonandalari qatorida elga tanildilar.

Qo'shiqlar qatorida estrada yo'nalishida kompozitorlar tomonidan orkestr uchun maxsus asarlar yaratilishi ijodiyotda keng ommalashdi. A. Malaxovning o'zbek xalq kuylari asosida yaratilgan «Doira yulduzi» va «Shodlik» pyesalari, I. Akbarovning «Ketma nigor» qo'shig'i asosida yaratilgan «Fantaziya»si; A. Goncherenkovning «Sharq syuitasi», E. Salixovning «Final-pyesa»si shular jumlasidandir.

70-yillarning boshlariga kelib ommaviy musiqa san'atida yangi yo'nalish – bit-musiqa ommalasha boshlanadi. Orkestr jamoasini faoliyatini saqlagan holda Botir Zokirov va Yunus To'rayevlar hamkorligida «Toshkent myuzik-xoll» ni tashkil topdi. Toshkent myuzik-xolli o'z yo'nalishida adabiy mazmun asosida, dramatik spektakllar orqali qiziqarli, rang-barang konsert dasturlarini tuzish va jamoaviy tarzda namoyish etish maqsadlarini amalga oshiradilar. Teatrlashtirilgan ssenariylar asosida konsert namoyishlarini tashkil etadilar. Eng muhimi o'zbek estrada musiqasi ijrochiligi amaliyotida vokal-cholg'u ansamblari tuzila boshlanadi, estrada xonanda va sozandalaring yangi avlodi tarbiyalanadi. Myuzik-xoll yosh xonandalar uchun haqiqiy estrada muktabi vazifasini o'taydi. E. Salixov, A. Kalvarskiy, E. Qalandarov, G. Xoliqov kabi kompozitorlar bu yo'nalishda samarali ijod qiladilar. Estrada san'atida yangi guruuhlar va ijrochilar avlodi shakllanadi. Buning zaminida albatta o'zbek estrada simfonik orkestrlarining samarali faoliyati, respublikada zamonaviy estrada musiqa san'atini rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etdi.

**Estrada guruuhlari.** Shu davrga kelib o'zbek estra ijrochiligi san'atida jahon musiqa ijrochiligi andozalariga xos ijro an'analari kirib keladi. Jamoaviy ijro, ya'ni vokal-cholg'u ansamblari shakllanadi. Buning keng rivojlanishiga 1970-yili yosh san'atkorlardan tuzilgan "Yalla" vokal-cholg'u ansambling faoliyati alohida o'zining ta'sirini namoyon etdi. Estrada san'atida pop-musiqa, rok-musiqalarining vokal-cholg'u guruuhlari ustuvor o'ringa chiqib ketdi. «Yalla» vokal-cholg'u ansamбли o'zining ilk konsert dasturini namoyishidan boshlab tomoshabinlar e'tiboriga tushdi. Amaliyotda, yosh xonanda va sozandalarni birlashtirgan "Navo", "Sado", "Navruz", ..... kabi bir qator vokal-cholg'u

ansabllari tashkil etildi va o‘ziga xos yo‘nalishlarda faoliyat olib bordilar.

80-yillar o‘rtalariga kelib, ansambllar o‘rmini yakkaxon xonandalar ijodi egallaydi va o‘ziga xos ijodiy rivojlanish yangi bosqichi boshlanadi. O‘zbek estrada musiqasining ijrochilik amaliyotida milliy musiqaga yo‘naltirilgan, folklor musiqasiga asoslangan, mumtoz musiqasiga taqlidan ergashgan, kompozitorlik ijodida yaratilgan yangi namunalarga asoslangan qator yo‘nalishlar yuzaga keldi. Buni albatta, o‘zbek estrada musiqasining umumiy panoramasidagi turli milliy va professional yo‘nalishlar deb qabul qilish lozimdir.

### ***Botir Zokirov.***

Zamonaviy milliy estrada qo‘shiqchilik san’atining asoschilaridan biri, mohir xonanda. U 1936-yilning 26-aprelida Moskva shahrida san’atkorlar oilasida dunyoga keladi. Yoshlik davri ulug‘ ustozlari ko‘z oldida o‘tdi, ularning san’atlaridan bahramand bo‘ldi. 1953-1954-yili Toshkent davlat konservatoriyasida tahsil oldi.

1950-yillardan boshlab san’atda samarali faoliyat yurita boshlaydi va faoliyati davomida ulkan yutuqlarga erishadi. Zamonasining dongdor kompozitorlari bilan hamkorlik qilib so‘nmas asarlar ijro etadi va o‘zbek estrada musiqasi yo‘nalishida o‘z ijro uslubini yaratadi. Botir Zokirov ijrosida kompozitor Mutavakkil Burhonovning «Maftun bo‘ldim», Ikrom Akbarovning «Qaydasan», «Mahbubga» (T. To‘la), «Ra’no» (Sulton Akbariy), «Gazli», «Mahbubga», «Ketma, Nigor», «Qaydasan» (T. To‘la), «Eng gullagan yoshlik chog‘imda», «Xayolimda bo‘lding uzun kun» (H. Olimjon), «Qor yog‘ar» (S. Zunnunova), «Bahor fasli» (B. Zokirov), A. Muhamedovning «Bir oqshom» (S. Akbariy), Misr kompozitori Farid el Etrashning «Arabcha tango» va Meksika xalq qo‘shig‘i «Xayr muhabbat», X. Izomovning «Ko‘zi xumor» (Sh. Shomuhamedov), E. Solioxovning «Qurbaning bo‘lay» (Q. Mahsumov), «Sog‘indi jon» (E. Vohidov), «Umid» (A. Muxtor) kabi qo‘shiqlarni maromiga yetkazib ijro etgan. Qayd etish kerakki, ushbu faoliyati bilan Botir Zokirov o‘zbek estrada musiqasining asosiy yo‘llaridan birini kashf etadi va xalq orasida namuna sifatida keng ommalashadi.

Botir Zokirov o'zbek kompozitorlarining asarlari bilan birga chet el va ayniqsa sharq xalqlari estrada musiqa namunalarini alohida e'tibor bilan kuylaydi. Suriyalik bastakor O. Atxulla Sulaymonning «O'tgan kun uchun yig'layman», Eron xalq qo'shig'i «Meni o'p», bengal xalq qo'shig'i «Sening ovozingni hamma yoqda eshitaman», Livan xalq qo'shig'i «O, gul», fransuz tilida kompozitor J. Morening «Serste v noch» va E.Masitasanning «Pesn o druge», arabcha qo'shiq «O'tmishdan noliyman», afg'oncha qo'shiq «O, provodnik karavana», Yugoslavcha qo'shiq «Moviy ko'zlar», italyan xalq qo'shig'i «Yashasin sevgi» kabi qo'shiqlar shular jumlasidandir.

**Ra'no Sharipova.** O'zbekiston teleradiokompaniyasining Estrada-simfonik orkestrining yakkaxon xonandasini, sifatida faoliyat olib boradi. Xonanda R.Sharipova professional ijrochi sifatida ilk bor O'zbekiston kompozitorlari G'.Qodirovning «Ayajonim koymang» (S.Zunnunova), X.Izomovning «Kim o'zi?» (E.Rahim) Sh. Ramazonovning «Gulchi qiz» (M.Qoriyev) kabi estrada qo'shiqlarini ijro etib tinglovchilar e'tiboriga tushadi. So'ngra u yillar davomida kompozitorlar shoirlar bilan hamkorlikda turli mavzularda rang-barang qo'shiqlar yaratadilar. I.Hamroyevning «Rubobim» (O.Muxtor), Ye. Jivayevning «Dilbarim, dilkashim, dilbarim» (O.Muxtor), E.Shvarstning «Двое журавлей» (A.Faynberg); A.Berlinning «С новым годом» (R.Farhodiy), B.Umidjonovning «Oshiq» (Jomiy), «O, yulduzlar» (M.Qoriyev); D.Saydaminovaning «Seni o'ylayman» (M.Muhamedov); D.Ilyosovning «Seni o'ylaganda» (S.Zunnunova), kompozitor E.Qalandarovning 30 dan ortiq qo'shiqlarini ijro etdi.

O'zbekiston teleradiokompaniyasining Estrada-simfonik orkestri ijodiy faoliyati keng ommalashadi. Bir qator xonandalar ijro amaliyotida estrada xonandalari sifatida dovriq qozonadilar. M. Shamayeva, R. Sharipova keyinchalik Pavel Borisov, Nadejda Churadayeva, Ra'no Sobirova, Malika Alimova, Leonid Makeyev, Kozim Qayumov va Shaxboz Nizamutdinov kabi xonandalar samarali faoliyat olib bordilar. Orkestrning birinchi rahbari kompozitor E. Salixov, so'ng Yevgeniy Jivayev, Doni Ilyosov, Anor Nazarov va 1996-yildan buyon kompozitor Alisher Ikromov rahbarlik qilib kelmoqda.

«Yalla» ansamblı (VIA) 1970-yili tashkil qilindi. 1971-yilning 9-fevralida «Yalla» vokal-cholg' u ansamblı o'zining ilk konsert dasturini tomoshabinlarga havola qildi. «Yalla» ansamblı repertuarida qayta ishlangan o'zbek xalq qo'shig'i «Yallama-yorim», bastakor Orif (garmon) Toshmatovning «Andijon polkasi» (Sayyor) va yosh kompozitor E.Salixovning «Qiz bola» (P.Mo'min) qo'shiqlari tomoshabinlar e'tiborini o'ziga tortdi va xalq orasida keng ommalashdi. Tez orada «Yalla» o'zining yorqin ijrochilik mahorati qiyofasiga, o'ziga xos ijodiy uslubiga ega bo'ladi. Ansambl repertuarini boyitishda qo'shiqning milliy, sharqona bo'lishiga katta e'tibor bergenliklari sababli, barcha yoshdag'i tomoshabinlar ularning konstert dasturlarini qizg'in olqishlar bilan kutib oldilar.

1972-yili «Yalla» vokal-cholg' u ansambliga Farrux Zokirov badiiy rahbar etib tayinlangandan keyin ansamblning mavqeい yanada ortdi. Xalq orasida unutilib yuborilayotgan an'anaviy o'zbek xalq qo'shiqlaridan «Yallama yorim», «Boychechak», «Handalak», «G'ayra-g'ayra», «Qilpillama», «Ganji qorabog'», «Sumalak», «Omonyor», «Torimning siri» (T.To'la) kabi qo'shiqlarga ansambl yangicha yondoshadi va zamonaviy ruhda tarqin etadi. F.Zokirov yaratgan «Andijonga boray dedim», «Men al-Xorazmiy», «Bolalik taronasi» (A.Xo'jayev), «Uchquduq» (Yu.Ertin), «Shahrisabz», «Yurt ishqida yonaman», «Majnuntol», «Sendan go'zali yo'q» kabi original qo'shiqlarni mohirlilik bilan ijro etadi. O'zining faoliyati bilan, milliy an'analarni zamonaviy estrada talqinida alohida uslub yaratganligi va ijroda o'rnak bo'lganligi sababli o'zbek estradasining yetakchi jamoasiga aylanadi.

1979-yildan buyon «Yalla» ansamblida O'zbekiston xalq artisti Farrux Zokirov rahbarligida, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Aliyev Abbas, To'xtayev Javlon, To'laganov Alisher va musiqa rahbari Qo'ziyev Sarvar kabi yuqori malakali san'atkorlar ijod qilib kelmoqdalar.

Yosh kadrlar tayyorlash uchun 1978-yili «O'zbekkonsert» qoshida ikki yillik estrada-sirk san'at studiyasi, Hamza nomidagi Toshkent davlat musiqa bilim yurtida estrada bo'limi tashkil etildi. Mazkur estrada bo'limi 1990-yili bilim yurti tarkibidan chiqarildi va maxsus Estrada-stirk bilim yurti tashkil topdi. 1996-yilda esa

O'zbekiston davlat konservatoriyasida estrada fakulteti tashkil qilindi. 1977-yilning ikkinchi yarmida O'zbekiston davlati tomonidan har yili estrada san'ati ijrochiligi bo'yicha ko'rik-tanlov o'tkazish to'g'risida qaror qabul qildi. Qarorga asosan 1978-yildan boshlab har yili estrada san'ati bo'yicha respublika tanlovinini o'tkazilib kelinadi.

### *Kozim Qayumov.*

«Navo» estrada ansamblining yana bir yakkaxoni O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Kozim Qayumov o'ziga xos, betakror, shirali ovozi bilan el-yurtga tanildi.

Xonanda ijro etgan qo'shiqlarning orasida I.Akbarovning «Omad lahzasi», E.Shiryayevning «Yoshligim» (H.Olimjon), A.Rasulovning «Jonona» (P.Mo'min), V.Baramikovning «Charxpalak» (Sh.Boshbekov), D.Ilyosovning estrada-simfonik orkestr uchun qayta ishlagan o'zbek xalq qo'shig'i «Yor keladi», «Yovvoyi tanavor», «Oromijon» va h.k.

### *Nasiba Abdullayeva.*

1978- yili Samarqand shahrida «Zarafshon» havaskor estrada ansamblida estrada xonandaligi faoliyatini boshlagan. 1979-yili «Samarqand» nomli professional estrada ansamblı bunyodga keldi. Mazkur ansambl 1980-yili Samarqand viloyat filarmoniyasiga 1994-yildan buyon ansambl Toshkentda faoliyat yutirmoqda. Estrada ansamblı uchun aranjirovka qilingan xalq qo'shiqlaridan: «Bari gal», «Tanavor», «Lazgi», «Sumbula», «Aylonay», «Dodarakam» (tojik xalq qo'shig'i), «Demadimmi» (turk xalq qo'shig'i); kompozitorlar qo'shiqlaridan: U.Jivayevning «Samarqand» (H.Muhammad), N.Musayevning «Azizim onam» (Sh.Husanov), E.Salixovning «Sevgi bahori» (H.Muhammad), M.Leviyevning «O'rik gullaganda» (H.Olimjon), A.Rasulov musiqasi va so'zi «Yoqasiz», «Muhabbat bormi dunyoda», «Yallama deyman» (I.Jiyanov), A.Xolmurodovning «Ko'rgim kelar», «Umr bahori», «Taqdir qori» (B.Bobomurod), N.Muhamedovning «Qaldirg'och» (K.Siddiqxo'jayev), Sh.Tursunovning «Yaxshi odamlar» (M.Otajonova) kabi dirlab o'ziga ulashib kelmoqda.

Davlat rahbarining estrada san'atini rivojlantirish to'g'risidagi Farmoniga asosan «O'zbekkonser» negizida «O'zbeknavo» gastrol-

konsert birlashmasi tashkil topdi. Bu tashkilot zimmasiga O‘zbekiston xalqlarining musiqiy merosini, zamonaviy musiqa hamda raqs san’atlarini rivojlantirish, eng yaxshi yutuqlarni asrash va targ‘ibot qilish kabi ulkan vazifalar topshirildi. 1995-yildan boshlab har yili «O‘zbekiston Vatanim manim» qo‘sish festivali, 1997-yildan boshlab har ikki yilda Samarqand shahrida «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivali o‘tkazish, shuningdek, 1999- yili «Sado» respublika professional yangi qo‘sishlar festivali, 2000-yili bolalar san’at festivallari va har yili «Navro‘z» bayramini nishonlash to‘g‘risida qabul qilingan qarorlar amalda joriy etilmoqda.

O‘zbek estrada san’atini rivojlantirish jarayoniga tamal toshini qo‘ygan, kelgusida yuksak darajaga yetkazgan namoyandalar – Tamaraxonim, Botir Zokirov, Ra’no Sharipova, Yunus To‘rayev, Bahrom Mavlono, Staxan Rahimov, Farrux Zokirov, Mansur Toshmatov, G‘ulomjon Yoqubov, Kozim Qayumov, Shaxboz Nizomiddinov, Kumush Razzoqova, Nuriddin Haydarov, Nasiba Abdullayeva, Sultonposhsha O‘dayeva va boshqa estrada xonandalarining boshlagan ishlarini yangi avlod estrada san’atkorlari – Ilhom Farmonov, Ravshan Namozov, Azim Mullaxonov, Muhriddin Xoliqov, G‘iyos Boytoyev, Mavluda Asalxo‘jayeva, Ravshan Komilov, Shahlo Rustamova, Ozodbek Nazarbekov, Gulsanam Mamazoitova, Toshpo‘lat Matkarimov Tohir Sodiqov, Dilfuza Rahimova, Sevara Nazarxon, Izzatilla Ibrohimov, Dilnoza Ismiyaminovalar xizmat qilmoqdalar. Shular qatorida Rashid Xoliqov rahbarligidagi «Shahzod», Muhammadjon Ro‘zimuxamedov rahbarligidagi «Shofayz», Doniyor Mamedov rahbarligidagi «Bayram», Abdulla Shomag‘rupov rahbarligidagi «Nola», Tohir Sodiqov rahbarligidagi «Bolalar», M.Toshmatov tashkil qilgan «Setora» guruhi, Umid Shaxobov rahbarligidagi «Marjon» guruhi, Sevara rahbarligidagi «Sidriz» va «Xo‘ja», «Toj», «Sarbon», «Diyor», «Bunyod», «Safar» kabi estrada guruhlari zamonaviy estrada san’atining taraqqiyotiga munosib hissalarini qo‘shdilar.

### *Yulduz Usmonova.*

XX asrning 90-yillarida o‘zbek estrada san’ati olamiga xonanda, O‘zbekiston xalq artisti Yulduz Usmonova o‘zining keng nafasi, noyob ovozi va birgina o‘ziga xos ijrochilik yo‘li bilan kirib keldi.

Shuning uchun bo'lsa kerak uning turli mavzularda ilk bor yaratgan «Mayda-mayda», «Hamrozz» kabi qo'shiqlari bilan shoir I.Jiyanov so'zlariga bastalagan «Tanhoman», «Nilufar gulim», «Yor bo'lasizmi», «Aylol» (Sh.Salimova), «Aylol oshiq bo'lsa» (B.Bobomurod) kabi lirik-dardli qo'shiqlar bilan birga ijtimoiy-siyosiy mavzuda yaratilgan «Hech kimga bermayman seni O'zbekiston», «O'zingdan qo'ymasin xalqim», «Xalq bo'l edim» (Muhammad Yusuf), kompozitor Anor Nazarov musiqasi «Men nechun sevaman O'zbekistonni» (Abdulla Oripov) kabi qo'shiqlari xalq orasida keng ommalashdi.

O'zbek estrada san'atining shakllanishida, o'ziga xos mazmun va mohiyat kasb etishi hamda janr sifatida alohida e'tirof etilishida bir qator kompozitorlarning yaratgan asarlari va ayrim xonandalarning betakror talqini ibratlari darajada yosh avlod estrada xonandalari va ijodkorlari uchun namuna bo'ldi. Jumladan, kompozitor M.Burxonovning E.Vohidov so'ziga bastalagan "Go'zal diyorim" qo'shig'idir. Asarni o'z zamonasining dongdor xonandasini Yunus To'rayev tomonidan ijro etilgan. Qo'shiqning o'ziga xos ohangi, tinglovchini qalban jo'shqinlikka va shodon ruhiy olamga chorlaydigan xususiyati bilan tinglovchini o'ziga jalb etadi. Yangicha topilgan ohang-ritmik tebranish va jozibador cho'zma iboralar bilan yo'g'rilgan bu lirik qo'shiqda go'zal Vatanimiz kuylandi:

### 1-misol. «Gul diyorim»

*Allegro moderato, con anima*

Ба - ри ба - хор яш - нар бу ди - ёр бахт сен - га

6

до им ёр.

Бог - ла - ринг гул - га-кон      до - и - мо бул - гин о-мои.

Эй гул- шан - ма - кон      гул ли-в - рим,      мх-ри-бо - ним,      сен о - бод ба-

хор      гул ди-в - рим,      жо - ча- жо - ним,      Ўз-бе - кис-тон гул ди - ёр

6

Kompozitor M.Burhonovning ajoyib lirik qo'shiqlari orasida shoir Turob To'la she'riga bastalangan «Maftuningman» nomli lirik qo'shiq ilk bor simfonik orkestr jo'rligida shu nomdag'i badiiy kinofilmda traktorchi-xonanda Abdulla Abduraufov (kadr orqasida) ijrosida ijro etildi va xalq e'tirofini hozirgacha qozonib kelmoqda.

Kompozitor Ikrom Akbarov o'zbek estrada musiqa sing'eri ulkan hissasini qo'shgan ijodkordir. Uning asarlarida o'ziga xoslik bilan birga, rosmana o'zbek milliy estradasining asl qiyofasi mavjudligini e'tirof etish mumkin. «Ra'no» (S.Akbariy), «Mahbubga», «Ketma, Nigor», «Qaydasan», «Gazli» (Turob To'la), «Yor kel», «Qo'shchinor» (H.G'ulom), «Qor yog'ar» (S.Zunnunova), «Bahor fasli» (B.Zokirov), «Azizim» (O.Rashid), «Lolazor chorlaydi» (J.Jabborov) kabi qo'shiqlari shular jumlasidandir. Ayniqsa uning S.Akbariy so'ziga yaratgan «Ra'no» qo'shig'i estrada ijrochilarining etalon namunasiga aylangandir.

XX asarda G'arbiy Yevropa va Rossiya estrada san'ati ta'siri ostida O'zbekistonda ham azaldan amaliyotda keng ommalashib kelgan ommaviy musiqaning yangi yo'nalishi, ya'ni estrada san'ati bunyodga keldi, shakllandi, rivojlandi, ommalashdi va ijodiy yutuqlarga erishdi. O'tgan yillar davomida respublikamizda turlituman havaskorlik va professional yo'nalishlaridagi estrada guruhlari shakllandi va faoliyat olib bordi. Ayni paytda ularning yo'nalishlari zamon zayli bilan kengaymoqda. Butun jahon miyosida keng ommalashgan REP, ROK, JAZ va POP yo'nalishlarida munosib ijod etayotgan yakka ijrochilar va guruhli ansamblar o'z ijodiy yo'llarini topishga harakat qilmoqdalar. Bu borada yetarlicha yutuqlarni qo'lga kiritib jahon sahnalarida nufuzli o'rnlarni egallab kelmoqdalar.

**Tayanch so'zlar:** estrada, POP, ROK, Jaz, jazorkestri, estrada simfonik orkestr, yakkanavoz, yakka xonanda, VIA, milliy estrada,

### **Mavzu bo'yicha savollar:**

1. Jahon estrada san'ati tarixidan.
2. O'zbek estrada san'atining rivojlanish jarayoni.
3. Zamonaviy estrada san'ati o'zbek kompozitorlari ijodiyotida.
4. O'zbek estrada san'ati tarixida Botir Zokirovning o'rni.
5. VIA nima?
6. Qanday estrada yo'nalishlarini bilasiz?
7. Milliy estrada deganda nimani tushunasiz?
8. Zamonaviy o'zbek estradasida ommalashgan janrlarni gapirib bering.

### **Mavzu bo'yicha topshiriqlar:**

1. Jahon estradasidagi yetakchi janrlarni aniqlang.
2. O'zbek estrada san'ati qachon yuqori bosqichga ko'tarildi va ilk chiqishlar qanday edi?!
3. Estrada musiqasining ijodkorlari kimlar. Ular haqida ma'lumot bering.

4. Zamonaviy estrada san'ati deganda nimani tushunasiz, bu borada tavsiyif bayon yozing.
5. Botir Zokirov ijodixususidamaqola yozing.
6. VIA bilan yakka ijroni ijobiylar va salbiy tomonlarini izohlab bering.
6. Estrada yo'nalishlarini ta'riflar, bayon eting.
7. Milliy estradani estradan farqi va umumiylilik jihatlarini aniqlang va sanab o'ting.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Советский джаз. Советский композитор. –М.: 1985.
2. А.Медведев ва О.Медведева. Советский джаз, проблемы, события, мастера. Советский композитор. –М.: 1987.
3. O'zbekiston san'ati. «Sharq» nashriyoti. –T.: 2001.
4. O'zbeknavo. Ustozlar, yulduzlar, shogirdlar. «Cho'lpion» nashriyoti. –T., 2000.
5. «Taron», jurnal № 10 (17). T., 2002.
6. M.Qoriyoqubov nomidagi O'zbek davlat filarmoniyasi va «O'zbekkonsert» birlashmasining arxivi.
7. “Sovet O'zbekistoni san'ati”, “San'at”, “Nafosat”, “Guliston” jurnallaridan maqolalar.

## O'ZBEKISTON MUSIQASHUNOSLIGI

### Mavzu rejasi:

1. O'zbek xalq musiqa merosini o'rganish, namunalarini zamonoviy nota yozuviga olish tarixidan.
2. O'zbekistonda etnomusiqashunoslilik fani shakllanishi va rivojlanishi.
3. Manbashunoslik fani, nazariy, tarixiy, tanqidiy, sharqshunoslik kabi sohalarning rivojlanishi.
3. Yangi davr musiqiy jarayonlari (1990-yillar). Siyosiy-ijtimoiy va madaniy hayot jarayonlari.
4. Zamonaviy professional musiqa janrlarining rivojlanishi. Respublikamizda «O'zbekiston – Vatanim manim» qo'shiq bayrami, turli qo'shiq ko'rlik-tanlovlarinining o'tkazilishi. «Sharq taronalari», «Ilhom - XX», «Simfonik musiqa» va boshqa xalqaro miqyosdagi musiqa festivallarining o'rni va ahamiyati.

Musiqashunoslilik sohasi uzoq o'tmishdan boshlab o'zining kasbiy omillari asosida shakllanib, asrlar osha muayyan an'analari asosida rivojlanib kelgan. O'tmishda yaratilgan musiqiy risolalar, musiqiy tadqiqotlar har bir xalqning musiqiy merosini o'rganish borasidagi asosiy asarlar sifatida tarixga muhrlangan. O'zbekiston musiqashunosligrining ham musiqa ijodiyoti va ilmiy o'rganilishi borasida shakllangan mavzulari, ilmiy tadqiqot tarmoqlari, ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy yo'nalishlari shakllanganki, ularning har bir yo'nalishlari bo'yicha bir qator musiqashunos olimlar o'z faoliyatlarini olib borganlar. Shu nuqtayi nazardan O'zbekiston musiqashunoslilik maktabi namoyandalarining olib borgan ilmiy ijodiy yo'nalishlarini quyidagicha belgilash o'rnlidir:

1. Musiqa folklorshunosligi.
2. Manba'shunoslilik.
3. Musiqa tarixi (bastakorlik).
4. Musiqa nazariyasi.

5. Organalogiya (Cholg'ushunoslik).
6. Musiqa ijrochiligi, maqomshunoslik.
7. Musiqali ikonografiya.
8. Musiqiy sharqshunoslik.
9. Musiqiy etnografiya.

Musiqashunoslikning har bir yo'nalishi alohida tarmoq sifatida muhim bo'lsada, ularning bir-biri bilan bog'liqlik darajasi ulkandir. Zero, musiqa san'atining negizida asosan sado bilan bog'liq jarayon, ya'ni musiqaning o'zi asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Shu bois, musiqaning kelib chiqishi, tarixi, nazariy asoslari, ijrochilik masalalari, cholg'ular rivoji, ijrochi namoyandalar hamda ijodkor-bastakorlar bilan bog'liq jabhalari bir butun amalning turli bo'laklari sifatida ahamiyatli ekanligini e'tirof etish joizdir.

O'zbek musiqashunosligida bir qator tadqiqotlar olib borgan va kerakli manbalarni meros qilib qoldirgan Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Najmuddin Kavkabiy, Zaynullobiddin Husayniy, Darvesh Ali Changiy va Abdurauf Fitrat kabi musiqashunos allomalarining ilmiy merosi ushbu yo'nalishning asosini tashkil etadi. ularning yaratgan musiqiy risolalari, musiqa haqidagi fikrlari o'zbek musiqasi tarixini bilish, anglash va o'rganish uchun asosiy manbalar sifatida xizmat qilib kelmoqda.

O'tmish musiqashunosligida yuzaga kelgan an'analarida o'zga xos tartib yoki qonuniyatlar shakllanganligi va ushbu qoidalalar asosida risolalar tarkiblashgan hamda shunga xos bayon etilgallagini guvohi bo'lamiz. Unga ko'ra asosiy maqsad va vazifalar, musiqaning tarixiy, nazariy, ta'lifiy (kompoziston) usul, cholg'ular va namoyandalar haqida bayon etilgan tazkiraviy yondashuvlar shaklida tarkiblashtirilgan. Har bir risolada avvalo musiqashunoslikning o'tmishdagi holati va zamona musiqa san'ati va ilmiy tavsifi hamda ijodiy munosabatlarni bayoni shaklida zikr etilgan.

O'zbekiston musiqashunosligining XX asr boshlaridagi holati, aynan o'zbek xalq musiqa merosini o'rganish, amaliyotda mavjud bo'lgan xalq va mumtoz musiqa merosi namunalarini yig'ish va zamonoviy nota yozuviga olish bilan boshlanadi. Ya'ni XX asr boshlarida xalq musiqiy folklorini va mumtoz musiqa namunalarini o'rganish borasida alohida harakatlar boshlanadi. Bunga rus musiqashunos olimlari V.Mironov, V.Belyayev, V.Uspenskiy,

Yu.Kon va E.Romanovskayalar o‘zlarining ilk munosabatlari bilan ish boshlovchilarga aylanadilar. Ular o‘tmish musiqashunoslarining olib borgan ilmiy-nazariy tadqiqotlarini, amaliy jarayoni, ya’ni bevosita amaliyotdan o‘rganish ishlarini boshlaydilar. 1918-yili Toshkentda Xalq konservatoriysi tashkil etiladi va aynan xalq musiqa merosini o‘rganish bo‘yicha amaliy harakatlar boshlanadi. Avvaliga respublikaning turli vohalariga, (Farg‘ona vodiysi, Buxoro va Xorazm) folklor ekspedistiylarini tashkil etib, xalq musiqa namunalarini yozib olishga erishadilar. O‘zbek musiqa merosiga bag‘ishlangan bir qator turkum kitoblar tnashr etiladi. Jumladan: N.Mironov “Музыка Узбеков” (1930) va “Музыка Таджиков” (1931), “Песни Бухары Ферганы и Хивы”nota to‘plami, E.Romanovskaning “O‘zbek xalq qo’shiqlari” 2 tomlik (1939), “Xorazm cholg‘u yo’llari” (1939) va “Статьи и доклады записи музыкального фольклора”(1957).

Ushbu olimlar O‘zbekiston musiqashunoslik sohasini nafaqat boshlovchilari, balki milliy musiqashunoslik mакtabini tarbiyalanishida ham ustozlik vazifasini o‘tgan. I.Akbarov, X.Muhamedova, M.Xarratov va Yu.Rajabiylar ilk o‘zbek milliy musiqashunosligrini qaldirg‘ochlari hisoblanadi. 30-yildan boshlab ularning o‘zbek musiqa namunalarini notaga olish amallari keskin rivojlanadi va 50-yillarga kelib, bir qator yirik to‘plamlar (Antalogiya) shaklida nashr yuzini ko‘radi. Ularning ichida 1955-59-yillarda “O‘zbek xalq musiqasi” nota to‘plamning 9 ta jildi nashr etilgan. 1-5 Yu.Rajabiy yozuvida, 6,7 M.Yusupov yozuvida, 8,9 O.Xalilov yozuvida musiqashunoslari I.Akbarov, Yu.Kon izohlari bilan chop etilgan. Bunga albatta 1936-yili Toshkent davlat konservatoriyaning ochilishi sababdir. Chunki, unga bevosita yosh musiqashunoslarni tarbiyalash asosiy maqsad qo‘yilgan. Konservatoriyaning birinchi qaldirg‘och musiqashunoslari orasida I.Akbarov va T.Vizgolar kelgusida yetuk musiqashunos olimlar sifatida faoliyat ko‘rsatganlar. Bu albatta O‘zbekistonda etnomusiqashunoslik fani shakllanishi va rivojlanishi bilan bog‘liq jarayonlar hisoblanadi.

1928-yili Samarqandda tashkil etilgan “Xalq musiqasi va xoreografiya” ilmiy tadqiqot instituti tashkil etiladi va samarali faoliyat olib boradi. Ushbu institut ilmiy tadqiqot ishlaridan boshqa, ilk faoliyat yillarida musiqa o‘quv maskanini vazifasini bajargan.

Musiqa san'atining yetuk namoyandalari ustozlik qilib, yosh kompozitorlar tarbiyalangan. 1933-yili ushbu dargoh Toshkentga ko'chiriladi. Va 1939-yildan San'atshunoslik ilmiy tadqiqot instituti maqomiga ega bo'ladi. Ushbu dargoh o'zbek musiqashunoslarini tarbiyalashda alohida ahamiyat kasb etg'anligini e'tirof etish lozimdir.

1960-yillarda o'zbek musiqashunoslik maktabi to'la shakllanadi va barcha yo'nalishlar rivojlanadi. Bunga asosiy sabab musiqashunoslarning yangi avlodni tarbiyalanib, olimlar qatoridan joy oladilar. Jumladan N.Yanov-Yanovskaya, S.Galistkaya, S.Zakrijevskaya, L.Koval, E.Solomonova, Yu.Plaxov, A.Karalksiy va h.k. Musiqashunos I.Rajabovning maqomshunoslik borasida olib borgan ilmiy tadqiqotlarini alohida e'tirof etish lozimdir. Olimning manbashunoslikda va maqomshunoslikda olib borgan ishlari natijasida 1963-yili "Maqomlar masalasiga doir" monografiyasi nashr etildi. Ushbu amal maqomlar borasidagi yetuk ilmiy manba sifatida e'tirof etildi.

O'zbek musiqa merosining o'rganish va tadqiq etish borasida, musiqashunos olim F.Karomatovning faoliyati alohida sahifa sifatida o'zbek musiqashunosligiga kirib keldi. U avvalo o'zining tadqiqotlarini olib borish bilan birga, o'zbek musiqashunoslik maktabini olib borgan faoliyati respublikada o'ziga xos nufuzi bilan o'zini namoyon etdi. F.Karomatov o'zbek musiqa merosini o'rganish bo'yicha bir qator ilmiy ishlarni amalga oshirishga muvaffaq bo'ladi. Uning muharrirligi ostida 1961-1966-yillari "Shashmaqom" nota yozuvida alohida kitoblar shaklida nashr etildi. Musiqiy namunalar esa 25 ta plastinkalar ko'rinishida "Maqom ansambl" talqinida nashr etildi. F.Karomatovning o'zbek folklor namunalarini antologiyasini nashr etilishi, xalq musiqa merosini o'rganishdagi yangi sahifani ochib beradi.

1972-yil F.Karomatov va A.Jabborovlar tashabbusi bilan Toshkent davlat konservatoriyasida "Sharq musiqasi" kafedrasи tashkil etildi. Tez orada ushbu yo'nalish bo'yicha maqom ijrochiligi, ilmiy tadqiqoti va pedagogik muammolar o'z yechimini topib ilmiy tadqiqot sarhatlari Sharq mamlakatlari musiqa madaniyati hisobiga ancha kengaydi. Ushbu soha bo'yicha merosni o'rganish va ijro etish hamda ilmiy o'rganish ishlarida bir qator yutuqlarga erishildi.

1978 yildan boshlab Samarqand shahrida (keyingilari 1983, 1987yy.) Xalqaro Musiqashunoslar Simpoziumi o'tkaziladi va bir qator Sharq va G'arb mamlakatlaridan yetakchi olimlar va ijrochilar kelib "An'ana va zamonaviylik" mavzuida ilmiy anjuman o'tkaziladi. O'zbek musiqashunoslik maktabida T.G.ofurbekov, R.Abdullayev, O.Matyoqubov, A.Hoshimov, J.Rasultoyev, A.Jumayev, O.Azimova, R.Yunusov, A.Nazarov kabi olimlar pleyadasi samarali faoliyatlarini boshladilar. Shu davrga kelib o'zbek musiqashunoslik maktadi mutaxassislar tomonidan butun sharqda eng nufuzli ekanligi e'tirof etilgan edi. (Bu albatta o'tkazilgan simpoziumlarda o'zini namoyon etgan edi).

XX asrning oxirgi yillarida o'zbek musiqashunoslik maktabi butun dunyo musiqa san'atining barcha yo'nalishlarida faoliyat olib boradigan musiqashunoslar bilan ta'minlandi. G'arb musiqasining klassik, romantik va undan keyingi yo'nalishlarini tadqiq qiladigan tarixchi musiqashunoslar tarbiyalandilar va munosib faoliyatlarini davom ettirmoqdalar.

O'zbek musiqashunoslik maktabida quyidagi musiqashunos olimlar o'z yo'nalishlari bo'yicha muvaffaqiyatli faoliyat olib bormoqdalar:

1. Musiqa folklorshunosligi bo'yicha deyarli barcha musiqashunoslar ma'lum darajada ushbu yo'nalishga murojaat etishlari muqarrar, Chunkt, xalq musiqasi barcha musiqa ijodiyotining manbai sifatida xizmat qilib kelgan. Xususan – F.Karomatov, R.Abdullayev, O'.Toshmatov va h.k.

2. Manbashunoslik yo'nalishi bo'yicha I.Rajabov an'anasini davom ettirayotgan musiqashunos olimlar – D.Rashidova, A.Nazarov, O.Zokirov, A.Jumayev, O.Matyoqubov, I.Dadajonova.

3. Musiqa tarixi yo'nalishi bo'yicha risolalar, nota to'plamlari, monografiyalar, tazkiralar bitgan musiqashunos olimlar – F.Karomatov, T.Vizgo, T.G.ofurbekov, X.G.ofurbekova, A.Nazarov, Yu.Nosirova, Z.Mirhaydarova, I.Gulzarova, Sh.Ganixanova.

4. Musiqa nazariyasi fanlari bo'yicha – O.Azimova, F.Muxtarova.

5. Organalogiya (Cholg'ushunoslik) bo'yicha T.Vizgo, F.Karomatov, J.Rasultoyev.

6. Musiqa ijrochiligi, mumtoz musiqa va maqomshunoslik bo'yicha I.Rajabov, O.Matyoqubov, A.Xoshimov, R.Abdullayev, R.Yunusov, O.Ibrohimov, S.Begmatov, I.Ganiyeva.

7. Musiqali ikonografiya –F.Karomatov.

8. Musiqiy sharqshunoslik bo'yicha – A.Jumayev, I.Ganiyeva.

O'zbek folklorshunoslik fanini rivojlantirishda XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yashab ijod etgan A.Eyxgorn, N.Mironov, A.Fitrat, V.Uspenskiy, E.Romanovskaya kabi folklorshunos olim-larning xizmati katta. Ayniqsa A.Fitratning "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" risolasi, V.Uspenskiyning davrining maqom bilimdonlari Ota Jalol Nosirov va Ota G'iyos Abdug'anilardan yozib olib, 1926-yili nashr etgan "Shashmaqom" nota to'plamlari haligacha soha rivoji yo'lida xizmat qilib kelmoqda. Ularning izdoshlari hamda folklor musiqalarini zamonaga mos o'rganib rivojlantirgan Il.Akbarov, X.Muhamedova, M.Ahmedov, K.F.Karamatov kabi olimlar ijodiy faoliyatilari davomida xalq musiqa merosini o'rganib ta'lim uchun va ijrochilik mezoni uchun bir qator kitoblar yaratdilar va musiqachilar uchun nota to'plamlarini nashr etdilar. Ularning ilmiy tadqiqot ishlarining asosida ham bevosita xalq sozanda va xonandalar bilan muloqotda bo'lib, ular haqidagi ma'lumot va amaliyot iste'molda bo'lgan asarlarni yig'ib, nota turkumlari ko'rinishida nashr etish bo'yicha bir fator amallar amalgalashirilgan. Ayniqsa, folklorshunoslikka bag'ishlangan risola va kitoblar, keyingi davrda ko'plab yaratilganligini qayd etib o'tish lozimdir.

Ma'lumki, har bir sohani o'zlashtirish o'tmish an'analarni idroklash bilan boshlanadi. Ajdodlar ilmiy merosini o'rganishda yozma manbalarning ahamiyati kattadir. Manbashunoslik bo'yicha yirik tadqiqotlar olib borgan maqomdon I.Rajabov, O'rta asr musiqashunos olimlari Kafkabiy, Husayniy, Jomiy, Changiylar tomonidan yaratilgan bir qator musiqiy risolalarni tarjima qilib, monografik asarlarida taqdim etganligini ham qayd etish lozim.

Musiqa shunoslik sohasining rivojida an'ana tarzida o'tkazishi rasm bo'lgan musiqiy festivallar, simpozium va konferensiylarning ahamiyati buyukdir. Avvalo bu jarayonlar og'zaki an'analarni bilan tanishish bo'lsa, ikkinchidan zamonaviy ijod uchun asosiy

zaminni yaratish bilan xarakterlanadi. Shu bois xalqaro miqyosda o'tkazilish an'anaga aylangan «Sharq taronaları», «Ilhom - XX», «Simfonik musiqa» anjumanlari har tomonlama ijobiy ta'sirga egadir.

**Tayanch so'zlar:** musiqashunos, folklorshunos, manbashunos, musiqa nazariyasi, musiqa tarixi, organologiya, cholg'ushunoslilik, ikonografiya, mumtoz musiqa,

### **Mavzu bo'yicha savollar:**

1. Musiqashunoslik sohasini izohlab bering?
2. Musiqa risolalarini bitgan o'tmish allomalarini sanab o'ting?
3. O'zbekiston musiqashunosligini shakllanish davri va namoyandalari xususida so'zlab bering?
4. Musiqashunoslar 20- 40-yillarda qanday kitoblar yozgan?
5. O'zbek musiqashunoslik sohasini yo'nalishlarini aytib bering?
6. 1960 – 70-yillar musiqashunoslik ijodi xususida gapirib bering?
7. O'zbek musiqashunoslik maktabining yirik namoyandalari.
8. Oxirgi 40 yil davomida o'zbek musiqashunoslari tomonidan yaratilgan musiqiy kitoblar.

### **Mavzu bo'yicha topshiriqlar:**

1. O'zbekiston musiqashunosligi tarixini o'rganish.
2. Musiqa risolalar yaratgan musiqashunos olimlar haqida biografik ma'lumotlar yig'ish.
- 3.O'zbekiston musiqashunosligi maktabi haqida yozma ish yozish.
4. Musiqashunos olimlar yaratgan kitoblar haqida maqolalar yozish.
5. O'zbek folklor musiqasini to'plash jarayoni va yaratilgan kitoblar xususida ma'lumotlar yig'ish.



Tavallo



H.H.Niyoziy



A. Fitrat



M.Behbudiy



A.Avloniy



S.Ayniy





V.Uspenskiy buxorolik mashhur maqom ustozlari Ota Jalol Nosirov va  
Ota G‘iyos Abdug‘aniyevlar bilan birga.



Viktor Uspenskiy Shorahim Shoumarov ijrosidagi kuyni notaga olish  
jarayonida.



N.Mironov 1929-yili Samarqand musiqa va xoreografiya ilmiy tadqiqot  
institutida o‘z hamkasblari bilan.



**Shunday ansambllardan biri.**



### **Hamza Hakimzoda Niyoziy**

“XX asr o‘zbek musiqasi tarixi” sahifalarida chuqur iz qoldirgan obro‘ - e’tiborga sazovor bo‘lgan xalqimizning sevimli bastakorlarining safida birinchilardan bo‘lib Hamza (1889-1929) yangi zamon ruhida shakllangan ijodda izlanib, yangilikka intildi. O‘zbek va boshqa xalqlarning qo‘shiqchilik an’alarini o‘rgandi.

### **To‘xtasin Jalilov**

O‘zbekiston xalq artisti, ulug‘ bastakor – sozanda, ustoz hofiz va rahbar To‘xtasin Jalilov ko‘p qirrali ijodiy faoliyati bilan XX asr o‘zbek musiqasi tarixi sahifalarida unutilmas iz qoldirdi. U juda mashaqqatli va farovon hayat va ijod yo‘lini bosib o‘tdi.



### **Yunus Rajabiy**

O‘zbekiston xalq artisti, davlat mukofotisov rindori, bastakor, sozanda, hofiz, akademik Yunus Rajabiy ko‘p qirrali ijodiy faoliyati bilan o‘zbek musiqasi tarixida yorqin iz qoldirdi.





I.Rajabov, Yu.Rajabiy va R.Rajabovlar.

### Imomjon Ikromov

O'zbekiston Xalq artisti, sozanda va bastakor Imomjon Ikromov XX asr o'zbek musiqasi tarixida chuqur iz qoldirdi. Imomjon Ikromovning bastakorlik ijodiyoti XX asrning 20-yillardan Turkiston Xalq konservatoriya-sida tahsil ko'rayotgan davrdan boshlangan.



### Komiljon Jabborov

O'zbekiston Xalq artisti, mohir sozanda, atoqli bastakor, Komiljon Jabborov o'zining betakror musiqa asarlari va nodir ijrochilik san'ati bilan Vatanimizning milliy musiqa madaniyatini rivojlantirish jarayonida xalqqa ulkan xizmat qilib, XX asr o'zbek musiqasi tarixida yorqin iz qoldirdi.



### Saidjon Kalonov

O'zbekiston xalq artisti, mohir naychi va bastakor Saidjon Kalonov XX asr o'zbek musiqasi tarixi sahifalarida yorqin iz qoldirdi. U xalqimizning mumtoz musiqiy san'ati an'analarini chuqur bilimdoni va davomchisi sifatida hamda o'ziga xos uslubi bilan turli mavzularda qo'shiq, ashula, yalla va raqs kuylar yaratib, ijrochi, xonanda, sozandalar va xalq orasida shuhrat qozondi.



### **Muxtorjon Murtazoyev**

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, O'zbekiston Bastakorlari uyushmasi a'zosi, sozanda, xonanda va bastakor Muxtorjon Murtazoyev zabardast san'atkordan biri. U turli mavzularda bastalagan rang-barang, jozibali qo'shiq, yalla va ashulalari xalqimizning sevimli xonandalarining bir necha avlodlari ijrolarida yangrab kelmoqda.



### **Muhammadjon Mirzayev**

O'zbekiston Xalq artisti, bastakor va sozanda Muhammadjon Mirzayev ajoyib, shirali qo'shiq, yalla, ashula cholg'u musiqa va raqs kuylari bilan el-yurt hurmat e'tiboriga sazovor bo'lib, XX asr o'zbek musiqasi tarixida yorqin iz qoldirdi.



### **Fahreddin Sodiqov**

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobii, O'zbekiston bastakorlar va musiqashunoslari uyushmasi a'zosi sozanda, changchi, bastakor, murabbiy - ustoz.



### **Nabijon Hasanov**

O'zbekiston Xalq artisti, mohir g'ijjakchi, sozanda va bastakor Nabijon Hasanov dirlabot qo'shiq va ashulalari bilan hamda sahna asarlariga, cholg'u ansamblariga yaratgan musiqa asarları bilan XX asr o'zbek musiqasi tarixida unutilmas iz qoldirdi.





Alisher Navoiy nomidagi DAKOBТ - Muyassar Razzoqova va  
Shukur Gafurov Donitsettining “Sevgi sharobi” operasida,  
Toshkent 2011.



“Gulsara” operasidan lavha.



“Maysaraning ishi” operasidan lavha.



Maysaraning ishi” operasidan lavha.



*O‘zbek vokal san’atining yorqin namoyandasи, an’anaviy va  
akademik vokal ijro uslubining mohir ijrochisi, Xalq artistи  
Saodat Qobulova*

Bastakorlar o'zbek milliy usullari ne-gizida vals usuliga ko'proq murojaat eta boshlaydilar. Misol tariqasida Nabijon Hasanovning "Toshkent piyolasi", "Dilrabo-dan bu chiroy" qo'shiqlarini keltirish mum-kin.

Shuningdek mazkur janr rivojida O'z-bekiston (gimn) madhiyasini (1946) yaratish yuzasidan e'lon qilingan tanlov ham ulkan ahamiyat kasb etadi. Ko'plab kompozitorlar o'z ijod namunalarini bilan ishtirok etishlariga qaramay, M.Burxonov tomonidan yaratil-gan.



*O'zbek vokal san'atining yorqin namoyandasasi, mohir xonapnda, Xalq artisti Nazira Ahmedova*



*O'zbek vokal san'atining yorqin namoyandasasi, mohir xonanda Xalq artisti Muyassar Razzoqova*



Mirsodiq Tojiyev. Atoqli o'zbek simfonist kompozitori Mirsodiq Tojiyev (1944-1996) XX asr o'zbek musiqasi tari-xida yorqin iz qoldirdi. U o'ziga xos ovozi bilan musiqani turli janr va shakllarida xilma-xil, milliy ruh bilan sug'orilgan asarlar yaratdi.

M.Tojiyev o'z faoliyati davomida 19 ta simfoniya yaratgan:

**Kompozitor Mirxalil Mahmudov**  
XX asri 70-yillar boshida musiqiy san'at dargohiga qadam qo'ygan professional kompozitorlar avlodiga mansub. 1971-yil yosh kompozitorlarning "Navo" simfoniyasi ilk marotaba ijro etildi. Ko'p qirrali kompozitorlarning ijodi faoliyatida simfonik musiqa ustuvor turadi.



Taniqli kompozitor va dirijor **Mustafo Bafoyev** musiqa ijodiyotiga XX asr 70-yillarining ikkinchi yarmida kirib keladi va eng samarali kompozitor sifatida shakllanadi. M.Bafayev musiqa ijodiyotining eng darg'a namoyandalari ijodiy an'alarini o'zlashtiradi.

1940-yillar suratga olingan "Tohir va Zuhra", "Nasriddinning sarguzashtlari" (1945, 1946, rej. N.G'aniyev), "Alisher Navoiy" (1947-yil rej. K. Ermatov) kabi filmlar o'zbek kinematografiyasining yirik yutug'i bo'ldi va ular o'zbek kinosining oltin fondidan o'rinn oldi. Musiqa kinoni yanada ta'sirli, zavqli va eng muhimi tu-shunarli hamda jozibali bo'lishiga xizmat qiladi.



"Nasriddin Buxoroda"

Ya'ni qahramonlarni ruhiy ke-chinmalarini, dramatik holatlar, ziddiyatlarni badiiy ifodalashda qo'llaniladi. Bu davrda ko'plab film musiqalari hammualliflik asosida yozila boshlandi.



50-yillarda o'zbek kinosiga U.Nazarov, Sh.Abbosov, A.Hamroyev, D.Salimov, R.Botirov, E.Eshmuhamedov, Q.Kamolova kabi rejissorlar, H.Fayziyev, D.Fatxullin, L.Travitskiy, G.Eftimovskiy singari operatorlar kirib keldi.

**"Alisher Navoiy"  
kinofilmidan**



**"Sen Yetim emassan"  
kinofilmidan**



**O'zbekiston xalq artistlari Farruh Zokirov va Botir Zokirov.**



*Ra'no Sharipova.*



«Yalla» ansamblisi (VIA) 1970-yili tashkil qilindi. 1971-yilning 9-fevralida «Yalla» vokal-cholg'u ansambl o'zining ilk konsert dasturini tomoshabinlarga havola qildi. «Yalla» ansambliri repertuarida qayta ishlangan o'zbek xalq qo'shig'i «Yallama-yorim».



*Kozim Qayumov.* «Navo» estrada ansamblining yana bir yakkaxoni O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Kozim Qayumov o'ziga xos, betakror, shirali ovozi bilan el-yurtga tanildi.

**Nasiba Abdullayeva.** 1978-yili Samarqand shahrida «Zarafshon» havaskor estrada ansamblida estrada xonandaligi faoliyatini boshlagan. 1979-yili «Samarqand» nomli professional estrada ansamblı bunyodga keldi. Mazkur ansambl 1980-yili Samarqand viloyat filarmoniyasiga 1994-yildan buyon ansambl Toshkentda faoliyat yutirmoqda.



**Yulduz Usmonova.** XX asrning 90-yillarida o‘zbek estrada san’ati olamiga xonanda, O‘zbekiston xalq artisti Yulduz Usmonova o‘zining keng nafasi, noyob ovozi va birgina o‘ziga xos ijrochilik yo‘li bilan kirib keldi.

Shuning uchun bo‘lsa kerak, uning turli mavzularda ilk bor yaratgan «Mayda-mayda», «Hamroz» kabi qo‘shiqlari bilan shoir I.Jiyanov so‘zlariga basta-lagan «Tanhoman», «Nilufar gulim» kabi qo‘shiqlari xalq orasida keng ommalashdi.



### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Музыкальная культура Узбекистана. –Т.: 1955.
2. История узбекской советской музыки. –Т.: 1972.
3. Вопросы музыкальной культуры Узбекистана. –Т.: 1961., 1969.
4. Проблемы музыкальной науки Узбекистана. –Т.: 1973.
5. Теоретические проблемы узбекской музыки. –Т.: 1968.
6. Вопросы музыказнания. –Т.: вып-1, 1969., вып. 2 1971.
7. Музыкальная критика в Узбекистане. –Т.: 1984.

## MASHQLAR TO‘PLAMI

O‘quvchilarning fan bo‘yicha va o‘qish davrida, auditoriya va auditoriyadan tashqari amaliy mashg‘ulotlarda hamda mustaqil o‘zlashtirish davrida tinglab o‘zlashtirishlari uchun mo‘ljallangan o‘zbek kompozitorlari asarlaridan tuzilgan musiqiy illyustratsiya

1. Abdullayev R. Balet – oratoriya, «Quyoshga ta’zim», uchta fortepiano konserti.
2. Akbarov Ik. «Orzu», «Layli va Majnun» baletlari; «Samarqand hikoyalari»; programmali syuiti, “Momo yer” musiqali dramasi.
3. Latif-Zade A. Divertisment «Nashestvie» kamer orkestr uchun; balet syuitasi.
4. Ashrafiy M. «Dilarom» operasi; «Sevgi tumorisi», «Timur Malik», «Matonat», «Sevgi va qilich» baletlari; to‘rtta simfonik syuita.
5. Bafoyev M. Tenor va orkestr uchun «Maqom simfoniysi»; balet-oratoriya «Ритуалы зороастрыйцев»; «Священная Бухара» musiqali teleoperasi; «Ulug‘bek burji», «Nodira», «Цвет из прошлого», «Содийские фрески» simfonik orkestr uchun, ovoz va kamer orkestr uchun «Najatya», «Al-Farg‘oniy» operasi.
6. Burxanov M. «O‘zbekiston qizi» syuitasi, xor a’kapellalari.
7. Vasilenko S.A. Ekzotik syuita; balet «Noyya».
8. Gienko G. O‘zbek raqs syuitasi; simfonik raqs «Syuzane»; «Xorazmcha syuita»; syuita «O‘zbekistonning lirik manzaralari»; ovoz va simfonik orkestra uchun syuita (so‘zsiz); «Guldasta» syuitasi; fantaziyalar.
9. Glier R.M. «Shoxsanam» va «Layli va Majnun» operalarida raqs musiqasi, «Gulsara» musiqali dramasi; ovoz va orkestr uchun konsert (2 q.);
10. Deshovov V. Samarkandcha syuita.
11. Zakirov D. Simfonik syuita; «Lirik poema»; balet «Oynisa».
12. Zakirov N. Simfoniya – konstert «Xatira»; baleti «Manqurt», «Orol fojiasi», «Amir Toshkentda».
13. Zeydman B. Balet «Kulayotgan odam»; simfonik syuiti; «Oltin kalit» bolalar uchun balet; cholg‘u konsert.

14. Zolotaryov V.A. Uzbekcha rapsodiya; o'zbek xalq mavzulariga syuita.
15. Ippolitov-Ivanov. Syuita «O'zbekistonning musiqiy manzaralari».
16. Ikramov A. Opera «Buyuk Temur».
17. Kozlovskiy A. Syuita «Lola», «Farg'onacha syuita», «Tanooor», «Hosil bayrami», o'zbekcha raqs syuitasi; Qoraqalpoq mavzulariga syuita; nay va fortepiano uchun pyesa «Yer-yer»; qo'shnay va fortepiano uchun «Tursunoy» pyesasi.
18. Qurbonov T. «Buzruk» maqomining simfonik orkestr uchun qayta ishlangan - «Saraxbori Buzruk» asari; XChO uchun rapsodiyalar; «Shiroq», «Sherzod vai Parizod» baletlar.
19. Musayev U. Balet «Afsonalar vodiysi», «To'maris».
21. Mushel G. Balet «Raqqosa», «Kashmir afsonasi», «Baxt guli», «Samarcand afsonasi».
22. Raximov X. Rubob va XChO uchun pyesa «Navro'z»; XChO uchun syuita; opera «Alpomish» (raqs sahnasi); konsertino «Shum bola».
- 23 Sabitov G. Simfonik syuita; rubob va fortepiano uchun "Raqs".
26. Tal' F. Balet «Shoxida».
27. Tajiboyev M. Simfonik asarlari.

## O‘zbek musiqasi tarixi fani bo‘yicha test savollari

| T/p | Test topshirig‘i   |
|-----|--|
| 1   | <p><b>“Zaynab va Omon” operasining matn muallifi:</b></p> <p>A. Hamid Olimjon<br/>B. Alisher Navoiy<br/>C. Hamza Hakimzoda Niyoziy<br/>D. Sobir Abdulla</p>  |
| 2   | <p><b>“Maysaraning ishi” operasida ishtirok etuvchi obrazlar qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan:</b></p> <p>A. Mullado‘st, Oyxon, Shirin, Anor<br/>B. Mullado‘st, Oyxon, Farhod, Shokir ota<br/>C. Omon, Gulsara, Zaynab, Mullado‘st<br/>D. Oyxon, Mullado‘st, Hidoyatxon, Maysara</p>                   |
| 3   | <p><b>Georgiy Mushel qalamiga mansub baletlarni aniqlang:</b></p> <p>A. “Layli va Majnun”, “Orzu”, “Oynisa”<br/>B. “Raqqosa”, “Kashmir afsonasi”, “Samarqand afsonasi”<br/>C. “Suxayl va Mehri”, “Raqqosa”, “Oynisa”<br/>D. “Orzu”, “Sevgi tumor”, “Tanovar”</p>   |
| 4   | <p><b>Nechanchi yildan o‘zbek radiosи qoshida cholg‘ular ansambli o‘z faoliyatini boshlagan va ansamblga kim rahbarlik qilgan:</b></p> <p>A. 1920 y. To‘xtasin Jalilov<br/>B. 1927 y. Muhiddin Qoriyoqubov<br/>C. 1927 y. Yunus Rajabiy<br/>D. 1924 y. Hamza Hakimzoda Niyoziy</p>                       |
| 5   | <p><b>Nurxon Yo‘ldoshxo‘jayevaning hayotidagi kasbi bevosita qaysi asarda to‘g‘ri ko‘rsatilgan:</b></p> <p>A. “Nurxon” musiqali dramasi – T.Jalilov va G.Sobitov<br/>B. “Tanovar” baleti – A.Kozlovskiy<br/>C. “Nurxon” simfonik poemasi – M.Leviyev<br/>D. “O‘zbekiston xotin-qizlari” – I.Hamroyev</p> |
| 6   | <p><b>Manas Leviyevning “Oltin ko‘l” asari qaysi janrga taalluqli:</b></p> <p>A. Balet<br/>B. Musiqali drama<br/>C. Musiqali komediya<br/>D. Opera</p>   |

|    |  |
|----|--|
| 7  | <b>Toshkent davlat konservatoriysi nechanchi yilda tashkil etilgan:</b><br>A. 1930-yil<br>B. 1936-yil<br>C. 1918-yil<br>D. 1935-yil  |
| 8  | <b>“Momo yer” musiqali dramasi qaysi adib asosiда yaratilgan:</b><br>A. M. Auezov<br>B. Ch. Aytmatov<br>C. T.Xaipberganov<br>D. B.Boyseitov  |
| 9  | <b>Ikkinchi jahon urushi yillari Toshkentga qaysi konservatoriya evakuatsiya etilgan:</b><br>A. Leningrad konservatoriyasining o‘qituvchilari<br>B. Moskva konservatoriyasining o‘qituvchilari<br>C. Kiyev konservatoriyasining o‘qituvchilari<br>D. Novosibirsk konservatoriyasining o‘qituvchilari |
| 10 | <b>20 dan ortiq simfoniyalar yaratgan o‘zbek kompozitori:</b><br>A. Ikrom Akbarov<br>B. Muxtor Ashrafiy<br>C. To‘lqin Qurbanov<br>D. Mirsodiq Tojiyev  |
| 11 | <b>“Zaynab va Omon” operasini yaratishda qatnashgan bastakor:</b><br>A. To‘xtasin Jalilov<br>B. Faxriddin Sodiqov<br>C. Yunus Rajabiy<br>D. Komiljon Jabborov  |
| 12 | <b>“Maqomlar masalasiga doir” monografiyasi muallifi:</b><br>A. Fayzulla Karomatov<br>B. Tavur Jumayev<br>C. Otanazar Matyoqubov<br>D. Is’hoq Rajabov  |
| 13 | <b>O‘zbek musiqa ijodkori qanday ataladi:</b><br>A. Bastakor<br>B. Xonanda<br>C. Sozanda<br>D. Kompozitor  |

|    |  |
|----|--|
| 14 | <b>Markaziy Osiyoda bastakorlik ijodining ilk davri:</b><br>A. Miloddan avval<br>B. IX-X asrlar<br>C. Milodiy VI-VII asrlar<br>D. X-XI asrlar  |
| 15 | <b>Turkiston xalq konservatoriysi qaysi yili va qayerda ochilgan:</b><br>A. Toshkent, 1918<br>B. Xiva, 1912<br>C. Buxoro, 1920<br>D. Samarqand, 1919   |
| 16 | <b>“Kolizey” teatrida (1892) sahnalashtirilgan “Farhod va Shirin” spektakliga musiqalarni kim tanlagan:</b><br>A. To‘xtasin Jalilov<br>B. Mulla To‘ychi Toshmuhammedov<br>C. Xoji Abdulaziz Abdurasulov<br>D. Yunus Rajabiy      |
| 17 | <b>“Halima” spektakli kim tomonidan musiqalashtirilgan:</b><br>A. Mannon Uyg‘ur<br>B. Ziyo Said<br>C. Sodirxon hofiz Bobosharifov<br>D. G‘ulom Zafariy   |
| 18 | <b>XX asrda Borbad ijodini tahlildan tadqiq etgan musiqashunos olimlar:</b><br>A. Uspenskiy, Veksler, Pekker<br>B. I.Rajabov, O.Matyoqubov, T.G‘ofurbekov<br>C. O.Azimova, F.Muxtorova, Z.Karimova<br>D. Hamza Hakimzoda Niyoziy |
| 19 | <b>Bastakorlik ijodiyotining 2-yetuk pallası:</b><br>A. Somoniylar davri<br>B. Qoraxoniylar davri<br>C. A.Temur va Temuriylar sulolasi<br>D. Navoiy davri  |
| 20 | <b>“Naqshi Mullo” (yoinki “Naqsh imoma”) kuyining muallifi:</b><br>A. Abdurahmon Jomiy<br>B. Abu Nasr Forobi<br>C. Abu Ali ibn Sino<br>D. Borbad   |

|    |  |
|----|--|
| 21 | Xalqaro simfonik musiqa festivali qayerda, nechanchi yildan beri o'tkazilib kelinadi:<br>A. Andijon, 1995-yildan<br>B. Toshkent, 1998-yildan<br>C. Farg'ona, 1999-yildan<br>D. Xiva, 1996-yildan   |
| 22 | "Ilhom-XX" Xalqaro zamonaviy musiqa festivali nechanchi yildan e'tiboran o'tkazila boshlangan:<br>A. 1999-yildan<br>B. 1996-yildan<br>C. 1995-yildan<br>D. 1997-yildan   |
| 23 | Yuqori malakali zamonaviy kadrlar tayyorlovchi maxsus musiqa oliygohi:<br>A. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti<br>B. O'zbekiston davlat konservatoriysi<br>C. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti<br>D. O'zbekiston milliy universiteti |
| 24 | "Sug'd elining qoploni" operasining libretto muallifi:<br>A. Sobir Abdulla<br>B. Botir Zokirov<br>C. Komil Yashin<br>D. Turob To'la  |
| 25 | "Sug'd elining qoploni" operasini yaratgan kompozitor:<br>A. Ikrom Akbarov<br>B. Muxtor Ashrafiy<br>C. Sobir Boboyev<br>D. Mustafo Bafoyev   |
| 26 | "Tanovor" baleti muallifi:<br>A. Georgiy Mushel<br>B. Fikret Amirov<br>C. Aleksey Kozlovskiy<br>E. Muxtor Ashrafiy   |
| 27 | "Vatan ishqisi" musiqali dramasining musiqa muallifi:<br>A. Habibullo Rahimov<br>B. To'lqin Toshmatov<br>C. Nadim Norxo'jayev<br>D. Sobir Boboyev  |

|    |  |
|----|--|
| 28 | <b>“Fotima va Zuhra” musiqali dramasi qaysi kompozitor tomonidan yaratilgan:</b><br>A. Farhod Alimov<br>B. Alisher Rasulov<br>C. Avaz Mansurov<br>D. Sobir Karimxozi   |
| 29 | <b>Muhiddin Qoriyoqubov va Tamaraxonim 1925-yili qaysi Yevropa mamlakatlarida gastrol safarlarida bo‘lishgan:</b><br>A. Italiya va Ruminiya<br>B. AQSH va Buyuk Britaniya<br>C. Fransiya va Germaniya<br>D. Bolgariya va Vengriya      |
| 30 | <b>1935-yili qaysi shaharda o‘tkazilgan Xalqaro festivalda o‘zbek san’atkorlaridan 4 tasi oltin medalga sazovor bo‘lishgan:</b><br>A. Parij<br>B. Rim<br>C. London<br>D. Afina   |
| 31 | <b>1940-yili AQSHda qaysi kompozitorning o‘zbek kuylari asosidagi partiturasi ijro etilgan:</b><br>A. R.Glier, “Farg‘ onacha bayram”<br>B. G.Mushel, 1-simfoniyasi<br>C. A.Kozlovskiy, “Lola” syuitasi<br>D. M.Ashrafiy, 1-simfoniyasi |
| 32 | <b>Dmitriy Shostakovich yaratgan qaysi simfoniyasining jahon premyerasi Toshkentda bo‘lgan:</b><br>A. Uchinchi<br>B. Birinchi<br>C. Yettinchi<br>D. O’ninchi   |
| 33 | <b>Bastakorlikda ham nom chiqargan O‘zbek shoirlari:</b><br>A. Lutfiy va Xorazmiy<br>B. Muqimiy va Furqat<br>C. A.Navoiy va Z.Bobur<br>D. Sobir Abdulla va Mirtemir  |
| 34 | <b>40 ga yaqin musiqiy-sahnaviy asarlarga qo‘l urgan bastakor:</b><br>A. To‘xtasin Jalilov   |

|    |   |
|----|---|
|    | B. Yunus Rajabiy<br>C. G'anjon Toshmatov<br>D. Saidjon Kalonov  |
| 35 | <b>“Farg‘ona tong otguncha” ashulasi muallifi:</b><br>A. Ne’matjon Qulabdullayev<br>B. Tavakkal Qodirov<br>C. Orif Alimahsumov<br>D. Muxtorjon Murtazoyev   |
| 36 | <b>“Uchrashuv”, “Holim so‘rma” asarlari muallifi:</b><br>A. Ahmadjon Dadayev<br>B. O‘lmas Rasulov<br>C. Abduhoshim Ismoilov<br>D. Anvar Sanayev   |
| 37 | <b>Nechanchi yildan boshlab va qaysi shaharda “Sharq taronalari” Xalqaro musiqa festivali o‘tkazilmoqda:</b><br>A. Buxoro, 1992-yildan<br>B. Xiva, 2005-yildan<br>C. Samarqand, 1997-yildan<br>D. Toshkent, 2000-yildan |
| 38 | <b>O‘zbek xalq kuylarini ilk bor nashr ettirgan etnograf olim:</b><br>A. A.Eyxnor<br>B. I.V.Dobrovolskiy<br>C. A.V.Zatayevich<br>D. K.V.Kvitko  |
| 39 | <b>O‘zbek xalq qo‘shiqlarini yuqori baholagan atoqli rus musiqashunosi:</b><br>A. B.V.Asafyev<br>B. A.D.Kastalskiy<br>C. I.I.Sollertinskiy<br>D. A.F.Kremlyov   |
| 40 | <b>“Navoiyning olti g‘azali” asarini yaratgan kompozitor:</b><br>A. D.Zokirov<br>B. M.Burxonov<br>C. R.Glier<br>D. V.A.Zolotaryov   |
| 41 | <b>Ko‘p qismli turkumlar (“Miskin I-V”) yaratish an’anasini tiklagan bastakor:</b><br>A. Muxtorjon Murtazoyev   |

|    |   |
|----|---|
|    | B. Rasulqori Mamadaliyev<br>C. Orifxon Hotamov<br>D. Fattoxon Mamadaliyev   |
| 42 | <b>“Alisher Navoiy” operasi muallifi:</b><br>A. I.Akbarov<br>B. M.Burhonov<br>C. M.Leviyev<br>D. D.Zokirov  |
| 43 | <b>“Uyg‘onish” operasi muallifi:</b><br>A. O.Xalimov<br>B. N.Zokirov<br>C. K.Abdullayev<br>D. D.Zokirov   |
| 44 | <b>San’at sohalari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi qaysi muassasada o‘tkaziladi:</b><br>A. O‘zbekiston davlat konservatoriysi<br>B. San’atshunoslik ilmiy tadqiqot instituti<br>C. Toshkent davlat sharqshunoslik instituti<br>D. O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat intituti |
| 45 | <b>“Tohir va Zuhra” operasini yaratishda qatnashgan bastakor:</b><br>A. Tavakkal Qodirov<br>B. Imomjon Ikromov<br>C. To‘xtasin Jalilov<br>D. Saidjon Kalonov  |
| 46 | <b>5-simfoniya (rapsodiya)sida M.Shteynberg qaysi bastakorlarning kuylaridan foydalangan:</b><br>A. N.Hasanov va M.Niyozov<br>B. I.Ikromov va y.Rajabiy<br>C. K.Jabborov va S.Kalonov<br>D. F.Sodiqov va M.Mirzayev   |
| 47 | <b>Qaysi ijodkorlar tomonidan “Nurxon” musiqali dramasi yaratilgan:</b><br>A. T.Jalilov, G.Sobitov<br>B. T.Sodiqov, B.Zeydman<br>C. Yu.Rajabiy, B.Giyenko<br>D. D.Zokirov, Vasilenko  |

|    |  |
|----|--|
| 48 | <p><b>G.Mushel va V.Uspenskiy hamkorligida yaratilgan operani belgilang:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>A. “Farhod va Shirin”</li> <li>B. “Gulsara”</li> <li>C. “Layli va Majnun”</li> <li>D. “Tohir va Zuhra”</li> </ul>  |
| 49 | <p><b>Keltirilgan baletlarning M.Ashrafiyga tegishlisini aniqlang:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>A. “Suhayl va Mehri”, “Orzu”, “Gulnora”</li> <li>B. “Sevgi tumorı “Temurmalik”, “Muhabbat va qilich”, “Matonat”</li> <li>C. “Oynisa”, “Layli va Majnun”, “Navro‘z”</li> <li>D. “To‘maris”, “Quyoshga ta’zim”, “Tanovar”</li> </ul> |
| 50 | <p><b>S.Jalil va Yu.Rajabiy hamkorligidagi musiqiy dramani aniqlang:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>A. “Nurxon”</li> <li>B. “Ravshan va Zulkumor”</li> <li>C. “Farkod va Shirin”</li> <li>D. “Navoiy Astrobodda”</li> </ul>  |
| 51 | <p><b>Abdurauf Fitrat qalamiga mansub milliy musiqaga oid asarni ko‘rsating:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>A. “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar”</li> <li>B. “Qizil gul, pushti gul, safsar gul, oq gul”</li> <li>C. “Maqom asoslari”</li> <li>D. “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi”</li> </ul>                        |
| 52 | <p><b>Samarqand davlat musiqa va xoregrafiya ilmiy tadqiqot instituti nechanchi yili tashkil etilgan:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>A. 1928-yil</li> <li>B. 1918-yil</li> <li>C. 1936-yil</li> <li>D. 1921-yil</li> </ul>   |
| 53 | <p><b>Abdurauf Fitrat asos solgan “Sharq musiqa maktabi” qayerda ochilgan:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>A. Buxoroda</li> <li>B. Samarqandda</li> <li>C. Toshkentda</li> <li>D. Farg‘onada</li> </ul>   |
| 54 | <p><b>Toshkent shahridagi o‘zbek davlat opera va balet teatri qachondan faoliyat yurita boshlangan:</b></p>  |

|    |   |
|----|---|
|    | A. 1928-yildan<br>B. 1929-yildan<br>C. 1939-yildan<br>D. 1944-yildan  |
| 55 | <b>Muqimiyl nomidagi musiqiy teatr qachondan faoliyat yurita boshlangan:</b><br>A. 1928-yildan<br>B. 1929-yildan<br>C. 1939-yildan<br>D. 1944-yildan  |
| 56 | <b>O'zbekiston kompozitorlar uyushmasi qachon tashkil etilgan:</b><br>A. 1935-yili<br>B. 1936-yili<br>C. 1936-yili<br>D. 1938-yili  |
| 57 | <b>"Navo" simfoniyasining muallifini aniqlang:</b><br>A. To'lqin Qurbonov<br>B. Mirxalil Mahmudov<br>C. Feliks Yanov-Yanovskiy<br>D. Boris Giyenko  |
| 58 | <b>Birinchi o'zbek romansi qaysi, muallifini ko'rsating:</b><br>A. Mutavakkil Burxonov – "Ishqida"<br>B. Solomon Yudakov – "Basandast"<br>C. Ikrom Akbarov – "Gazli"<br>D. Doni Zokirov – "Ko'rmadim" |
| 59 | <b>O'zbekistonda xor janrining asoschisi kim:</b><br>A. Sulaymon Yudakov<br>B. Doni Zokirov<br>C. Mutavakkil Burxonov<br>D. Botir Umidjonov   |
| 60 | <b>Faxrod Alimovning "Shodiyona" va "Tabriknama" uvertyuralari qaysi orkestr uchun yozilgan:</b><br>A. Simfonik<br>B. Xalq cholg'ulari<br>C. Estrada<br>D. Kamer                                      |

|    |   |    |   |
|----|---|----|---|
| 1  | A | 31 | A |
| 2  | D | 32 | C |
| 3  | B | 33 | C |
| 4  | C | 34 | A |
| 5  | A | 35 | D |
| 6  | C | 36 | C |
| 7  | B | 37 | C |
| 8  | B | 38 | A |
| 9  | A | 39 | A |
| 10 | D | 40 | D |
| 11 | C | 41 | D |
| 12 | D | 42 | B |
| 13 | A | 43 | B |
| 14 | C | 44 | B |
| 15 | A | 45 | C |
| 16 | B | 46 | C |
| 17 | D | 47 | A |
| 18 | B | 48 | A |
| 19 | C | 49 | B |
| 20 | A | 50 | D |
| 21 | B | 51 | D |
| 22 | C | 52 | A |
| 23 | B | 53 | A |
| 24 | B | 54 | C |
| 25 | A | 55 | C |
| 26 | C | 56 | D |
| 27 | D | 57 | B |
| 28 | A | 58 | A |
| 29 | C | 59 | C |
| 30 | C | 60 | B |

## GLOSSARIYLAR

### MUSIQIY ATAMALAR LUG'ATI

Ushbu musiqiy atamalar ma'ruzalar va amaliy mashg'ulotlarda keltirilgan atamalarning qisqacha izohidir.

Mazkur qo'llanma nafaqat oliv va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi musiqiy san'ati ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari talabalariga, shuningdek, professor-o'qituvchilar hamda keng jamoatchilik uchun ham foydalidir.

**AVJ** – musiqa bayoni va rivojida eng yuqori kul'minatsion nuqta.

**A CAPPELLA** (a kapella, ital. Alla cappella – kapella uslubida) – cholg'u asboblar jo'rligisiz xor bo'lib kuylash.

**AKKOMPANEMENT** (frans. Accompagnement - jo'rlik) – musiqiy asarga birorta musiqa asbobi yoki orkestr (ansambl) yordamida jo'r bo'lish.

**AKKORD** (ital. Accordo - muvofiqlashtiraman) – balandligi turlicha uch va undan ortiq tovushlarning qo'shib, yaxlit holda yangrashi.

**BASSO OSTINATO** (ital. Basso ostinato – tayanch bas) – musiqa asarida to'xtovsiz takrorlanuvchi bas ovozidagi kuy tuzilmasi.

**VOKALIZ** (frans. Vocalize, lot. Vokalis – unli tovush) – 1)

So'zsiz, unli tovushlarda kuylash uslubi. 2) Xor uchun maxsus asar.

**GARMONIYA** (lot. Harmonia – bog'lanish, hamohanglik, ohangdoshlik) – musiqaning ifoda vositalaridan bo'lib, tonlarning ohangdoshlikka qonuniy birlashishi va ohangdoshliklarni ketma-ket bog'lanib kelishiga asoslanadi.

**GIMN** (yunon. hymnos – madhiya) – tantanali qo'shiq, madhiya. Gimnning davlat, inqilobiy, harbiy, diniy, biror bir voqeaga bag'ishlangan turlari bor. Davlat gimni mamlakatning musiqiy nishonidir.

**DINAMIKA** (yunon. Dinamis - kuch) – tovushlarning sadolanish kuchi bilan bog'liq jarayon majmui. Musiqaning eng muhim ifoda vositalaridan biri.

**JANR** (frants. Genre, lot. Genus – xil, tur) – o‘ziga xos xususiyatlar majmui bilan belgilanadigan musiqa asarlari turlari.

**IMITATSIYA** (lot. imitato - taqlid, ergashish) – ko‘p ovozli musiqa uslubi tamoyillaridan. Bir ovozda sadolangan kuy, shu zahotiyoy u yoki bu darajadagi aniqlik bilan takrorlanadi.

**KANTATA** (ital. Cantare - kuylash) – tantanavor yoxud lirik-epik tabiatga ega, yakkaxon, xor va orkestr uchun yozilgan vokal-cholg‘u asar.

**KONCERT** (lot. soncerto - musobaqalashaman) – 1) Muayyan dastur bo‘yicha ijro etiladigan musiqiy asarlarning omma oldidagi ijrosi. 2) Yakkaxon yoki yakkanavoz va orkestr uchun yozilgan yirik shaklli, odatda virtuoz xarakterdagi musiqiy asar. 3) Yakkaxon ovozlar, xor, cholg‘u ansambl (ba’zan organ) mutanosibligiga asoslangan polifonik vokal yoki vokal – cholg‘u musiqa shakli.

**ORATORIYA** (ital. Oratorio, lot. oratorium, oro – so‘zlayman, o‘tinaman so‘zidan) – yakkaxonandalar, xor va orkestr ba’zan mutoalachi uchun yaratilgan yirik musiqa asari, odatda konsert ijrosi uchun mo‘ljallanadi, biroq aralash – sahnalashtiriladigan turlari ham mavjud. Vokal ansambl, ariya, rechitativ, xorlar, tugal orkestr nomerlaridan tuziladi.

**ORGAN PUNKTI**, pedal – ko‘p ovozli musiqada bas tovushining uzlusiz cho‘zilib turishi yoki muayyan balandlikdagi tovushning takrorlanishi.

**PARTITURA** (ital. Partitura, lot. partio – bo‘laman, taqsimlayman) – xor, ansambl yoki orkestrga mo‘ljallangan musiqa asarining to‘liq nota yozuvi. Unda alohida ovozlar, barcha cholg‘u asboblar partiyalari bir butun birlashtiriladi.

**POLIFONIYA** (yunon. poli – ko‘p, phone - tovush) – ikki va undan ortiq kuychan ovozlarni bir vaqtida qo‘shilishi va shu asnoda rivojlanishiga asoslangan ko‘povozlik turi.

**REPERTUAR** (lot. repertorium, fr. Repertoire - ro‘yxat) – turli konsertlarda ijro etiladigan yoki musiqiy ta’lim jarayonida o‘rganiladigan asarlar majmui.

**RECHITATIV** (it. resistare – ovoz chiqarib o‘qish, deklamatsiya qilmoq) – vokal musiqa turi, intonatsiya va ritm jihatidan oddiy yoki deklamatsiyali bo‘lib, so‘zlarni qisqa, odatda nutqiy ohanglar talqin etadi.

**SYUITA** (frans. Suita – qator, tizma) – bir necha mustaqil, odatda o‘zaro kontrast qismlardan tarkib topgan umumiyl badiiy g‘oya bilan birlashgan, aksariyat hollarda turli xalqlar raqslariga asoslangan turkumli musiqiy shakl.

**TEMBR** (frans. Timbre – tamg‘a, ajratish belgisi) – tovush tusi, turli cholg‘u asboblar yoki turli ovozlarda ijro etilgan bir xil balandlikdagi tovushlarni farqlash imkonini beruvchi sifat.

**UNISON** (ital. unisono, lot. unis – bir, sonus – tovush so‘zidan) – 1) Bir xil balandlikdagi ikki yoki bir necha tovushlarning birdan yangrashi. 2) Biror kuyni ovozlar yoki cholg‘u asboblarda prima va oktava tarzida ijro etish.

**QASIDA** (yunon. ode - qo‘shiq) – biror bir voqelik yoki shaxsni madh etuvchi tantanavor lirik yoki o‘zga tarkib uchun yozilgan asar.

**QO‘SHIQ** – vokal musiqaning keng tarqalgan janri, unda musiqiy-she’riy mazmun uyg‘unlashadi. Qo‘shiq she’rlari bir necha bandli va odatda naqoratli bo‘ladi. Qo‘shiq kuyi xalqqa, bastakor yoinki kompozitorlarga mansub bo‘lib, vatamparvarlik, marosim, mehnat, ishqiy-lirik, qahramonlik mavzularini madh etadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. «ISTORIYA UZBEKSKOY MUZIKI» UCH TOMDAN IBORAT, G‘.G‘ulom nashriyoti 1- tom 1972, 2-tom 1973, 3- tom 1991yy.
2. «Композиторы и музыковеды Узбекистана», Тузувчи Т.Э.Соломонова. Китоб ўзбек ва рус тилларида –Т.,1981.
3. «Композиторы и музыковеды Узбекистана», А.Джаббаров, Т.Соломонова. Китоб рус тилида –Т.: Г.Фулом, 1975.
4. Т.А.Головянтс, Э.С.Меек «Композиторы и музыковеды Узбекистана» Справочник, –Т.: «Катартол-Камолот», 1999.
5. «Музыкальная культура Узбекской ССР», –М.: «Музыка», 1981.
6. A.Jabborov «Musiqali drama va komediya janrlari O‘zbekiston kompozitorlarining ijodiyotida». –Т.: G‘.G‘ulom, 2000 y.
7. Ян Пеккер «Узбекская опера». –М.: «Советский композитор», 1984.

### **Qo‘sishimcha adabiyot**

1. «Вопросы музыкальной культуры Узбекистана». –Т., 1961.,1969.
2. Н. Янов-Яновская «Музыка узбекского кино», –Т., 1969.
3. Н. Янов-Яновская «Узбекская симфоническая музыка», –Т., 1979.
4. «Проблемы музыкальной науки Узбекистана», –Т., 1973.
5. «Вопросы истории и теории Узбекской музыки», –Т., 1976.
6. «История и современность». –М., 1972.
7. «Узбекская музыка на современном этапе». –Т., 1977.
8. «Теоретические проблемы Узбекской музыки». –Т., 1968.

9. «Музыкальное исполнительство в Узбекистане». –Т., 1985.
10. Ян Пеккер «В.А. Успенский». –Т., 1959.
11. Ян Пеккер «Г. Мушель», –М., 1966.
12. «Вопросы музыковедения», выпуск – 1, 1969., выпуск – 2; –Т., 1971.
13. Т. Вызго, А.И. Петросянц «Узбекский оркестр народных инструментов». –Т., 1962.
14. Г. Кузнецова, Ф. Содыков «Государственный оркестр народных инструментов Узбекистана имени П. Джалилова». –Т., 1990.
15. Юлдашбаева Т.А. «Мастера узбекской оперной сцены», Т., 1985.
16. Хошимов А.А. «Фортепианная музыка для детей в творчестве композиторов Узбекистана», Т., 1978.
17. Вохидов А.А. «Фортепианное искусство и фольклор». –Т., 1988.
18. Гафурбеков Т. «Творческие ресурсы национальной мелодии и их преломление в узбекской советской музыке». –Т., 1987.
19. Галовянц Т.А. «Камерно-инструментальная ансамблевая музыка Узбекистана». –Т., 1990.
20. «История вокального и хорового исполнительства музыки Узбекистана». – Т., 1991.
21. A.X.Xakimova «Xor akapella». –Т., 1992.
22. A.Odilov «O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi». –Т., 1995.
23. «Музыкальная критика в Узбекистане». –Т., 1984.
24. Кадыров Н.А. «Тематизм и форма в симфонической музыке Узбекистана». –Т., 1989.
25. Кари-Якубова Э. «Мухитдин Кари-Якубов». –Т., 1968.
26. Акбаров И. «Юнус Раджабий». –М., 1982.
27. M.Ashrafiy «Yunus Rajabiy». –Т., 1980.
28. Вохидов С. «Узбекская советская песня». –Т., 1976.

29. A.Djabbarov «Manas Leviev». –Т., 1986.
30. Плунгян В. «Сулайман Юдаков». –Т., 1979.
31. Н.Янов-Яновская «Икрам Акбаров». Т., 1990.
32. Т.Вызго «Алексей Козловский». –М., 1966.
33. Ил.Акбаров «Тұхтасин Жалилов». –Т., 1979.
34. М.Ковбас «Елена Романовская». –Т., 1982.
35. М.Ахмедов «Юнус Ражабий». –Т., 1967.
36. В.Плунгян, И.Галушенко «Тухтасин Гафурбеков» –Т., 1998.
37. Н.Янов-Яновская «Мутал Бурханов», Т., 1999.
38. Ergasheva Ch. “Bastakorlik ijodiyotida nazira. // Guliston. Ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-badiiy, madaniy-ma'rifiy jurnal. – Toshkent, 2010/1. 37-b.
39. Ergasheva Ch. “Bastakorlik an'analari kesimida Imomjon Ikromov ijodi”. // “Barkamol avlod shakllanishida san'atning ahamiyati” mavzuidagi ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. – Toshkent, 2010. 46-49 bet.

## MUNDARIJA

|  |     |
|--|-----|
| Kirish .....   | 3   |
| O'zbekiston musiqa madaniyati va san'atining asosiy xususiyatlari..... | 9   |
| XX asr boshlarida o'zbek musiqasi.....                                 | 14  |
| XX asrning 20 – 40-yillarida madaniy - musiqiy hayot.....              | 23  |
| Ikkinchи jahon urushi yillarda musiqiy hayot .....                     | 50  |
| XX asrning 50-80 yillarda musiqiy hayot .....                          | 58  |
| Musiqali teatr.....  | 63  |
| O'zbek musiqali drama va komediysi XX asrning 50 – 90-yillarida .....  | 72  |
| O'zbek operasi .....   | 80  |
| Balet .....  | 97  |
| Vokal musiqa.....  | 102 |
| Cholg'u musiqasi.....  | 110 |
| Kino musiqa.....   | 140 |
| O'zbek estrada musiqasi.....   | 147 |
| O'zbekiston musiqashunosligi.....                                      | 162 |
| Mashqlar to'plami.....   | 170 |
| Glossariylar musiqiy atamalar lug'ati.....                             | 182 |
| Foydalanimagan adabiyotlar.....  | 185 |

## СОДЕРЖАНИЕ

|  |     |
|--|-----|
| Введение .....   | 1   |
| Главные особенности узбекской музыкальной культуры и искусства ..... | 9   |
| Узбекская музыка в начале XX века.....                               | 14  |
| Музыкальная жизнь 20 – 40 годов XX века.....                         | 23  |
| Музыкальная жизнь в годы второй мировой войны .....                  | 50  |
| Музыкальная жизнь 50-80 годов XX века .....                          | 58  |
| Музыкальный театр.....   | 63  |
| Узбекская музыкальная драма и комедия 50 – 90 годов XX века .....    | 72  |
| Узбекская опера .....  | 80  |
| Балетное искусство .....   | 97  |
| Вокальная музыка.....  | 102 |
| Инструментальная музыка .....  | 110 |
| Кино музыка .....  | 140 |
| Узбекская эстрадная музыка .....                                     | 147 |
| Музыковедение Узбекистана.....                                       | 162 |
| Сборник упражнений .....   | 170 |
| Глоссарий. Словарь музыкальных терминов .....                        | 182 |
| Литературы .....   | 185 |